E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004

ISSN 2181-6875
9 772181 687004

@buxdu_uz @buxdu1 @buxdu1 www.buxdu.uz

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University
10(3)/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI

10(3)/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2025, № 10, oktabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo‘yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo‘yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo‘yicha, **tarix** fanlari bo‘yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan. Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti
Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bosh muharrir o‘rinbosari: Samiyev Kamoliddin A’zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent
Mas’ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)
Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)
Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)
Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)
Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)
Mo‘minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi (akademigi)
Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bo‘riyev Sulaymon Bo‘riyevich, biologiya fanlari doktori, professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor
Murodov G‘ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor
To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor
Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor
Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bekova Nazora Jo’rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori
Jo‘rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor
Artikova Hafiza To‘ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor
Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor
Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor
Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor
Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor
Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor
Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor
Ochilov Alisher To‘lis o‘g‘li, tarix fanlari doktori, dotsent
Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent
G‘aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

SERIYA: **I J T I M O I Y - G U M A N I T A R F A N L A R**

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Rajabova M.B.	“Farhod va Shirin”dagi Munojot bobining badiiy-funksional xususiyatlari	3
Adizova O.I.	Aziz Qayumov ilmiy ijodida buyuk shaxslarning o‘rni	9
Berdiyeva Z.O.	Sobir O‘nar hikoyalarida sarlavha, ilk va so‘nggi jumla poetikasi	14
Davronova R.A.	Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarida postmodernizm xususiyatlari	18
Eshonqulova F.H.	Haydar Xorazmiy “Maxzan ul-asror” dostoni nusxalaridagi matniy tafovutlar va ularning tasnifi	22
Eshpulatova S.M.	Jamoling vasfini qildim chamanda	29
Itolmasova U.B.	The expression of chronotope in “The lost world”	34
Jo‘rayeva G.E.	O‘zbek she’riyatida lirikaning subyektivligi	38
Jurayev I.M.	Temuriylar davri adabiyotining tarixiy-madaniy asoslari	43
Maxammadiyeva D.R.	Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmon she’riyati korpusining madaniyatshunoslikdagi ahamiyati	47
Muxammadova S.Sh.	O‘zbek folklorshunosligida maqollarning janriy xususiyatlari	51
Norova H.I.	Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida badiiy obraz yaratish mahorati	55
Oripova K.D.	Ijodkor shaxsi va uning asarlarini biografik yondashuv asosida o‘rganish	60
Pardaeva G.B.	The concept of time and memory in Virginia Woolf’s Mrs. Dalloway	64
Sadiyeva R.B.	Hoji Muin adabiy merosida davriy muammolarning yoritilishi	68
Сафарова З.К.	Судьба и свобода воли: взаимосвязь человека и мира в романе Пауло Коэльо “Алхимик”	72
Saitova N.Dj.	Yosh shoirlar lirikasi va kechinmalar poetikasi	76
Soibova G.B.	Ramziy obrazlarni tarjima orqali taqdim etilishi	81
Uralova O.P.	Maqollar milliy madaniyat belgisi sifatida	86
Safarova Z.K.	Lev Tolstoy asarlarida insonning axloqiy tanlovi va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni	91
Дедаханова Д.Т.	Научное, культурное и литературное измерение картины мира	95
Khamdamova S.B.	The influence of Irish folk traditions on national identity in Seamus Heaney’s poetry	99
Xushmanova G.I.	Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» epopeyasi ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasi	104

Rakhimov M.M.	Expression of the concept of “road” in N.V. Gogol’s “Dead souls” and Toghay Murod’s “The evening when the horse neighed”	110
Hamidova I.O.	Magik realizm vositasida etnik identifikatsiya asoslarining shakllanishi	119
Ibotova M.O.	Sayid Ahmadning “Taashshuqnoma” asarida oshiq, ma’shuq va raqib obrazlari	123
Umarova Kh.Z.	The intellectual figure in American literature: a study of 20th century American novels	128
Soibova G.B.	The influence of literary translation in the creation of the image of the horse	132
NAVOIY GULSHANI		
Ibotova M.O.	Ruh rahmoni erur	137
TARIX * HISTORY *** ИСТОРИЯ**		
Jo‘rayeva O‘.Ch.	Jaloliddin Rumiy yashagan davrdagi ijtimoiy, siyosiy, tarixiy muhit	140
Kenjayev S.N.	Amir Temur Ko‘ragon davrida xristian dini vakillariga munosabat	144
Mamataliyeva S.B.	Turkistonning badiiy shisha buyumlari (IX-XIII asr boshlari)	148
Guenther O., Ruziev Y.	Kairos economics in the post-soviet transition period of Central Asia	153
Sadullayeva V.I.	Buxoro amirlarining maorif tizimidagi islohotlari va xorijiy hamkorlikning tizimli tahlili	163
Tilavova Sh.S.	Turkiston jadidlarining to‘ylarni tartibga solish haqidagi fikr-mulohazalari	167
Vaxidov S.O.	Aholi hayotida diniy tasavvurlar va qabr ziyoratining muhim jihatlari	171
Xo‘jayeva L.Sh.	Navoiy viloyati madaniy meros obyektlarining tipologiyasi, geografik va funksional klassifikatsiyasi	176
Эргашев Ж.Ю., Самиев О.Ф.	Шералихон даврида Афғонистон: сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий тараққиёт	182
Ro‘ziyeva D.M.	Mustaqillik yillarida O‘zbekiston ilm-fan taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni	188
Abdullayeva D.A.	Me’moriy obidalarni saqlash hamda ularni ta’mirlash ishlari tarixidan	192
Султонова А.У.	Мустақилликнинг дастлабки йилларида тарихий обидаларга эътибор	197
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK * PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ**		
Ruzimurodov B.R.	Blokcheyn texnologiyasiga asoslangan elektron ovoz berish: O‘zbekistondagi demokratik islohotlarda fuqarolar faolligini oshirish vositasi	201
Муртозоева М.И.	Буюк Британиянинг таълим грантлари «юмшоқ куч» сифатида	206

UO‘K 82

“FARHOD VA SHIRIN”DAGI MUNOJOT BOBINING BADIIY-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Rajabova Ma’rifat Baqoyevna,
Buxoro davlat univerisiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.
marifat.bakaeva@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi munojot bobi tahlil qilingan. Turkiy xalq adabiyotida munojotlarning shakllanishi tarixi va islomiy kontekstdagi mohiyatiga alohida e’tibor qaratilib, dostondagi munojotda badiiy talqin qilingan ilohiy taqdir, qazo-qadar, insonning yo‘qlik va borlik olamidagi holati kabi mavzulariga oid qarashlarga munosabat bildirilgan. Bundan tashqari, maqolada munojotning shakli, uning mazmuni va uslubiy xususiyatlari islomiy manbalarga uyg‘unligiga doir mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Farhod va Shirin”, Qur’oni karim, Hadis, munojot, adam olami, junun, “Lavhi mahfuz”.*

ХУДОЖЕСТВЕННО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ГЛАВЫ МУНОЖОТ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ФАРХАД И ШИРИН»

Аннотация. *В статье анализируется глава муножот из поэмы Алишера Навои “Фархад и Ширин”. Особое внимание уделено истории формирования жанра муножот в тюркской народной литературе и его сущности в исламском контексте. В муножоте поэмы рассматриваются художественные интерпретации божественного предопределения, судьбы (казо и кадара), а также состояния человека в мирах небытия и бытия. Кроме того, в статье приведены рассуждения о форме, содержании и стилистических особенностях муножота, его гармонии с исламскими источниками.*

Ключевые слова: *“Фархад и Ширин”, Коран, Хадис, муножот, мир небытия, джунун, “Лавхи махфуз”.*

ARTISTIC-FUNCTIONAL FEATURES OF THE MUNOJOT CHAPTER IN THE WORK «FARHAD AND SHIRIN»

Abstract. *This study examines the munajot chapter of Alisher Navoi`s epic “Farhod and Shirin.” It explores the historical development of munajot within Turkic literary tradition and its spiritual significance in the Islamic worldview. The analysis focuses on how the epic portrays themes such as divine destiny, predestination, qaza and qadar and the human condition in the realms of being and non-being. Attention is also given to the formal structure, content and stylistic nuances of the munajot, particularly in relation to their harmony with Islamic sources.*

Keywords: *“Farhod and Shirin”, Quran, Hadith, munajot, world of non-existence, junun, “Lawh-i Mahfuz”.*

Kirish. Turkiy xalqlar adabiyotida munojotlarning shakllanishi uzoq tarixiy davrni bosib o‘tdi. Chunki qadimdan insonlar turli tabiat kultlariga, tangrilarga murojaat qilib, ulardan najot tilashgan. Lug‘atlarda “munojot” so‘zi arabcha bo‘lib, “najot tilash, yashirincha suhbat, xudoga dil roz aytish, zorlanish; yalishin, yolvorish; najot so‘ramoq, tavallo qilmoq” ma’nolarini bildirishi ko‘rsatilgan [4,9]. Ammo mumtoz adabiyotdagi munojotlarning shakllanishi bevosita islom ta’limoti bilan bog‘liq. Qur’oni Karimdagi “Maryam” surasining 52-oyati karimasida shunday marhamat qilinadi: “Biz unga Tur (tog’i)ning o’ng tomonidan nido qildik va uni munojot qilgan holida (O’zimizga) yaqin etdik”[5,199]. Demak, islomiy ta’limotga ko‘ra, munojot Allohga riyosiz, samimiyat bilan murojaat qilish, Qodir, Mehribon va Rahmli, Maxfiratli Zotdan najot tilashdir. Shu ma’noda munojot – “Yaratgan bilan sirli suhbat” bo‘lib, qalbning Ilohiy zot bilan xoli holda go‘yo suhbatlashishi kabi ma’naviy holatni ifoda etadi.Ta’kidlash keraki, “Xamsa” dostonlaridagi munojotlar shoirning e’tiqodiy qarashlarining badiiy in’ikosi sifatida yuzaga kelgan. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida ham mavjud an’ana davom ettirib, dostonning uchinchi bobini

munojot mavzusiga bag‘ishlaydi. Doston tarkibidagi munojot “Xamsa”dagi boshqa munojotlardan farq qiladi. Mazkur munojotda shoir “qadar” masalasiga to‘xtaladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. *Qazo va qadar* islomiy tushuncha sifatida Allohga, U tomonidan sodir bo‘lgan voqea – hodislarga iymon keltirishni anglatadi. Jumladan, insonning bu dunyoga kelishi va uni tark etishi unga bog‘liq emas. Allohning hikmati va uning cheksizligi, inson ularni anglashda aqli ojizligini his qilish “qazo va qadar” mohiyatini anglash demakdir.

Munojotning dastlabki baytlarida insonning “adam olami”dagi holati badiiy chizgilarda berib o‘tiladi.

Ilohiy, andakim yo‘q erdi budum,
Adam uyqusida erdi vujudum.
Ne ruhum gulshanidin dard paydo,
Ne jismim tufrog‘idin gard paydo.
Vujudimda anosir band tormay,
Tanim ichra so‘ngak payvand tormay.
O‘tumda yo‘q tiriklik mehri tobi,
Suyum yo‘qluq biyoboni sarobi.
Bo‘lunmay tufrog‘im gardi fanodin,
Nasime yo‘q vujudumda havodin.
Ne tan, ne tanda bosh, ne bosh aro ko‘z,
Ne yuz, ne yuzda lab, ne lab aro [1,8].

Shoir inson “adam uyqusi”da bo‘lganida ruhida dard, tuprog‘ida gard, uning vujudida to‘rt unsur – havo, olov, tuproq, suv birlashmagani, suyaklari payvand emasligi, tanida bosh, boshidan ko‘z, yuz, lab, so‘z, ko‘ngil paydo bo‘lmaganligini tasvirlaydi. Ulug‘ shoir bunday tasvirlar uchun, albatta, ilohiy manbalarga tayanadi. Jumladan, inson suyuqlik (nutfa)dan bunyodga kelishi, uning vujudida to‘rt anosir (suv, havo, olov va turpoq) qorishiq ekanligi bilan bog‘liq dalillarni Qur’oni karimning “Haj” surasining 14-oyatida ham o‘qishimiz mumkin: “*So‘ngra nutfadan alaqa yaratdik, alaqadan chaynalgan go‘sht yaratdik, chaynalgan parcha go‘shtdan suyak yaratdik, bas, suyakka go‘sht qopladik, so‘ngra uni boshqa bir jonzot etib paydo qildik. Bas, yaratguvchilarning eng yaxshisi Alloh barakotli va buyukdir”.*

Dastlabki baytda shoir inson vujudining paydo bo‘lishi oldidagi holat – “adam uyqusi”ni tilga oladi. Bu insonning hali borliq sahnasiga chiqmagan bosqichidir. Ya’ni, inson Allohning ilmida mavjud, ammo hali yaratilmagan shaklidir.

Ikkinchi baytda shoir ruh va jismning hali mavjud emasligini ta’kidlaydi: ruh hali “gulshanidan” (ya’ni ilohiy manbadan) ajrab chiqqan emas, jism esa hali “tufrog‘”dan yaratilmagan. Demak, inson hali borliq shakliga keltirilmagan holatda.

Uchinchi baytda inson vujudini tashkil etuvchi *anosir (unsurlar)* – tuproq, suv, olov, havo – hali birlashmagan, shu boisdan, u tan shakliga kirmagan. Bu o‘rinda shoir inson moddiy jihatdan hali yaratilmagan holatiga ishora qiladi.

Keyingi baytlarda jism hali bor bo‘lmagani kabi, ruh ham hali “gulshanidan” ajralmagani, his-tuyg‘u, idrok, muhabbat, qalb, hatto o‘zlik – bularning hech biri hali yuzaga kelmaganligi qalamga olingan. Albatta, shoir “adam olami” haqida keng badiiy tasvirni berish bilan ma’lum bir maqsadni ko‘zlagani aniq. Chunki “yo‘qlik olami” insonning ma’naviy kamoloti uchun zarur bo‘lgan birinchi bosqichdir. Ya’ni, inson o‘z yaratilishini anglashi uchun, avval yo‘qlikni his etishi, “o‘zida yo‘qlik” holatini qalban his qilishi lozim.

Bundan tashqari, Alisher Navoiy insonning “yo‘qlik olami”dagi tasvirini butun tafsilotlari bilan berishdan maqsadi Yaratuvchining buyuk qudratini namoyish qilishdan iboratdir.

Munojotning keyingi baytlarida “adam olami”da “g‘amu qayg‘ulardan ozod” bo‘lgan insonning “vujud koshonasi”ga kelishi bilan bog‘liq tasvirlar berilgan.

Ne jonu anda ne yuz dardi jonso‘z,
Ne ko‘ngul, ne anga ming neshi dildo‘z.
Nechukkim yo‘q ko‘ngul yo‘q g‘amdin ozod,
Bo‘lub yo‘q jon dog‘i yo‘q qayg‘udin shod.
Vujud ichra yo‘q oloyish alarg‘a,
Adam kunjida osoyish alarg‘a.
Borin ul uyqudin uyg‘otting oxir,
Yig‘ibon bir-biriga qotting oxir.
Bu yo‘qlarg‘a yo‘q erdi rasmu roe,
Ne imkon xudkim o‘lg‘ay muddaoe.

Borisin bir-biriga band qilding,
O‘kush hikmat bila payvand qilding [1,9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tasavvufda falsafasida inson vujudiga shunchaki moddiy tuzilish emas, balki ilohiy bilim va hikmat asosida shakllangan mukammal unsur sifatida qaraladi. Yuqoridagi parchada aynan shu g‘oyaga urg‘u berilgan. Insonning yaratilishidan oldingi holat – adam *fa*lsafiy ramzlar orqali tasvirlangan bo‘lib, u poklik, osoyish va sukunat makoni deb talqin qilinadi.

Keltirilgan iqibosda qayd etilishicha, inson yaratilmagan davrda na jon bor, na jonni o‘rtaydigan g‘am. Bu fikr bilan muallif moddiy hayot bilan birga keladigan g‘am-tashvish, iztirob, jabr – zulmning “adam olami”da yo‘qligini alohida ta’kidlaydi. Shuning uchun ham inson “*yo‘qlik”da* “ozod va shod”. Ozod – U hech narsa uchun javobgar emas. Shod – chunki inson (ruh) hali shar’iy majburiyatlarga bo‘ysunmaydi. Insonda hali “men” degan tushuncha mavjud emas, u hali o‘zini Allohdan alohida mavjudot sifatida anglamagan.

Demak, keltirilgan iqtibosda **yo‘qlik** – xotirjamlik, **borliq** – mas’uliyat, **uyg‘onish (yaratilish)** – harakat va hikmat manbai sifatida tasvirlanadi. Inson yaratilishi shunchaki tabiiy jarayon emas, balki Allohning bilim, iroda va maqsadli tadbiri natijasidir. Insonning har bir unsuri (jism, ruh, qalb, his, aql) hikmat asosida bir-biriga bog‘langan holda shakllangan.

Alisher Navoiy inson a’zolarini bir joyga yig‘ib, ularga ruh bag‘ishlanishini “***o‘kush hikmat***” deb ta’riflaydi. Shunday bo‘lsa-da, shoir “yo‘qlik olami”da g‘am-u qayg‘udan ozod bo‘lgan insonni “vujud koshonasi” (bu dunyo)ga kelishi Ilohning izmida ekan, nega O‘zi yaratib turib, ularning taqdiriga yaxshi-yomon, baxtli-baxtsizliklari yozib qo‘yding,- deya isyon qiladi. Hatto birini taqdiriga *shaqiy*, biriga esa *saidlik* berding,- deydi.

O‘zung surdung raqam, topqach bu noma,
Shaqiy yohud said erkonga xoma.

Shaqiy so‘zi: - a) baxtsiz, omadsiz**;** b) yaramas, buzuq**; said** – saodatli, baxtli, baxtiyor ma’nolaridagi so‘z. Albatta, bu fikrlar diniy manbalarga asoslangan. Jumladan, “ Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Sizlardan biringiz onasi qornida ekanida qirq kun maniy holatida xalq qilinishi jamlanadi. So‘ngra quyuq qon bo‘lib, o‘sha kabi xalq qilinishi jamlanadi. So‘ngra parcha go‘sht bo‘lib, o‘sha kabi xalq qilinishi jamlanadi. So‘ngra farishta yuborilib, unga ruh puflaydi. Va to‘rt kalima, ya’ni *rizqi, ajali, amali, baxtli yoki baxtsizligini* yozish buyuriladi. Undan boshqa Iloh yo‘q bo‘lgan Zot ila qasamki, sizlardan biringiz jannat ahlining amalini qiladi. Hattoki, u bilan jannat orasida bir gaz (o‘lchov) qoladi. Bas, uning o‘sha yozilgan kitobi ilgarilaydi-da, u do‘zax ahlining amalini qilib, do‘zaxga kirib ketadi. Sizlardan biringiz do‘zax ahlining amalini qiladi-da, hattoki u bilan do‘zax orasida bir gaz qoladi. Bas, uning kitobi ilgarilaydi-da, u jannat ahli amalini qilib, jannatga kirib ketadi”, dedilar. Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari [2,294].

Shoir faqat bugina emas, uni (inson) jonli mavjudod qilib yaratishing bilan birga ming ***ajz (kuchsizlik, zaiflik, ojizlik, bechoralik) va notavonliklarni*** nasib qilding, deb ta’kidlash oraqali Allohdan bandalari uchun muruvvat so‘raydi.

Nasib etting ani qilg‘onda jonliq,
Tuman ming ajz birla notavonliq.

Shoir munojotning keyingi baytlarida inson bolasining muhtojliklarini hayotiy ehtiyoj sifatida tasvirlaydi. Ulug‘ shoir go‘dakning bu dunyoga kelishi va voyaga yetish jarayonining barcha bosqichlarida u moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga tashna ekanligini va shular orqali insonlar safiga qo‘shilishini ta’kidlaydi. Mana shu jarayonlarning o‘zi ham inson bolasining ixtiyorsizligini ko‘rsatadi. Alisher Navoiy tug‘ilgan go‘dakning “***insonlar xayliga***” qo‘shilishi uchun “necha yil ranj-u mehnat” tortishini ta’kidlashni ham unutmaydi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Mutafakkir shoir munojotda “qadar” masalasiga urg‘u berar ekan, insonning go‘daklik davri tasviriga realistik ruh beradi. Bu esa munojotda qo‘yilgan muammoni teran his qilishga ko‘maklashadi. Munojotning keyingi baytlarida insonning “qadar” oldidagi ojizliklari bayoni davom ettiriladi:

Bu ishdur turfakim egri-yu gar rost,
Qo‘ya olmas qadam bo‘lmay sanga xost
Ki, gar egriyu gar rost kilki taqdir,
Azalda aylamish ollig‘a tahrir.
Sanga ul kotib ilgida qalamdek,
Qalam no‘gi aro balkim raqamdek.
Raqam chekmakka kotib yo‘nsa xoma,
O‘shul damkim qilur tahriri noma.

Ushbu baytlarda shoir inson hayotining taqdir va Yaratuvchining iroda-qudrati doirasida kechishini, insonning Yaratuvchi oldidagi mutlaq ojizligini, Yaratuvchining unga nisbatan mutlaq hukmronligini o‘ziga xos badiiy timsollar orqali ifodalaydi. Ya’ni, inson Yaratuvchining qo‘lidagi qalam, Yaratuvchining qo‘lidagi raqam, Yaratuvchining qalami bilan chizilgan chiziq kabidir.

Bu orqali ulug‘ shoir **inson irodasi va taqdir** o‘rtasidagi murakkab munosabatga ishora qiladi. Inson xohlagan ishini qilishga qodir emas; ba’zan sevgan, rost deb o‘ylagan ishiga ham “qadam qo‘ya olmaydi”, agar u ish taqdirga muvofiq kelmasa. Demak, islomiy qarashga ko‘ra, inson hukm chiqaruvchi emas, u faqat Yaratganning xohlaganini bajaruvchidir.

Ulug‘ shoir bu o‘rinda “taqdir qalami”ning yoziqlariga qarshi bormasa-da, Azal kotibi inson taqdirini yozib qo‘yib, uning gunohlari yozilgan nomani **“hujjat”** qilishi va uning jismini do‘zax o‘tida yoqishini “ma’qul” ko‘rmaydi. Buni esa shoirning insonga bo‘lgan muhabbati namunasi deyish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, ulug‘ shoir har bir mavzuni ilohiy manbalardan oziqlangan holda bayon qiladi.

Quyidagi baytda “Yosin” surasining 12-oyati karimasining mazmuni singanini ko‘rishimiz mumkin:

Ki, har qilg‘ong‘a **hujjat** ham tutarsen,

Bu hujjat ichra diqqat ham tutarsen.

“Albatta, Biz, O‘zimiz o‘liklarni tiriltirurmiz va ular taqdim qilgan narsalarni va qoldirgan asarlarni yozurmiz. Har bir narsaning hisobini ochiq-oydin imom (lavhul - mahfuz)da olib qo‘yganmiz”. Ko‘rinib turibdiki, Qur’on Karimda “hisob ochiq-oydin” qilingani va “lavhul- mahfuz”da saqlanishi ta’kidlanadi. Alisher Navoiy ham “Bu hujjat ichra diqqat ham tutarsan” deb, “yozuv va qayd etish” jarayonining Alloh tomonidan boshqarilishini badiiy ifodalaydi. Bu insonning javobgarligi, amallarining oqibatlari haqidagi umumiy islomiy g‘oyaga to‘liq muvofiq keladi.

Munojotning oxirgi baytlarida shoir o‘z isyonlari uchun Allohga istig‘for aytadi, o‘z holiga rahm qilishni so‘raydi. O‘z uzrlarini aytar ekan, Allohning maxfiratli zot ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi va fikr tasdig‘i uchun “Niso” surasi 106-oyatidagi ***“Allohga istig‘for ayt! Albatta, Alloh mag‘firatli va rahmli zotdir”*** muborak kalimaga murojaat qiladi.

Qalam surma bu nav’ afsonalarg‘a,

Agarchi **yo‘q qalam** devonalarg‘a.

Junundin so‘zga bir dam bo‘lmay ogoh,

Gar ortuq so‘z dedim: **astag‘firulloh.**

Keltirilgan iqtibosda Navoiy o‘z-o‘ziga qarata, “agar devonalarga hisob-kitob bo‘lmasa, bu kabi afsonalarni yozma (qalam surma) deb uqtiradi. Parchadagi “*yo‘q qalam*” iborasi, albatta, izohga muhtoj.

Ma’lumki, mumtoz adabiyot namunalarida telbalik ko‘pincha junun (majzub) ko‘rinishda ifodalanashi kuzatiladi. Junonlik – devonalik, jinnilik dardi. Bu jismoniy nuqson emas, balki ilohiy ishq natijasidir. Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonidagi “Shayx Sa’non” hikoyati qahramonining torso qiz ishqida o‘rtanishini bevosita majzublik holati orqali badiiy ifodalaydi. Shayx Sa’non sodiq va taqvodor muridining:

Biri deb: “K-ey muqtadoi ahli roz,

Bu balo daf’ig‘a vojibdur namoz”- degan maslahatiga:

Shayx debkim, “Urma bu ma’nida dam,

Telbadurman, telbaga **yo‘qtur qalam**”,-deb javob beradi.

Adabiyotshunos U. Jo‘raqulovning fikriga ko‘ra iqtibosda keltirilgan “qalam” deganda Alisher Navoiy ilohiy qonuniyatlarni nazarda tutayotganiga shubha yo‘q. Demak, telba odam uchun nainki ijtimoiy qonuniyatlar, ilohiy qonuniyatlar ham o‘zgacha. Shayx San’on aytgan haqiqat esa o‘zbek xalqi orasida bir oz boshqacharoq shaklda - “Jinniga qonun yo‘q” hikmatida aks etadi [3,171]. Bu o‘rinda “telba” so‘zi shunchaki aqldan ozgan shaxs emas, balki ruhiy olami oddiy insonlarnikidan mutlaqo farq qiluvchi, zohiriy qonunlar bilan emas, botiniy haqiqatlar bilan yashaydigan shaxs ma’nosini beradi. Uzoq Jo‘raqulov ta’kidlaganidek, “qalam” so‘zi bu yerda ramziy ma’noda keltirilgan bo‘lib, u ilohiy taqdir yozuvini anglatadi. Demak, Navoiy bu o‘rinda “telba” deb zohiriy aql me’yorlaridan chiqqan, ruhiy yuksaklikka yetgan insonni nazarda tutadi. Unga nisbatan “qalam yo‘q” deyilishi – bu kabi shaxslar uchun oddiy insonlarga tatbiq etiladigan qonun-qoida va hatto ilohiy taqdir bitimi ham boshqacha tarzda namoyon bo‘lishini bildiradi. Ya’ni, bunday insonlar – irfoniy safarida zohiriy qonunlarning chegaralaridan chiqib ketgan, Alloh bilan bevosita muroqabada bo‘lgan kimsalardir.

Muhokama. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bunday qarashlar o‘zbek xalq hikmatlarida ham o‘z ifodasini topgan. Masalan, xalq orasida aytiladigan “Jinniga qonun yo‘q” degan maqolni aynan Shayx gapining hayotiy va xalqona ifodasi sifatida ko‘rilishi mumkin. Bu hikmat gohida salbiy ma’noda

qo‘llanilsa-da, chuqur ma’naviy jihatdan tahlil qilinganda, bandalik va ruhiy ozodlik o‘rtasidagi murakkab munosabatni aks ettiradi.

Demak, munojotda ham, “Lison ut-tayr” dostonida ham **“qalam yo‘qtur”** birikmasi solikning hech qanday qonun va qoidaga buysunmaydigan ishqini tasvirlash uchun qo‘llangan.

Ilohiy, boqmag‘il majnunlug‘umg‘a,
Karamdin chora qil mahzunlug‘umg‘a.
Yuzum sarg‘ortibon nomam qarosi,
Qarortib nomani xomam qarosi.
Inoyat aynidin xomam sari boq,
Qizil ayla yuzum, ***nomamni ham oq***.
Yuzum lutfung suyidin toza qilg‘il,
So‘zum ko‘sin baland ovoza qilg‘il.
Mayi nutqum tarabxez ayla, yo Rab,
Nayi kilkim shakarrez ayla, yo Rab.
Ketur ilgimga dog‘i jomi tavfiq,
Yetur ko‘nglumga dog‘i rohi tahqiq.
So‘zum roh)in qilib ravshan safodin,
Shafoat jomi yetkur Mustafodin.

Munojotning so‘ngi baytlarida shoir o‘z isyonlari uchun o‘tinchlarini go‘zal tashbehlar orqali bayon qiladi. Allohdan “yuzumni sorg‘aytirgan “**nomamni oq qil**” deb so‘raydi. Bu bilan shoir so‘z o‘yini qiladi. Ya’ni “noma” so‘zi ikki ma’no – ham “taqdir yoziqlari” hamda shoirning o‘z asarlariga ishora qilingan. Munojotning oxirgi baytdagi “shafoat jomi” istiorasi oraqali payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning marhamatlilik, mag‘firatlilik va ummatlariga shafoat tilovchi fazilatlariga urg‘u berilgan.

Munojot bobida turli tasviriy vositalar qo‘llangan. Shoir *vujud, jism, ruh, anosir, so‘ngak, tiriklik, suyum, tufrog‘, nasim* kabi so‘zlar orqali insonning moddiy va ma’naviy olamini tasvirlaydi va tanosib san’atining go‘zal namunasini yaratgan. “Shaqiy” yoxud “said” va “och yoki to‘q” kabi zid tushunchalar orqali tazod san’atini hosil qilgan.

Bu zindondinki jismin ranja aylab,
Chiqording yuz tuman ishkanja aylab, – misralarida “zindon” va “ishkanja” so‘zlari orqali inson hayotidagi qiyinchiliklar metaforik tarzda ifodalangan.

Munojotda talmeh san’atidan ham mahorat bilan foydalanilgan.

Azal subhida malhuzungni keltur!
Arog‘a “Lavhi mahfuz”ungni keltur!

Munojotdagi “*Lavhi mahfuz”, “Mustafo”, “Majnun”, “Farhod”* kabi so‘zlar diniy va adabiy manbalarga talmehdir. Ular orqali u o‘z g‘oyalarini yanada ta’sirli qiladi. Yuqorida keltirilgan baytda Qur’oni Karimda zikr etilgan “lavhi mahfuz” tushunchasiga ishora qilingan. Ya’ni, har bir narsa Allohning ilmida mavjud va taqdir ham u Lavhda yozilgan.

Alisher Navoiy munojotda tazod san’atidan ham mahorat bilan foydalanadi. Shoir tazod orqali hayot voqeliklarini, inson tabiatidagi ziddiyatlarni va ayniqsa, inson ruhiyatidagi murakkab holatlarni chuqur tasvirlashga erishgan. Fikrimizni quyidagi munojotdan keltirilgan baytlar tasdiqlaydi.

Och o‘lsa yo‘q tili istarga ma’kul,
Bo‘lub o‘z holig‘a yig‘larga mashg‘ul.
To‘q o‘lg‘ach daf’ig‘a yo‘q aqli yori,
Ne ul quvvatki bo‘lg‘ay ixtiyori.

Keltirilgan baytlarda Navoiy inson hayotidagi ikki mutlaq qarama-qarshi holat – ochlik va to‘qlik orqali uning jismoniy va aqliy ojizligini ko‘rsatadi. “Och inson” haqida gap ketganda, Navoiy uning hatto so‘z aytishga ham qodir emasligini tasvirlaydi. Uning tili ishlamaydi, gapirish istagi yo‘q. Aksincha, *to‘qlik holatida* inson ochlikdan qutulgan bo‘lsa-da, u bu gal *haddan ziyod yengillik, bee’tiborlik* sababli aqlini yo‘qotgan, fikrlay olmaydigan, o‘z ixtiyorini boshqara olmaydigan holga keladi, deydi. Bu bilan Navoiy inson tabiatidagi yana bir ziddiyatni ko‘rsatib o‘tadi: ochlik – ojizlik, to‘qlik – g‘aflat. Bu misralar orqali Navoiy insonning doimiy bir xil *muvozanatda tura olmasligi*, uning doimiy *majburiyat va iztirob* orasida yashashi haqida fikr yuritadi.

Alisher Navoiyning ushbu munojoti nafaqat yuksak tasavvufiy mazmunga, balki mukammal *badiiy mahorat bilan yozilgan*. Unda qo‘llanilgan tashbeh, istiora, tazod, talmeh va mubolag‘a kabi san’atlar orqali shoir inson taqdiri Allohning iznida ekanligi, insonning ojizligi va Parvardigor rahmatiga muhtojligini teran va ta’sirli ifoda qiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Farhod va Shirin” munojotida ulug‘ shoirning falsafiy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Alisher Navoiy Allohning buyuk qudrat sohibi ekanligi, inson Uning bir zarrasi sifatida hamisha Unga muhtojligi, Yaratganga itoat inson uchun najot topish yo‘li ekanligi, ojizlik insonga, hukmfarmonlik Allohga xosligi, taqdir yoziqlariga isyon qilishdan na’f yo‘qligi, faqatgina tavba va istig‘for bilan Iloh lutfiga musharraf bo‘lish mumkinligini ilohiy manbalarga suyangan holda bayon qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Navoiy Alisher. Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. VIII jild. – T.: Fan, 1991.*
2. *Al Azkor. Yahyo ibn Sharaf an-Navaviy. Movarounnahr. – T.: 2003.*
3. *Jo‘raqulov U. Telbaga yo‘qtur qalam// Sharq yulduzi. 2010. №1. – B. 166-171.*
4. *Erkaboyeva N. Alisher Navoiy ijodida munojot: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – T.: 2008.*
5. *Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. - T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001.*

UO‘K 82

AZIZ QAYUMOV ILMIY IJODIDA BUYUK SHAXSLARNING O‘RNI

Adizova Obodon Istamovna,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)
obodon63@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada akademik Aziz Qayumovning tarixiy asarlarini anglashda biografik usuldan foydalanish mahorati hamda uning ilmiy ijodida buyuk shaxslarning o‘rni haqida ma’lumotlar keltirilgan. Olimning ilmiy ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, kimlarga qaratilganlik jihatlarining mavzu mundarijasi va til xususiyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, Aziz Qayumov tadqiqotlari keng qamrovliligi, ilmiy puxtaligi bilan ajralib turishi, ijodkor yashagan davr mohiyatini to‘g‘ri ilg‘ab, uning ijodini keng yoritishi, ularga qat’iy asos qilib shoirlarning haqqoniy hayoti va ular ijodining barqaror omillari ekanligi yoritilgan*

Kalit so‘zlar: *badiiy obraz, adabiyotshunos, biografik usul, xarakter, qomusiy mutafakkir, shoh va shoir, zamonaviy yozuvchi, akademik olim, afsona va rivoyat, vatanparvar, ilmparvar, buyuk shaxslar, muallif, til xususiyatlari, hukmdor, boy kutubxona, monografiya.*

РОЛЬ ВЕЛИКИХ ЛИЧНОСТЕЙ В НАУЧНОМ ТВОРЧЕСТВЕ АЗИЗА КАЮМОВА

Аннотация. *В статье представлены сведения об освоении биографического метода в пониманиии исторических трудов академика Азиза Каюмова и роли выдающихся личностей в его научном творчестве. Анализируются особенности научного творчества учёного, аспекты предметного содержания и особенности языка адресата. Отмечается, что исследования Азиза Каюмова отличаются всесторонностью, научной глубиной, верно улавливают суть эпохи, в которой жил художник, и широко освещают его творчество, а реальная жизнь поэтов и устойчивые факторы их творчества служат для них прочной основой.*

Ключевые слова: *литературный образ, литературовед, биографический метод, биографический характер, мыслитель-энциклопедист,король и поэт, современный писатель, учёный академик, легенда и предание, патриот, ревнитель науки, выдающиеся личности, автор, особенности языка, правитель, богатая библиотека, монография.*

THE ROLE OF GREAT PERSONS IN AZIZ QAYUMOV'S SCIENTIFIC CREATION

Abstract. *This article presents information on the biographical method's application to the historical works of Academician Aziz Kayumov and the role of prominent figures in his scholarly work. It analyzes the scholar's scholarly work, aspects of his subject matter, and the specifics of his audience's language. It notes that Aziz Kayumov's research is distinguished by its comprehensiveness and scholarly depth, accurately capturing the essence of the artist's era and providing a comprehensive overview of his work. The real lives of poets and the enduring influences of their work serve as a solid foundation.*

Key words: *literary image, specialist in literature, biographical method, biographical character, sophist encyclopedist, king and poet, modern writer, academic scientist, legend and fabl, patriot, sciens adherent, prominent figures, author, language features, ruler, rich library, monograph.*

Kirish. O‘zbek adabiyotshunosligida aksariyat tadqiqotlari shoir va olimlarning ijodiy portretini yaratish xarakterida bo‘lgan taniqli adabiyotshunos Aziz Po‘latovich Qayumovning yondashuvlarida buyuk shaxslarning ijodiga ko‘proq tayanilgani kuzatiladi. Xususan, olimning Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Shohruh Mirzo, Ulug‘bek Mirzo singari olimlar, ulug‘ shoir Alisher Navoiy, XVI asr o‘zbek adabiyoti tarixida muhim iz qoldirgan Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Solih, Mulla Baqoiy, Shohibekxon – Shayboniyxon, Ubaydullohxon – Qul Ubaydiy, Aziziy, Hiloliy, Mas’ud Mirzo Shohiy, Vosifiy, Zaliliy, Hofiz Tanish Buxoriy, Mushfiqiy, Mutribiy, Huvaydo kabi ijodkorlar,

Biografik metod ko‘proq tarixiylik asosiga qurilishini inobatga olib, tadqiqotchi olim Aziz Qayumov aynan adabiyot tarixida o‘chmas iz qoldirgan ijodkorlar haqida yozar ekan, bu metodga ustuvorlik baxsh etgan. Olim o‘z tadqiqotlarida bu mualliflar tomonidan yaratilgan badiiy matnlarning g‘oyaviy-estetik mazmunini ochib berishdan oldin ularning yaratuvchilari hayoti haqida ma’lumot berishni ko‘zda tutadi.

Negaki, bunday ma’lumotga ega bo‘lmay turib, o‘sha asar nima uchun, nima maqsadda yaratilganini anglash qiyin bo‘lishi tabiiy. Shu sababli matndan mazmun qidirish uchun, uni yaratgan muallif maqsadini ilg‘ash uchun muallifni biografik jihatdan tahlil qilish o‘ziga xos samara beradi.

Biografik metod bilan tadqiqotchi ishlar ekan, u matn muallifi ichki dunyosiga kirib boradi. Muallifning badiiy-estetik qarashlarini tug‘dirgan, uning kechinmalariga, iztiroblariga sabab bo‘lgan omillarni aniqlaydi va bu haqda o‘quvchilarga tushuncha yetkazadi. Aziz Qayumov tadqiqotlarida yozuvchi-shoirlarning psixologiyasi va ijtimoiy-tabiiy voqeliklar uzviylikda o‘rganilgan.

Aziz Qayumov tadqiqotlari keng qamrovliligi, ilmiy puxtaligi bilan ajralib turadi. Ijodkor yashagan davr mohiyatini to‘g‘ri ilg‘ab, uning ijodini keng yoritadi ularga qat’iy asos qilib shoirlarning haqqoniy hayoti va ular ijodining barqaror omillarini oladi. Olimning tadqiqotlari mavzu-mundarijasi bilan darhol e’tiborni tortadi. Masalan, uning “Ahmad Farg‘oniy”ga bag‘ishlangan tadqiqotida olim hayotining Farg‘ona va Bag‘dod bilan bog‘liqligi, yoshlikdan bilim olishga tashna bo‘lgani, mashhur olim Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy bilan tanishuvi va uning taklifi bilan “Bayt ul-hikma” (“Bilimlar uyi”)ga kelishi, usturlob to‘g‘risidagi asarini yozishi, kitoblarining muhokamasi, olimga qilingan to‘sqinlik va betamizliklar, ayniqsa, Sufiyoi ibn Yusufning g‘animligi, bundan bezigan olimning Rumga safar qilishi, bilim yo‘llarini bosib o‘tishi, Ilmi nujumdan dars berishi, Oy tutilishi bo‘yicha ijod va o‘ylari, rasadxona qurish ishiga boshchilik qilishi, astronomiya va geografiyaga oid ma’lumotlarni o‘zida jamlagan “Ma’mun jadvali”ning yaratilishida qatnashishi kabi muhim voqealar qamrab olingan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Aziz Qayumovning “Abu Rayhon Beruniy”ga bag‘ishlangan shunday risolasida mashhur matematik va astronom Abu Nasr ibn Ali Iroqning yosh Beruniyga mehribonligi, uni saroyga olib kelishi, Beruniyning Yer yarim kurrasining suvrati – globusni yaratishi, uning muhojirlik onlari va bunda do‘stlari bilan hamkorlik maktublarini yozishib turgani, Gurgon shahrida kechgan vaqti, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini yozishi, hayotidagi nizolar, Gurganjdagi faoliyati, yer o‘lchashga oid “Geodeziya”, yana “Hindiston” asarlarining maydonga kelishi, “Qonuni Ma’sudiy” asari uchun shohona tuhfaga ega bo‘lishi, minerallar va dorivor o‘simliklar to‘g‘risidagi kitoblarining ham shuhrat topishi bilan bog‘liq olim hayotidagi muhim voqealar o‘ziga xos shirali tilda, qisqacha hajmda bayon qilib o‘tilgan. Ayniqsa, olimning Rayhona ismli qiz bilan munosabati ta’sirchan lirik fonda ifoda etilgani, qiz va yigitning dialoglari jonli tasvirlangani alohida e’tiborni tortadi. Eng muhimi, muallif o‘z risolasida bayon etilayotgan voqealarning o‘tmishga qaratilganidan kelib chiqib, ularning ishonarli ekanini ta’minlash maqsadida o‘tmishda qo‘llangan arxaik, tarixiy so‘zlardan, olim sohasiga aloqador terminlardan foydalangani, eski o‘zbek tiliga xos qo‘shimchalarni ishga solgani uning mahoratidan dalolat beradi.

Muallif Abu Rayhon Beruniyning Xorazm, So‘g‘d xalqlari ijodiga, Hind adabiyoti va she’riyatiga, yunon adabiyoti hamda arab tilidagi adabiyotga munosabati, qadimgi afsona va rivoyatlardan foydalanish mahorati, “Mineralogiya”, “Farmakognoziya” (“Saydana”) asarlaridagi she’riy parchalar haqida ham alohida to‘xtalgan. Hatto muallif o‘zining “Beruniy izidan” nomli hikoyasini ham yaratib, u orqali yoshlarni Beruniy haqida o‘qib-bilish lozimligi sari undagan.

Aziz Qayumovning “Abu Ali ibn Sino” risolasi mundarijasini bo‘lajak olimning shakllanishida Buxoro hukmdorining boy kutubxonasi, ustozlari alohida ta’sir ko‘rsatgani, amir kasalini davolagan yosh tabibning shuhrati tez tarqagani, u o‘qib-o‘rgangan asarlar, Ibn Sinoning ona yurti bilan vidolashib, Xorazm poytaxti Gurganj shahriga yo‘l olishi, bozorda o‘zi bilmagan holda izlab yurgan kitobiga duch kelishi, silni davolashi, Jurjon, Jabal va Ray, Hamadon, Isfaxon shaharlariga safari, “Odob risolasi”ning paydo bo‘lishi, yurak dorilarini kashf etishi, “Ash-shifo”ning yaratilishi va mazmuni, olimga qaratilgan xiyonat va ig‘volar, “Donishmand” yoki “Kitob Aloiy”, “Tib qonunlari” asarlarining qimmati, ularning mo‘jizakor tabibga abadiylik bag‘ishlagani haqidagi ixcham ilmiy-ommabop hikoyalar tashkil etgan.

Aziz Qayumov XVI asr o‘zbek adabiyoti tarixiga oid adabiyot va adabiy manbalarni o‘rganar ekan, XVI asrdagi Movarounnahr va Xurosondagi adabiy hayot, unda Zahiriddin Muhammad Bobur, Shoir Muhammad Solih, Xoja, Mulla Baqoiy, Shohibekxon – Shayboniyxon, Ubaydullohxon – Qul Ubaydiy, Aziziy, muallifi noma’lum “Tavorixi guzida” – “Nusratnoma”, Hiloliy, Ma’sud Mirzo Shohiy, Vosifiy, Shoir Zaliliy, XVI asr ikkinchi yarmidagi adabiy hayot vakillari bo‘lgan Hofiz Tanish Buxoriy, Mushfiqiy, Mutribiy haqida, ularning asarlari to‘g‘risida o‘z qarashlarini va xulosalarini bayon etadi.

A.Qayumov XVI asr o‘zbek adabiyoti tarixiga oid adabiyot va adabiy manbalarni o‘rganar ekan, XVI asrdagi Movarounnahr va Xurosondagi adabiy hayot, unda yana shoir Muhammad Solih, Xoja, Mulla Baqoiy, Shohibekxon – Shayboniyxon, Ubaydullohxon – Qul Ubaydiy, Aziziy, muallifi noma’lum “Tavorixi guzida” – “Nusratnoma”, Hiloliy, Ma’sud Mirzo Shohiy, Vosifiy, Shoir Zaliliy, XVI asr ikkinchi yarmidagi adabiy hayot vakillari bo‘lgan Hofiz Tanish Buxoriy, Mushfiqiy, Mutribiy haqida, ularning asarlari to‘g‘risida o‘z qarash va xulosalarini bayon etadi.

A.Qayumov zamonaviy ijodkorlar, akademiklar haqida ham bunday biografik xarakterdagi asarlarni yaratdi. Olim asarlarining tili ularni qiziqarli va o‘qimishli qilgan muhim qirralardan biridir. Olim o‘zi so‘z yuritayotgan soha atamalariga murojaat etib, ayrim izohlarni keltirib o‘tadi. Shu yo‘l bilan u ham o‘z asarining ilmiyligini oshirsa, ham o‘zi yaratayotgan qahramon obraziga ishonchni mustahkamlaydi. Olim shaxsiyati yoritilayotgan ijodkor insonlarning sifatini yorqin ochish uchun sifatlashlardan ko‘p va o‘rinli foydalangani ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman aytganda, badiiy adabiyotning ayrim bir namunalarini aynan biografik metod asosida tadqiq etish ko‘zlangan maqsadni oydinlashtiradi. Adabiyotshunos B.Karim qayd etganidek, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metod muhim ahamiyat kasb etadi.

Aziz Qayumov – qomusiy bilim sohibi. Agar olimning e’lon qilgan asarlari bibliografik ko‘rsatkichiga nazar solinsa, bunga to‘la ishonch hosil qilish mumkin. Jumladan, olimning “Qadimiyat obidalari” monografiyasidan tortib, Beruniy haqidagi risolagacha, Alisher Navoiy “Xamsa”si dostonlaridan tortib, Qo‘qon adabiy muhitiga bag‘ishlangan monografiyalargacha, Maxmur, G‘oziy, Hoziq, Furqat haqidagi alohida kitoblarigacha, “Gulyori shahnoz” maqom yo‘liga doir maqoladan tortib, hozirgi zamon kino san’ati muammolari ko‘tarilgan materiallarigacha, Oybek, G‘afur G‘ulomdan boshlab Barot Boyqobilovgacha bo‘lgan zamondosh shoirlar asarlari tadqiqigacha qamrab olingani ushbu fikrni tasdiqlaydi. Olim yaratgan yuzlarcha ajoyib asarlar o‘ziga xos bir olamdir.

Aziz Qayumov o‘z tadqiqotlariga qat’iy asos qilib shoirlarning va olimlarning haqqoniy hayoti, ular ijodining barqaror omillarini oladi. Shu sababdan olimning bundan o‘ttiz-qirq yil oldin yaratgan kitoblari ham hozirgi kunda ahamiyati va qimmatini yo‘qotmagan.

Shuni ta’kidlash kerakki, A.Qayumovning ilmiy ijodi butkul milliylik ruhi va vatanparvarlik tuyg‘usi bilan sug‘orilgan. Chunki u xalqimizning ulug‘ shoirlari tomonidan yaratilgan asarlar mag‘zini, ularga badiiy mahorat bilan singdirilgan ilg‘or g‘oyalarni, umuminsoniy tushunchalarni nafaqat yurtdoshlarimiz, balki jahon ahliga yetkazish orqali Vatanimiz va millatimiz dong‘ini olamga yoyishga intilib kelgan vatanparvarlardan biri edi. Xullas, yetuk adabiyotshunos, mehnatkash inson, halol murabbiy sifatida elga tanilgan Aziz Qayumov ko‘pchilik yoshlarning tafakkuri va ma’naviyatini yuksaltirishda jonbozlik ko‘rsatgan taniqli olim, bag‘rikeng va jonkuyar ustoz, fidoyi murabbiydir. Shuning uchun ko‘pchilik uning nomini faxr va iftixor bilan tilga oladi. Olim haqida yozilgan barcha maqolalar, avvalo, uning ijodiga bo‘lgan qiziqishni namoyon etadi. Tabiiyki, Aziz Qayumovning tadqiqotchilik faoliyati, yaratgan ilmiy asarlarining ma’rifiy mohiyati va qimmati haqida bildirilgan fikr-mulohazalar, yaratilgan risola va maqolalar muhim metodologik yo‘nalish bo‘lishi, shubhasiz.

A.Qayumovning o‘zbek adabiyoti tarixi bilimdoni, targ‘ibotchisi va tadqiqotchisi sifatidagi serqirra faoliyatini o‘rganishda uning biografik tadqiqotlari, manbashunoslik va matnshunoslikka doir ishlari, tarjimalari, esselari, xotira-hikoyalari va maqolalari alohida o‘ringa ega. A.Qayumov yaratgan ilmiy, ilmiy-ommabop va badiiy asarlar uning iste’dod qirralarini, tadqiqotchilik va ijodkorlik mahoratini, dunyoqarashini, adabiyot ilmi bo‘yicha egallagan bilimlarini o‘zida namoyon etadi. Uning hayot yo‘li va ma’rifiy faoliyati hozirgi yoshlar uchun har tomonlama ibrat bo‘la oladi.

A.Qayumov mumtoz adabiyotni tushunish va tushuntirib berishda yuksak mahorat sohibi ekanini biografik xarakterda yaratilgan asarlari orqali yorqin ko‘rsata bildi. Aziz Qayumov ilmiy ijodining o‘ziga xos xususiyatlari birinchidan, u hamma biladigan, boshqalar aytib ketgan masalalarni, fikr va mulohazalarni takrorlamasligi, hamisha yangi gap aytishga, yangi muammoning yechimini tavsiya etishga intilishida; ikkinchidan, Aziz Qayumov o‘zbek adabiyotshunosligiga yangi figuralarni, ya’ni hali hech kim bilmaydigan yoki kam biladigan shoirlar haqidagi qimmatli ma’lumotlarni olib kirganligida; uchinchidan, Aziz Qayumov tadqiqotlari keng qamrovliligi, ilmiy puxtaligi bilan ajralib turishida; to‘rtinchidan, ijodkor yashagan davr mohiyatini to‘g‘ri ilg‘ab, uning ijodini haqqoniy yoritishida ko‘rinadi.

Aziz Qayumov qaysi bir mumtoz yoki zamonaviy ijodkorning badiiy yoki ilmiy asarlarini tadqiq qilmasin, avvalo, u yashagan zamon, muhit, davr ichiga bir necha manbalarni o‘rganish orqali kirib boradi, so‘ngra bevosita ijodkor shaxsiga oid ma’lumotlarni yig‘adi, nihoyat, o‘zi bevosita muallif ruhiyatiga oshno bo‘lib, u bilan go‘yo muloqotga kirishadi, aniqrog‘i, qariyb uning siymosiga ko‘chib o‘tadi. Shu sababli Aziz Qayumovning har bir tadqiqoti go‘yo yangidan yaratilgan badiiy asar, yoxud mumtoz ijodkorlarning yangidan tug‘ilishi yanglig‘ taassurot uyg‘otadi. Bularning barchasiga olim o‘zi o‘rganayotgan ob’ektga chuqur yondashuvi va bir vaqtning o‘zida bir necha metoddan foydalana olish mahorati orqali erishgan. Aziz Qayumovning o‘z yuksak tafakkuri bilan yurtimiz dong‘ini jahonga taratgan qator ilm ahlining ijodlari haqida jiddiy biografik tadqiqotlar yaratdi. O‘z tadqiqotlarida hamisha yangi gap aytishga, yangi muammoning yechimini tavsiya etishga intilib ijod qildi hamda, o‘zbek adabiyotshunosligiga hali hech kim

bilmaydigan yoki kam biladigan shoirlar haqidagi qimmatli ma'lumotlarni olib kirib adabiyot xazinasiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Olim asarlarining keng tarqalishining boisi shundaki, ularning tili sodda va lo'nda, shu sababdan ham ular o'qimishlidir. Aziz Qayumov mumtoz adabiyotimizda tushunish qiyin, tili og'ir bo'lgan asarlarni, davrlarning chigal, mavhum tomonlarini, aniq, sodda so'zlar bilan, ilmiy zaminda qiziqarli qilib tahlil etib bera olgan. Aziz Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti" nomli monografiyasi o'zbek adabiyotshunosligi fanida alohida bir voqea, alohida kashfiyotdir. 1961 yili chop etilgan bu kitobda zabardast olim XYIII asr boshlaridan XIX asrning so'nggi choragigacha bo'lgan katta bir davrdagi o'zbek adabiyotining eng yirik namoyandalari ijodini, bu davr adabiyoti asosiy muammolarini birinchi bo'lib har taraflama tadqiq etgan va o'sha davr ilmi uchun nihoyatda muhim bo'lgan xulosalar chiqargan. Bu kitobdagi Hoziq, Foziy, Maxmur, Furqat haqidagi materiallarning o'zi ham ilgari alohida-alohida kitoblar holida chop etilib, davr adabiyotini o'rganishda muhim manba vazifasini bajargan edi. Aziz Qayumovning Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari xususida e'lon qilgan asarlari zukkolik va halollik bilan keltirgan boy va ko'p qirrali asosli ma'lumotlari mustaqillik davri tadqiqotlari uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

A.Qayumovning biografik xarakterda yaratilgan zamonaviy ruhdagi asarlari orasida "O'zbekiston akademiklari" haqidagi to'plami o'z o'rniga ega. Unda olim o'zi yaqindan bilgan, ko'rgan akademiklar – Habib Muhammedovich Abdullaev, ustozi Vohid Yo'ldoshevich Zohidov, Toshmuhammad Niyozovich – Qori-Niyoziy, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, Xadicha Sulaymonova, yahyo G'ulomov, Ahmadali Asqarov, Rahima Aminova, Ubaydulla Isroilovich Karimov to'g'risidagi publitsistik asarlarini keltirgan. Masalan, tinib-tinchimas olim 2003 yilda "Akademik Ahmadali Asqarov" nomli risolasini chop ettiradi. Ushbu risola O'zbekistonda arxeologiya fanining gullab-yashnashi uchun ulkan hissa qo'shgan olim haqidadir. Uning yaratilishiga esa olimning Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Oqqo'rg'on qishlog'ida tashkil etilgan arxeologiya muzeyini borib ko'rishi va u yerdan olgan taassurotlari sabab bo'lgan. Surxondaryoga qilgan xizmat safaridan qaytgach, olim shu muzey va uning bunyodkorlari haqida "Milliy tiklanish" gazetasiga "Jarqo'ton osori-atiqalari" nomi ostida maqola yozgan. Unda o'zbek davlatchiligining uch yarim ming yillik tarixini yorituvchi muzey eksponatlarining qimmati haqida fikr yuritilgan. Shu maqola keyinchalik olimda o'zbek arxeologiya fanining bilimdonlaridan biri akademik Ahmadali Asqarov haqida alohida risola yaratish fikrini quvvatlantirganligiga shubha yo'q.

Akademik Ubaydulla Isroilovich Karimov haqida esa dastlab "Bilim jonkuyari" nomli (Toshkent, 1998), uning rafiqasi, tarix fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Nafisa Sodiqova haqida "Muzey ishining fidoiysi" (Buxoro, 2000) sarlavhali xotira-hikoyalarini chop ettirgan.

A.Qayumov yana ilm jabhasida topgan do'stlari Abduqodir Hayitmetov, Quvomiddin Munirov to'g'risida ham publitsistik asarlarini nashr ettirgan.

Muhokama. Olim asarlarining tili ularni qiziqarli va o'qimishli qilgan muhim qirralardan biridir. Masalan, olim soha mutaxassislari haqida qalam tebratar ekan, ularni bu sohadan uzoq bo'lganlar yaxshi anglashi uchun "Bu gaplarni mutaxassis bo'lmagan kitobxonga bunday izohlasa bo'lar" degan jumladan foydalanib, e'tibor va hushyorlikni oshirishga uringani kuzatiladi. Shunday o'rinlarda olim o'zi so'z yuritayotgan soha atamalariga murojaat etib, ayrim izohlarni keltirib o'tadi. Shu yo'l bilan u ham o'z asarining ilmiyligini oshirsa, ham o'zi yaratayotgan qahramon obraziga ishonchni mustahkamlaydi.

Olim shaxsiyati yoritilayotgan ijodkor insonlarning sifatini yorqin ochish uchun keng ko'lamda fikr qiluvchi, g'oyat bilimdon, vatanparvar, ilmparvar, daho, boy hayotiy tajribaga ega, g'amxo'r, mehribon, kechirimli, fidoyi singari qator sifatlashlardan ko'p va o'rinli foydalangani ko'zga tashlanadi. Hatto u Qori Niyoziyga nisbatan *"afsonaviy zot"* sifatlashini qo'llagani kuzatiladi.

A.Qayumov biografik asarlarida e'tiborni tortadigan yana bir jihat: olimning epigraf qo'llash mahorati bilan bog'liq. Masalan, olim ustozi V.Y.Zohidovga bag'ishlangan risolasining "Kelishmovchilik" deb nomlangan qismida "Ota va ona bir-biri bilan urishsa, bolaning tishi qamashadi" degan qadimgi turkiy xalq maqolini, akademik Rahima Aminova haqidagi risolasidan o'rin olgan "Qora ko'ylak" qismida esa Dinoraning "Lyubvi uchit chernoe plate" (Sevgiga o'rgatar qora ko'ylaklar) misrasini epigraf sifatida tanlab qo'llagani fikrimizga dalil bo'la oladi.

Xulosa. A.Qayumov qaysi bir mumtoz yoki zamonaviy ijodkorning badiiy yoki ilmiy asarlarini tadqiq qilmasin, avvalo, u yashagan zamon, muhit, davr ichiga bir necha manbalarni o'rganish orqali kirib boradi, so'ngra bevosita ijodkor shaxsiga oid ma'lumotlarni yig'adi, nihoyat, o'zi bevosita muallif ruhiyatiga oshno bo'lib, u bilan go'yo muloqotga kirishadi, aniqrog'i, qariyb uning siymosiga ko'chib o'tadi. Shu sababli A.Qayumovning har bir tadqiqoti go'yo yangidan yaratilgan badiiy asar, yoxud mumtoz ijodkorlarning

yangidan tug‘ilishi yanglig‘ taassurot uyg‘otadi. Bularning barchasiga olim o‘zi o‘rganayotgan ob’ektga chuqur yondashuvi va bir vaqtning o‘zida bir necha metoddan foydalana olish mahorati orqali erishgan.

A.Qayumov yaratgan ilmiy, ilmiy-ommabop va badiiy asarlar uning iste’dod qirralarini, tadqiqotchilik va ijodkorlik mahoratini, dunyoqarashini, adabiyot ilmi bo‘yicha egallagan bilimlarini o‘zida namoyon etadi. Uning hayot yo‘li va ma’rifiy faoliyati hozirgi yoshlar uchun har tomonlama ibrat bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR:

1. Qayumov A. O‘zbekiston akademiklari. – T.: Mumtoz so‘z, 2011. – B.5.

2. Qayumov A. O‘zbekiston akademiklari. – T.: Mumtoz so‘z, 2011. – B.9.

3. Bahodir. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – B.166.

4. Қуронов Д. Биографик метод / Адабиётшуносликка кириш. – Toshkent; O‘qituvchi, 2002.

5. Adizova O. «Les classement des faits folkloriques français." innovative development in educational activities 2.21 2023: 79-87.

6. Adizova O. «Bolalar o'yinlari xalqning milliy an'analaridan so'zlaydi (buxdu. uz) 2023.43.

7. Adizova O. “The classification of the plot composition of the prosaic folklore.” (buxdu. uz) 2023.75b

8. Adizova Obodon. “Fransuz va o‘zbek tillarida hayrat va shubha diskursida frazemalar ishtiroki.// Центр научных публикаций”(buxdu. uz) 41, 2023.

9. Adizova Obodon. « L’étude systématique des moeurs et des coutumes." // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 42.42 ,2023.

10. Adizova O.I « World literature and biographical method”. // ISJ Theoretical & Applied science, Issue: 10, Vol: 66. Section 29. Lit. Folk. Translation – 2018.

11. Istamovna A.O, Suvonqulova S The Essential Function of the Proverb. // Best Journal of Innovation in Science, Research and, 2023.

12. Adizova O. «La locution–un groupe de mots qui joue» // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2023.

13. Adizova O. Шарл Огюстен де Сент-Бёв - основатель биографического метода // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2023.

14. Adizova O. World literature and biographical method. // ISJ Theoretical & Applied science. Year: 2018. Issue: 10. Volume: 66. Section 29. Literature.

UO‘K 82

SOBIR O‘NAR HIKOYALARIDA SARLAVHA, ILK VA SO‘NGGI JUMLA POETIKASI

Berdiyeva Zulayxo Ochilovna,
Qarshi Davlat Universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti
berdiyevazulayho5@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek zamonaviy hikoyachiligining yorqin namoyandalaridan biri Sobir O‘nar ijodida sarlavha, ilk va so‘nggi jumlalarning poetik vazifalari, ularning badiiy funksiyalari, g‘oya va mazmun bilan uyg‘unligi tahlil qilinadi. Ushbu jihatlar muallif uslubining o‘ziga xosligini ochib beruvchi poetik belgilar sifatida yoritiladi. XX asr o’zbek nasri poetikasidagi asosiy tamoyillar va nazariy yondashuvlar tahlilga tortiladi. Yozuvchi Sobir O‘narning “Safura xolamning ertagi”, “Minnat” hikoyalaridagi ijodkor uslubi yoritiladi va hikoyalar poetikasi qiyosiy-tahliliy, semantik metodlar asosida atroflicha tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar: *hikoya, sarlavha, ilk jumla, so‘nggi jumla, poetika, ijodiy, metod, uslub, konsepsiya, nasr.*

ПОЭТИКА ЗАГЛАВИЯ, ПЕРВОГО И ПОСЛЕДНЕГО ПРЕДЛОЖЕНИЯ В РАССКАЗАХ САБИРА УНАРА

Аннотация. *В данной статье анализируются поэтические функции заглавия, первого и последнего предложений, их художественные функции, гармония с идеей и содержанием в творчестве одного из ярких представителей современного узбекского сказительства — Сабира Унара. Эти аспекты освещаются как поэтические признаки, раскрывающие уникальность авторского стиля. К анализу привлекаются основные принципы и теоретические подходы в поэтике узбекской прозы XX века. Творческий стиль писателя Сабира Унара освещён в рассказах “Сказка тёти Сафуры”, “Миннат”, а поэтика рассказов подробно исследована на основе сравнительно-аналитических, семантических методов.*

Ключевые слова: *рассказ, заголовок, первое предложение, последнее предложение, поэтика, творчество, метод, стиль, концепция, проза.*

THE POETICS OF THE TITLE, FIRST AND LAST SENTENCE IN SABIR UNAR'S STORIES

Abstract. *This article analyzes the poetic tasks of the title, first and last sentences, their artistic functions, harmony with ideas and content in the work of one of the brightest manifestations of Uzbek modern storytelling – Sobir Unar. These aspects are illuminated as poetic symbols that reveal the originality of the author's style. The basic principles and theoretical approaches in 20th-century Uzbek prose poetry are subject to analysis. The creative style of the writer Sobir O‘nar in the stories “The tale of Aunt Safura”, “Minnat” is illuminated, and the poetics of the stories are studied in detail on the basis of comparative-analytical, semantic methods.*

Keywords: *story, title, first sentence, last sentence, poetics, creative, method, style, concept, prose.*

Kirish. Adabiyotning muhim nasriy janrlaridan biri bo‘lgan hikoya janrida voqelikning yuzaga chiqishida, kitobxonlar qalbiga yetib borishida, ijodkor qarashlari va uslubining real tarzda ifodalanishida bir qancha asosiy komponentlar asos bo‘lib xizmat qiladi, Shular qatorida hikoyaning kirish eshigi bo‘lgan sarlavha, ilk jumla poetikasi hamda xulosaviy fikrlar tahliliga bag‘ishlangan so‘nggi jumla poetikasi muhim ahamiyatga ega vositalar hisoblanadi. Adabiy asarda sarlavha, boshlanish va yakun – bu oddiy texnik unsurlar emas, balki muallifning g‘oyaviy yo‘nalishini, estetik qarashlarini, va eng muhimi, o‘quvchi bilan o‘zaro muloqot uslubini belgilovchi asosiy poetik vositalardandir. Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida bu unsurlar hikoyaning ichki dinamikasini belgilashda alohida o‘rin egallaydi. Sarlavha poetikasining funksiyalari bular psixologik *fon yaratish, g‘oya signalini berish, o‘quvchini qiziqtirish va o‘ylantish, ko‘p qatlamlilikni belgilash* kabilar. Sobir O‘nar hikoyalari bu borada namunali misollarni taqdim etadi. Sobir O‘nar sarlavhalarni tanlashda nihoyatda ehtiyotkor va badiiy sezgir yozuvchidir. Ularning

ko‘pchiligi *qisqa,* ammo *ma’no yuklangan*, *ramziy*, *metaforik,* hikoyaning *psixologik va falsafiy* qatlamlarini anglatadi. Masalan, “Minnat” sarlavhasi orqali muallif insonlar orasidagi oqibat va ta’magirlik kabi tushunchalarni bir-biriga zid qo‘yib, kontrast holatini ifodalaydi. “So‘roq”da esa nafaqat jismoniy tergovni, balki ichki vijdon so‘rog‘ini ham anglatadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Bu sarlavhalar o‘quvchini ruhiy tayyorgarlikka chorlaydi va ularni hikoyaning ma’naviy o‘qiga yaqinlashtiradi. “Bir o‘larmon chavandoz” hikoyasida sarlavha nomidanoq kitobxonning ko‘z oldiga zabardast va o‘ktam o‘g‘lon chavandoz timsoli gavdalanadi. Yozuvchining “Safura xolamning ertagi” hikoyasi o‘zbek adabiyotining muhim asarlaridan biri bo‘lib, hikoyada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining ruhi, haqiqat va ertak o‘rtasidagi nozik chegara qatlami poetik tasvir ifodasi orqali yoritib berilgan. Asarning sarlavha poetikasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu sarlavha o‘zida bir necha qatlamdagi ma‘noni yuklaganiga guvoh bo‘lamiz.

Hikoya sarlavhasidagi “Safura xola” oddiy xalq vakilasi va juda ham mehribon, xalq donoligi va donishmandligini o‘zida jamlagan ayol obrazi sifatida tasvirlanadi. “Ertagi”- so‘zi esa ramziy ma’noda ammo hayotiy haqiqatlarga boy hikoya tarzida ifodalangan. Bu so‘z orqali muallif bolalikning beg‘ubor va sehrli olamini, xalq og‘zaki ijodining hayotiy ma’nolarini va hayotiy ildizlarini kitobxonga eslatadi. Adabiy jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, sarlavha xalq donishmandligining timsoli bo‘lgan Safura xola orqali bir avloddan boshqasiga o‘tadigan hayot falsafasini, ertak orqali aytilgan haqiqatni ochib beradi.

Sobir O‘narning navbatdagi hikoyasi “Begona mehmon”[6] da ham sarlavha o‘zida semantik yuk tashishi bilan xarakterlidir. Hikoyada sarlavha poetikasi, ya’ni sarlavhaning mazmun va badiiy g‘oya bilan qanday uyg‘unlashgani – asarning asosiy g‘oyasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida asar sarlavhasini tahlilga tortamiz. Sarlavha: “Begona mehmon”. Ikki so‘zdan iborat bo‘lgan sarlavha kitobxonda tezda qiziqish hamda savol hissini uyg‘otadi: kim begona?, kim mehmon?, nima sababdan begona? Bu sarlavha shunchaki voqeani ifodalab qolmay, balki ichki ma’no va ramziy yuk ham olib keladi. Sarlavhadagi birinchi so‘z “begona” so‘zi psixologik hamda ijtimoiy masofani anglatadi. “Begona” so‘zi tashrif buyurgan kishining emas, balki unga munosabat bildirayotgan insonlarning ruhiy holatini ko‘rsatadi. Bu so‘z ijtimoiy yotlik, odamlar orasidagi begonalik, ya’ni mehr-oqibat yo‘qolib borayotgan jamiyat holatini ham ifodalaydi. “Mehmon” – so‘zi esa qadriyat va odob timsoli ma’nosini bildiradi. O‘zbek madaniyatida mehmon har doim hurmatga loyiq. Mehmonlik – milliy qadriyat. Ammo ushbu hikoyada “mehmon” – begonalashgan, qadriyatlardan yiroqlashgan jamiyatdagi insoniy rishtalar so‘nib borayotganini bildiradi. Ikki so‘zning zidligi ya’ni kontrast munosabati – sarlavhaning poetik kuchini oshiradi.

“Begona” va “mehmon” so‘zlari o‘zaro semantik ziddiyat hosil qiladi. Mehmon – izzat-ikrom bilan kutib olinadigan inson. Begona esa – yot, chetdagi odam. Demak, bu sarlavha orqali yozuvchi jamiyatda insonlar orasidagi mehr-muhabbatning susaygani, hatto mehmon ham begonalashib qolganligiga e’tibor qaratadi. Asarda bir kishi uzoq yillardan keyin o‘z tug‘ilgan qishlog‘iga keladi, ammo u yerda uni tan olmaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilk jumla poetikasi bu hikoyaning boshlanishi – o‘quvchini voqea va muhitga olib kiradigan “eshik”dir. Sobir O‘nar bu “eshik”ni ochishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri dramatik yoki ruhiy holatni tasvirlashdan boshlaydi, ko‘pincha *diolog, ichki monolog,* yoki *psixologik zarba* bilan kiradi. Hikoya muhitini, qahramon kayfiyatini birinchi jumladanoq anglatadi. Masalan: “Bu tun odatdagidan ko‘ra og‘irroq kechdi.” “U kimligini eslolmadi, lekin yuragi bezovta urardi.” Bu kabi boshlanishlar darhol o‘quvchini syujet ichiga tortadi, savol uyg‘otadi va davom etishga undaydi. Yuqorida tahlilga tortilgan “ Safura xolamning ertagi” hikoyasida ham ilk jumla poetikasi asarga kirish eshigini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Har gal Safura xolamning ovozini eshitsam, bolaligim esimga tushadi”.

Asarga kirish vazifasini bajargan ilk jumla juda iliq, ohangdor tarzda yozilgan. Unda quyidagi poetik elementlar bor: bolalikni eslash – o‘quvchini hissiy jihatdan tortadi, yurakni ezadi, sokin va samimiy kayfiyat yaratadi. Safura xolaning ovozi – ertak aytadigan, mehrli, vaqtni to‘xtatib qo‘yadigan ovoz sifatida tasvirlanadi. Poetik ohang bu jumlada vaqt va makon eriydi. Har gal degani – doimiylik, ovoz esa ruhiy aloqa ifodasidir. Ilk jumla o‘quvchini darhol hissiy jihatdan hikoyaga tortadi, muallifning shaxsiy xotirasi orqali umumiy milliy xotiraga bog‘laydi. Yozuvchining “ Begona mehmon ” hikoyasida ham ilk jumla poetikasi asar mazmunida alohida o’ringa ega. *“Matlab aslida shu Oqmoralni deb dunyoga kelgan ekan… ”*

Ushbu jumlaning semantik yuk tashishiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, jumla oddiy hamda juda qisqa ko‘ringani bilan, aslida butun hikoyaning falsafiy asosini, balki, bosh qahramon Matlab cholning taqdirini ham ochib beradi. “Matlab” degan ismning o‘zi “maqsad”, “niyat” ma’nolarini anglatsa-da, bu yerda u inson - bir shaxs sifatida qo‘llanmoqda. Bu yerda yozuvchi kitobxonni chuqur bir savol bilan o‘ylantiradi: inson

hayotining mohiyati nima? U nima uchun yashaydi? Asar kontekstida bu bevosita shakldaemas, balki, bilvosita shaklda badiiy obrazlar vositasida bayon qiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ilk jumlani poetik jihatdan tahlil qilganimizda quyidagi jihatlarni ochib beramiz. “Shu Oqmoralni deb dunyoga kelgan ekan…” – bu ibora taqdirga ishora qiluvchi metoforadir. Adib bu jumla bilan aytmoqchi: hayotning ma’nosi, sababi, yo‘nalishi go‘yo faqat bitta shaxs Oqmoral orqali belgilanadi. Bu g‘oya odatiy realistik tasvirdan ko‘ra poetikroq, ya’ni ruhiy-falsafiy darajadagi tasvirdir. Bu jumla lirik ohangda yozilgan – yozuvchining ichki ovozi unda eshitilib turadi. U inson hayoti ustidan xolis kuzatuv emas, balki ruhiy kechinma sifatida ifodalangan. Bu esa yozuvchining she’riy yo‘sindagi nasriy uslubiga dalildir. Jumla biroz noaniq, ya’ni aniq sabablarsiz: “...shu Oqmoralni deb...” [7] – nima deb? – “sevgisi uchunmi? fojiasi uchunmi?” Bu ochiq qoldirilgan.

Yozuvchi bu bilan o‘quvchini tafakkurga undaydi. Jumla hikoya tarzida emas, xulosa tarzida berilgan. Go‘yo bir voqea emas, bir umr haqida so‘z ketyapti. Oddiy tildagi chuqur fikr – bu minimalizm orqali ifodalangan poetik kuchni ko‘rsatadi. Jumla qisqa, ammo og‘ir yuk tashiydi. Bu ibora romantik va fojiali kayfiyat uyg‘otadi. O‘quvchi hali Oqmoral kimligini bilmasa-da, jumlaning o‘ziyoq badiiy iztirobni beradi. Bu esa emosional kirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi – o‘quvchi darhol asarga hissiy jihatdan bog‘lanadi. Muallif hikoyaning ilk jumlasidayoq badiiy-falsafiy, poetik og‘irlikni kiritgan. Bu jumla orqali qahramonning butun hayoti qisqa iborada jamlanadi, kitobxonni tafakkur qilishga undaladi, poetik ohang va fojiali lirik kayfiyat beriladi. Bu holat asarning faqat nasriy hikoya emas, she’riy nafasga ega adabiy asar ekanini ko‘rsatadi.

So‘nggi jumla hikoya tugashi emas, balki o‘quvchining ichki tafakkurida yangi jarayon boshlanishi bo‘lishi mumkin. Sobir O‘nar yakunlarda *sukut*, *katarsis*, yoki *ochiq yakun* vositalaridan foydalanadi. Yakuniy jumlalar ko‘pincha *ruhiy cho’qqi* sifatida xizmat qiladi. Qahramonlar ichki dunyosining o‘zgarishini, *kechikkan anglash* holatini ochib beradi.

“U jim bo‘lib qoldi. Endi gapirishning foydasi yo‘q edi.”

“Shahar yoritilgan edi, lekin uning ichkarisi zulmat edi”.

Muhokama. Bu kabi yakunlar hikoya mantiqiy tugagan bo‘lsa-da, o‘quvchining tafakkurida davom etadi. Bu uslub o‘zbek adabiyotidagi zamonaviy katarsisning yorqin namunalaridan biridir. “Safura xolamning ertaklari tugadi, lekin uning ovozi yuragimda hamon jaranglaydi” [8]. Bu jumlada poetik ohang ancha chuqur tasvirlangan. Masalan, ertakning tugashi, bu nafaqat ertak, balki, bir avlodning, bir davrning yakunidir. Ovozning jaranglashi – esda qolgan, yurakka muhrlangan donishmandlik, mehr, hayot saboqlarini ifodalaydi. So‘zlar ohangdor va yurakka yaqin. “Tugadi – jaranglaydi” kontrasti orqali vaqt o‘tishi va xotira abadiyligi eslatilgan. Sobir O‘narning “Begona mehmon” asarida so‘nggi jumla poetikasi haqida gapirganda, avvalo asarning umumiy ohangi va mavzusini hisobga olish kerak. Odatda, so‘nggi jumla – bu asarning ruhini, asosiy fikrini, yoki mavzuning kulminatsiyasini ifodalovchi eng muhim qism bo‘ladi. “Begona mehmon” asarining so‘nggi jumlasi poetik jihatdan quyidagicha ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

– Bilarkansiz, bilarkansiz-a...-so‘ng birdan tetiklanib: - Qaydan bildingiz? – deb so‘radi va qulog‘ini yelpana qilib turdi [9]. Ushbu jumla asar xotimasi bo‘lib, ramziy ma’no kasb etadi. So‘nggi jumla ko‘pincha asosiy mavzuni ramziy ifoda qilishga xizmat qiladi, ya’ni unda begona mehmon obrazining ma’nosi, uning kelishi yoki ketishi bilan bog‘liq chuqur tushuncha mujassamlanadi. Ushbu jumla kitobxonga kuchli ta’sir qoldirishi, hissiyotlarni uyg‘otishi uchun poetik uslubda, she’riy va tasviriy vositalar bilan bezatilgan. So‘nggi jumlada yozuvchi asarning falsafiy mazmunini yoki o‘zining hayotiy qarashlarini o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘ladi. “So‘ng birdan tetiklanib@ jumlasining o‘zidayoq kitobxon Matlab cholning Oqmaralni tanib qolganiga ishora sifatida tushinadi.

Xulosa. Sobir O‘nar hikoyalarida sarlavha, ilk va so‘nggi jumlalar mustaqil poetik birliklar sifatida muhim badiiy yuklamaga ega. Ular hikoyaning ichki mohiyatini ochib beradi, muallifning ruhiy-falsafiy qarashlarini ifodalaydi, o‘quvchini o‘ylash, anglash, tahlil qilishga chorlaydi. Bu jihatlar Sobir O‘narning hikoyachilik mahoratini namoyon etadi va uning asarlarini o‘zbek zamonaviy nasri kontekstida alohida e’tiborga loyiq qiladi. Sobir O‘narning hikoyalarida sarlavha, ilk va so‘nggi jumlaning poetic o‘rni beqiyos ahamiyatga ega. Har bir qism o‘zaro uzviy bog‘lanib, asarning umumiy tuzilishi va mazmuniy-tarixiy tafakkurini yaratishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Sarlavha – o‘quvchining e’tiborini jalb qiluvchi, asarning asosiy g‘oyasini ramziy yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalovchi kalit nuqta bo‘lib, o‘quvchini hikoyaning ichki olamiga olib kiradi. Shu tariqa, sarlavha poetic jihatdan asarning ruhini anglashga yo‘l ochadi. Ilk jumla esa o‘zining jonlilik, yorqinlik va emotsional kuchi bilan o‘quvchini hikoyaga jalb etadi, u har bir hikoyaning boshlang‘ich energiyasini beradi. Bu qismda muallif o‘zining badiiy uslubi, obrazlar bilan ishlash san’ati orqali voqeani ochib berish va o‘quvchini o‘ylashga, sezishga undashga harakat qiladi. Ilk jumla ko‘pincha voqea markazini yoki asosiy muammoni e’tiborga olib, o‘quvchida tasavvur va qiziqish

uyg‘otadi. So‘nggi jumla esa hikoyaning poetic kulminatsiyasini tashkil etib, asosiy fikr, falsafiy xulosa yoki hissiy holatni yakuniy ravishda ta’kidlaydi. U o‘quvchida chuqur taassurot qoldirib, hikoyaning mohiyatini yanada mustahkamlaydi, ko‘pincha ochiq yoki ramziy tarzda asarning mavzu va muammolarini umumlashtiradi. Shuningdek, so‘nggi jumla poetic ohangda yozilganligi sababli, asarning yodda qolarli, o‘ylantiruvchi qismlaridan biriga aylanadi.

Natijada, Sobir O’narning hikoyalarida sarlavha, ilk va so‘nggi jumla o‘zaro muvofiqlikda ishlanib, badiiy ifoda va mazmunning chuqur qatlamlarini yaratadi. Ular hikoyaning badiiy tuzilishini yanada jozibador va ta’sirchan qiluvchi elementlar sifatida muallifning poetic ustaligining yorqin namunasidir. Shu bois, bu qismlarga diqqat bilan yondashish, ularni chuqur tahlil qilish Sobir O‘nar ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini va zamonaviy adabiyotdagi o‘rnini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. *O‘nar Sobir. Tanlangan hikoyalar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2020.*
2. *Qodirova, Z. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi poetikasi. Toshkent: Fan, 2018.*
3. *Karimov, S. “ Hikoya janrida sarlavha va yakun poetikasi”// Adabiyot nazariyasi jurnali, 2021-yil, №3.*
4. *U. Jo‘raqulov ,, Mixail Baxtin kashfiyotlari ” // ,, Jahon adabiyoti ” jurnali, 2014-yil 11-12-son.*
5. *O’nar Sobir “ Chambilbelning oydalasi ” T. 2024-yil. Qissa va hikoyalar to’plami.*
6. *O’nar Sobir “ Bibisora ” Qissalar, hikoyalar, esselar to‘plami. T. “O‘zbekiston”-2011.*
7. *Begona mehmon hikoya. T.- “O‘zbekiston”. B.-246.*
8. *O‘nar Sobir Safura xolamning ertagi. Hikoya. T.- “Yoshlik” j. B,-89.*
9. *O‘nar Sobir Begona mehmon. Hikoya T-“O‘zbekiston”-2011. B.-262.*

UO‘K 82‘

ISAJON SULTONNING “BOQIY DARBADAR” ASARIDA POSTMODERNIZM XUSUSIYATLARI

Davronova Ra’no Alisher qizi,
Buxoro davlat universiteti izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romani zamonaviy o‘zbek adabiyotida postmodernizm unsurlarining yorqin namunasiga aylangani tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – asarda qo‘llangan badiiy-estetik tamoyillarni aniqlash, ularni nazariy jihatdan izohlash va milliy adabiyotdagi yangicha ijodiy yo‘nalish sifatida baholashdir. Shu maqsadda qiyosiy-tahliliy, semantik va hermenevtik metodlar qo‘llanib, romandagi intertekstuallik, fragmentarlik, ironik ohang, metamatnlik hamda ko‘p qatlamli talqin imkoniyatlari bosqichma-bosqich tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida asardan olingan iqtiboslar nazariy qarashlar bilan solishtirilib, matnning falsafiy, ruhiy va ijtimoiy qatlamlari izchil sharhlanadi.*

Kalit so‘zlar: *postmodernizm, Isajon Sulton, “Boqiy darbadar”, intertekstuallik, fragmentarlik, ironiyalilik, metamatnlik.*

ОСОБЕННОСТИ ПОСТМОДЕРНИЗМА В ПРОИЗВЕДЕНИИ ИСАЖОНА СУЛТАНА «ВЕЧНЫЙ СКИТАЛЕЦ»

Аннотация. *В данной статье анализируется, как роман Исаджона Султона «Вечный скиталец» стал ярким примером элементов постмодернизма в современной узбекской литературе. Цель исследования – выявить художественно-эстетические принципы, использованные в произведении, теоретически интерпретировать их и оценить как новое творческое направление в национальной литературе. С этой целью применяются сравнительно-аналитические, семантические и герменевтические методы, поэтапно анализируются проявления интертекстуальности, фрагментарности, иронического тона, метатекстуальности и многоуровневой интерпретации в романе. В процессе исследования цитаты из произведения сопоставляются с теоретическими положениями, последовательно раскрываются философские, психологические и социальные пласты текста.*

Ключевые слова: *постмодернизм, Исаджон Султон, «Вечный скиталец», интертекстуальность, фрагментарность, ироничность, метатекстуальность.*

FEATURES OF POSTMODERNISM IN ISAJON SULTAN'S WORK «ETERNAL WANDERER»

Abstract. *This article analyzes how Isajon Sultan's novel «Eternal Wanderer» has become a vivid example of postmodern elements in modern Uzbek literature. The aim of the research is to identify the artistic and aesthetic principles employed in the work, to interpret them theoretically, and to evaluate them as a new creative direction in national literature. To achieve this purpose, comparative-analytical, semantic, and hermeneutic methods are applied to systematically analyze the novel's intertextuality, fragmentation, ironic tone, metatextuality, and multilayered interpretative possibilities. Throughout the research process, quotations from the work are compared with theoretical perspectives, and the philosophical, psychological, and social layers of the text are consistently interpreted.*

Keywords: *postmodernism, Isajon Sultan, "Eternal Wanderer," intertextuality, fragmentation, irony, metatextuality.*

Kirish. XX asr oxiri va XXI asr boshida o‘zbek adabiy jarayonida yangi estetik oqimlar, xususan, postmodernizm unsurlari sezilarli darajada namoyon bo‘la boshladi. Milliy adabiyotimizda an’anaviy modernizm va realizm chegaralaridan chiqib, shakl, mazmun, til va struktura jihatidan yangilanishga intilish kuzatildi. Shu jarayonda Isajon Sulton o‘zining falsafiy, ramziy va ko‘p qatlamli asarlari bilan alohida o‘rin egallaydi. Uning “Boqiy darbadar” romani ham postmodern adabiyotga xos xususiyatlar bilan boyitilgan bo‘lib, bugungi o‘zbek adabiy tafakkurida yangicha qarashlarni shakllantiradi.

Isajon Sulton zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetakchi namoyondalaridan biri bo‘lib, uning “Boqiy darbadar” romani o‘zbek nasrida postmodernizm tamoyillarining yorqin namunasi sifatida baholanadi. Isajon Sulton bu roman haqida gapirarkan: “…Bor-yo‘g‘i sakson sahifalik kichkinagina shu roman juda uzoq yozildi, men uni taxminan 1998-yilda boshlagan edim. Muqaddas manzillarini, maqsadlarini yo‘qotib qo‘yib, dunyoda tentirab yurgan odamlar dunyoda ko‘pday tuyular, lekin ifoda uchun shakl topolmas edim. Qiziq-da, bir etikdo‘z Iso alayhissalomga qo‘l ko‘tardi-yu abadiy yashash degan tavqi la‘natga duchor bo‘ldi. Barhayotlik ham musibat bo‘lishi mumkinligi haqida sira o‘ylab ko‘rmagan ekanman, vaholanki, sonsiz-sanoqsiz insonlar dunyoda mangu qolish ishtiyoqida yelib-yugurmoqdalar”, degan edi.

Adibning “Boqiy darbadar” kitobiga so‘ngso‘z yozgan adabiyotshunos Rahimjon Rahmat shunday fikrni o‘rtaga tashlaydi: “Isajonni “Boqiy darbadar” asarini yozishga turtki bergan tuyg‘u aynan qiyomatni favqulodda kuchli sezish, bu dunyo qadriyatlarining qiyomat degan ulkan tegirmonda yanchilishini ravon va jonli his etishdir. Xuddi mana shu tuyg‘u “Boqiy darbadar” asarining dastlabki asosidir. Inson chalayotgan hayot degan kuyda darbadarlik ohanglari ustun ekanligini anglaydi yozuvchi”. Asarda insonning o‘zligini izlash, abadiy yo‘ldalik ramzi, vaqt va makonning parchalanganligi, intertekstual murojaatlar keng o‘rin olgan. Maqolada asardan keltirilgan parchalar orqali har bir postmodernistik xususiyatlar birma-bir tahlil qilingan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o‘zbek adabiyotida postmodernizm unsurlarini nazariy va amaliy jihatdan izohlash, ularning badiiy namoyon bo‘lish shakllarini ochib berish adabiy jarayonni chuqur anglash imkonini beradi. “Boqiy darbadar” romani misolida milliy adabiyotimizda postmodernistik tamoyillarning qanchalik muvaffaqiyatli qo‘llanilayotganini ko‘rsatish, shu orqali Isajon Sulton ijodining umuminsoniy ahamiyatini belgilab berish ushbu maqolaning asosiy vazifasini tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu tadqiqotda bir nechta metodlar kompleks qo‘llanildi. Avvalo, qiyosiy-tahliliy metod asosida Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romani o‘zbek adabiyotidagi boshqa modernistik va postmodernistik asarlar bilan solishtirildi. Bu usul orqali romandagi badiiy vositalar, ramziy qatlamlar va falsafiy qarashlarning o‘ziga xosligi aniqlandi. Shuningdek, semantik tahlil metodidan foydalanilib, matndagi ramzlar, intertekstuallik unsurlari va ko‘p ma’nolilik jihatlari qatlamma-qatlam ochib berildi.

Metodologik asos sifatida Roland Bartning “matn o‘limi” nazariyasi, Lyotarning “postmodern sharoit” haqidagi g‘oyalari, Linda Xatcheonning “postmodern poetikasi” konsepsiyalari hamda Ihab Hassan tomonidan ishlab chiqilgan postmodernizm belgilari qo‘llanildi. Bundan tashqari, struktural-tahliliy yondashuv yordamida romanning syujet qurilishi, fragmentarlik va metamatnlik xususiyatlari tahlil qilindi. Hermenevtik metod orqali esa asarning mazmun qatlamlari – diniy, falsafiy, ijtimoiy va shaxsiy talqin imkoniyatlari izohlandi. Shunday qilib, turli ilmiy metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi natijasida asar postmodern adabiy-estetik hodisa sifatida keng qamrovli tahlil qilindi. Ushbu maqolada qiyosiy-tahliliy hamda semantik tahlil metodlari qo‘llanilib, romandagi badiiy unsurlar postmodernizm nazariyasi asosida sharhlanadi. Asardan misollar keltirilib, intertekstual, ironik va metamatnlik jihatlari izohlanadi.

Natija va muhokama. Postmodernizm – modernizmga qarshi yuzaga kelgan adabiy-estetik oqim bo‘lib, u quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

1. Intertekstualik – boshqa matnlar, adabiy va madaniy manbalar bilan doimiy muloqot; 2. Ironiya va parodiya – mualliflik ovozining ikkiyoqlama, ba’zan istehzoli tus olishi; 3. Fragmentarlik – voqealar syujeti uzviy emas, bo‘lak-bo‘lak shaklda bayon qilinishi; 4. Cheksiz ma’no talqinlari – bir ma’noning yagona hukmronligiga emas, balki ko‘p qirrali talqinga yo‘l qo‘yilishi; 5. Metamatn va o‘z-o‘ziga ishora – asarning o‘z matni ustida fikr yuritishi.

Intertekstuallik. Isajon Sulton romanida Sharq mumtoz adabiyoti, tasavvufiy qarashlar va xalq og‘zaki ijodi unsurlariga murojaat qiladi. Qahramonlarning o‘y-xayollari, ramziy timsollar va falsafiy monologlar ko‘pincha boshqa madaniy qatlamlardan olingan ishoralar bilan boyitiladi. Masalan, asarda ko‘tarilgan darbadarlik mavzusi tasavvufiy darveshlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq. Bu esa postmodernizmga xos matnlararo dialogni shakllantiradi. Adib romanda tasavvufiy adabiyot ramzlarini o‘z badiiy dunyosiga singdiradi. Qahramon o‘zini “osmon ostida joysiz darvesh” deb ta’riflaydi: “Men joysiz darveshman, yo‘llar meni boqiy safarga chorlaydi. Yerda manzil yo‘q, faqat yo‘lning o‘zi bor”. Bu iqtibos tasavvufiy adabiyotdagi “darvesh”, “yo‘l” va “abadiy safar” ramzlarini eslatadi. Muallif Sharq mumtoz adabiy merosi bilan zamonaviy romanni uyg‘unlashtirib, postmodern intertekstuallikni yuzaga keltiradi.

Fragmentarlik va syujetning bo‘lakliligi. Romandagi voqealar chiziqli tarzda emas, balki parcha-parcha shaklda, xotira va tush aralashgan uslubda bayon qilinadi. Masalan, bosh qahramonning yo‘lga chiqqan tasvirlari birdan uning bolaligi yoki o‘tmish xotiralari bilan kesishadi. Har bir bo‘lim qahramonning ichki kechinmalari va hayotiy tajribalarini ramziy obrazlarda ochib beradi. Bu xususiyat asarni o‘quvchi tomonidan turlicha talqin qilish imkonini beradi. Roman voqealari izchil emas, balki parchalangan xotiralar

asosida rivojlanadi. Masalan, qahramonning bolalik tasvirlari birdan yo‘l sahnalari bilan aralashadi: “Yo‘l boshida turibman. Qaysi tomonga ketishni bilmayman. Ko‘z oldimda esa bolaligimda ko‘rgan hovli, eski ariq va bobomning ovozi. Go‘yo bir vaqtning o‘zida o‘tmishda ham, hozir hamman”. Bu parchada vaqt va makonning aralashishi, xotira va real voqealar sintezi postmodernist fragmentarlik tamoyilini tasdiqlaydi.

Ironiya va istehzo. Asarda jamiyat, inson va mavjudlik haqidagi falsafiy mushohadalar ko‘pincha ironik ohangda beriladi. Masalan, qahramonning hayotdagi beqarorlik haqidagi kinoyali fikrlari, insoniy qadr-qimmatning doimiy sinov ostida qolishi haqidagi istehzoli tasvirlar roman uslubini postmodern kayfiyatga yaqinlashtiradi. Qahramon hayotdagi beqarorlikni istehzoli tarzda ifodalaydi: “Men doimiy manzil kutgan darbadarman. Lekin manzil degan narsaning o‘zi yo‘qligini anglaganimda, kulib yubordim”. Bu jumla falsafiy og‘irlikka ega bo‘lsa-da, istehzo orqali yumshatilgan.

Metamatnlik (o‘z-o‘ziga ishora). Roman o‘zining yaratilish jarayoni, yozuvchi va matn orasidagi munosabat haqida ham fikr uyg‘otadi. Ba’zi joylarda qahramonning “hikoya qilayotganini anglash”i yoki muallif ovozining to‘satdan paydo bo‘lishi postmodern adabiyotga xos xususiyatdir. Bir joyda muallif ovozi qahramonga murojaat qiladi: “Bu hikoyani sen aytayapsanmi yoki men yozayapmanmi? Balki ikkovimiz ham emasdir…”. Bu parcha metamatn unsuri bo‘lib, asar nafaqat voqeani tasvirlaydi, balki o‘zining matn sifatidagi mavjudligini ham ochib beradi.

Ko‘p qatlamli talqin imkoniyati. “Boqiy darbadar” bir vaqtning o‘zida tarixiy, falsafiy, ruhiy, ijtimoiy va ramziy roman sifatida o‘qilishi mumkin. Masalan, darbadarlik mavzusi tarixiy ma’noda milliy adabiyotdagi qochqinlik timsoli sifatida, falsafiy ma’noda insonning abadiy izlanishi sifatida, ruhiy ma’noda esa qalbning poklanish jarayoni sifatida talqin etiladi. Asarda yagona haqiqat emas, balki ko‘p qatlamli ma’no mavjud bo‘lib, bu postmodernizmning asosiy tamoyillaridan biridir. Romanning markaziy ramzi bo‘lgan “darbadarlik” turli darajada talqin qilinishi mumkin: “Darbadarlik mening qismatim, lekin men uni jazoni emas, izlanishni deb bilaman. Chunki yo‘lda bo‘lish – topish demakdir”. Bu satr: tarixiy talqin – milliy xalq taqdiridagi surgun va qochqinliklarni eslatadi; falsafiy talqin – insonning ma’naviy izlanishi; ruhiy talqin – qalbning poklanishi yo‘lidagi darveshlik tajribasiga yaqinlashtiradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Boqiy darbadar” romani zamonaviy o‘zbek adabiyotida postmodernizmning asosiy tamoyillarini mujassamlashtirgan. Asarda vaqt va makonning parchalanganligi, ironik ohang, o‘z-o‘ziga ishora va ko‘p qatlamli ramzlar keng o‘rin egallagan.

Xulosa. Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romani zamonaviy o‘zbek adabiyotida postmodernizm unsurlarining yorqin namunasi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Asarda intertekstuallik orqali Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvufiy tafakkur bilan zamonaviy nasr o‘zaro muloqotga kirishadi. Fragmentarlik romanning chiziqli syujetdan voz kechib, bo‘laklar asosida qurilishini ta’minlaydi, bu esa o‘quvchiga erkin talqin imkonini beradi. Ironik ohang va istehzo orqali hayotiy muammolar falsafiy va badiiy tasvirda yangi rang kasb etadi. Metamatnlik romanni faqat voqelik emas, balki matnning o‘zi haqida ham mushohada yuritadigan hodisaga aylantiradi. Eng muhimi, asar o‘zining ko‘p qatlamlilik xususiyati bilan tarixiy, falsafiy, ruhiy va ramziy talqinlarni birlashtiradi.

Shunday qilib, “Boqiy darbadar” o‘zbek adabiyotida nafaqat postmodernizmning nazariy jihatlarini, balki milliy badiiy tafakkurning yangi bosqichga ko‘tarilishini ham ifodalaydi. U o‘zining qisqa hajmiga qaramay, mazmunan serqatlam, badiiy jihatdan murakkab va falsafiy ma’noga boy asar sifatida xalqaro adabiy jarayonlarda ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan namunadir. Bu roman orqali Isajon Sulton zamonaviy o‘zbek yozuvchisi sifatida nafaqat milliy, balki umuminsoniy adabiy-estetik muammolarga ham yangicha yondashuv taklif qiladi. Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asari nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki umuminsoniy badiiy tafakkurda ham yangicha estetik tajribani ifodalaydi. Asarda intertekstuallik, fragmentarlik, ironik ohang, metamatnlik va ko‘p qirrali talqin imkoniyatlari postmodernizmning asosiy belgilarini namoyon etadi. Shu tariqa, mazkur roman milliy adabiyotimizda postmodernizm tamoyillarining yorqin namunasi sifatida o‘rganilishi lozim. Asarda inson qismati, darbadarlik ramzi va ma’naviy izlanish turli badiiy usullar bilan yoritilgan.

ADABIYOTLAR:

1. *Barthes, Roland. Image-Music-Text. – New York: Hill and Wang, 1977.*
2. *Hassan, Ihab. The Postmodern Turn: Essays in Postmodern Theory and Culture. – Columbus: Ohio State University Press, 1987.*
3. *Hutcheon, Linda. A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction. – New York: Routledge, 1988.*
4. *Karimov, N. “O‘zbek romanchiligida yangi estetik oqimlar.” // O‘zbek tili va adabiyoti, 2019, №2.*

– B. 45–56.

5. Lyotard, Jean-François. The Postmodern Condition: A Report on Knowledge. – Manchester: Manchester University Press, 1984.

6. Qodirov, A. "Isajon Sulton adabiyati va ramz falsafasi." // Adabiyotshunoslik, 2022, №4. – B. 77–85.

7. Sulton, I. Boqiy darbadar. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 2021.

8. Xudoyberganova, D. Zamonaviy o'zbek adabiyotida postmodernizm izlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

UO‘K 82.09:091(=512.133)

HAYDAR XORAZMIY “MAXZAN UL-ASROR” DOSTONI NUSXALARIDAGI MATNIY TAFOVUTLAR VA ULARNING TASNIFI

Eshonqulova Feruza Husniddin qizi,
Buxoro davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o‘qituvchisi
eshonqulovaferuza88@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Haydar Xorazmiy qalamiga mansub “Maxzan ul-asror” dostonining Budapesht, Qozon va London qo‘lyozma nusxalari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda avvalo qo‘lyozmalarning tashqi ko‘rinishi, xat turi, baytlar soni va boblarning strukturasiga oid ma’lumotlar berilgan. So‘ngra uchala nusxa o‘rtasidagi matniy tafovutlar, ya’ni baytlarning joylashuvi, misralarning tartibi, so‘zlarning o‘rin almashishi, qofiyadosh so‘zlardagi farqlar hamda kotiblar xatolari aniqlanib, ilmiy sharhlar keltirilgan. Natijalardan ko‘rinadiki, ayrim tafovutlar shakliy bo‘lsa-da, ba’zilarida semantik mazmun sezilarli darajada o‘zgarib ketadi. Masalan, “fol” va “bol”, “shayx” va “sidq” so‘zlari bilan bog‘liq o‘zgarishlar doston talqiniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, “vov-i zoyida” hodisasi, fonetik almashuvlar va kotiblarning ijodiy yondashuvi matnni qayta ishlab chiqishda muhim rol o‘ynagan. Tadqiqotda paleografik, kodikologik va lingvistik metodlar qo‘llanib, qo‘lyozmalardagi tafovutlarning tarixiy va ilmiy ahamiyati ochib berildi. Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ushbu qo‘lyozmalarning birortasi ham dostonning mukammal variantini to‘liq aks ettirmaydi. Shuning uchun ham “Maxzan ul-asror”ning tanqidiy matnini yaratish bugungi o‘zbek matnshunosligining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Haydar Xorazmiy, “Maxzan ul-asror”, qo‘lyozma nusxalari, Budapesht nusxasi, Qozon nusxasi, London qo‘lyozmasi, matnshunoslik, kotib xatolari, qiyosiy tahlil, tanqidiy matn.*

ТЕКСТУАЛЬНЫЕ РАСХОЖДЕНИЯ В КОПИЯХ ПОЭМЫ ХАЙДАРА ХОРЕЗМИ «МАХЗАН УЛЬ-АСРОР» И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ будапештского, казанского и лондонского копий поэмы «Махзан ул-асрор» Хайдара Хорезми, одного из ярчайших представителей узбекской классической литературы. В исследовании прежде всего представлена информация о внешнем виде рукописей, типе почерка, количестве бейтов и структуре глав. Затем были выявлены текстовые различия между тремя копиями, а именно: расположение бейтов, порядок строк, перестановка слов, различия в рифмующихся словах и ошибки переписчиков, и приведены научные комментарии. Результаты показывают, что хотя некоторые различия являются формальными, в ряде случаев семантическое содержание значительно меняется. Например, изменения, связанные со словами «фол» и «бол», «шейх» и «сидк», оказывают непосредственное влияние на интерпретацию поэмы. Кроме того, явление «вав-и заида», фонетические замены и творческий подход переписчиков сыграли важную роль в переработке текста. В исследовании использованы палеографические, кодикологические и лингвистические методы, раскрыто историческое и научное значение различий в рукописях. В заключение следует отметить, что ни один из этих списков не отражает в полной мере идеальный вариант поэмы. Поэтому создание критического текста «Махзан уль-асрор» является одной из самых актуальных задач современного узбекского текстоведения.*

Ключевые слова: *Хайдар Хорезми, «Махзан ул-асрор», рукописные списки, Будапештская копия, Казанская копия, Лондонская рукопись, текстология, ошибки переписчика, сравнительный анализ, критический текст.*

TEXTUAL DIFFERENCES IN COPIES OF HAYDAR KHOREZMI'S POEM «MAKHZAN UL-ASROR» AND THEIR CLASSIFICATION

Abstract. *This article presents a comparative analysis of the Budapest, Kazan, and London copies of the poem «Makhzan ul-asror» by Haydar Khorezmi, one of the most prominent representatives of Uzbek classical literature. The study first provides information on the physical appearance of the manuscripts, the type of handwriting, the number of couplets, and the structure of chapters. Then, textual differences between*

the three copies were identified, including the arrangement of couplets, line order, word rearrangement, differences in rhyming words, and copyists' errors, accompanied by scholarly commentary. The results show that while some differences are formal, in several cases the semantic content changes significantly. For example, changes related to the words «fol» and «bol», «sheikh» and «sidk», directly affect the interpretation of the poem. Additionally, the phenomenon of «vav-i zayda», phonetic substitutions, and the creative approach of copyists played an important role in the reworking of the text. The study employs paleographic, codicological, and linguistic methods, revealing the historical and scholarly significance of the differences in the manuscripts. In conclusion, it should be noted that none of these copies fully reflects the ideal version of the poem. Therefore, creating a critical text of «Makhzan ul-asror» is one of the most urgent tasks of modern Uzbek textual studies.

Keywords: *Haydar Khorezmi, «Makhzan ul-asror», manuscript copies, Budapest copy, Kazan copy, London manuscript, textology, copyist errors, comparative analysis, critical text.*

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Haydar Xorazmiy nomi alohida o‘rin egallaydi. Uning ijodi, xususan, “Maxzan ul-asror” dostoni o‘z davrida tasavvufiy g‘oyalarni yuksak badiiylik bilan ifoda etgan eng muhim manbalardan biridir. Bu dostonning yaratilishi nafaqat o‘zbek adabiyotining taraqqiyotida, balki butun turkiy xalqlar adabiy merosida alohida bosqich sifatida baholanadi. Chunki asarda ilohiy ma’rifat, insonning ruhiy poklanishi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar haqida chuqur mushohadalar o‘z ifodasini topgan.

“Maxzan ul-asror”ning qadimiy nusxalari bugungi kunda dunyoning turli ilmiy markazlari va kutubxonalarida saqlanmoqda. Asosan, Budapesht, Qozon va London qo‘lyozmalari ilmiy jamoatchilik e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Har bir nusxa o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning matniy tafovutlari matnshunoslikda muhim tadqiqot obyektidir. Ayniqsa, qo‘lyozmalarning qiyosiy tahlili ularning yaratilgan davri, kotiblar saviyasi, tahririy o‘zgarishlar, she’riy matnning shakliy va mazmuniy o‘zgarishlarini aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, mazkur maqolaning maqsadi – “Maxzan ul-asror”ning mavjud uch asosiy nusxasini qiyoslab, ular orasidagi tafovutlarni aniqlash va ilmiy tasnifini berishdir.

Adabiyotshunoslikda qo‘lyozmalarni qiyosiy o‘rganish alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir qo‘lyozma o‘z davrining ma’naviy-madaniy muhitidan dalolat beradi, unda kotibning imlo odatlari, ayrim hollarda shaxsiy xatolari, ba’zan esa ongli tahririy o‘zgarishlari aks etadi. Shuning uchun ham matniy tafovutlarni oddiy yozuv xatolari sifatida emas, balki badiiy matnning tarixiy taraqqiyoti, uning o‘zgarish jarayoni sifatida talqin etish lozim. Bu jihatdan, Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostonining Budapesht, Qozon va London nusxalarini qiyosiy tahlil qilish ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, matnshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Budapesht qo‘lyozmasi ikki dostonni o‘z ichiga olgan majmua shaklida bo‘lib, birinchi matn Azraqi Xaraviyning “Alfiya va Shalfiya” masnaviysi, ikkinchisi esa “Maxzan ul-asror”dir. Ushbu qo‘lyozma tashqi jihatdan ham o‘ziga xosdir: jigarrang charm muqovali, naqshinkor bezaklar bilan ziynatlangan, satrlar ikki ustunda yozilgan, ramkalar tillarang va moviy ranglar bilan bezatilgan. Bunday tashqi ko‘rinish asarning nafaqat matniy, balki estetik qimmatini ham oshiradi.

Qozon nusxasi faksimeyl shaklda bo‘lib, uning asl manbasi Venada saqlanadi. Oq-qora rangda, nasx xatida tartibli yozilgan bu nusxa XIX asrning o‘rtalariga taalluqli bo‘lib, unda 1858-yilga oid ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu nusxaning matni boshqa qo‘lyozmalar bilan qiyoslanganda qisqaroq bo‘lib, 603 baytdan iboratdir.

London qo‘lyozmasi esa Add 7914 inventar raqami ostida Britaniya kutubxonasida saqlanadi. Ushbu nusxa Hirotda ko‘chirilgan bo‘lib, 337 betlik majmua tarkibiga kiradi. “Maxzan ul-asror” dostonining 115b-141b sahifalari aynan Haydar Xorazmiy ijodiga tegishlidir. Unda kotib Muhammad ibn Hasan Ansoriy tomonidan nasta’liq xatida matn ko‘chirilgan. London nusxasining o‘ziga xosligi shundaki, unda boblar alohida nomlar bilan ajratilgan, asarning strukturasi to‘liq saqlangan.

Qo‘lyozmalardagi tafovutlar, asosan, baytlarning joylashuvi, misralarning tartibi, so‘zlarning yozilishi, qofiyalardagi farqlar va ayrim o‘rinlarda kotib xatolari bilan bog‘liqdir. Masalan, “Basmala” qismidagi baytlar har uchala nusxada mavjud bo‘lsa-da, ularning joylashuvi turlicha. Budapesht nusxasida: “Haqning oti birla G‘afur-u Hakim, Boshla har ishni ey, biliklik hakim” tarzida yozilgan bayt, Qozon nusxasida: “Boshlasa har ishni biliklik Hakim, Haqning oti birla G‘afur-u Rahim”, London nusxasida esa: “Boshlasa har ishni dono hakim, Tengri oti birla G‘afur-u Rahim” shaklida uchraydi. Bu tafovutlar mazmunga katta ta’sir ko‘rsatmasa-da, matnshunoslik nuqtai nazaridan muhimdir.

Shuningdek, ayrim baytlarda so‘zlarning o‘rin almashishi yoki sinonimlar qo‘llanilishi kuzatiladi. Bu holat kotibning ijodiy yondashuvi yoki xato qilganidan dalolat berishi mumkin. Masalan, Iskandar

Mirzoning madhiga bag‘ishlangan baytda London nusxasida “fol” so‘zi, Qozon va Budapesht nusxalarida esa “bol” so‘zi qo‘llanadi. Mazmunan “bol” so‘zining qo‘llanishi to‘g‘riroq, chunki u “yuksalmoq, qanot yozmoq” ma’nosini anglatadi.

Shu tarzda, uch nusxa o‘rtasidagi farqliliklar bir tomondan matnning turli davrlarda qayta ko‘chirilganini, boshqa tomondan esa kotiblarning individual xususiyatlarini ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlil esa “Maxzan ul-asror”ning mukammal tabdil variantini yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Haydar Xorazmiy “Maxzan ul-asror” dostonining Budapesht, Qozon va London nusxalarini qiyosiy tahlil qilishda matnshunoslik fanining an’anaviy va zamonaviy metodlariga tayanildi. Tadqiqot jarayonida qo‘lyozmalarni o‘rganishning paleografik, kodikologik hamda lingvistik usullari bir-biri bilan uyg‘un holda qo‘llanildi. Ushbu yondashuvlar nusxalarning tashqi ko‘rinishi, yozuv turi, baytlar soni, boblar tuzilishi, qofiya va aruz vazni, shuningdek, kotiblar tomonidan kiritilgan xatoliklarni aniqlash imkonini berdi.

Avvalo, qo‘lyozmalarning asosiy manbalari aniqlanib, ularning saqlanish joyi va inventar raqamlari qayd qilindi. Budapesht nusxasi Vengriya Milliy kutubxonasida, Qozon nusxasi Vena qo‘lyozmasining faksimeyl ko‘rinishi asosida, London nusxasi esa Buyuk Britaniya kutubxonasida saqlanadi. Tadqiqotda ushbu manbalar bevosita qiyoslandi, ularning sahifa tuzilishi, satrlarning joylashuvi, yozuv uslubi haqida ma’lumotlar yig‘ildi.

Matnshunoslikda qo‘lyozmalarni qiyoslashda ikki asosiy yo‘l qo‘llanadi: birinchisi, tashqi ko‘rinish va kotiblik xususiyatlarini aniqlash, ikkinchisi esa matnning ichki strukturasini solishtirish. Ushbu tadqiqotda har ikki yo‘l uyg‘unlashtirildi. Masalan, Budapesht nusxasida qo‘lyozmaning tashqi qiyofasi – muqova bezaklari, satrlarning rangli ramkalar bilan ajratilishi qayd etildi; London nusxasida esa kotibning ism-sharifi, yozuvning nasta’liq xatida bitilgani, boblarning alohida nomlar bilan ajratilganligi aniqlab chiqildi. Bu jarayonlarda kodikologik usul yetakchi rol o‘ynadi.

Matnning ichki tuzilishini qiyoslashda lingvistik va stilistik tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlilda alohida baytlar, misralar va hatto so‘zlarning joylashuvi solishtirildi. Masalan, “Basmala” qismidagi baytlarning uch nusxada turlicha shaklda berilishi misol tariqasida tanlandi. Ushbu tahlilda asosiy e’tibor matndagi semantik farqlarga qaratildi. Shuningdek, ba’zi baytlarda qofiyadosh so‘zlarning o‘rnini almashishi, ayrim o‘rinlarda “fol” o‘rniga “bol” kabi so‘zlarning keltirilishi alohida qayd qilindi. Bu esa kotiblarning imlo xatolari va individual yondashuvlarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda qiyosiy-matnshunoslik metodining asosiy tamoyillaridan biri – matndagi tafovutlarni nafaqat qayd qilish, balki ularni ma’no jihatidan sharhlash ham qo‘llanildi. Masalan, London nusxasida uchraydigan “shayx” so‘zining Budapesht va Qozon qo‘lyozmalarida “sidq” shaklida qo‘llanishi semantik jihatdan muhim farq sifatida tahlil qilindi. Bu o‘zgarish matnga qanday ta’sir ko‘rsatishini izohlash orqali qo‘lyozmalar o‘rtasidagi tafovutlarning mazmuniy oqibatlari aniqlab berildi.

Yana bir muhim metodologik yondashuv – qo‘lyozmalarning aruz vazni va qofiya tizimi asosida solishtirilishi bo‘ldi. Baytlarning aruz vaznida yuzaga kelgan tafovutlar kotiblarning yozuv xatolari yoki og‘zaki rivoyat asosida qo‘shilgan o‘zgarishlar bilan izohlandi. Shu bois, aruz tahlili ham tadqiqotning muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida qo‘lyozmalarning ayrim joylarida uchraydigan kotib xatolari ham alohida e’tiborga olindi. Masalan, London qo‘lyozmasida ayrim baytlarning ikki marta yozilishi yoki qofiya tartibining chalkashishi kotibning tahririy faoliyati bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qilindi. Bunday holatlar matnshunoslik metodlari orqali aniqlanib, boshqa nusxalar bilan qiyoslangan holda to‘g‘rilandi.

Shuningdek, tadqiqot davomida mavjud ilmiy adabiyotlar, ya’ni tasavvuf adabiyotiga oid risolalar, Haydar Xorazmiy ijodi haqidagi monografiyalar va mumtoz adabiyot tarixiga oid qo‘llanmalar ham nazariy asos sifatida qo‘llanildi. Bu adabiyotlar matniy tafovutlarni izohlashda, ularning semantik va tarixiy ahamiyatini ochishda metodologik tayanch vazifasini bajardi.

Shu tariqa, mazkur tadqiqotda matnshunoslikning qiyosiy, lingvistik, paleografik va kodikologik usullari uyg‘unlashgan holda qo‘llanilib, “Maxzan ul-asror” dostonining turli nusxalari orasidagi farqlar mukammal ravishda tahlil qilindi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot jarayonida Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostonining Budapesht, Qozon va London nusxalari o‘zaro qiyosiy tahlil qilinib, matnshunoslik nuqtai nazaridan bir qator muhim tafovutlar aniqlangan bo‘lib, bu tafovutlar asosan tashqi shakl, baytlar soni, boblarning mavjudligi, qofiya va vazn tizimi, misralarning tartibi hamda ayrim kotib xatolari bilan bog‘liq ekani kuzatildi. Ushbu natijalarni izchil sharhlash dostonning mukammal va tanqidiy matnini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi navbatda, qo‘lyozmalarning tashqi shakli va tuzilishi o‘zaro farqlanadi. Budapesht qo‘lyozmasi ikki dostondan iborat majmua shaklida bo‘lib, dastlab Azraqi Xaraviyning “Alfiya va Shalfiya” masnaviyi, undan keyin esa Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostoni joylashtirilgan [5,11]. Qo‘lyozmaning tashqi ko‘rinishi o‘ziga xos: jigarrang charm muqova, old va orqa qismlarida turunj naqshlari, sariq rangdagi betlar, nasta’liq xatida yozilgan satrlar ikki ustunli shaklda, tillarang va moviy ramkalar bilan bezatilgan. Ayrim joylarda ramkalar ichida bo‘sh o‘rinlar qoldirilgan bo‘lib, ular hikoyatlar nomi uchun mo‘ljallangan, deb taxmin qilinadi. Qozon nusxasi esa faksimeyl shaklda bo‘lib, asl manbasi Vena qo‘lyozmalari fondida saqlanadi. Nusxa oq-qora ko‘rinishda, ikki ustunda nasx xatida ko‘chirilgan, birinchi sahifada nafis naqshlar mavjud, hajm jihatdan kichikroq va 1858-yilda ko‘chirilgani haqida ma’lumotlar qayd etilgan. London qo‘lyozmasi esa Add 7914 inventar raqami bilan Britaniya kutubxonasida saqlanib, Hirotda ko‘chirilgan. Majmua 337 betdan iborat bo‘lib, “Maxzan ul-asror” 115b –141b betlarda joylashgan [6,3]. Ushbu nusxa Muhammad ibn Hasan Ansoriy tomonidan nasta’liq xatida ko‘chirilgan va eng muhim jihati shundaki, unda boblar alohida nomlar bilan ajratilgan: “Haydar telbaning masnaviysi” (basmala qismi), “So‘zboshi”, “Musannifning vasf ul-holi”, “Iskandar Mirzoning madhi”, uchta ma’viza, yettita hikoyat va maqolotlardan iborat [6,38].

Qo‘lyozmalardagi baytlar sonida ham sezilarli farqlar mavjud. Qozon nusxasida 603 bayt, London nusxasida 615 bayt, Budapesht nusxasida esa 641 bayt qayd etilgan. Baytlar sonining farqlanishi kotiblarning ayrim baytlarni tushirib qoldirishi yoki qo‘shimcha kiritishi, ba’zi o‘rinlarda esa baytlarning o‘rnini almashtirish bilan izohlanadi. Bu tafovutlar asarning umumiy tuzilishida sezilarli farqni yuzaga keltiradi. Dostonning umumiy boblari soni 23 ta bo‘lsa-da, Qozon va Budapesht nusxalarida ular boblar shaklida ko‘rsatilmagan, London nusxasida esa boblar alohida nomlangan.

Nusxalarning o‘zaro qiyosida basmala qismi alohida ahamiyat kasb etadi. Uchala nusxada ham basmala 53 baytdan iborat bo‘lsa-da, baytlarning joylashuvi va ayrim so‘zlarning qo‘llanishida tafovutlar mavjud. Masalan, Budapesht nusxasida: “Haqning oti birla G‘afur-u Hakim, Boshla har ishni ey, biliklik hakim” [5,35] tarzida berilgan bayt, Qozon nusxasida “Boshlasa har ishni biliklik Hakim, Haqning oti birla G‘afur-u Rahim” [7,28], London nusxasida esa “Boshlasa har ishni dono hakim, Tengri oti birla G‘afur-u Rahim” [6,32] shaklida uchraydi. Bu farqlar mazmunga katta zarar yetkazmagan bo‘lsa-da, matnshunoslik tahlilida ahamiyatlidir. Shuningdek, basmaladagi to‘rtinchi bayt uchala nusxada turlicha joylashgan. Qozon nusxasida: “Tengri otin birla burun arz qil, Gar demasa o‘rtadin ul tilni til”, Budapesht qo‘lyozmasida: “Tangri oti tilga ravon arza qil, Tangri oti birla oni hatm qil”, London nusxasida esa: “Har nekim ish boshlasang, ey nekzod, Tangri otidin topar ul aysh kushod” tarzida uchraydi. Bu yerda misralarning o‘rni o‘zgarib, ba’zan boshqa baytlar bilan joy almashgan.

Basmala qismining keyingi baytlarida ham o‘ziga xos tafovutlar kuzatiladi. Masalan, Budapesht nusxasida: “Yo‘q edi bu yer bila ko‘k shuhrati, Barini bor qildi Aning qudrati” tarzida bo‘lsa, London nusxasida “Yo‘q edi bu yer bila ko‘p shuhrati, Barchani bor qildi Aning qudrati”, Qozon nusxasida esa “Yo‘q edi bu yer bila ko‘k shuhrati, Barchani bor qildi Aning qudrati” shaklida uchraydi. Keyingi baytlarda ham bunday farqlar davom etadi. Masalan, Budapesht qo‘lyozmasida “Qudrat ayosidur eydin bir-u bor, Banda sirini bilur Ul oshkor”, London nusxasida “Qudrat iyosi durur ul bir-u bor, Banda sirini bilur Ul oshkor”, Qozon nusxasida esa “Qudrat ayosidur azim piri bor, Barchaning asrori anga oshkor” tarzida berilgan. Bu yerda “bir-u bor” so‘zining “piri bor” shakliga almashtirilishi mazmunga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shunga o‘xshash, ayrim baytlarda “izz-u joh” so‘zining “izim az-u joh” tarzida o‘zgartirilishi, “shafi” o‘rnida “shafiya” keltirilishi, “qalamning tili” o‘rnida “Odamning tili” yozilishi, “nihon” so‘zining “ayon”ga o‘zgartirilishi kabi tafovutlar qayd etilgan. Bu kabi misollar nusxalar orasidagi fonetik, leksik va grammatik farqlarning ko‘plab namunalari sifatida baholanishi mumkin.

Qo‘lyozmalarda ayrim o‘rinlarda qofiyadosh so‘zlarning o‘zgarishi ham uchraydi. Masalan, Iskandar Mirzoning madhiga bag‘ishlangan baytda London nusxasida “fol” so‘zi, Budapesht va Qozon nusxalarida esa “bol” so‘zi qo‘llangan. “Fol” so‘zining qo‘llanishi ma’noda noaniqlik tug‘dirsa, “bol” so‘zi to‘g‘riroq ma’no beradi, chunki u yuksalish, parvoz qilish mazmunini ifodalaydi. Shuningdek, London nusxasining 124a sahifasida keltirilgan “Yaxshi-yomonkim, ne kerak bir bil, Shayxdin ayrig‘uni tasvir bil” bayti Qozon nusxasida “sidq” so‘zi bilan, ya’ni “Sidqdin ayrig‘uni tasvir bil” tarzida berilgan. Bu farq semantik jihatdan jiddiy o‘zgarishga olib keladi, chunki “shayx” va “sidq” tushunchalari mutlaqo boshqa ma’nolarni anglatadi.

Dostonning “Musannifning vasf ul-holi” bobida ham ayrim tafovutlar mavjud. Qozon va London nusxalarida bu bob 76 baytdan iborat bo‘lsa, Budapesht nusxasida 75 baytni tashkil etadi. Shoir bobni “Bir kecha g‘am birla edim hamnafas, Munis-u damsozim ul erdi-yu bas” bayti bilan boshlab, o‘zining ruhiy kechinmalari, asarning yaratilish sabablari haqida so‘z yuritadi. Bu bobda farqlar ko‘proq baytlarning joylashuvi bilan bog‘liq. Masalan, “Har nafas ohang ilib bir navo, Dunyoda solib har lahza bir sado” bayti

London va Budapesht nusxalarida aynan shunday berilgan bo‘lsa, Qozon nusxasida misralar joy almashgan holda keltirilgan: “Dunyoda solib har lahza bir sado, Har nafas ohang ilib bir navo”. Bu farq mazmunga katta ta’sir ko‘rsatmasa-da, matnshunoslik nuqtai nazaridan e’tiborga molik.

London qo‘lyozmasining yana bir o‘ziga xos xususiyati – ayrim baytlarning kotib tomonidan takroran yozilganidir. Masalan, “Musannifning vasf ul-holi” bobining oxirgi qismlarida “Ulkim erur nash’u namosiz jamod, Bog‘lamag‘ay nomiyag‘a e’tiqod” bayti ikki marta qayta yozilgan. Shuningdek, London nusxasining 125a va 127a sahifalarida “Arpa ekib, bug‘doy o‘rarmen tegon, Ko‘rmadik oshliqchini bug‘doy yegon” bayti ham ikki joyda uchraydi. Bu holat kotibning matnni tahrir qilish jarayonida yuzaga kelgan xatoligi yoki esdan chiqmasligi uchun qayta yozganidan dalolat beradi.

Qofiya tizimidagi chalkashliklar ham London nusxasida ko‘proq kuzatiladi. Masalan, 118b sahifada keltirilgan “Charxi falak tashna bo‘lub jonuma, Dunyoyi-dun qasd qili qonuma” baytida qofiyadosh so‘zlarning o‘rni almashib, mazmun buzilgan. Aslida “charxi falak”ning jonga tashna bo‘lishi mantiqiy jihatdan to‘g‘ri emas, shuning uchun Budapesht va Qozon nusxalarida bu bayt qofiya jihatidan ham, mazmun jihatidan ham to‘g‘ri shaklda berilgan.

Yuqorida qayd etilgan barcha tafovutlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, qo‘lyozmalarda uchraydigan farqlar ko‘pincha “vov-i zoyida” hodisasi, ya’ni “i” va “u” harflarining qo‘shilishi yoki tushirilishi, izofa va qo‘shimchalarning turlicha qo‘llanishi, ayrim so‘zlarning fonetik variantlari bilan bog‘liq. Boshqa holatlarda esa baytlarning tartibi o‘zgargan, misralar almashgan yoki kotib tomonidan takror yozilgan. Ba’zi farqlar esa semantik jihatdan muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan, chunki ma’lum bir tushuncha boshqa bir tushuncha bilan almashtirilgan. Shu asosda, dostonning mukammal tanqidiy matnini yaratish zarurligi aniq ko‘rinadi, chunki mavjud nusxalarning birortasi ham mukammal shaklda saqlanmagan.

Qo‘lyozma nomi	Saqlanish joyi	Xat turi	Hajmi	Tuzilishi	O‘ziga xos jihatlari
Budapesht nusxasi	Vengriya Milliy kutubxonasi, Perza fondi	Nasta’liq, ikki ustun	641 bayt	Boblar ajratilmagan, 2 dostonli majmua	Jigarrang charm muqova, tillarang va moviy ramkalar, estetik bezaklar
Qozon nusxasi	Vena qo‘lyozmasi asosidagi faksimile (1858)	Nasx, oq-qora	603 bayt	Boblar ko‘rsatilmagan	XIX asr o‘rtalarida ko‘chirilgan, ixcham va tartibli
London nusxasi	British Library, Add. 7914 (Hijriy 914/1509)	Nasta’liq	615 bayt	Boblar alohida nomlangan	Kotib – Muhammad ibn Hasan Ansoriy, 337 betlik majmua, ba’zi baytlar takrorlangan

Yuqoridagi jadvalda Budapesht, Qozon va London qo‘lyozmalari o‘zaro qiyosiy tahlil qilingan bo‘lib, ularning baytlar soni, tuzilishi hamda matniy va tashqi xususiyatlari ko‘rsatildi. Ushbu solishtirma ko‘rinish qo‘lyozmalar orasidagi asosiy tafovutlarni yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi hamda dostonning tanqidiy matnini yaratish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Muhokama. “Maxzan ul-asror”ning turli qo‘lyozma nusxalarida uchraydigan tafovutlarni tahlil qilish ularning yuzaga kelish sabablari, mazmuniy ta’siri va matnshunoslikdagi ahamiyatini yoritishni talab etadi. Yuqorida qayd etilganidek, Budapesht, Qozon va London qo‘lyozmalarida baytlar soni, boblarning tuzilishi, qofiya tizimi, ayrim so‘z va misralarning joylashuvi turlicha. Bunday tafovutlar, avvalo, qo‘lyozmalarning turli davrlarda, turli muhitlarda va turli kotiblar tomonidan ko‘chirilgani bilan izohlanadi.

Matniy tafovutlarning muhim bir sababi kotiblarning individual xatolari va yozuv amaliyotidir. Masalan, London qo‘lyozmasida ba’zi baytlarning ikki marta yozilishi kotibning matnni tahrir qilishi yoki esdan chiqmasligi uchun qayta kiritganidan dalolat beradi. Ayrim hollarda qofiya tizimidagi chalkashliklar ham kotibning noaniq ishlashidan kelib chiqqan. Masalan, 118b sahifada qayd etilgan “Charxi falak tashna bo‘lub jonuma” misrasi asl mazmunni buzadi. Budapesht va Qozon nusxalarida esa qofiyadosh so‘zlar joyida ishlatilgani matnning asl ko‘rinishini saqlaganini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, qo‘lyozmalardagi farqlar nafaqat kotibning xatosidan, balki davr tilining fonetik va morfologik xususiyatlaridan ham kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Masalan, “shayx”

so‘zining Budapesht va Qozon nusxalarida “sidq” shaklida qo‘llanishi semantik jihatdan katta tafovut keltirib chiqargan. “Shayx” diniy shaxsni anglatgan bo‘lsa, “sidq” rostgo‘ylik va samimiyat ma’nosini bildiradi. Bu farq matnga diniy yoki axloqiy yo‘nalishda turlicha semantik yuk beradi. Bu esa ko‘chirish jarayonida kotibning ongli ravishda o‘zgartirish kiritganidan darak berishi mumkin.

Baytlarning joylashuvi va tartibidagi farqlar ham muhim masalalardan biridir. Ayrim misralar boshqa o‘rinlarga ko‘chirilgan yoki joyi almashgan. Masalan, “Har nafas ohang ilib bir navo” bayti London va Budapesht qo‘lyozmalarida asl tartibda berilgan bo‘lsa, Qozon nusxasida misralar o‘rin almashgan. Bunday tafovut mazmunga katta ta’sir qilmagan bo‘lsa-da, matnning shakliy yaxlitligiga putur yetkazadi. Matnshunoslik nuqtayi nazaridan bu tafovutlar qo‘lyozmaning qayta ko‘chirish jarayonida yuzaga kelgan texnik o‘zgarish sifatida baholanadi.

Bundan tashqari, ba’zi farqlar matnga semantik jihatdan ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Iskandar Mirzo madhiga bag‘ishlangan baytda London nusxasida “fol” so‘zi, Budapesht va Qozon nusxalarida esa “bol” so‘zi keltirilgan. “Fol” tushunchasi noaniq, bashoratga yaqin ma’noni anglatgan bo‘lsa, “bol” so‘zi yuksalish, parvoz qilish, kuchayish kabi ijobiy ma’nolarni beradi. Bu farq shoirning maqsadini to‘g‘ri anglashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois Budapesht va Qozon nusxalaridagi variant mazmunan asosliroq hisoblanadi.

Shuningdek, qo‘lyozmalar orasidagi farqlar ko‘pincha “vovi zoyida” hodisasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu hodisa, ya’ni “i” va “u” tovushlarining qo‘shilishi yoki tushirilishi, izofa va qo‘shimchalarning turlicha yozilishi ko‘plab baytlarda kuzatiladi. Bu esa o‘sha davrning yozuv an’analaridan kelib chiqadi. Kotiblar ayrim hollarda fonetik yaqinlik tufayli so‘zlarni chalkashtirib yozgan yoki mahalliy talaffuz xususiyatlarini matnga singdirgan bo‘lishi mumkin.

Boblarning mavjudligi va nomlanishidagi tafovutlar esa qo‘lyozmalarning tahririy tarixi bilan bog‘liq. London nusxasida boblarning alohida nomlanishi, dostonning strukturaviy jihatdan to‘liqroq ko‘rinishini ta’minlaydi. Qozon va Budapesht nusxalarida esa boblarning alohida ajratilmaganligi asarning ma’lum darajada qisqartirilgan yoki qayta ishlanganligini ko‘rsatadi. Bu holat nusxalar orasida ustuvorlik darajasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan barcha tafovutlar umumlashtirilganda shuni ko‘rish mumkinki, “Maxzan ul-asror”ning har bir qo‘lyozmasi o‘z davrining matnshunoslik manzarasidan dalolat beradi. Har bir nusxa matnga o‘ziga xos qiyofa baxsh etgan. Ammo bu tafovutlarning ko‘pligi dostonning mukammal va tanqidiy matnini yaratish zaruratini yaqqol ko‘rsatadi. Shu ma’noda, qo‘lyozmalarni qiyosiy tahlil qilish faqatgina ularning farqlarini aniqlash bilan cheklanmay, balki matnning badiiy yaxlitligini qayta tiklash, asarning asl ko‘rinishini aniqlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Haydar Xorazmiy “Maxzan ul-asror” dostoni o‘zbek mumtoz adabiyotining muhim manbalaridan biri sifatida adabiy jarayonda o‘chmas iz qoldirgan. Asarning uchta yirik nusxasi – Budapesht, Qozon va London qo‘lyozmalari o‘zaro qiyosiy tahlil qilinganda, ularning matniy va strukturaviy jihatdan sezilarli farqlarga ega ekanligi aniqlandi. Budapesht qo‘lyozmasining tashqi bezagi, muqova va satrlarning rangli ramkalar bilan yozilishi uni estetik jihatdan alohida qadrlashga asos beradi. Qozon nusxasining XIX asr o‘rtalarida faksimeyl shaklda ko‘chirilgani, unda baytlar sonining kamligi va nasx xatida tartibli yozilgani uni o‘ziga xos matnshunoslik manbai sifatida baholash imkonini beradi. London nusxasi esa dostonning boblari alohida ajratilganligi, kotibning ismi qayd etilganligi va nasta’liq xatida ko‘chirilgani bilan boshqa qo‘lyozmalardan farq qiladi.

Matniy qiyos natijasida basmala qismining baytlarida uchraydigan so‘z va misralardagi tafovutlar, qofiyadosh so‘zlarning o‘zgarishi, ayrim baytlarning joy almashishi hamda kotib xatolari aniqlanib, ularning mazmunga ta’siri tahlil qilindi. Ayrim farqlar shakliy bo‘lsa-da, ba’zilari semantik mazmunni tubdan o‘zgartirib yuboradi. Masalan, “fol” va “bol” so‘zlari, “shayx” va “sidq” so‘zlari bilan bog‘liq tafovutlar doston mazmunini talqin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday farqlar kotiblarning matnga ongli yoki bexos aralashuvlari, shuningdek, davrning yozuv an’analari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatildi.

Ushbu tadqiqotdan kelib chiqadigan umumiy xulosa shundan iboratki, mavjud uch qo‘lyozma nusxasining birortasi ham asarning mukammal variantini to‘liq aks ettirmaydi. Har bir nusxada o‘ziga xos xatolar, qo‘shimchalar yoki qisqartirishlar mavjud. Shu sababli “Maxzan ul-asror”ning ilmiy-nazariy asoslangan tanqidiy matnini yaratish bugungi matnshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Bunday ish nafaqat Haydar Xorazmiyning adabiy merosini to‘liqroq anglash, balki mumtoz adabiyotimiz tarixini chuqurroq o‘rganish imkonini ham beradi.

ADABIYOTLAR:

1. *Abdullayev A. (2007). Tasavvuf va uning namoyandalari [Risola]. Termiz.*
2. *Muhiddinov M. (2005). Komil inson – adabiyot ideali. Toshkent: Ma'naviyat.*
3. *O'zbekiston Fanlar Akademiyasi. (1972). Navoiy asarlari lug'ati. A. Navoiy asarlarining XV tomligiga ilova. Toshkent: Fan.*
4. *Vohidov R. J., Eshonqulov H. P. (2006). O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.*
5. *Haydar Xorazmiy. Maxzan ul-asror. Budapesht qo'lyozmasi. Vengriya Milliy kutubxonasi, Perza fondi, inv. №81.*
6. *Haydar Xorazmiy. Maxzan ul-asror. London qo'lyozmasi. British Library, Add. 7914, 1509 (Hijriy 914), kotib Hasan ibn Jahon Ansoriy.*
7. *Haydar Xorazmiy. Maxzan ul-asror. Qozon nusxasi. Vena qo'lyozmasi asosidagi faksimile nusxa, inv. №5498, 1858.*

UO‘K 82

JAMOLING VASFINI QILDIM CHAMANDA

Eshpulatova Saodat Maxmatovna,
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv
va texnologiyalar universiteti dotsenti v.b., PhD
Saodat69eshpulatova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yorqin siymolarii, o‘zbek mumtoz she’riyatini o‘zining go‘zal ijodi bilan boyitgan ijodkorlarning g‘azallaridan tahlil qilib, ularning mazmuni bilan tanishamiz. Bu g‘azallarda tasvirlangan badiiy vositalar, she’r go‘zalligi, so‘z qo‘llash mahorati va shu kabilar haqida so‘z boradi. Shoirlar g‘azallarining badiiy qiymati, tarbiyaviy ahamiyati haqida ma’lumotlar yoritilgan. Shu bilan birga Navoiy , Lutfiy, Atoyi she’riyatida qo‘llangan she’riy san’atlar haqida ham ma’lumot berilgan, g‘azallari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *tadrij, istiora, tashxis, tazod, takrir, mubolag‘a, talmeh, g‘azal, tarse’, o‘xshatish, irsoli masal.*

Я ВОСПЕЛ КРАСОТУ ТВОЕГО ЛИКА В ЦВЕТУЩЕМ САДУ

Аннотация. *В этой статье мы проанализируем газели ярких представителей узбекской литературы, поэтов, обогативших узбекскую классическую поэзию своим прекрасным творчеством, и познакомимся с их содержанием. Речь пойдёт о художественных средствах, изображённых в этих газелях, красоте поэзии, мастерстве использования слов и тому подобном. Освещены сведения о художественной ценности и воспитательном значении газелей поэтов. Также представлена информация о поэтических приемах, использованных в поэзии Навои, Лутфи, Атои, проанализированы их газели.*

Ключевые слова: *тадридж, истиора, ташхис, тазод, такрир, преувеличение, талмех, газель, тарсе, уподобление, ирсоли масал.*

I PRAISED YOUR TEAM IN THE GARDEN

Abstract. *In this article, we analyze the ghazals of bright figures in Uzbek literature, creators who enriched Uzbek classical poetry with their beautiful works, and familiarize ourselves with their content. These ghazals feature artistic devices, the beauty of poetry, the mastery of word usage, and similar aspects. Information about the artistic value and educational significance of the poets' ghazals is highlighted. Additionally, information is provided about the poetic devices used in the poetry of Navoi, Lutfi, and Atoi, and their ghazals are analyzed.*

Keywords: *tadrij, istiora, tashxis, tazod, takrir, exaggeration, talmeh, ghazal, tarse, assimilation, irsoli masal.*

Kirish. O‘zbek xalqi dunyodagi eng baxtli xalqlardan biri. Chunki ularning adabiyotini dunyoga tanitgan, uni o‘lmas meros sifatida kelajak avlodga yetkazishga sababchi bo‘lgan, umri boqiy she’rlar yaratgan nomi boqiy ijodkorlarimiz bor. Ulardan bizga qolgan badiiy meroslari shunday ulkan ummonki, qanchadan qancha avlodlarini o‘z nuri-ziyosi bilan asrlar davomida bahramand etib tursa-da, hamon bir qatra ham kamaymasdan, o‘z qimmatini yo‘qotmasdan bir necha asrlardan buyon yashab kelmoqda. Bu ijodkorlarning g‘azallari mutolaasi o‘quvchiga shunday huzur bag‘ishlaydiki, har gal o‘qiganimizda yangi-yangi ma’nolarni uqish mumkin. Yuragimiz tubidagi eng pokiza hislar, bokira tuyg‘ular bosh ko‘taradi, g‘alayon qiladi. She’riyat atalmish ummonning asiriga aylanasiz-qo‘yasiz. Keling, mutolaani Hazrat Navoiy ijodidan boshlaylik…

Vahki, chamandin yana esti shamol o‘zgacha,
Har dam o‘lur atridin ko‘ngluma hol o‘zgacha.

Bunchalar chiroyli ta’riflangan chaman qayer ekan-a? G‘azal shunday go‘zal ohang bilan boshlandiki, beixtiyor ko‘z oldingizga obod bir bog‘ keldi. Bunday betakror go‘sha tushingizga ham kirmagan.

Nazarimda, biz bunday joyni orzu qilamiz, xolos. Nima uchun bu chamanning shamoli o‘zgacha tuyuladi? Nima uchun u ko‘ngilga xush yoqadigan bo‘y taratadi? Chunki u oddiy chaman emas. Bu – ilohiy ishqdan bahramandlik bog‘i, Alloh ishqi bilan mast bo‘lish bog‘i.

Bulbul-u qumri chekib lahn-u navo o‘zga nav’,
Ko‘rguzadur sarvi gul g‘anj-u dalol o‘zgacha.

Bu chamanning bulbul-u qumrilari ham o‘zgacha sayraydi, ularning kuyiga, sayrashiga tahsin o‘qiysiz. Qomati sarvdek tik gul esa qosh-ko‘zlarini uchirib, noz-karashmalar qiladi. Gulning ko‘zi borligi haqidagi lavhani biz “Hayratul-abror” asaridagi Nushirvon haqidagi hikoyatda uchratgan edik. Nushirvon nargis gulining ko‘zidan uyalib, adabsizlikdan qaytgan edi.Yuqoridagi baytda ham jonsiz narsa jonlantirilib, tashxis san’ati qo‘llangan.

Savsan o‘lub sarbaland, g‘uncha qilib no‘shxand,
Elga alardin yetib daf’i malol o‘zgacha.

Gulsafsar yuksaklikka ko‘tarilib, g‘uncha esa chiroyli tabassum qiladi (yana tashxis san’atini ko‘ryapmiz). Bu hodisalar xalqqa, odamlarga xotirjamlik baxsh etadi. Bu, albatta, Allohga bo‘lgan muhabbat evaziga kelgan baxtiyorlik tuyg‘usi.

Birinchi misrada ichki qofiya ham mavjud: sarbaland – no‘shxand. Bu qofiyalanish g‘azal ohangdorligini kuchaytiradi.

Sunbuli purtob ham, lolai serob ham,
Dud ila o‘tdin bo‘lub shibh-u misol o‘zgacha.

Yarqirab ko‘zlarni quvnatadigan sunbul ham, serobligidan qirlar bag‘rini gilamga aylantiradigan lolalar ham, hattoki tutun bilan olovning ham o‘xshashi topilmaydi, ularning bari o‘zgacha. Buning sababi esa birinchi baytda keltirildi – chamandan esgan o‘zgacha shamol.

Birinchi misradagi ichki qofiya tarkibida radif (ham) ishtirok etgan.

Kirdi magar dilbarim, huru pari paykarim,
Gulshan aro ko‘nglida fikr-u xayol o‘zgacha.

Agar bu chamanga sevikli yor, parisurat go‘zal tashrif buyursa, bu gulshan ichida uning fikri-xayoli ham o’zgacha bo‘ladi. Sevimli yor hurlarga, parilarga o‘xshatilyapti. Oshiq yigit yorining shu chamanga kirishini juda xohlayapti, chamanning yor bilan o‘zgacha bo‘lib ketishini ko‘ngli sezyapti.

Bo‘lsa manga dog‘i yo’l, andaki aysh aylar ul,
Qilsam edi mast o‘lub qol-u maqol o‘zgacha.

Oshiq yigit ishq yo‘lidan hech charchamagan, aksincha, yana yo‘l yurishni istaydi. Bu yo‘lda aysh-u ishrat qilib, mast bo‘lib, o‘ylamay, beixtiyor ba’zi bir gap-so‘zlarni aytib yuborishni orzu qiladi. Agar mayni ishq ramzi ekanligini yodga olsak, oshiq Allohga bo‘lgan muhabbatdan mast bo‘lishni xohlaydi.

Umri abad topqamen, tutsa manga bir qadah,
Nash’ai maydin anga husn-u jamol o‘zgacha.

Agar sevikli yor oshiq yigitga qadahda may tutsa, u mangu yashaydi, qiz qo‘lidagi qadah yigitga abadiy umr bag‘ishlaydi. May xayolidan oshiqning husni-jamoli ham o‘zgacha tusga kiradi, u o‘zini juda baxtiyor hisoblaydi.

Dahrda yo‘qdur karam, dahrning ahlida ham,
Qilmag‘asen, ey ko‘ngil, fikri muhol o‘zgacha.

Bu dunyoda lutf-u karam yo‘qdir, dunyo ahli ham saxovat tuyg‘usidan yiroqda. U bu dunyoning mehrsizligini, saxiylikka begonaligini biladi, chunki bu – o‘tkinchi dunyo. Shuning uchun oshiq yigit ko‘nglidan mumkin bo‘lmagan ishlarni qilmasligini so‘rayapti.

Zuhd, Navoiy sanga bermadi masjidda fayz,

Emdi kirib dayr aro, tarhni sol o'zgacha.

Maqta'da Navoiy zohidga murojaat qilyapti. Uning masjiddagi holatidan qoniqmayapti, uning dayr(mayxona)ga kirib, o'z yashash tarzini o'zgartirishini so'raydi. Axir zohidlar bu dunyodan uzilgan odamlar, ularni o'tkinchi dunyoning g'am- tashvishlari bezovta qilmaydi. Ular chin dunyoning umidi bilan yashashadi.

"So'zdurki, nishon berur o'likka jondin…"

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy ijodini cheki ko'rinmas bir ummonga qiyos qilamiz, chunki uning har bir satri biz uchun qanchalar yaqin bo'lmasin, shunchalar cheksiz, oxiriga yetolmaymiz. Bu shoir asarlaridagi xilma-xillik, ulug'vorlik va insonni o'ziga asir eta oladigan bir jozibada. Shoir ijodida hech bir bayt, hatto hech bir jumla shunchaki yozilmaydi. Undagi har bir so'z katta qiymatga ega.

Hazrat Navoiy so'zning buyukligi haqida juda ko'plab hikmatli so'zlar aytganlar. "Mahbubul-qulub" asarining nasriy bayonida shunday deyiladi: "So'z borki, eshituvchining taniga jon kirgizadi; so'z borki, gapiruvchining boshini yelga uchiradi…. So'zni ko'ngilda pishitmaguncha tilga olma; dilingda bor gapning hammasini tilingga keltirma." Yuqoridagi so'zlarga Hazratning o'zlari ham doim amal qilib kelganlar, shu bois u kishining qalamlari tekkan asarlar hanuzgacha ohori to'kilmagan, husn-u tarovati so'nmagan, hanuz bizni hayratga soladi, o'ylashga, intilishga undaydi. Adabiyotimiz durdonasi bo'lmish g'azallar olamiga sayohat qilamiz.

Sarv qad gulruxlar o'tmas xotiri noshodima,
Sarvu gul ko'rsam, alar kirgay magarkim yodima.

Oshiq yigit g'amginligini qadlari raso, gul yuzli go'zallar yoza olmaydi, chunki ular o'tkinchi dunyoning ramzi, ularning go'zalligi ham o'tkinchidir.Faqat chamandagi gullarni ko'rsagina, ular yodiga tushadi.Chunki sevikli yor qaddi-qomati sarvga, yuzlari gulag o'xshatiladi. Bu o'rinda o'xshatish san'atidan foydalanilgan.

Uyla gardun zulmi etmish ro'zgorim tiyrakim,
Yoruta olmas quyosh kirsa xarob obodima.

Bu dunyoning zulmi oshiq hayotini shunchalik parokanda qildiki, hattoki quyosh ham uning xarob mulkini obod qilolmaydi.Bu o'rinda biz mubolag'a san'atini ko'ramiz. Quyoshning yorita olmasligini ta'kidlayotgan oshiq o'z ruhiy ahvolini bo'rttirib ko'rsatmoqda.Uning ahvoli shu qadar xarobki, quyosh ham ko'nglini yoza olmaydi.

Nega faryod etmayin, yoxud netay faryod etib,
Bo'ylakim, faryod etib, yetmas kishi faryodima.

Oshiqning o'z ahvoli uchun faryod etgani yoki faryod etmaganining ahamiyati yo'q, chunki hech kimning ahvoli unikidek aftoda emas, hech kim uningdek faryod qilolmaydi. Hech bir kishi uning ahvolini to'liq tushunmaydi, his etolmaydi.Bu o'rinda shoir faryod so'zini bir baytda to'rt marotaba qo'llab, takrir san'atini qo`llagan.

Qazmasa ko'nglum yana g'am Bestunin yaxshiroq,
Hech Shirin lab chu qilmas rahm bu Farhodima.

Besutun – Erondagi tog' nomi, ba'zi o'rinlarda osmon ma'nosida ham ishlatiladi. Agar oshiq ko'ngli ulkan g'am tog'ini qazishga bel bog'lamasa, Shirin Farhodga rahm qilib, labini ham ochmaydi, so'z qotmaydi. Mumtoz adabiyotda Farhod mohir sangtarosh, tog' bag'rini teshib, suvlar chiqaruvchi qahramon sifatida nom taratgan. Bu baytda talmeh va mubolag'a san'atlari ishlatilgan.

Sho'xlar mujgonidin zuhdum qutulsin, vah, necha
Igna birla naqb teshmak qal'ai po'lodima.

Oshiq sevikli yorining kipriklaridan xavotirga tushadi. Kipriklaruning po‘latdan yasalgan qal’asini teshib, lahim qazib, oshiqning qalbini zabt etadi.Oshiq o‘z ixtiyorini unga topshirib qo’yadi. Baytda chiroyli o’xshatish keltirilgan, qalb po‘lat qal’aga, kipriklar ignaga qiyoslangan.

May quyoshin dayr aro har dam chekar bo‘lsam, ne g‘am,
Gar quyosh tig‘in falak har dam chekar bedodima.

Mayxonada maydagi quyosh aksini ichib yuborsam hayron bo‘lmang, deydi oshiq, axir ko‘kdagi quyosh har doim mening og‘ir ahvolimni ko‘rsa ham, o‘z nurlari tig‘ini sanchishdan tiyilmaydi-ku? Bu o’rinda tajnis san’ati ishlatilgan, chunki ikkala misrada qo‘llangan “chekmoq” fe’li har xil ma’nolarda kelgan.

Ey Navoiy, ofiyat ko‘yi g‘animatdur va lek
Naylayin, gar kirmasa, shaydo ko‘ngil irshodima.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Oshiq yigit sog‘lomligu tinchlikning g’animatligini, uni asrab-avaylash kerakligini biladi, lekin ko‘ngli aqli ko‘rsatgan to‘g‘ri yo‘ldan yurishga ko‘nmaydi. Chunki ko‘ngil uchun his-tuyg‘ular aqldan ko’ra ustun turadi.

G‘azal mutolaasi bizni adabiyot gulshanini sayr qildirdi, zavq bag‘ishladi, ilhomlantirdi. She’riyat atalgan bu xilqat asrlar osha bizni hayratga solishda davom etmoqda. Zero, Alisher Navoiy aytganlaridek, “So‘z durrining … sharifidin o’lgan badang‘a ruhi pok yetar, kasifidin hayotliq tang‘a zahri halok xosiyati zuhur etar.”

Ma’lumki, mumtoz adabiyot asarlarini olimlar uch tomonlama o‘rganishgan:

1. Ilmi aruz, ya’ni asar vazni
2. Ilmi qofiya - she’rdagi qofiyani tashkil etuvchi unsurlarni aniqlash
3. Ilmi bade’ – asarda keltirilgan badiiy san’atlar tahlili.

Ijodkorlarimizning uslublaridan kelib chiqqan holda she’riy san’atlarni go‘yoki “taqsimlab” olamiz. Masalan, Atoyi ijodi haqida gaplashganimizda, albatta, “husni ta’lil” san’ati haqida so‘zlaymiz, misollar keltiramiz.

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.

Yoki

G‘uncha sevunub to‘nig‘a sig‘mas,
O‘xshatsam o‘qung boshoqi birla.

Agar mavlono Lutfiy ijodlari haqida so‘zlashsak, shubhasiz, eng muhim o‘rinni “tajnis” san’ati egallaydi. Tuyuqlardan namunalar keltiramiz:

Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen,
Vah, qachon yetkaymen ul dilbanda men.
Bevafolarg’a meni qilding asir,
Sen menga sultonsen, ey dil, banda men.

Lutfiy ijodida “irsoli masal” san’atiga muhim ahamiyat berilganini yoddan chiqarmagan holda, fikrimizni misollar bilan isbotlaymiz:

Ayoqingga tushar har lahza gisu,
Masaldurkim, “Charog‘ tubi qorong‘u”.

Ona tili fani dasturi bo’yicha “Leksikologiya” mavzusi bor. Shu mavzuni tushuntirish asnosida she’riy san’atlar haqidagi ma’lumotlarni takrorlab, ona tili va adabiyot fanlarini uyg‘unlashtirgan holda o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish mumkin. Masalan, “Antonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari” mavzusi yuzasidan o‘quv mashg‘ulotida “tazod” san’ati haqida eslatib o’tamiz:

Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,

Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

(Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Alisher Navoiy ijodini o‘rganish soatlari ham taxminan shu vaqtga to‘g‘ri keladi.)

“Uyadosh so‘zlar” mavzusida “tanosub” san’atiga to‘xtalishimiz mumkin:

Uzun sochingdin uzmasmen ko‘ngulni,
Ayog‘ing qanda bo‘lsa boshim anda. (Atoyi)

Xulosa. Ushbu mavzu haqida gap ketganda, “tanosub” so‘zi o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun “mutanosib” so‘zini qo‘llaymiz, bu so‘zlar o‘zakdosh bo‘lishi bilan o‘quvchilar o‘zlashtirishi uchun qulay bo’ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abadiyat gulshani. “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2013.

2. Xojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. “SHARQ” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. Toshkent – 1998.

3. Shayxzoda M. Asarlar. 6 tomlik. 4-tom. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1972.- b.198-202.

4. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. Toshkent: - 2006.- B. 263.

5. Mamyoqubova T. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Toshkenm – 2009.179 b.

UDC 82

THE EXPRESSION OF CHRONOTOPE IN “THE LOST WORLD”

Itolmasova Umida Bakhodir kizi,
Master student at English Literature Department
of Asia International University
Itolmasovaumida@gmail.com

Abstract. *This article explores the concept of the chronotope in Arthur Conan Doyle's “The Lost World”, focusing on the interplay between space and time in the novel and how this reflects broader thematic concerns such as adventure, scientific exploration, and human destiny. By examining how Doyle constructs a temporal-spatial framework that supports the novel's narrative and ideological structure, the study also compares this use of chronotope with those found in the works of H.G. Wells and Jules Verne. The analysis applies literary theory, especially Mikhail Bakhtin's formulation of the chronotope, to investigate how the setting functions as a key element in shaping characters' experiences and the reader's understanding of the text.The narrative moves from the familiar setting of early XXth century London to the mysterious and prehistoric plateau in South America. This shift in time and space allows Doyle to contrast modern civilization with a primitive world frozen in ancient time.*

Keywords: *Chronotope, Arthur Conan Doyle, “The Lost World”, Mikhail Bakhtin, literary theory, space and time, science fiction, adventure literature.*

ВЫРАЖЕНИЕ ХРОНОТОПА В “ЗАТЕРЯННОМ МИРЕ”

Аннотация. *В данной статье исследуется концепция хронотопа в романе Артура Конан Дойла “Затерянный мир”, с акцентом на взаимодействие пространства и времени и то, как оно отражает более широкие тематические аспекты, такие как приключение, научное исследование и человеческая судьба. Анализируется, как Дойл создаёт временно-пространственную структуру, поддерживающую повествование и идеологию романа, а также проводится сравнение с хронотопами в произведениях Г. Уэллса и Ж. Верна. В исследовании используется литературная теория, в особенности концепция хронотопа Михаила Бахтина, чтобы показать, как художественное пространство влияет на формирование опыта персонажей и восприятие текста читателем. Нарратив движется от знакомого Лондона начала XX века к таинственному и доисторическому плато в Южной Америке. Этот переход во времени и пространстве позволяет Дойлу сопоставить современную цивилизацию с примитивным миром, застывшим в древности.*

Ключевые слова: *хронотоп, Артур Конан Дойл, “Затерянный мир”, Михаил Бахтин, литературная теория, пространство и время, научная фантастика, приключенческая литература.*

“YO‘QOLGAN DUNYO” ASARIDA XRONOTOP IFODASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Artur Konan Doylning “Yo‘qolgan dunyo” asarida xronotop tushunchasi o‘rganiladi. Unda vaqt va makon o‘zaro uyg‘unligi hamda uning sarguzasht, ilmiy izlanish va inson taqdiri kabi asosiy mavzular bilan qanday bog‘lanishi yoritiladi. Doyl yaratgan vaqt-makon tizimi asarning voqea va g‘oyaviy tuzilishini qo‘llab-quvvatlashi tahlil qilinadi va bu holat G. Uells va J. Vern asarlaridagi xronotop bilan taqqoslanadi. Tadqiqotda adabiyot nazariyasi, xususan, Mixail Baxtinning xronotop haqidagi qarashlari qo‘llanib, badiiy makon qahramonlarning tajribasi va o‘quvchining matnni idrok etishida asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi. Asar syujeti XX asr boshidagi tanish London shahridan Janubiy Amerikadagi sirli va qadimiy plato tomon siljiydi. Bu vaqt va makondagi o‘zgarish Doylga zamonaviy sivilizatsiyani qadimda qolib ketgan dunyo bilan taqqoslash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *xronotop, Artur Konan Doyl, “Yo‘qolgan dunyo”, Mixail Baxtin, adabiyot nazariyasi, makon va vaqt, ilmiy fantastika, sarguzasht adabiyoti.*

Introduction. Arthur Conan Doyle is best known for his detective stories about Sherlock Holmes, but his literary talent extends far beyond this famous character. One of his most intriguing works is “The Lost World” (1912), a science fiction and adventure novel that explores themes of discovery, evolution, and the unknown. This novel tells the story of an expedition to a hidden plateau in South America, where prehistoric

creatures still exist. As a work of early science fiction, “The Lost World” captures the excitement of scientific exploration and the tension between the modern world and ancient life.In order to better understand the deeper structure of the novel, this article focuses on the concept of chronotope, a term introduced by Russian philosopher and literary theorist Mikhail Bakhtin. The chronotope refers to the way time and space are connected in literature. It helps us understand how a story’s setting and time period shape the behavior of characters, the development of the plot, and the message of the work as a whole. In The Lost World, the chronotope plays a central role in creating contrast between the scientific, modern society of Edwardian England and the wild, timeless landscape of the plateau. This contrast allows Doyle to explore both the excitement and the danger of pushing beyond the limits of human knowledge.[1]

This article aims to analyze how the chronotope is expressed throughout The Lost World, showing how Doyle’s descriptions of space and time serve more than just background they are essential to the novel’s meaning. The paper also compares Doyle’s use of the chronotope with that of other authors in similar genres, such as H.G. Wells and Jules Verne, in order to show how Doyle’s work fits into a broader literary tradition. By doing so, the study sheds light on how The Lost World uses time and space not only to entertain readers, but also to raise questions about progress, human ambition, and the unknown forces of nature.

Literature Review. The concept of the chronotope, first introduced by Mikhail Bakhtin, has played a pivotal role in literary studies, particularly in analyzing the relationship between time and space in narrative structures. Bakhtin described the chronotope as the “intrinsic connectedness of temporal and spatial relationships” in literature, emphasizing how narratives shape and are shaped by the configuration of time-space categories in fiction.[2] Since then, scholars have applied this framework to diverse literary traditions, from the epic to the novel, to examine how settings and temporal progressions embody cultural and philosophical worldviews.

In adventure literature, the chronotope often functions as a means of transporting readers beyond the ordinary and into extraordinary environments. The motif of the journey or expedition frequently frames the narrative, creating a fusion of exploration and discovery. Scholars such as Lotman have observed that spatial transitions in literature are symbolic of cultural boundaries, where the crossing of frontiers often mirrors transformations of human destiny. [3] This perspective is particularly relevant in adventure novels of the late nineteenth and early twentieth centuries, which emerged during the height of imperial exploration and colonial expansion.

Arthur Conan Doyle’s The Lost World (1912) has been discussed by critics both as an adventure romance and as a scientific fantasy novel. Within the framework of chronotope, the “plateau chronotope”the remote, elevated, and seemingly timeless space of the South American plateau serves as a narrative device that isolates the characters from modern civilization.[4] This chronotope allows Doyle to juxtapose scientific rationality with mythic temporality, bringing prehistoric life into direct dialogue with modern explorers. Scholars argue that such temporal layering underscores the fragility of human progress, suggesting that destiny is often subject to forces beyond technological advancement.[5]

Furthermore, studies on Doyle’s adventure fiction emphasize the significance of liminal spaces jungles, rivers, and plateaus as sites where the boundaries between past and present blur. Critics such as Green have noted that the novel’s chronotope embodies a “collision of epochs,” where prehistoric creatures coexist with Edwardian explorers, thereby dramatizing the tension between human ambition and natural history. [6] The time-space of The Lost World thus operates not merely as a backdrop but as an active agent shaping the characters’ identities, decisions, and destinies.

Recent scholarship has also linked Doyle’s chronotope to broader cultural discourses of modernity. In particular, critics have examined how the temporal dislocation in The Lost World reflects early twentieth-century anxieties about scientific progress, colonial encounters, and the limits of human control over nature. This body of work positions the novel as an important case study in understanding how literary chronotopes negotiate human destiny in moments of cultural and historical transition.

Methodology. This study employs a qualitative literary analysis approach grounded in Bakhtin's theory of the chronotope. The primary source is Doyle's “The Lost World”, supplemented by secondary sources including scholarly articles on chronotopic analysis, Victorian literature, and comparative studies of science fiction writers. The analysis focuses on textual elements such as setting descriptions, character movement, narrative pacing, and dialogic interactions. Comparative elements include examining chronotopic constructions in H.G. Wells’ “The Time Machine” and Jules Verne’s “Journey to the Center of the Earth”.The main method is based on the heoretical framework developed by Mikhail Bakhtin, who introduced the [7]concept of chronotope to explain the connection between time and space in literature. Bakhtin believed that every literary work has its own unique way of organizing time and space, and that this

organization influences the meaning of the text. His ideas provide the foundation for the analysis in this study.[8]

Results. The analysis of "The Lost World" shows that Arthur Conan Doyle uses the chronotope in powerful and meaningful ways to shape the structure, themes, and atmosphere of the novel. The novel presents two main chronotopes: the modern, urban setting of London and the wild, prehistoric world of the hidden plateau in South America. Each of these settings has its own unique relationship with time and space, and their contrast plays a central role in the story.

First, London represents the familiar world of science, logic, and modern society. Time in London moves forward in a steady, predictable way, and space is clearly organized and controlled. This chronotope is connected to the characters' professions and the expectations of society. It reflects the readers' everyday reality and serves as a starting point for the adventure.Second, the plateau in South America introduces a completely different chronotope. It is a mysterious and isolated space, separated from the modern world and untouched by time. The plateau is described as a place where prehistoric creatures still live, as if time has stopped or looped back millions of years. Here, space becomes dangerous, wild, and unknown, while time becomes uncertain and even frightening. This dramatic shift in chronotope marks a change in the characters' behavior and understanding of the world. They are forced to adapt to a new reality where the rules of modern civilization no longer apply.

The results also show that Doyle uses detailed descriptions, scientific language, and personal diaries (such as the narrator's journal) to build a vivid chronotope. These techniques help readers feel as if they are moving through time and space along with the characters. In addition, when comparing Doyle's work with that of other authors like H.G. Wells and Jules Verne, it becomes clear that Doyle's chronotope is more focused on the tension between modern science and ancient mystery, while others may focus more on future worlds or scientific inventions.[9]

The analysis reveals that Doyle constructs a multilayered chronotope centered on the Amazon plateau, which functions as both a literal and symbolic space. This plateau exists outside modern temporal frameworks, hosting prehistoric creatures and forgotten civilizations, and thereby disrupts the linearity of historical progress. For instance, the appearance of pterodactyls and encounters with ape-men underscore the plateau as a living fossil of deep time. When Challenger proclaims, "We have been privileged to look into the womb of time," the narrative emphasizes a rupture in modern chronology.The expedition to the plateau signifies not just spatial movement but a journey back in time. This is mirrored in the treacherous crossing of the river and the ascent up the cliffs, which act as thresholds to another world a hallmark of Bakhtin's "adventure chronotope."[10] These thresholds are dramatized when the team builds a tree-platform and later a bridge to access the plateau, emphasizing physical and symbolic transitions".

Discussion. The findings of this study show that the chronotope in "The Lost World" is a key element that goes beyond setting and plays a major role in shaping the novel's meaning. By analyzing the contrast between the urban world of London and the prehistoric plateau, we can see how Arthur Conan Doyle uses time and space to explore larger themes, such as scientific progress, the limits of human understanding, and the connection between past and present.[11]

One of the most important observations is how Doyle uses the chronotope to create a sense of transformation. As the characters leave the structured world of London and enter the unknown space of the plateau, they undergo personal and intellectual changes. This mirrors the reader's own journey into a space that challenges their usual understanding of time and reality. The plateau functions as a space where the past is alive, and where the characters are tested in ways they never expected. In this way, the chronotope becomes a symbol of inner growth and discovery.

Another important aspect is how Doyle connects the chronotope to scientific and colonial ideas of his time. The novel reflects the spirit of early XXth century exploration, when European scientists and adventurers were traveling to distant lands to make new discoveries. The plateau, as a "lost world," represents both the excitement and the danger of these explorations. Doyle's chronotope, therefore, expresses both the curiosity of modern science and the fear of encountering something beyond human control.In comparison with other authors of the same genre, such as H.G. Wells and Jules Verne, Doyle's chronotope stands out because it does not simply imagine a future world or a distant place it blends historical time with myth and fantasy in a believable way. This mixture makes the chronotope in "The Lost World" rich and complex. While Verne often focuses on technological progress and Wells on future dystopias, Doyle uses time and space to explore the unknown past and the emotional and moral effects of that encounter on human beings.

Conclusion. This article has examined how the concept of chronotope is expressed in Arthur Conan Doyle's novel "The Lost World". Using Mikhail Bakhtin's theory of chronotope as the main analytical framework, the study revealed how Doyle skillfully connects time and space to shape the narrative, deepen the characters, and communicate important themes. The novel presents a strong contrast between two main chronotopes: the modern, organized world of London and the mysterious, prehistoric plateau in South America. This contrast not only drives the plot but also symbolizes the tension between modern civilization and the unknown forces of nature.

Through his vivid descriptions and the use of a first-person narrator, Doyle creates a believable and engaging chronotope that draws the reader into a world where time stands still and ancient life continues to exist. The plateau becomes a space of discovery, danger, and personal transformation, where scientific exploration meets mythical wonder. In this unique setting, the characters are forced to question what they know about the world and themselves.The study also showed that Doyle's use of chronotope reflects the spirit of his time an era of exploration, colonial expansion, and scientific curiosity.

REFERENCES:

1. *Bakhtin, M. M. (1981). The Dialogic Imagination: Four Essays. Austin: University of Texas Press.*
2. *Bakhtin M. M., The Dialogic Imagination: Four Essays, ed. Michael Holquist, trans. Caryl Emerson and Michael Holquist Austin: University of Texas Press, 1981.-P. 84.*
3. *Yuri M. Lotman, Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture .London: I. Tauris, 1990.-P .131.*
4. *Ralph E. Weber, "Adventure and the Exotic: Conan Doyle's The Lost World," Victorian Literature and Culture, 2004.-P. 457–476*
5. *John McBratney, Imperial Subjects, Imperial Space: Rudyard Kipling's Fiction of the Native-Born. Columbus: Ohio State University Press, 2002.-P. 156.*
6. *Martin Green, Dreams of Adventure, Deeds of Empire .New York: Basic Books, 1980,-P. 210*
7. *Wells, H. G. "The Time Machine". London: Heinemann 1895.-P.112*
8. *Wells, H. G. The Time Machine. London: William Heinemann.1895.-P.116*
9. *Verne, J. Journey to the Center of the Earth. Paris: Pierre-Jules Hetze.1864.-P.321*
10. *Morson, G. S. Emerson, C. Mikhail Bakhtin: Creation of a Prosaics. Stanford University Press.1990.-P.234*
11. *Todorov, T. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre. Ithaca: Cornell University Press.1975.-P.234*

UO‘K 801.85:92.181

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA LIRIKANING SUBYEKTIVLIGI

Jo‘rayeva Gavhar Eshqobilovna,
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
gavharj555@gmail.com

Annotatsiya. *O‘zbek adabiyotida lirika badiiy ijodning eng muhim turlaridan biri sifatida insonning ichki kechinmalari, ruhiy olami va his-tuyg‘ularini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalaydi. U epos va drama singari yirik janrlarda ham subyektiv ruhiy holatlarni ochib beruvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, XX asr o‘zbek she’riyatida personajli lirikaning yangi imkoniyatlari yuzaga chiqib, milliy she’riyatning mavzu va shakl jihatdan boyishiga katta hissa qo‘shdi. She’riyatimizdagi boy an’analar ham zamonaviy lirikaning rivojlanishida poydevor bo‘lib xizmat qildi. Ushbu maqolada aynan ijroviy lirikaning xususiyatlari, uning obrazlilik, badiiylik va estetik ta’sirchanlikdagi o‘rni alohida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, lirikaning o‘zbek she’riy merosida tutgan o‘rni va zamonaviy adabiy jarayondagi ahamiyati ham ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *lirika, she’riyat, lirik kechinma, shoir, badiy san’at, badiiy tasvir, badiiy adabiyot.*

СУБЪЕКТИВНОСТЬ ЛИРИКИ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. *В узбекской литературе лирика является одним из важнейших видов художественного творчества, так как с высоким мастерством выражает внутренние переживания человека, его духовный мир и чувства. Она также служит основным средством раскрытия субъективных психических состояний в таких крупных жанрах, как эпос и драма. Особенно в XX веке в узбекской поэзии открылись новые возможности персонализированной лирики, что внесло значительный вклад в обогащение национальной поэзии как по тематике, так и по форме. Богатые традиции нашей поэзии послужили прочной основой для развития современной лирики. В данной статье особое внимание уделено исполнительской лирике, её образности, художественности и эстетической выразительности. Кроме того, показано место лирики в узбекском поэтическом наследии и её значение в современном литературном процессе.*

Ключевые слова: *лирика, поэзия, лирическое переживание, поэт, художественное искусство, художественный образ, художественная литература.*

SUBJECTIVITY OF LYRICISM IN UZBEK POETRY

Abstract. *In Uzbek literature, lyric poetry is considered one of the most important forms of artistic creation, as it skillfully conveys a person’s inner experiences, spiritual world, and emotions. It also serves as a key means of revealing subjective psychological states in major genres such as epic and drama. Particularly in the 20th century, new opportunities for personalized lyricism emerged in Uzbek poetry, significantly enriching national poetry in terms of both themes and forms. The rich traditions of our poetry provided a strong foundation for the development of modern lyric poetry. This article focuses on the characteristics of performative lyricism, highlighting its imagery, artistry, and aesthetic expressiveness. In addition, it explores the role of lyricism in the Uzbek poetic heritage and its significance in the contemporary literary process.*

Keywords: *lyric, poetry, lyrical experience, poet, artistic art, artistic imagery, artistic literature.*

Kirish. O‘zbek adabiyoti tarixida lirika doimo badiiy ijodning muhim va yetakchi turlaridan biri sifatida alohida o‘rin tutib keladi. U ko‘proq shoir shaxsiyati, uning qalb hayoti, ruhiy iztiroblari va orzu-umidlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham lirika boshqa adabiy turlarga nisbatan ko‘proq subyektivlikka moyil bo‘lib, o‘quvchiga bevosita hissiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida lirikaning shakllanish va rivojlanish jarayonini kuzatarkanmiz, uning xalq og‘zaki ijodi, qadimgi turkiy bitiklar, mumtoz adabiyot va yangi davr she’riyati orqali boyiganini ko‘ramiz. Mumtoz lirika vakillari Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi shoirlar ijodida insoniy tuyg‘ularning nozik pardalari, muhabbat, vatanparvarlik, orzu-intilish va ruhiy iztiroblar o‘z ifodasini topgan.

Keyingi davrlarda esa bu an’analar yangi mazmun va shakllar bilan boyib, zamonaviy lirikaning shakllanishiga zamin yaratdi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. XX asr o‘zbek she’riyati lirikaning yangilanish va rivojlanish davri bo‘ldi. Bu davrda jamiyat hayotida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, yangilanish jarayonlari she’riyatda ham o‘z aksini topdi. Xususan, personajli lirikaning keng qo‘llanishi, shaxsiy kechinmalarning obrazli talqini, shuningdek, ijroviy lirikaning estetik imkoniyatlarining ochilishi adabiy jarayonning muhim xususiyatlaridan bo‘ldi. She’riyatimizdagi boy an’analar, xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot va yangi davr poetik tajribalari zamonaviy lirikaning shakllanishida poydevor vazifasini o‘tadi.

Lirikaning subyektivligi masalasi ayniqsa e’tiborga molikdir. Chunki lirika boshqa adabiy turlarga qaraganda shoir shaxsiyatini, uning qalb hayoti va individual kechinmalarini yaqqolroq namoyon etadi. Bunda shoirning his-tuyg‘ulari umumlashib, o‘quvchi qalbida o‘ziga xos rezonans uyg‘otadi. Natijada lirika shaxsiy kechinmalar orqali milliy va umuminsoniy ruhiyatni ifodalash imkonini beradi. Aynan shu jihati bilan lirika o‘zbek she’riyatida nafaqat estetik hodisa, balki ijtimoiy-ma’naviy voqelikni ifodalovchi kuchli vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi [1].

Lirika – (yunoncha “cholg‘u asbobi” degan ma’noni anglatadi) adabiy tur sifatida qadimdan rivojlanib, o‘zining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirikaning bosh obrazi lirik qahramon hisoblanadi. Lirikada lirik qahramonning ichki dunyosi birinchi o‘rinda turadi. Barcha ifoda shoirning “men”i orqali o‘tadi. Lirikada eposdan farqli o‘laroq, muayyan epik syujet bo‘lmaydi. Dramatik turdan ajralib turadigan jihati esa, Lirikada subyektivlik kuchli. Ayni paytda lirikaemotsionalligi, o‘quvchi qalbini hayajonga solishi bilan farqlanadi. Lirik asarda subyekt va obyekt bir shaxsda mujassam topadi, undagi markaziy “personaj” ijodkorning o‘zi, yanada aniqrog‘i, uning ichki ma’naviy-ruhiy olami sanaladi. Lirika ijtimoiy, madaniy, maishiy, ishqiy mavzularni qamrab olishi va juda katta ijtimoiy, estetik mohiyat kasb etishi ham mumkin. Biroq bunda ham, baribir, lirik asar o‘zagida individual shaxs kechinmalari, his-tuyg‘ulari yetakchilik qiladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning quyidagi metodlaridan foydalanildi: adabiy-tahliliy metod asosida lirikaning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, uning epos va drama janrlaridagi subyektiv ruhiy kechinmalarni ifodalashdagi badiiy imkoniyatlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida XX asr va undan avvalgi davr o‘zbek she’riyatidagi personajli lirikaga oid an’analar, shuningdek, zamonaviy lirikaning shakl va mazmun jihatdan rivojlanish xususiyatlari solishtirildi. Kontekstual yondashuv orqali esa ijroviy lirikada qo‘llanilgan obrazlar, ramzlar va tushunchalarning milliy madaniyat, estetik qadriyatlar va poetik an’analardagi o‘rni tahlil qilindi. Shu tariqa lirika o‘zbek she’riy merosida shaxsiy kechinmalarni ifodalovchi, estetik didni shakllantiruvchi va ma’naviy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim adabiy hodisa sifatida tadqiq etildi [1].

Natijalar va muhokama. XX asr o‘zbek she’riyatida tavsifiy lirikaning boshqa ko‘rinishlari, jumladan birgina narsa-xodisa, holat yoki tavsif obyekti sifatida she’rlar ham ko‘plab yaratilgan. XX asrga kelib adabiyot, jumladan, she’riyatning ijtimoiylashuvi tezlashdi. She’riyatning tez sur’atlar bilan mafkuralashib borishiga imkon yaratdi. Chunki she’rlarda tobora ko‘p va chuqur aks etib borayotgan siyosiy-ijtimoiy kayfiyati qarashlar kitobxon estetik didiga uyg‘un tushdi. Shuning uchun ham Cho‘lpon, Fitrat, Hamza, Avloniy va boshqa shoirlar she’riyatining asosini ijtimoiy mavzular tashkil etdi. Jadid ijodkorlar adabiyotda, eng avvalo,o‘z mafkuralarini ommaga singdirish vositasini ko‘rganlar. She’rlarning hammasiga gazeta-jurnallarning ahamiyati, ularning kishini olam ahvolidan xabardor etishi, xalqning ko‘zini ochib, jaholatdan ma’rifatga, qoloqlikdan taraqqiyga boshlashi ta’kidlanadi. Jadid she’riyatida eng ko‘p qalamga olingan mavzulardan yana biri - Turkistonning, millatning mavjud ahvoli mavzusidir. XX asr shoirdan, iste’dod darajasiyu insoniy salohiyatidan qat’iy nazar, shaxs-shoir bo‘lishlikni talab qiladi. Asr shoiri davr qozonida, davr esa shoir qalbida qaynadi. Albatta, qaynov darajasi har ikki holda ham bir xil bo‘lmaydi, gohida me’yoriga yetdi, goxi yetmadi. Sheriyatdagi g‘oyaviy-tematik tadrijni kuzatish badiiy tafakkurdagi siljishlarni kuzatishda muhim ahamiyatga egadir. Shoir tabiatni, uning tabiiy go‘zalliklarini qumsaydi, ularni sog‘inib, ularga intilib entikadi [3]. Lirikada she’r ta’sirchanligini oshirish va hayot haqiqatini ko‘rsatish, oshirish maqsadida badiiy san’atlardan foydalaniladi [2].

Adabiyotshunos olim D.Quronov hozirgi o‘zbek she’riyati janrlarini yuzaga kelgan o‘zgarishlar, yangilanishlarni e’tiborga olib, lirik kechinma va obyekti nuqtayi nazaridan quyidagicha tasniflaydi:

1) ijroviy lirika;
2) personajli lirika;
3) meditativ lirika;
4) tavsifiy lirika (uning ko‘rinishlari: peyzaj lirikasi, voqeband lirika. D.Quronovning tasniflari masalaning mohiyatini to‘liqroq ochib beradi. Sababi, lirikaning bosh xususiyati subyektivlik, shoir qalbida

kechadigan kechinma, uyg‘otgan sezgilarni voqe qilish san’atidir. Lirikada shoir shaxsiyati birinchi planda namayon bo‘ladi. Biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul qilamiz, va anglaymiz. Adabiyot insonshunoslik, yozuvchi esa o‘z davrining faol fuqarosi hisoblanadi. Hozirgi adabiy jarayon, ijtimoiy voqelik, tafakkurning o‘zgarib borayotganligi qolaversa shoiralarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan badiiy estetik izlanishlar xilma-xil ifoda shakllarini yuzaga chiqarmoqda. So‘nggi yillar she’rshunoslikda “falsafiy she’riyat”, “fikriy she’riyat”, “meditativ lirika”, “emotsional-intelektual lirika”, “ijroviy lirika” ifodalar keng qo‘llanilmoqda. Hozirgi adabiyotshunoslikda lirika janrlarini tasniflashda ikki xil prinsipga amal qilinib kelinyapti.1) Lirikaning an’anaviy janrlari. Masalan, ruboiy, g‘azal, sonet, fard, tuyuq, qasida, marsiya, elegiya, epitafiya, tarix muxammas va boshqalarni o‘ziga xos tasniflash [3].

Ijroviy lirika namunalarini matniy tashqi qurilishiga quyidagi turlarga ajratdik:

1) an’anaviy ijroviy lirika: “Ulug‘bek faryodi”, “Bir ustoz o‘giti”, “Ota duosi”, “Musofir”, (A.Oripov), “Thakurning oxirgi she’ri”, “Muktibodh duosi”, (R.Parfi); “Sirk. Muallaqachi ayol”, “Brut”, “Mirzo Ulug‘bekning o‘kinchi”, “Gladiatr” (U.Azim), “Keksa ayol o‘ylari”, “Haykalning aytganlari” (H.Xudoyberdiyeva), “Mamatrayim baxshi”, “Boyqaro. 1501” (Eshqobil Shukur);

2) mazmunan doston, rivoyat-ertak xarak terida bo‘lgan she’rlar - “Baxshiyona” turkumi, “Qo‘ng‘irot ayollarining qo‘shiqlaridan”, Mamarayim baxshining bir davrada aytgani”, (U.Azim);

3) Xalq qo‘shiqlari yo‘lida ijro etiladigan she’rlar – “Go‘rkovlar qo‘shig‘i (A.Oripov), Mo‘min Mirzoning so‘nggi qo‘shig‘i”, “Sarbadorlar qo‘shig‘i, “Qo‘ng‘irot ayollarining qo‘shiqlaridan “Mamarayim baxshining bir davrada aytgani” (U.Azim)

O‘zbek otaning qirq uchinchi yildagi faryodlari qiz qo‘shig‘i”, “Qiz qo‘shig‘i” (E.Shukur), “Qo‘shchi qo‘shig‘i”, “Baxtiyorning qo‘shig‘i”, “Baxtiyorning qo‘shig‘I” (Yo‘ldosh Eshbek).

Ijroviy lirikaga oid bo‘lgan she’rlarning sarlavhasi ham she’rning shakl va mazmunini ochib beradi. Ijroviy qahramon ishtirok etgan she’rlar poetikasida sarlavha majmuasi ham muhim o‘rin tutadi. A.A Moiseyeva ta’kidlaganidek, rol ijro etayotgan qahramonning nomi yoki maqomi, muallifga mos kelmay, ko‘pincha she’rning sarlavhasida ko‘rsatiladi.[2]

D.Quronovga ko‘ra lirik asarning ramka unsurlaridan biri bo‘lgan ijroviy lirika namunalaring g‘oyaviy badiiy mazmunini aks ettiradi.

Lirika ifoda obrazni emas, balki poetik shtrixlarning inson ruhiyatiga o‘tkazgan bosimi vositasida yuzaga kelgan kechinma ustuvorligini birlamchi o‘ringa ko‘taradi. Lirik kechinmani biron-bir etakchi obraz orqali ifodalash usulida yozilgan asarlar she’riyatning asosiy qismini tashkil etadi. Bu an’anaviy shakl o‘zining soddaligi hamda o‘ng‘ayligi xalq orasida mashhur. Ularning ko‘pi asosiy badiiy mazmun yuklangan obraz nomi bilan ataladi hamda kechinma ifodasida fikriy umumlashmalarning ustun turishi bu taxlitda bitilgan she’rlarning sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi. Kechinma ifodasining ushbu usuli Iqbol Mirzoning “Ota nidosi” she’rida yorqin aks etgan. Unda Ota obrazi shoir kechinmalari ifodasi uchun vosita vazifasini bajargan.

She’rda kechinmaning obrazini yaratishga asoslangan usul so‘nggi yillarda ayniqsa kengayib bormoqda. Bu taxlitdagi she’rlarda barcha ijodiy unsurlar shoir kechinmasi obrazini yaratishga, uni o‘quvchi tasavvurida to‘liq yig‘ishga yo‘naltiriladi. Asardagi poetik obrazlar mustaqil, ma’no salmog‘iga ega bo‘lsada, kechinma obrazining biron-bir qirrasini ochib berishga xizmat qiladi. Bunda tuyg‘u she’r badiiy mazmunining markazida turadi. Agar ifoda jarayonida hissiy va aqliy takomil uyg‘unlikka erishsa, betakror poetik butunlik maydonga keladi. Ayni paytda, hissiy idrok ustuvorligi bu yanglig‘ izlanishlarda tasvir madaniyatini mavhumlashtirib-murakkablashtirib yuboradi. Lirik kechinma ifodasining mazkur shakli A.Qutbiddinning “Sog‘inch” va B.Ro‘zimuhammadning “Tavallud topganim” deya boshlanadigan she’rlarga xos ustuvor xususiyatdir [4].

Lirik kechinma ifodasida peyzaj va poetik sharoit tasviri etakchilik qiluvchi she’rlar ham she’riyatimizda ustuvorlik qiladi. Shoir o‘z kechinmasidan ko‘ra o‘sha tuyg‘ularga sabab bo‘lgan joy, narsalar, tashqi vaziyat, sharoit tasvirini berayotganga o‘xshab ko‘rinadi: fakat onda-sonda ijodkor kechinmasi, botiniy dunyosi bilan bog‘liq so‘z yoki obrazlarni uchratamiz. Aslida ana shu yuzakilik bag‘rida yangi badiiy mazmun qaror topadi. Aynan lirik peyzaj tarkibiga poetik voqelik, vaziyat tasvirini ham kiritish mumkin. Chunki she’r tug‘ilayotgan badiiy voqelikdagi har bir jism she’riyat qonuniyatlari asosida qaytadan baholanadi, yashaydi, o‘zining yangi qirralarini namoyon qiladi. Lirik peyzaj va lirik kechinma o‘zaro munosabati H.Xudoyberdievaning “Qushlar ketgach…” deya boshlanadigan she’rida yaqqolroq namoyon bo‘ladi:

Qushlar ketgach ranglari somon bo‘lar daraxtning Aftoda, yaproqlarin to‘kib qolar yalang‘och.
Qiyin bo‘lar ajralmoq biri – birini suysa – Qiyin ajralganlarning zavolini ko‘rgaysan.
Qush, daraxtki shunchalar bir-biri uchun kuysa, Yo rab, kuzda insonga o‘zing toqat bergaysan.

Shoira lirik qahramon tabiatidagi vatanparvarlik tuyg‘usini turli xil sharoitlarda, holatlarda tadqiq etadi. Bu borada, tabiat bamisli ko‘zgu. Kuz faslida daraxtlar bargining sarg‘ayishi, qushlarning olis – olislarga – issiq o‘lkalarga uchib ketishi, daraxtlarni tark etishi holatlariga chuqur ma’nolar yuklanadi. Shartlilik vositasida tabiat holatlari bilan so‘lg‘in ranglariga insoniy munosabatlar baxsh etilayotir. Poetik asarning ohanggi ham uning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu usulda aksar hollarda shoir kechinmasi, lirik hayajon marom tabiatiga yuklanadi. Mazkur holatda kechinmaning mazmuniga qarab she’r ohangi tanlanadi. She’riy ohang nutq hodisasi bo‘lsa-da, usiz asar mazmunini to‘liq tushunish, shoir tuyg‘usini his qilish qiyin: “She’riy ritm she’r yaratuvchining his va tuyg‘ularini o‘ziga xos bir tarzda ifodalashga yordam beruvchi nutq hodisasidir” [3].

Darhaqiqat, ritm, marom va musiqiylik tuyg‘u ta’sirchanligini ta’min etadigan yordamchi vositalardir. Ba’zan mazkur tushunchalar she’r estetik markazini boshqarib, ijodiy alohidalik sifatini namoyon qiladigan poetik unsurga aylanadi. Qofiya, tovush, mantiqiy ta’kid va signal joylashuvlari lirik kechinma tabiatida badiiy butunlikka erishadi:

Qadim ona bu tuproq Turkiston bir, vatan bir. Bizga jondan azizroq, Turkiston bir, vatan bir.

Misralarning o‘ynoqi ohanggi va barmoq tizimining ravon ifoda usuli E.Vohidovning “Turkiston bir, vatan bir” she’rida tuyg‘uni mavjlantirib turadi. Bir qarashda, manzuma faxriya shaklida jaranglayotgandek taassurot uyg‘otadi. Biroq asar qatida yuksak umuminsoniy mohiyat yotadi. “Al-Beruniy yodi bor, Yassaviy faryodi bor” bu qadim yurt ajdodlarimiz qonidan paydo bo‘lgan. Chunki mazkur tuyg‘u “Farobiy cholg‘usida, Navoiy orzusida” voyaga etgan. “Shoh Bobur qayg‘usida” shakllangan Vatan qanchadan-qancha fotihlarga “xomtalash bo‘lgan…” [4].

Ijroviy lirika atamasi rus adabiyotshunosligida “rolevaya lirika” nomi bilan yuritiladi. Mazkur janr nazariyasini olim B.O.Korman ishlab chiqqan. Professor B.O.Korman XX asrning 70-yillarida lirika manbalari asosida muallif ongining subyektiv shakl mavjudligini asosladi:

1) muallifning o‘zi;
2) muallif -rivoyatchi;
3) lirik qahramon;
4) rol o‘ynaydigan qahramon.

O‘zbek adabiyotshunosligida esa, ijroviy lirika atamasi bilan ilk marta adabiyotshunos olim D.Quronov tomonidan qo‘llangan.

Ijroviy lirika xarakter xususiyatiga ko‘ra, adabiy asar mazmunini brinchi shaxs, hikoyachi, bosh qahramon tomonidan aytiladigan lirik hikoya. Ijroviy lirikada hikoyaning mavzusi ko‘pincha xayoliy belgi bo‘lib,uning xususiyatlari va fazilatlari tasvirlangan davrga, vaqtning janr an’analariga mos keladi [5].

Lirika haqida yuqorida aytilganlarga qo‘shimcha qilish joizki, XX asrning 70-80–yillarida o‘zbek she’riyatida ijroviy lirikaning yangi bosqichi kuzatildi. Bu davrda shoirlar lirikaning badiiy imkoniyatlaridan keng foydalanib, tarixiy shaxslar, adabiy qahramonlar hamda milliy ong uchun muhim bo‘lgan obrazlarni lirik qahramon sifatida tasvirlashga intildilar. Bu jarayon she’riyatni ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar bilan chambarchas bog‘ladi va milliy o‘zlikni anglashning muhim bosqichiga aylandi. Demak, lirikaning ijroviy shakllari nafaqat individual kechinmalarni, balki xalqning umumiy tarixiy xotirasi va ijtimoiy tafakkurini ifoda etuvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ldi.

O‘sha davrdagi ijroviy lirika qahramonlari, tarixiy shaxslar obrazlari milliy tafakkurni uyg‘otish, o‘zlikni anglash, ijtimoiy hayotga faolroq qarashga undash vazifasini o‘tadi. Bunday lirik she’rlarning ommalashuvi, bir tomondan, ijodkorlarning tarixiy jarayonlarga, xalq ruhiyatiga befarq emasligini, ikkinchi tomondan, jamiyatda o‘zligini anglash jarayoni boshlanganini ko‘rsatadi. Bu holat, albatta, lirikaning subyektiv mohiyati bilan ham bog‘liqdir. Chunki shoir o‘z qalbidagi kechinmalarni ifoda etar ekan, ular jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy voqealar bilan uyg‘unlashadi. Natijada lirika individual his-tuyg‘ular orqali umumxalq ruhiyatini aks ettiradi [5].

She’riyat, ayniqsa lirika, doimo ijodkorning ilhom mahsuli sifatida qaraladi. Shuning uchun ham lirikaning subyekti va obyektini ajratib ko‘rsatishda shoirning dunyoqarashi, yashayotgan davri, shaxsiy qiziqishlari, ijtimoiy voqelik va ma’naviy-axloqiy qarashlari hal qiluvchi o‘rin tutadi. Lirik asarda shoir o‘zini qahramon sifatida ko‘rsatishi mumkin, yoki tarixiy shaxs, adabiy obraz, hatto tabiat hodisasi, nabotot va hayvonot olamidagi mavjudot yoki bir predmet orqali o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashi mumkin. Bu lirikaning imkoniyatlarini kengaytiradi, uni boshqa adabiy turlardan ajratib turadigan asosiy xususiyatlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Lirika tushunchasi jahon adabiyotshunosligida ham turlicha talqin qilingan. G‘arb adabiyotida lirika ko‘proq shaxsiy tuyg‘ularni bevosita ifodalash sifatida qaraladi. Sharq adabiyotida esa lirika nafaqat shaxsiy kechinmalarni, balki falsafiy tafakkur, diniy-axloqiy qarashlar, ma’naviy-ruhiy izlanishlarni ham o‘zida

mujassam etadi. O‘zbek she’riyatida bu ikki talqin uyg‘unlashib, o‘ziga xos poetik yo‘nalishni yuzaga keltirgan. Shuning uchun ham o‘zbek lirikasida shoir ba’zan o‘z qalbini ochib beradi, ba’zan esa tarixiy shaxs yoki obraz tilidan gapirib, umumxalq ruhiyatini ifoda etadi [6].

Xulosa. Xullas, lirika o‘zbek adabiyotida shaxsiy kechinmalarni ifodalash bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy va ma’naviy voqelikni ham teran yoritib bera oladigan adabiy hodisadir. Uning subyektivligi shoirning dunyoqarashi, qalb kechinmalari va individual ruhiyatidan kelib chiqadi. Lekin bu subyektivlik umumlashib, xalqning ruhiy kechinmalari, tarixiy xotirasi va milliy tafakkurining bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, lirika milliy adabiyotda shaxsiy va ijtimoiy ruhiyatni uyg‘unlashtiruvchi, badiiy-estetik tafakkurni shakllantiruvchi hamda ma’naviy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi kuchli vosita sifatida o‘z o‘rniga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Karimova N. Asqar Mahkam she’riyatida muhabbat va tabiat obrazlari. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2021.

2. Qodirov H. “O‘zbek she’riyatining falsafiy talqini.” // Adabiyotshunoslik jurnali, 2018.

3. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

4. Qutlimuratova M. Hozirgi o‘zbek she’riyatida ruhiy kechinma va badiiy talqin. Fil.f.f.d.diss. – Nukus. 2011.

5. Ulug‘bek Hamdam. Yangi o‘zbek she’riyati. – Toshkent: Adib, 2012.

6. Gulshoda, B. (2024). Asqar Mahkam she’riyatida badiiy ifoda va tasviriy mahorat. // Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(5), 26–28.

UO‘K 82

TEMURIYLAR DAVRI ADABIYOTINING TARIXIY-MADANIY ASOSLARI

Jurayev Islom Mamasodikovich,
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
jurayev-islom@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Temuriylar davri adabiyotining tarixiy va madaniy omillar bilan bog‘liqligi hamda adabiy merosning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Unda badiiy an’analarning rivojlanish jarayoni ochib berilib, temuriylar zamonidagi ijodkorlarning ilm-fan, adabiyot va san’at taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *madaniy hayot, turkiy til, temuriy ijodkor, badiiy tafakkur.*

ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛИТЕРАТУРЫ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ

Аннотация. *В статье исследуется взаимосвязь литературы эпохи Тимуридов с историческими и культурными факторами, а также особенности литературного наследия этого периода. В ней раскрывается процесс развития художественных традиций и на научной основе освещается вклад литературных деятелей эпохи Тимуридов в развитие науки, литературы и искусства.*

Ключевые слова: *культурная жизнь, тюркский язык, литературные деятели эпохи Тимуридов, художественное мышление.*

HISTORICAL AND CULTURAL FOUNDATIONS OF TIMURID LITERATURE

Abstract. *This article examines the interconnection between Timurid era literature and historical and cultural factors, as well as the distinctive features of the literary heritage from this period. It elucidates the process of artistic tradition development and, on a scientific basis, sheds light on the contributions of Timurid era literary figures to the advancement of science, literature, and art.*

Keywords: *cultural life, Turkic language, Timurid era literary figures, artistic thinking.*

Kirish. XIV asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ulkan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar ro‘y berganligi bilan xarakterlidir. Amir Temur tomonidan tuzilgan markazlashgan davlat o‘zining kuch-qudrati, had-hududi, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma’naviy va ma’rifiy salohiyati bilan dunyo tamaddunida alohida o‘rin tutadi. Bu davrda barcha jabhalarda ulkan ijobiy o‘zgarishlar vujudga keldi. Hunarmandchilik, me’morchilik, ilm-fan va san’atning barcha sohalari rivojlandi. Yangi shaharlar barpo etildi, mavjudlari misli ko‘rilmagan darajada obodonlashtirildi. Karvon yo‘llaridagi osoyishtalik tufayli ko‘plab mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlari kengaydi va bu o‘z navbatida temuriylar mamlakatining ham har taraflama taraqqiy etishiga yo‘l ochib berdi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Amir Temur vafotidan keyin u barpo etgan ulkan saltanat asta-sekin inqirozga yuz tuta boshladi va oxir-oqibat tarix sahnasidan chetga surilib, o‘rnini shayboniylar sulolasiga bo‘shatib berdi. Bu jarayon juda murakkab va bahs-u munozaralarga boy bir davrni o‘z ichiga oladi. Amir Temurdan so‘ng davlat ikkiga bo‘linib, Xurosonda uning o‘g‘li Shohruh 1409-1447-yillar orasida, Movarounnahrda nabirasi Ulug‘bek 1409-1449-yillarda hukmronlik qilgan bo‘lsalar-da, bu ikki mamlakat hududidagi ilmiy-madaniy aloqalarga putur yetmadi. Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida Movarounnahr bu jihatdan ko‘p muvaffaqiyatlarga erishgani ma’lum. Shaxsan Ulug‘bekning fanga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. U bobosi Temur kabi olimlar bilan suhbat qurib, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish bilan cheklanib qolmadi, balki Sharq tarixida kam uchraydigan hodisani – hokimiyat boshqaruvi bilan ilmni birga qo‘shib olib bordi. Zamondoshlari Ulug‘bekni bu fazilatlari tufayli Arastuning shogirdi Iskandar bilan tenglashtiradilar.

Alisher Navoiygacha bo‘lgan davrning yetakchi adabiy siymolaridan bo‘lgan mavlono Sakkokiy temuriylar davri adabiyotining atoqli namoyondalaridan edi. Shoir Xalil Sulton davrida ijod maydoniga kirib kelib, Mirzo Ulug‘bek hukmronlik yillarida kamolotga erishgan. Qasidalaridan birida ilm-fan, madaniyat hamda adabiyot homiysi bo‘lgan Ulug‘bekni quyidagicha samimiy madh etadi:

Salotin dunyoda ko‘p keldi-yu kechti seningtek bir,

Falakning gar tili bo‘lsa ayitsunkim, qachon keldi [1.70].

Boshqa tarixiy manbalar ham temuriylar davri, xususan, Mirzo Ulug‘bek zamonasi ilm-fan va san’at rivoji yuksak bo‘lganidan xabar beradi. Sakkokiyni o‘zi ham ijodiy merosidagi to‘qqizta qasidasining to‘rtasini Ulug‘bek Tarag‘ayga bag‘ishlagani bejiz emas.

XV asrda Atoiy, Lutfiy, Gadoiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Haydar Xorazmiy singari turkiy adabiyot vakillari ijodida adabiy janrlar ancha takomillashdi. She’riyat badiiy adabiyotda yetakchi tur sifatida davom etdi. Bu davrda g‘azal eng yetakchi she’riy janrga aylandi. Alisher Navoiy lirikaning 16 janrida qalam tebratdi, uning “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa” singari asarlari jahon adabiyoti mulkiga aylandi.

Temuriylar davrida yassaviylik adabiyoti vakillari, asosan, XV asrning ikkinchi yarmida ko‘zga tashlanadi. Abdurauf Fitrat “Chig‘atoy adabiyoti” maqolasida “Temuriylar davridag‘i Yassaviy shoirlaridan kamolga yetganlar – Sayyid Ahmad, Shams O‘zgandiy” deya ma’lumot beradi [2.39].

Ayni shu davrda kichik lirik she’rlardan tortib, yirik masnaviy dostonlar bitish avj oldi. Shu bilan birga munozara, muhabbatnoma singari o‘ziga xos janrlarda yaratilgan mumtoz asarlar maydonga kela boshladi. Shuningdek, sharq adabiyotida keng tarqalgan mashhur syujetlar asosida yangidan-yangi asarlar yaratishga kirishildi.

Hijriy 812-yilda (milodiy 1409-yil) o‘zbek tilida noma’lum muallif tomonidan “Yusuf va Zulayho” nomli doston yozilgan bo‘lib, hozircha bu asar shartli ravishda Durbek degan balxlik shaxsga nisbat berib kelinmoqda. Bu adabiy jarayonda shohlar ham, oddiy kosib va hunarmandlar ham, olim va fozillar ham qatnashganligi e’tiborlidir.

Xurosondagi adabiy hayotning rivojida temuriy shahzodalardan Boysung‘ur Mirzo (Shohruhning uchinchi o‘g‘li)ning o‘rni katta bo‘ldi. U o‘z tashabbusi, g‘ayrati, aql-u zakovati bilan Xurosonda fanlarning barcha sohalarini, shu jumladan, adabiyot va san’at sohalarini rivojlantirishga harakat qilgan. Uning saroyida bu ishlar qanday yo‘lga qo‘yilgani haqida Yusuf Amiriy “Dahnoma” asarining kirish qismida qimmatli ma’lumotlarni bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Movarounnahrda ham bu yillarda o‘zbek tilidagi adabiyot o‘z rivojida yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Adabiy jarayonda o‘zbek va forsiyzabon shoirlar barobar huquqqa ega bo‘lib, turkiy she’r xaridorlari qancha ko‘p bo‘lsa, forsiy she’r talabgorlari ham ulardan kam emas edi. Adabiy muhitni bevosita Ulug‘bekning o‘zi boshqarar, Samarqandda o‘sha davrning eng yaxshi shoirlari jam bo‘lgan edilar. Akademik V. V. Bartold yozishicha, bu yerda shoirlarning sardori (“Malik ul-kalom”) qilib Mavlono Kamol Badaxshiy tayinlangan edi. Ulug‘bek o‘zi ham she’rlar yozar, shoirlarga o‘zini yaqin tutar, uning she’r haqidagi tushunchalari nihoyatda yuqori bo‘lganini Sakkokiy o‘z qasidalarining birida alohida ta’kidlab o‘tgan. [1.69] Ulug‘bek Movarounnahrdagi shoirlar bilangina emas, Xurosondagi forsiyzabon va turkiyzabon ijodkorlar bilan ham do‘stona munosabatda bo‘lgan. Masalan, Ulug‘bek Mavlono Lutfiy she’rlarini XV asrning g‘oyatda mashhur shoiri Salmon Sovajiy she’rlari bilan teng ko‘rgan. Ulug‘bekning Lutfiy she’rlarini Sovajiy she’rlari bilan yonma-yon qo‘yganligi, ya’ni tirik shoirni yaqinda o‘tgan mumtoz shoir bilan tenglashtirilishi Lutfiy uchun katta sharaf edi. Ulug‘bek hamda Shohruh Mirzolar davrida Samarqand adabiy muhiti va Hirot adabiy muhiti vakillari o‘rtasida o‘ziga xos ijodiy musobaqa ko‘zga tashlanadi. Biz buni, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari orqali ham payqashimiz mumkin. Chunki ma’lum muddat Samarqandda tahsil olgan Alisher Navoiy keyinchalik yuqoridagi asarini yozar ekan, beixtiyor Samarqand shoirlari bilan Hirotda istiqomat qiluvchi ijodkorlarning adabiy merosidagi o‘xshash hamda tafovutli jihatlarni ham tahlil qiladi.

Ulug‘bek saroyidagi eng obro‘li va nomdor o‘zbek shoiri, shubhasiz, Sakkokiy edi. Uning dilrabo lirik she’rlari bilan bir qatorda o‘zbek tilida Ulug‘bek, Arslon Xo‘ja Tarxon, Xo‘ja Muhammad Porso haqidagi qasidalari ham bu she’riy janrning yorqin yutug‘i bo‘ldi.

Shu paytgacha bu davrda Movarounnahrda yashab ijod qilgan shoirlarning ko‘plari bizga noma’lum edi. Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” tazkirasida ko‘proq xurosonlik shoirlar haqida ma’lumotlar bergan. Davlatshoh Samarqandiy esa “Tazkirat ush-shuaro” asarida ko‘proq o‘tmishda o‘tgan qalam sohiblariga to‘xtagan. Shu o‘rinda badiiy ijod qatorida tazkiranavislik borasida ham o‘ziga xos tadrijiy taraqqiyot, yangilanishlarni ko‘zga tashlanganligini kuzatamiz. Biz yuqorida aytib o‘tganimizdek, Davlatshoh Samarqandiy, Abdurahmon Jomiylar ko‘proq o‘zlaridan oldin yashab o‘tgan so‘z sana’tkorlari haqida ma’lumot bersalar, Alisher Navoiy bevosita o‘zi ko‘rgan, muloqotda bo‘lgan yoki maktublar yozishgan shoirlar haqida ko‘proq to‘xtalib o‘tadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. XV asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo‘lib, bu yuksalish temuriylardan 1469-yildan 1506-yil orasida podshohlik qilgan Sulton Husayn Boyqaro hamda o‘zbek adabiyotining cho‘qqisi hisoblangan Alisher Navoiy nomlari bilan bog‘liq. Husayn Boyqaro 40 yillik hukmronligi davrida Xurosonda adabiyot, san’at va fanning ko‘p sohalari rivojiga

katta ahamiyat bergan. Shoir sifatida “Husayniy” taxallusi bilan mashhur bo‘lgan bu zoti sharif o‘z hukmronligi davomida Alisher Navoiyga o‘z saroyida muhrdorlik, bosh vazirlik, “muqarrabi hazrati sultoniy” mansablarini berib, uning davlat arbobi sifatida mamlakatni insof va adolat bilan boshqarish, tinchlikni saqlash, keng miqyosda madaniyatning rivojlanishiga homiylik qilishdek noyob fazilatlaridan foydalanishga intildi. Xuroson shaharlarida ma’naviy hayotda katta jonlanish yuz berdi. Uzoq o‘lkalardan ham Hirotga kelib muqim o‘rnashgan, ijod bilan mashhur bo‘lgan ko‘plab ijodkorlarning adabiy merosidan bahramand bo‘lamiz. Masalan, asli ozarbayjonlik bo‘lgan Mavlono Ashraf va boshqa Turkiston o‘lkalaridan Hirotga yuzlangan so‘z san’atkorlari shular jumlasidandir.

Shu davr fors-tojik adabiyotining ulug‘ namoyandasi Abdurahmon Jomiy bilan hamkorlikda Alisher Navoiy Hirot va boshqa shaharlarda ma’naviyat taraqqiyotiga, adabiyot va san’atning, turli fan sohalarining rivojiga rahnamolik qildi. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy timsolida badiiy adabiyot ulkan yutuqlarga erishdi. Navoiyning “Xamsa” va “Xazoyin ul-maoniy” nomli to‘rt devonni o‘z ichiga olgan kulliyoti, Jomiyning “Haft avrang” va bir necha she’riy devonlari shu davr adabiyotining bebaho namunalari bo‘ldi. Husayn Boyqaro “Risola” sida o‘z podshohligi zamonida shunday asarlar yaratilganidan cheksiz faxrlangani bejiz emas [3.164].

Temuriylar davrida yaratilgan turli janrlardagi o‘lmas asarlarga qiziqish butun dunyoda tobora ortib bormoqda. Mazkur asarlar o‘zining o‘qimishliligi, o‘quvchi e’tiborini darhol o‘ziga jalb eta olishi, voqealar bayonidagi haqqoniylik, muallif pozitsiyasining aniqligi bilan haqiqiy badiiy adabiyot namunasi darajasiga ko‘tarilgan.

Sohibqiron Temur va uning avlodlari adabiyot va san’atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Ulug‘ hukmdor va sarkardaning ana shunday xayrli an’analari uning kelgusi avlodlari tomonidan ham davom ettirilib, rivojlantirildi. O‘z davri nuqtayi nazaridan yangi pog‘onalarga olib chiqildi. Chunki bu davrda voqelikni real aks ettiruvchi masnaviy-dostonlar, syujetli she’rlar va lirikaning barcha janrlariga mansub asarlar, ma’rifat va axloqqa oid risolalar yaratila boshlandi. Bular qatorida, Alisher Navoiy asarlari, Zahiriddin Muhammad Boburning memuar asari, o‘sha davrda shoir sifatida kamol topgan Muhammad Solih kabi ijodkorlar o‘zlari yashab ijod qilgan davr va muhitni aks ettiruvchi bir qancha badiiy, tarixiy hamda memuar asarlarni maydonga keltirdilar.

Amir Temur va temuriylar davri madaniy muhitida turkiy (eski o‘zbek) adabiyoti har qachongidan ham ravnaq topdi. Turkiy adabiyot sarchashmalari ancha qadimdan boshlangan bo‘lib, bu davrga kelib yanada sayqallandi, mavjud badiiy janrlar takomillashdi, yangidan yangi janrlar kirib keldi va imkoniyatlari kengayib, yuksak rivojlanish pallasiga kirdi. Bu haqda o‘sha davrning shoir va adabiyotshunos olimi Shayx Ahmad Taroziy o‘zining “Funun al-balog‘a” asarida shunday ma’lumot berib o‘tadi: “Bilgilkim, majmui shuaro istilohinda she’rning aqsomi, ul kim mo‘tabardur, o‘n nav’ kelibdur: qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, masnaviy, tarje’, musammat, mustazod, mutavval, fard” [5.29] Shuningdek, olim musammatni besh turga ajratadi va murabba’, muxammas, musaddas kabilarga misol keltiradi.

Temuriylar davri – XIV asr oxiri va XVI asr boshlari adabiyotining eng ko‘zga ko‘ringan vakillari ijodiga nazar tashlar ekanmiz, ularda o‘sha davr ijtimoiy hayotining turli qirralari manzaralari o‘z ifodasini topganiga guvoh bo‘lamiz. Bu davrda yangidan yangi taniqli shoir va adiblar o‘zlarining betakror, umrboqiy asarlari bilan xalqimiz badiiy tafakkur xazinasiga ulkan hissa qo‘shdilar.

Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat-ma’rifat, san’at va adabiyotning yuksak taraqqiy etishida, eng avvalo, tabiatan ma’rifatparvar Amir Temurning xizmatlari katta bo‘ldi. Bu haqda Amir Temur o‘zining “Temur tuzuklari” asarida: “To‘qqizinchi toifa – muhaddislar, payg‘ambar, uning avlodlari va sahobalari haqida rivoyatlar naql qiluvchilar (tarixchilar) hamda qissaxonlar bo‘lib, ularni ham o‘zimga yaqinlashtirdim. Payg‘ambarlar va avliyolar haqidagi qissalarni, o‘tgan podsholar to‘g‘risidagi xabarlarni, ularning saltanat taxtiga qanday yetishganliklarini, davlatlarining qanday sabablarga ko‘ra zavol topganligini bulardan so‘rab bilardim. Har qaysisining qissalari va xabarlari, ishlari va so‘zlarini eshitib, tajribam ortdi. Olamda bo‘layotgan voqealarni ulardan eshitardim va olam ahvolidan xabar topar edim” [6.66], – deb yozadi. Qolaversa, Amir Temur vafotidan keyin ham ma’rifatparvar temuriyzodalar tomonidan bu xayrli ishlar davom ettirildi. “Eng murosasiz muarrixlar ham ularni yaratuvchi, bunyodkor, ijodkor sifatida tilga oladi. Tasavvur qilish mumkinki, saroyda o‘ziga xos tarbiya muhiti shakllangan, shahzodalar kamoloti uchun eng yetuk olimlar, tajribali lashkarboshilar, oqil va donishmand shaxslar safarbar qilingan. Shu tufayli ular barkamol bo‘lib voyaga yetgan. Aksariyati shoir, olim va san’at ahli sifatida tarixda qoldi” [7.93].

Muhokama. Badiiy adabiyot o‘zining tadrijiy taraqqiyot qonuniyatlariga ega bo‘lib, vaqt o‘tgan sari bayondan tasvirga, tashqi go‘zallik vasfidan ma’naviy olam ifodasiga intilish kuchayib boradi. Uning mohiyatini bora-bora “aytish” dan ko‘ra ko‘proq “ko‘rsatish” tashkil eta boshlaydi. Bu holni badiiy adabiyotning umumiy taraqqiyot qonuniyatlarida ham, biror so‘z san’atkorining individual ijodiy

bosqichlarida ham kuzatish mumkin. Shu tariqa, har qanday san'at namunasi, jumladan, badiiy adabiyotning hayotga yaqinlashuvi ortadi, hayotiylik ortgan sari esa uning ta'sirchanligi kuchayadi, adabiy-estetik funksiyasini to'laqonliroq bajara boshlaydi. Xususan, Mirzo Boburning "Boburnoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarlari temuriylar sulolasining ravnaqi ham, tanazzuli ham voqelik va tarixiylik bilan mos holda ko'rsatib berilgani uchun alohida ahamiyatga ega. Temuriylar orasida Shohrux, Ulug'bek, Husayn Boyqarolar davlatni markazlashtirish va mamlakatda tinchlikni ta'minlash, ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga harakat qildilar. Ammo boshqa shahzodalar orasidagi qonli kurashlar Shayboniyxon qo'lining baland kelishiga va temuriylar saltanatining Turonda tugatilishiga sabab bo'lgan. Bobur mirzogina Amir Temur vasiyatlariga sodiq bo'lganligi, eng ilg'or qarashlariga qat'iyat bilan amal qilganligi uchun u asos solgan sulola uch asrdan ziyod hukm surdi.

"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma" faqat Amir Temur yoki Bobur mirzoning tarjimai holi, hayot yo'li va faoliyati bayonidan iborat asarlar emas, balki xalqimizning hali to'la o'rganilmagan ijtimoiy-siyosiy hayoti tarixi hamdir. Ikkinchidan, bu asarlar Amir Temur va Bobur asos solgan nisbatan markazlashgan davlat va jamiyat tuzilishini, XIV-XVI asrlarda ijtimoiy munosabatlar va boshqa ilmiy masalalarni o'rganishda muhim manba vazifasini o'tab kelmoqda.

"Haqiqiy san'at asari tabiat yaratgan mo'jizalar kabi hamisha bizning aql-idrokimiz uchun beadad sirli mohiyatga ega bo'lib qolaveradi. Ana shu mohiyatga yetib borish uchun ijodkor yaratgan xarakterda aks etgan ideal va xarakter kechinmalari, xatti-harakatida ifodalangan ma'noni belgilash, qolaversa, asardagi obrazlarning tashqi va ichki qiyofasining go'zallik qonuniyatlariga qay darajada mos kelishiga baholash kerak bo'ladi, – deb hisoblaydi adabiyotshunos B.Sarimsoqov, – Chunki haqiqiy badiiy asar alohida olinganda to'la mustaqil va o'zgalar tahlilida osonlikcha talqinga berilmaydigan yumuq holda bo'ladi" [4.90].

Xulosa. Umuman, temuriylar davri yangicha tafakkur mahsuli bo'lgan adabiyotni paydo qildi. Keyingi davrlarda – temuriylar saltanati parchalanib, uch xonlik barpo bo'lgandan keyin ham, temuriylar davri adabiyotining eng ilg'or an'analari davom etdi.

ADABIYOTLAR:

1. Саккокий. Улуғбекка бағишланган қасида. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958.

2. Фитрат А. "Чиғатой адабиёти". Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият нашриёти, 2000.

3. Ҳусайн Бойқаро. Девон. Рисола. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1968.

4. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: 2004.

5. Тарозий Шайх Аҳмад Худойдод. Фунун ал-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996.

6. Темур тузуклари. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1991.

7. Сатторий, Ҳаким. Соҳибқирон абадияти. – Тошкент: Шарқ, 2016.

8. Иброҳимов А. XVI аср ўзбек адабиётининг асосий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1976.

9. Одилов А. Амир Темур тузуклари – давлат бошқаруви асоси. – Тошкент: Фан ва технология, 2016.

10. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.

UO‘K 811.512.133’322+821.512.133.09-1

ABDULLA ORIPOV, MUHAMMAD YUSUF VA SHAVKAT RAHMON SHE’RIYATI KORPUSINING MADANIYATSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

Maxammadiyeva Diyora Raxmatovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
diyoramaxammadiyeva@gmail.com
ORCID: 0009-0004-1491-1443

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmon she’riyati asosida yaratilgan poetik korpus madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Shoirlarning yuqori chastotali leksik birliklari aniqlanib, ular milliy qadriyatlar, madaniy konseptlar va poetik timsollar bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Tadqiqot natijalari she’riyat korpusi madaniy xotira, milliy identitet va ma’naviy qadriyatlarni ilmiy asosda tahlil qilishda muhim manba ekanini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *poetik korpus, chastotali lug‘at, madaniyatshunoslik, milliy qadriyatlar, poetik timsol, konsept.*

ЗНАЧЕНИЕ ПОЭТИЧЕСКОГО КОРПУСА АБДУЛЛЫ АРИПОВА, МУХАММАДА ЮСУФА И ШАВКАТА РАХМАНА В КУЛЬТУРОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье с культурологической точки зрения проанализирован поэтический корпус, созданный на основе поэзии Абдуллы Арипова, Мухаммада Юсуфа и Шавката Рахмона. Выявлены высокочастотные лексические единицы поэтов, которые исследованы в связи с национальными ценностями, культурными концептами и поэтическими образами. Результаты исследования показали, что поэтический корпус является важным источником для научного анализа культурной памяти, национальной идентичности и духовных ценностей.*

Ключевые слова: *поэтический корпус, частотный словарь, культурология, национальные ценности, поэтический образ, концепт.*

THE SIGNIFICANCE OF THE POETRY CORPS OF ABDULLA ARIPOV, MUHAMMAD YUSUF AND SHAVKAT RAHMAN IN CULTURAL STUDIES

Abstract. *In this article, the poetic corpus created on the basis of the poetry of Abdulla Aripov, Muhammad Yusuf, and Shavkat Rahmon was analyzed from the point of view of cultural studies. High-frequency lexical units of poets were identified and studied in connection with national values, cultural concepts, and poetic symbols. The research results showed that the poetry corpus is an important source for the scientific analysis of cultural memory, national identity, and spiritual values.*

Keywords: *poetic corpus, frequency dictionary, cultural studies, national values, poetic image, concept.*

Kirish. Zamonaviy fan taraqqiyotining yangi bosqichida til va adabiyot sohasida axborot texnologiyalarini keng joriy etish natijasida korpus lingvistikasi asosida olib borilayotgan tadqiqotlar dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Xususan, milliy adabiyotimiz tarixida o’zlarining boy va sermazmun ijod namunalari bilan xalqimiz tarixi va madaniyatida alohida ahamiyatga ega shoir va yozuvchilarning mualliflik korpuslarini shakllantirish orqali adabiy merosimizni turli davrlararo tizimli tahlil qilish, lingvistik va madaniy jarayonlarni ilmiy asosda yoritish imkoniyati kengaymoqda.

XX asrning ikkinchi yarmi va mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmon ijodi alohida o‘rin egallaydi. Ularning poetik merosi faqat badiiy-estetik hodisa sifatida emas, balki milliy ong, ma’naviy qadriyatlar va madaniy xotirani ifodalovchi manba sifatida ham ahamiyatlidir. Ularning poetik uslubi, dunyoqarashi va til boyligi o‘zbek adabiy tilining zamonaviy bosqichini ifodalovchi muhim manba hisoblanadi. Bu shoirlar she’riyati asosida poetik korpusning yaratilishi adabiyotshunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslik yo‘nalishlaridagi tadiqotlar uchun boy material taqdim eta oladi.

Muammo bayoni. Katta hajmli matnlar to‘plami ustida statistik ma’lumotlar to‘plash uchun korpus eng qulay, tez va ishonchli manba bo‘la olishini dunyo tajribasi isbotlamoqda. So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi yo‘nalishiga bo‘lgan qiziqish va e’tibor kuchayishi natijasida til korpuslarini tuzish metodikasi va texnikasi tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘paydi [1,2,3,4,5,6]. Ammo bugungi kungacha olib borilgan tadqiqotlarning hech birida o‘zbek she’riy matnlari korpusini yaratish kun tartibiga kiritilmagan. Poetik asarlar korpusiga bo‘lgan ehtiyoj, nafaqat amaliy tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ahamiyatlidir, balki leksikografiya, lingvostatistika, lingvokulturologiya sohalarining rivojlanishi uchun ham foydalidir [7]. O‘zbek adabiyotida ko‘plab yozuvchi va shoirlar badiiy tafakkur va estetik qarashlari bilan til taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan bo‘lsa-da, ularning poetik tilini *miqdoriy-lingvistik* metodlar asosida o‘rganish hali yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Shu bois o‘zbek she’riyatining turli tarixiy bosqichlarida ijod qilgan shoirlar matnlari asosida tuzilgan chastotali lug‘atlar *nafaqat ijodkorning individual uslubiy xususiyatlarni*, balki *milliy poetik tafakkurning rivojlanish tendensiyalarini* ham aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlilda uch shoirning poetik matnlari asosida tuzilgan ***chastotali lug‘atlar***dan foydalanildi. Dastlabki bosqichda semantik yuklamaga ega bo‘lmagan nomuhim so‘zlar (bog‘lovchilar, yuklamalar, yordamchi fe’llar) chiqarib tashlandi. Natijada poetik mazmunni belgilovchi ***dominant leksik qatlam*** ajratildi. Har bir shoirning eng ko‘p qo‘llangan 100 ta so‘zi orasidan ot, sifat, fe’l va olmoshlarga oid muhim birliklar tanlab olindi.

Poetik korpusning madaniyatshunoslikdagi ahamiyati va qo‘llanilishi. Tilshunoslikda poetik korpuslar *madaniyatshunoslik* uchun juda boy va serqirra tadqiqot manbai bo‘lib xizmat qila oladi. Chunki estetik madaniyatning asosiy ko‘rinishlaridan biri sifatida she’riyat xalqning estetik qarashlari, didi va ruhiyatini yoritadi. Chunki badiiy ijod namunalari estetik madaniyatning o‘zagini tashkil etib, san’at va adabiyot orqali estetik qadriyatlarni jamiyat ongiga singdiradi. She’riyat nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki diniy, axloqiy, gnoseologik hamda tashkiliy madaniyat elementlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Shoirlarning asarlarida ezgulik, adolat, jasorat kabi umuminsoniy g‘oyalar badiiy shaklda ifodalanib, xalqning ma’naviy ehtiyojlarini qondiradi va uni yuksak axloqiy fazilatlarga chorlaydi. Shu tariqa, she’riyat xalq estetik madaniyatini nafaqat ifodalaydi, balki uni boyitib, ma’naviy birlik va madaniy taraqqiyotga xizmat qiladi. Quyida uning qanday ilmiy va amaliy maqsadlarda qo‘llanilishi izohlanadi.

1. *Milliy identitetni tahlil qilish.*

- She’riy matnlarda milliy qadriyatlar, tarixiy voqealar, urf-odatlar qanday ifodalanganini aniqlash.
- Muayyan davrlarda *millat, til, din, vatan* kabi tushunchalarning qanday talqin etilganini tahlil qilish.

2. *Madaniy kodlar va timsollarni o‘rganish.*

- Korpus asosida *madaniy semantemalar*ni (masalan: “choy”, “masjid”, “mahalla”, “yo‘l”) aniqlash va ularning jamiyat ongidagi o‘rnini tahlil qilish.
- *Simvolik obrazlar* (gul, daraxt, tog‘, oy) orqali estetik tafakkurni tadqiq qilish.

3. *Madaniy evolyutsiyani kuzatish.*

- Shoirlar tilidagi o‘zgarishlar, yangi timsollar, qadimiy tushunchalarning yo‘qolishi yoki yangilanib qayta paydo bo‘lishi orqali *madaniyatning o‘zgaruvchanligini* tahlil qilish.

4. *Gender va ijtimoiy roller*.

- Ayol va erkak obrazlarining ifodalanishi, ularning ijtimoiy va madaniy rolini *diskursiv tahlil* qilish.

5. *Madaniyatlararo taqqoslash imkoniyati.*

- O‘zbek she’riy korpusini boshqa millatlarning poetik korpuslari bilan *madaniy-paradigmatik* jihatdan solishtirish.

6. *Afsonalar, rivoyatlar va diniy timsollar*.

- She’rlar orqali xalq e’tiqodlari, diniy motivlar va *xalq og‘zaki ijodi* elementlarini ilmiy asosda o‘rganish.

7. *Estetik va badiiy tafakkur xaritasini yaratish.*

- Korpus asosida *badiiy tafakkur xaritasi*: ya’ni muayyan davrda qanday badiiy-estetik tushunchalar ustuvor bo‘lganini statistik tahlil qilish.

Natijalar va tahlil. Poetik korpusning madaniyatshunoslikdagi amaliy ahamiyatini chuqur va aniq misollar yordamida tahlil qilish uchun *Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmon she’riyatidan iborat korpusdan foydalanamiz.* Ushbu she’riyat korpusini yaratishda Abdulla Oripov mukammal asarlari to‘plamining 7 jildi, Muhammad Yusufning 13 ta she’riy to‘plami, Shavkat Rahmonning 5 ta she’riy to‘plami tadqiqot obyekti qilib olingan va maxsus filologik va texnologik tekshiruv jarayonlaridan o‘tkazilganidan so‘ng korpusga kiritilgan. Umumiy matnlardagi leksik birliklar hajmi 574581 so‘zshakllarini tashkil etdi. She’riy matnlarni chastotali tahlil qilishning dastlabki natijalariga ko’ra eng yuqori chastotaga

ega bo'lgan 100 ta token ajratib olindi. Ushbu ro'yxatdagi *bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, ko'rsatish olmoshlari, yordamchi fe'llar (*"va", "bu", "ham", "edi"*)* kabi semantik yuklamasi zaif bo'lgan nomuhim birliklar umumiy lug'at tahlilidan chiqarildi. Chunki nomuhim so'zlar matn mavzusini aniqlashga yordam bermaydi, asosiy obrazlar va timsollar bilan bog'liq emas. Shu bois 100 ta birlikdan iborat dastlabki lug'atdan semantik tahlil uchun ahamiyatli bo'lgan *asosiy leksik qatlam* ajratib olindi va mazmunli birliklarni o'z ichiga olgan yangilangan ro'yxat shakllantirildi. Natijada shoirlarning poetik tiliga xos bo'lgan *mazmunga ega dominant birliklar* aniqlandi va shoirlar ijodi uslubiy farqlanishini, asosiy mavzu yo'nalishini aniqlash imkoniyati paydo bo'ldi. Har bir shoir uchun 100 ta eng ko'p ishlatilgan leksik birliklari orasidan ot, sifat, olmosh, fe'l turkumiga oid muhim so'zlar ajratib olindi.

1-jadval.

Shoirlar bo'yicha yuqori chastotali muhim so'zlar

T/R	Abdulla Oripov		Muhammad Yusuf		Shavkat Rahmon	
	So'z	chastota	So'z	chastota	So'z	chastota
1.	men	1926	men	1551	men	121
2.	sen	1099	sen	878	buyuk	115
3.	inson	630	dunyoda	352	osmon	96
4.	yil	604	qiz	319	dunyo	93
5.	shoir	566	odam	319	shoir	90
6.	odam	549	qon	276	oq	84
7.	buyuk	395	o'zing	275	og'ir	82
8.	o'zbek	389	onam	221	vaqt	81
9.	ulug'	385	yor	220	ko'rdim	80
10.	temur	360	yig'lar	214	go'zal	79
11.	yaxshi	333	yaxshi	193	tog'lar	79
12.	dunyo	331	o'g'lim	187	yashil	77
13.	ko'z	331	ko'nglim	186	qora	76
14.	ona	327	gul	185	odam	74
15.	hayot	315	shoir	181	quyosh	73
16.	O'zbekiston	315	jon	180	shamol	73
17.	she'r	312	bolam	177	nogoh	70
18.	xalq	305	jonim	174	ulkan	67
19.	yo'l	300	vatan	174	suv	66
20.	so'z	298	osmon	170	ko'zlari	64
21.	vatan	271	bola	170	yerga	63
22.	zamon	250	yurak	165	tun	59
23.	yuksak	225	yomon	164	yuz	58
24.	ustoz	223	oq	163	yo'l	55
25.	odamlar	220	she'r	162	bolalar	54
26.	umr	215	yer	160	ochiq	54
27.	navoiy	207	qizil	160	to'la	51
28.	yigit	179	qora	159	oftob	51
29.	ijod	174	ona	159	uzoq	50
30.	yillar	174	sevgim	158	bahor	49
31.	ozod	166	qizlar	158	oy	49

Yuqoridagi qiyosiy jadval shuni ko'rsatadiki, har uch shoir ijodida ham *"men", "sen", "odam", "shoir", "ona", "vatan", "yaxshi", "osmon", "yo'l"* kabi poetik yadroni tashkil etuvchi birliklar yuqori chastotada ishlatilgan. Bu so'zlar shaxsiy lirizm, milliylik, insoniylik va vatanparvarlik kabi umumiy g'oyaviy ustuvorliklarni ifodalaydi.

She'riyat korpusida asosiy konseptlarning madaniy mazmuni. Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmon she'riyati korpusini lingvostatistik tahlil qilish jarayonida bir qator ***yuqori chastotali konseptlar*** aniqlanadi. Ular orasida ***"ona", "Vatan", "xalq"*** tushunchalari alohida o'rin egallaydi. Ushbu konseptlar o'zbek xalqining madaniy tafakkurida chuqur ildiz otgan bo'lib, milliy qadriyatlar, ruhiyat va

jamoaviy ongni ifodalaydi. Bu tushunchalar o'zbek xalqi ***milliy madaniyatining,*** qadriyatlarining ***markaziy konseptlari*** sifatida shoirlar ijodida badiiy obrazga aylangan.

1. "Ona" konsepti.

"Ona" tushunchasi o'zbek madaniyatida *mehr-muhabbat, oilaparvarlik, bag'rikenglik* ramzi sifatida shakllangan. She'riy korpusda "ona"ning turli kontekstlarda tez-tez qo'llanishi o'zbek xalqining qadimiy dunyoqarashida onaga bo'lgan ehtirom bilan chambarchas bog'liqdir.

- *oilaviy qadriyatlarning muqaddasligi***,**
- *ona obrazining milliy tafakkurda markaziy o'rin tutishi*,
- *mehr va fidoyilik timsoli* ekanini ko'rsatadi.

2. "Vatan" konsepti.

"Vatan" konsepti she'riyatda *ozodlik, milliy birlik, sadoqat va fidoyilik* tushunchalari bilan chambarchas bog'lanadi. Shoirlar ijodida Vatan ko'pincha *ona obraziga qiyoslanib*, uning muqaddasligi ta'kidlanadi. She'riyat korpusida yuqori chastotada qo'llanishi o'zbek madaniyatidagi quyidagi qadriyatlarni yoritadi:

- Vatan uchun kurash va sadoqat,
- Millat erkinligi va mustaqillikka intilish,
- Yurtga muhabbatni avloddan-avlodga o'tuvchi qadriyat sifatida ifodalash.

3. "Xalq" konsepti.

"Xalq" so'zi korpusda ko'p uchrashi bilan *jamoaviylik, birdamlik va milliy o'zlik* tushunchalarining she'riyatdagi kuchini ko'rsatadi. Bu konsept orqali shoirlar:

- xalqning dard-u tashvishi,
- uning kelajagi va orzu-umidlari,
- jamoaviy ong va birdamlikni ifodalaydi.

O'zbek madaniyatida "xalq" tushunchasi *shaxsiy manfaatdan ko'ra umumiy manfaatni ustun qo'yish* bilan bog'liqdir.

Xulosa. Shunday qilib, o'zbek tilida poetik korpus yaratish – bu nafaqat tilshunoslikning metodik imkoniyatlarini kengaytirish, balki til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyatini beradi. Ushbu korpus madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham o'zbek xalqining *tarixiy xotirasi, qadriyatlari va ruhiy merosini aks ettiruvchi muhim manba* bo'la oladi.

ADABIYOTLAR:

1. Hamroyeva Sh. O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: fil.fan.bo'yicha falsafa doktorlik diss. – Buxoro, 2018. – P. 250.

2. Toirova G. O'zbek tili milliy korpusini yaratishning nazariy va amaliy masalalari: Fil.fan doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2021.

3. Axmedova D. Atov birliklarini o'zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari: fil.fan.bo'yicha falsafa doktorlik ishi dis. Buxoro, 2020.

4. Eshmuminov A. O'zbek tili milliy korpusi sinonim so'zlar bazasini yaratish asoslari: fil.fan.bo'yicha falsafa doktorlik ishi dis. – Termiz, 2019. – B.140.

5. Xidirov O. Milliy korpus uchun Parsing dasturi yaratishning lingvistik asoslari. Fil.fan.bo'yicha falsafa doktorlik dissertatsiyasi. 2021.

6. Inglizcha matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta'minoti (sodda gaplar misolida). fil.fan.bo'yicha falsafa doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018.

7. Maxammadiyeva D. Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon she'riyati korpusini yaratishning ahamiyati. "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar" V xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent – 2025, B. 269-274.

UO‘K 398.91

O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA MAQOLLARNING JANRIY XUSUSIYATLARI

Muxammadova Saboxat Shavkat qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
sabokhat_msh@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining qadimiy va muhim janrlaridan biri bo‘lgan maqollarning janriy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqollarning shakl va mazmun jihatlari, tasnifiy guruhlari, badiiy ifoda vositalari hamda xalq hayotidagi vazifalari ilmiy manbalar asosida o‘rganiladi. O‘zbek folklorshunosligi tarixida maqollarni tadqiq etgan olimlar – H. Zarifov, M. Afzalov, T. Mirzayev, O. Safarov va boshqalarning qarashlari keltirilib, ular ilmiy izohlar va xalq maqollari namunalarida yoritiladi. Maqola umumiy nazariy qarashlarni xalq donishmandligi namunalaridan misollar bilan boyitib beradi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek folklori, maqol, janriy xususiyat, xalq donishmandligi, folklorshunoslik, tasnif, poetika, badiiy vosita, tarbiyaviy ahamiyat.*

ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ В ФОЛЬКЛОРЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В данной статье анализируются жанровые особенности пословиц – одного из древнейших и важнейших жанров устного народного творчества узбекского народа. Рассматриваются форма и содержание пословиц, их классификационные группы, художественные средства выражения, а также их функции в жизни народа на основе научных источников. Приводятся взгляды учёных, исследовавших пословицы в истории узбекского фольклористического направления – Х. Зарифова, М. Афзалова, Т. Мирзаева, О. Сафарова и других, с научными комментариями и примерами народных пословиц. Статья дополняет общие теоретические положения примерами народной мудрости.*

Ключевые слова: *узбекский фольклор, пословица, жанровые особенности, народная мудрость, фольклористика, классификация, поэтика, художественные средства, воспитательное значение.*

GENRE FEATURES OF PROVERBS IN UZBEK FOLKLORE

Abstract*. This article analyzes the genre characteristics of proverbs, one of the ancient and significant genres of Uzbek oral folk art. It explores the form and content of proverbs, their classification groups, artistic expression means, and their roles in people’s lives based on scientific sources. The views of scholars who have studied proverbs in the history of Uzbek folklore studies – H. Zarifov, M. Afzalov, T. Mirzayev, O. Safarov, and others are presented with academic commentary and examples of folk proverbs. The article enriches general theoretical perspectives with illustrative examples from the wisdom of the people.*

Keywords: *Uzbek folklore, proverb, genre characteristics, folk wisdom, folklore studies, classification, poetics, artistic means, educational significance.*

Kirish. Xalq og‘zaki ijodi insoniyat tafakkurining eng qadimiy va eng boy qatlamlaridan biridir. Har bir xalqning ma’naviy boyligi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, orzu-intilishlari og‘zaki ijodiy yodgorliklarda mujassam bo‘ladi. Shu jihatdan o‘zbek folklori xalqimizning ko‘p asrlik hayoti, urf-odatlari, qadriyatlari va milliy o‘zligining ifodasidir.

Folklor janrlari ichida maqollar alohida o‘rin tutadi. Maqollar qisqa, lo‘nda shaklda xalqning donishmandligi, tajribasi, turmush falsafasi, axloqiy qarashlarini ifoda etadi. Shuning uchun ham maqollarni “xalq donishmandligi xazinasi”, “xalq falsafasi” deb ataydilar. Maqollarda jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayoti, qadriyatlari, axloqiy-estetik mezonlari o‘z aksini topadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek folklorshunosligida maqollarning janriy xususiyatlarini o‘rganish XX asrning birinchi yarmidan boshlab shakllandi. H. Zarifov, M. Afzalov, T. Mirzayev, O. Safarov kabi olimlar maqol janrini alohida tadqiq qilib, uning poetik, semantik, funksional va tarbiyaviy jihatlariga to‘xtalib o‘tganlar.

Mazkur maqolada o‘zbek maqollarining janriy xususiyatlari, shakl va mazmuniy belgilar, tasnif masalalari, badiiy vositalar, xalq hayotidagi vazifalari va folklorshunoslikdagi o‘rganilish tarixiga alohida e’tibor qaratiladi.

Maqollar xalq og‘zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri bo‘lib, asrlar davomida xalq tafakkuri, tajribasi va hayotiy falsafasini lo‘nda shaklda ifodalab kelmoqda. Ularning eng asosiy belgisi – qisqaligi, lo‘ndaligi va hikmatli ma’noga egaligidir.

Natijalar va muhokama. H. Zarifov maqollar haqida shunday yozadi: “Maqollar xalq tafakkurining eng yuksak mahsuli bo‘lib, unda milliy dunyoqarash, axloqiy-estetik qarashlar va tarbiyaviy g‘oyalar mujassam bo‘lgan” [6,45].

Shu bois maqollarni ko‘pincha xalq falsafasi yoki donishmandligi xazinasi sifatida talqin qilinadi. Masalan:

“Yaxshi so‘z – jon ozig‘i” – so‘zning qadri haqida.

“Ko‘pni ko‘rgan bilmas, ko‘pni ko‘rgan bilur” – tajribaga asoslangan hikmat.

M. Afzalov maqollarning tarbiyaviy jihatiga urg‘u berib: “Maqollar yosh avlodni hayotga tayyorlaydi, ularda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, odob-axloq kabi qadriyatlarni singdiradi” deydi [1,98].

O‘zbek maqollarida shakl ixcham, ritmik va ko‘pincha qofiyadosh bo‘ladi. Bu ularning esda qolishini osonlashtiradi. T. Mirzayev o‘z tadqiqotida maqollarning tuzilishi haqida shunday fikr bildiradi: “Maqollar ikki qismdan tashkil topib, ko‘pincha qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydi. Bu esa xalq donishmandligining dialektik tafakkurini namoyon etadi” [4,56].

Misollar:

“Do‘st boshidan, dushman toshidan bilinadi.”

“Yaxshi gap – jon ozig‘i, yomon gap – bosh qazig‘i.

Bu misollarda antitezaning (qarama-qarshilik asosidagi qurilish) asosiy shakl vositasi sifatida qo‘llanilganini ko‘ramiz.

O‘zbek maqollari asosan hayotiy tajribaga tayanadi. Unda xalqning mehnat faoliyati, urf-odatlari, oilaviy munosabatlari, do‘stlik va muhabbat haqidagi qarashlari mujassamdir. O. Safarov bu haqda shunday deydi: “Maqollarning mazmuni xalqning ijtimoiy tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, ular tarixiy xotira va ma’naviy meros sifatida xizmat qiladi” [5,143].

Mazmuniga ko‘ra maqollar bir necha guruhlarga bo‘linadi:

- *Mehnat va kasb-hunar: “Mehnat qilgan to‘yadi, dangasa och qoladi.”*
- *Do‘stlik va birlik: “Birlik bor joyda – yengilmaslik bor.”*
- *Vatanparvarlik: “El bilan yurgan el bo‘lar, yolg‘iz yurgan cho‘l bo‘lar.”*
- *Odob-axloq: “Yaxshi so‘z – dilga orom, yomon so‘z – dardga davo emas.”*

O‘zbek maqollari nafaqat mazmun, balki badiiy shakl jihatidan ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Ular xalq tilining eng boy, eng obrazli ifodalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Hodi Zarifovning ta’kidlashicha: “Maqollar o‘zining badiiy mukammalligi, obrazli ifodasi, qisqa va lo‘ndaligi bilan ajralib turadi. Bu ularni xalq og‘zaki ijodining boshqa kichik janrlaridan farqlab turuvchi asosiy belgilardan biridir” [6,47].

Maqollarda ishlatiladigan asosiy badiiy vositalar:

- ***Antiteza (qarama-qarshilik):***

“Yaxshi gap – jon ozig‘i, yomon gap – bosh qazig‘i.”

Bu yerda “yaxshi gap” va “yomon gap” o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilgan. “Yaxshi gap” – ruhiy quvvat, mehr, ijobiy ta’sir; jon uchun ozuqa. “Yomon gap” – ruhiy zarar, janjal sababchisi, hatto halokatga olib boruvchi vosita sifatida talqin qilinmoqda. Antitezaning kuchi shundaki, u orqali gapning ijobiy va salbiy oqibatlari aniq ko‘rsatilgan.

“Do‘st kuldirar, dushman o‘ldirar.”

Bu yerda “do‘st” va “dushman”, shuningdek, ularning harakatlari – “kuldirish” va “o‘ldirish” qarama-qarshi qo‘yilgan. Maqol orqali insonlar orasidagi munosabatlar tasvirlanadi: do‘st – quvonch manbai, dushman – xavf manbai. Bu antitezada ijtimoiy munosabatlar haqida chuqur falsafa yotadi.

- ***Metafora (ko‘chma ma’no):***

“O‘qish – nur, o‘qimaslik – zulmat.”

Bu gapda “o‘qish” “nur” deb atalgan – ya’ni ma’rifat, bilim, yuksalish manbai. “O‘qimaslik” esa “zulmat” – ya’ni johillik, orqada qolish, taraqqiyotdan uzoqlashish. Bu metafora orqali o‘qishning ijobiy, o‘qimaslikning esa salbiy oqibatlari badiiy tarzda ko‘rsatilgan.

“Kitob – bilim ummoni.”

“Kitob” bu yerda oddiy narsadan ko‘ra ko‘proq – u bilimlarning cheksiz manbai sifatida “bilim ummoni” deb atalmish. “Ummon” – juda keng, cheksiz narsa sifatida metafora bo‘lib ishlatilgan. Bu ko‘chma ma’no kitobning qanchalik muhim va boy manba ekanligini ta’kidlaydi.

• ***Parallelizm (o‘xshashlik asosida qurilish):***

“Otangni ko‘r, o‘g‘lingni so‘ra.”

Gapdagi ikki ibora parallel ravishda qurilgan: “Otangni ko‘r” (birinchi avlod), “O‘g‘lingni so‘ra” (ikkinchi avlod). Bu yerda nasldan-naslga o‘tuvchi xususiyatlar, qadriyatlar haqida fikr yuritiladi. O‘xshash sintaktik tuzilma – badiiy kuchni oshiradi.

“Ona yurting – oltin beshiging.”

Bu gap ham parallel tuzilgan: “Ona yurting” *va* “oltin beshiging” – ikkalasi ham mehr, tug‘ilgan joyga bo‘lgan chuqur bog‘liqlikni bildiradi. “Beshik” – bola uchun eng muqaddas joy. Uni “oltin” deb atash – qadrlilikni ifoda etadi. Parallelizm orqali ifoda yanada ta’sirchan, hissiy jihatdan boylashtirilgan.

O. Safarovning fikricha: “Maqollar poetikasi xalq tafakkurining badiiy tafakkur darajasini ko‘rsatadi. Undagi antitezalar, metaforalar, parallel tuzilmalar xalqning ijodiy kuchini namoyon etadi” [5,150].

Maqollar xalq hayotida turli funksiyalarni bajaradi. Ular nasihat, ogohlantirish, tarbiya berish, muammoni qisqa yo‘l bilan ifodalash kabi vazifalarga ega.

M. Afzalov yozadi: “Maqollar xalqning o‘zaro muloqotida, tarbiyaviy jarayonlarda, kundalik hayotiy muammolarni hal qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi” [1,103].

Masalan, ota-onalar bolalariga ko‘pincha maqol orqali nasihat qiladilar:

“Yolg‘onchi cho‘ponning qo‘yi bo‘ri yedi.” – rostgo‘ylikka chaqirish.

“Mehnat qilgan to‘yadi, dangasa och qoladi.” – mehnatsevarlikka undash.

Shuningdek, maqollar xalq diplomatiyasida ham qo‘llanilgan. Qisqa, lo‘nda maqol orqali qarama-qarshi tomon fikrini ifodalash, vaziyatni yumshatish yoki qarorni asoslash mumkin bo‘lgan.

O‘zbek folklorshunosligida maqollarning janriy xususiyatlari turli yo‘nalishlarda o‘rganib kelinmoqda:

1. Tarixiy-nazariy yo‘nalish – H. Zarifov, T. Mirzayevlar maqollarning kelib chiqishi, janriy xususiyatlari haqida ilmiy qarashlar bildirgan.

2. Lingvistik yo‘nalish – O. Safarov, G‘. Jahongirov maqollarning til xususiyatlarini, semantik tuzilishini tahlil qilgan.

3. Tarbiyaviy-pedagogik yo‘nalish – M. Afzalov, N. Mallayev maqollarning yosh avlodni tarbiyalashdagi o‘rnini ko‘rsatgan [3,214].

4. Qiyosiy-tahliliy yo‘nalish – A. Madayev va boshqa tadqiqotchilar o‘zbek maqollarini turkiy va jahon xalqlari maqollari bilan taqqoslagan.

T. Mirzayev shunday deydi: “O‘zbek maqollari nafaqat milliy qadriyatlarni aks ettiradi, balki umumjahon donishmandligining ham bir bo‘lagidir” [4,60].

Maqollar mazmuniga qarab bir necha guruhlarga bo‘linadi. Bu tasnif ularni ilmiy o‘rganishda qulaylik yaratadi.

• ***Mehnat va kasb-hunar haqidagi maqollar.***

O‘zbek xalqining turmush tarzida mehnat muhim o‘rin tutgan. Shu bois mehnatga doir maqollar juda ko‘p uchraydi.

“Mehnat qilgan to‘yadi, dangasa och qoladi.”

“Dehqon ekkanini o‘rar, hunar egasi elda topar.”

T. Mirzayevning fikricha, “mehnat haqidagi maqollarda xalqning hayotiy tajribasi, dehqonchilik va chorvachilikka doir qadriyatlari mujassam” [4,72].

• ***Do‘stlik va insoniy munosabatlar haqidagi maqollar.***

Do‘stlik, birodarlik, sadoqat o‘zbek xalqining qadimiy fazilatlaridan hisoblanadi.

“Do‘st boshidan, dushman toshidan bilinadi.”

“Yaxshi do‘st – omad, yomon do‘st – balo.”

H. Zarifov shunday yozadi: “Insoniy munosabatlarga doir maqollar xalq axloqiy normalarining bevosita ifodasidir” [6,53].

• ***Vatanparvarlik va birlik haqidagi maqollar.***

Maqollarda yurt, el, birlik g‘oyasi alohida qadrlanadi.

“El bilan yurgan el bo‘lar, yolg‘iz yurgan cho‘l bo‘lar.”

“Vatan – oltin beshik.”

M. Afzalovning ta’kidlashicha, “Vatanga bag‘ishlangan maqollar yosh avlod qalbida milliy iftixor va yurtparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otishda muhim manba hisoblanadi” [1,110].

• ***Axloqiy va tarbiyaviy mazmundagi maqollar.***

Bu guruhga kirmagan soha deyarli yo‘q. Chunki maqollar xalq tarbiyasining asosiy vositasi sifatida xizmat qilgan.

“Yaxshi gap – jon ozig‘i, yomon gap – dardga davo emas.”

“Oltin olma, duo ol.”

O. Safarov bu haqda: “Axloqiy mazmundagi maqollar xalqning qadimiy axloq kodeksi vazifasini bajargan” deydi [5,158].

Maqollar nafaqat o‘zbek, balki boshqa xalqlarning folklorida ham keng tarqalgan. Ularni qiyosiy o‘rganish xalqaro folklorshunoslikda alohida yo‘nalish hisoblanadi.

A. Madayev shunday yozadi: “Turkiy xalqlar maqollarida umumiy ildizlar mavjud bo‘lib, ular tarixiy birlikning belgisi sifatida qimmatlidir” [2,67].

Masalan, o‘zbek va qozoq maqollarida o‘xshashliklar ko‘p:

• *O‘zbekcha: “Mehnat qilgan to‘yadi.”*

• *Qozoqcha: “Eñbegi etken toyadi.”*

Shuningdek, ingliz xalq maqollarida ham mazmuniy yaqinlik uchraydi:

• *O‘zbekcha: “Tez qadam – baraka.”*

• *Inglizcha: “Time is money.”*

Bu esa xalq donishmandligi umumjahon qadriyat ekanligini ko‘rsatadi.

T. Mirzayevning ta’kidlashicha: “Maqollar milliy ruhga ega bo‘lsa-da, ular xalqaro darajada umumiylik kasb etadi. Shu bois maqollarni qiyosiy o‘rganish ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega” [4,81].

Xulosa. O‘zbek xalq maqollari milliy og‘zaki ijodning eng qadimiy va eng serqirra janrlaridan biridir. Ular xalq tafakkuri, tajribasi, hayotiy falsafasi va axloqiy qarashlarini ixcham, lo‘nda shaklda ifodalaydi. Maqollar xalq hayotida nafaqat estetik, balki ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalarni ham bajarib kelgan.

O‘tkazilgan ilmiy tahlillardan ko‘rinadiki, maqollar janr sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1. *Shakliy jihatdan qisqa, ixcham va qofiyali bo‘lib, ko‘pincha antitezaga asoslanadi.*
2. *Mazmuniy jihatdan xalq tajribasini, dunyoqarashini va axloqiy qadriyatlarini mujassamlashtiradi.*
3. *Badiiy jihatdan obrazli ifodalar, metafora, parallelizm kabi vositalarga boydir.*
4. *Funksional jihatdan tarbiya berish, ogohlantirish, nasihat qilish, xalq diplomatiyasida xizmat qilish kabi vazifalarni bajaradi.*

O‘zbek folklorshunosligida H. Zarifov, M. Afzalov, T. Mirzayev, O. Safarov kabi olimlar maqollarning janriy xususiyatlarini turli nuqtai nazardan tadqiq etib, muhim ilmiy meros qoldirganlar. Ularning fikrlari asosida maqollarni shakl, mazmun, funksional va badiiy jihatdan o‘rganish yo‘nalishlari belgilandi.

Shuningdek, maqollar xalqaro miqyosda ham o‘rganilib, o‘zbek maqollarining boshqa xalqlar maqollari bilan umumiylik va o‘xshashliklari aniqlangan. Bu esa xalq donishmandligi umumjahon qadriyat ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek maqollari xalqimizning bebaho ma’naviy boyligi bo‘lib, ularni o‘rganish, targ‘ib etish va keyingi avlodlarga yetkazish dolzarb ilmiy va ma’naviy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Afzalov M. Xalq donishmandligi manbalari. – Toshkent: Universitet, 1995. B. 98-110.*
2. *Madayev A. Turkiy xalqlar maqollari qiyosiy tahlilda. – Toshkent: Universitet, 2001. 67 b.*
3. *Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976. 214 b.*
4. *Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. B. 56-81.*
5. *Safarov O. Maqollar poetikasi. – Toshkent: Fan, 2003. B. 143-158.*
6. *Zarifov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 1961. B. 45-47.*

UO‘K 82

ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARIDA BADIIY OBRAZ YARATISH MAHORATI

Norova Hilola Ismoilovna,
Buxoro shahar 123-maktab-internat
Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi, tadqiqotchi
hilolanorova1987@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdam hikoyalari tahlili asosida ijodkorning badiiy mahorati, obraz yaratish hamda tasvirlash usullari haqida so‘z boradi.*

Ulug‘bek Hamdam hikoyalari qahramonlarining ma’naviy olami, ruhiyati, kechinmalari, dunyoqarashi, xatti-harakatlari bilan o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ldi. Uning asarlarida aks ettirilgan qahramonlar hayotni o‘rganish, xulosa chiqarish, to‘g‘ri yo‘lni tanlash uchun harakat qilayotgan kishilardir. Hikoyalarining aksariyat qahramonlarini adib ruhiy kechinmalar bilan bir qatorda fikr va mushohadalar olamida tasvirlaydi. Qahramonlar talqinida adib inson dunyosini, hayotdagi hodisalarni obrazli ifoda etish san’atini namoyon etadi.

Ijodkorninng “To‘lin oy qissasi”, “Atirgul”, “Yaxshiyam sen borsan” to‘plamlariga kiritilgan va davriy nashrlar va internet saytlarida e’lon qilingan hikoyalari asosida u yaratgan obrazlarning mohiyati va ular orqali adibning badiiy obrazni tasvirlash va xarakter yaratish mahoratiga oid qarashlar bayon etildi.

Kalit so‘zlar: *hikoya, Ulug‘bek Hamdam, obraz, xarakter, ruhiyat tasviri, ramziylik, majoz, badiiy mahorat.*

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОБРАЗОВ В РАССКАЗАХ УЛУГБЕКА ХАМДАМА

Аннотация. *В статье рассматриваются художественное мастерство автора, методы создания образов и изображения на основе анализа произведений Улугбека Хамдама.*

Герои произведений Улугбека Хамдама по-своему раскрываются своим духовным миром, психикой, переживаниями, мировоззрением и поступками. Герои, отражённые в его произведениях, – это люди, стремящиеся познать жизнь, сделать выводы и выбрать верный путь. Писатель описывает большинство героев своих произведений в мире размышлений и наблюдений, а также духовных переживаний. В интерпретации образов автор демонстрирует искусство образного выражения человеческого мира и жизненных событий.

На основе произведений автора, вошедших в сборники «История полной луны», «Роза», «Хорошо, что ты есть» и опубликованных в периодических изданиях и на сайтах, раскрывается суть созданных им образов, высказываются взгляды на мастерство писателя в создании художественного образа и создании характера через них.

Ключевые слова: *повесть, Улугбек Хамдам, образ, характер, изображение души, символизм, метафора, художественное мастерство.*

THE SKILL OF CREATING ARTISTIC IMAGES IN THE STORIES OF ULUGBEK KHAMDAM

Abstract. *This article discusses the author's artistic skills, image creation and depiction methods based on the analysis of Ulugbek Khamdam's stories.*

The heroes of Ulugbek Khamdam's stories are manifested in a unique way with their spiritual world, psyche, experiences, worldview, and actions. The heroes reflected in his works are people who are trying to study life, draw conclusions, and choose the right path. The writer describes most of the heroes of his stories in the world of thoughts and observations, along with spiritual experiences. In the interpretation of the heroes, the writer demonstrates the art of figuratively expressing the human world and events in life.

Based on the stories of the creator included in the collections “The Story of the Full Moon”, “Rose”, “It's good that you exist” and published in periodicals and websites, the essence of the images he created and the views on the writer's skill in depicting an artistic image and creating a character through them were presented.

Keywords: *story, Ulugbek Khamdam, image, character, depiction of the soul, symbolism, metaphor, artistic skill.*

Kirish. So‘z vositasida badiiy asar voqeligini gavdalantiradigan inson, narsa-buyum, voqea, hodisalar obrazlarda aks etadi. Ularning holat va ko‘rinishlarining turlicha bo‘lishi yozuvchining ijodiy mahoratiga bog‘liqdir.

Ulug‘bek Hamdam hikoyalari, ijodkor va olim sifatida bayon etgan adabiyotshunoslikka oid adabiy-tanqidiy maqolalari, fikr-mulohazalari, nafaqat, adib, balki bir inson sifatida shaxs va jamiyat hayotini tahlil etishi kitobxonlar, muxlislar e’tiborining oshishiga sabab bo‘ldi. U zamonga, yangiliklarga befarq emas, u jamiyat bilan hamnafas yashaydi, jamiyat muammolarini o‘ziniki deb biladi. O‘z dunyoqarashi, mulohazalarini qahramonlari olamida ham mujassam etadi. Shuning uchun uning qahramonlari haqqoniyligi, samimiyligi, o‘z “men”iga egaligi bilan alohida ajralib turadi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Yozuvchi kuchli dunyoviy-diniy bilimlarga ega bo‘lsagina, o‘zining g‘oyaviy qarashlarini yuksak mahorat bilan aks ettirib, kitobxonga yetkaza oladi. M.Gorkiy ta’kidlaganidek, “Ish tafakkurni uyg‘otadi, tafakkur ish tajribasini so‘zga aylantiradi, undan g‘oyalar, gipotezalar nazariyasini... hosil qiladi... Yozuvchining ishida asosiy material so‘zdir” [11.117]. Chindan ham ijodkor uchun hayotning o‘zi mavzu, muammo va qahramonlarni tanlab beradi. U bular to‘g‘risida so‘z vositasida fikr ifodalaydi. “So‘z esa, barcha faktlar, barcha fikrlar libosidir. Ammo har bir fakt zaminida ijtimoiy ma’no bor, har bir ma’no zaminida esa bir yoki ikkinchi fikr nega bunday-u, nega unday emas, degan sabab bor... Klassiklar yuz yil davomida asta-sekin ishlangan ana shunday tilda yozganlar. Haqiqiy adabiy til shudir” [11.117].

Ulug‘bek Hamdamning “To‘lin oy qissasi”, “Atirgul”, “Yaxshiyam sen borsan” to‘plamlariga kiritilgan va davriy nashrlar va internet saytlarida e’lon qilingan hikoyalari asosida adibning hikoyanavislik mahoratiga oid bir qancha o‘ziga xos jihatlarini kuzatish mumkin. Zamonaviy hikoyachilik, Ulug‘bek Hamdamning hikoyanavislik mahorati, hikoyada xarakter, psixologizm va badiiy ifoda usullari bilan bog‘liq masalalar ga oydinlik kiritish, ijodkorning g‘oyaviy qarashlari, uslubi, ijodiyligiga oid muhim xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Ulug‘bek Hamdamning voqelikka munosabati, obraz yaratish mahorati va uni namoyon etish san’atini alohida ta’kidlash lozim. Adib o‘ziga xos uslubi, syujet va kompozitsiya tuzish borasida “hamdamona” usulini tanlaydi. Voqealarni tabiat va jamiyat bilan uyg‘un holda tasvirlaydi, qahramonlar nigohi bilan dunyoni kuzatadi, ularning mohiyatida g‘oyaviy-ma’rifiy qarashlarini ifoda etadi.

Yozuvchining hikoyalarida bosh masala inson va uning dunyoqarashi, hayotga munosabati turadi. “To‘lin oy qissasi” hikoyalar to‘plamiga kirgan namunalar va boshqa hikoyalardagi adib yaratgan qahramonlarni ijtimoiy mansubligi, qarindoshligi va o‘zaro yaqin munosabatlariga ko‘ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- qiz va yigit obrazi, boshqacha aytganda, oshiqlar timsoli (“Safar”, “Yaxshiyam, sen borsan!”, “Dilyora”, “Otash”);
- ustoz va shogird obrazi (“Auditoriya”, “Pillapoya”, “Ko‘zini ochib yumgan odam”…);
- do‘st obrazi (“Ko‘prik ustidagi Nikita”);
- musofir obrazi (“Unutilgan nay navosi”);
- er-xotin obrazi (“Yaxshi odamlar”, “So‘z”);

Ushbu tasnifni yana boshqa jihatlarga ko‘ra ham davom ettirish mumkin. Muhimi, bu qahramonlar qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligidan qat’i nazar, insoniy olami, kechinmalari bilan namoyon bo‘ladi. Ular adibning g‘oyaviy, ma’rifiy, ijtimoiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan va asarda turgan o‘rni, darajasi, xatti-harakatlari, o‘ziga xos nutqi, xulosa va qarorlari bilan adib anglatmoqchi bo‘lgan maqsad-muddaolarni yuzaga chiqaradi. Asosiysi, obrazlar xoh asar markazida tursin, xoh ikkinchi darajali qahramon sifatida aks ettirilsin – barida yozuvchi badiiy tasvir mahorati, uslubining bir hosilasi sifatida voqealar rivoji davomida kitobxon o‘ngida aniq gavdalanadi. Ayrim obrazlar hikoyalarda faol ishtirok etmaydigandek ko‘rinsa-da, yozuvchi ular zimmasiga ham muayyan mas’uliyatni yuklaydi. Ular asar davomida juda kam ishtirok etgan bo‘lsa-da, ularning ham tabiati, xarakteri yetarli darajada ochib beriladi.

Adib hikoyalarida ramziy-majoziy obrazlarni ham uchratamizki, ularda ifodalangan tasvirdan bevosita insonlarning munosabatini, ruhiy olamini anglaymiz. Ijtimoiy hayot voqeligini kuzatish va tahlil qilish maqsadida Ulug‘bek Hamdam obraz sifatida daryo, daraxt, qushcha, ko‘prik, orol, lola, tepalik, oy, navo, suv, binafsha, haykal kabi ramziy-majoziy timsollardan ham foydalangan (“Haykallar oroli”, “Unutilgan nay navosi”, “Musulmon”, “Bir payola suv”, “Qaytish” va hokazo). Ular ramziy ma’no kasb etib, betakrorligi va

serqirraaligi bilan ajralib turadi, yozuvchining g‘oyaviy qarashlarini obrazli tarzda ifoda etish uchun xizmat qiladi.

Yozuvchining “To‘lin oy qissasi” nomli asarida Rumiyning go‘zal fikrlari epigraf sifatida tanlagan: “Har kim o‘z ehtiyojining yonida yashaydi”[5.197]. Bunday epigraf tanlovining asal mohiyatini asarni to‘liq o‘qib anglaymiz. Oymomo uchratgan har bir inson, hatto, oymomoning o‘zi ham o‘z ehtiyoji ilinjida atrof kezadi. Go‘zallikda o‘zini tengsiz deb bilgan to‘lin oy butun olam unga mahliyo bo‘lishini istab, dunyo kezishga otlanadi. Safarlarining har bir kunida oymomo bir umid bilan kezadi. Oymomo dastlab insonlar qalbiga quloq tutib, ularni o‘ziga yaqin his qildi, ammo botinlarini anglagach, ulardan yiroqlashdi. Ilk kun qariyani kuzatdi, qariya chol go‘yo unga tikilayotgandek tuyulsa-da, u ibodat qilayotgan edi: “Unga qariyaning oy ruxsorida oyning o‘zini emas, balki o‘z qalbining suvrati – Yaratganga iltijo qilib o‘tirgan xudojo‘y zotni ko‘rib turganligi sira-sira xush kelmagandi...” [4.339]. Nega oy birdan ibodatdagi choldan seskandi. O‘zini Olamdagi hukmdor deya sanab yurganidandir, balki.

Ikkinchi kun cho‘pon yigitga duch keladi. Yigit unda umid uyg‘otadi, ammo u ham go‘zal bir yor ahvolini oydan so‘raydi:

“Xabar bergil, ul “oy”chi, ul “oy” nima qilmoqda?

Balki dog‘li ko‘nglimni yuzlaringdan bilmoqda...” [4.343].

Oyning hafsalasi pir bo‘lib, qaytayotganda kelinchakka duch keladi. Homilador kelinchak oy bilan ishi bo‘lmagan holda, “jonidagi jon” bilan ovora edi.

Haftaning uchinchi kunida tilanchini, to‘rtinchi kuni boyni, beshinchi kun jinoyatchini, oltinchi kun itni kuzatadi. Ammo hech birida o‘z aksini topolmaydi, mehr kutib charchaydi. Hatto, inson ko‘zlarida his qilmagan mehrni hayvondan qidiradi, unda ham ko‘ra olmadi. Suvda oy aksini ko‘rgan it ham unga bemehr mavjudotdek tuyuldi. “Oyning aksi suvda, qalbi esa ko‘kyuzida chil-chil sindi: sho‘rlik it och ekan, oyni oy deb emas, balki non deb qabul qilgandi...” [4.351]. Hamma narsaning ortida manfaat turishini yuqorida turib anglamagan oy pastga tushgach, tushunib yetdi. Barchasining nigohida oydan manfaat ko‘zlanganligini bilish unga alam qildi: “Ey Tangrim, ko‘kdagi ana shu oltin tangangni uzib bersang-u men ham sarson-sargardonlikdan birato‘la qutulsam – oila qurib, bola-chaqa orttirsam, odamlardek umrguzaronlik qilsam...” [4.351] . Boy, tilanchi, cho‘pon, qariya, jinoyatchi, non, ummon kabilar timsol sifatida foydalanilgan deb qarasak, ular alohida asar qiymatini yuksak darajada oshirib, kitobxonni Allohni anglash, hayot va xayol, nafs, manfaat kabi tushunchalar doirasida fikrlashga undaydi. Asar so‘nggida oy ummon tubidan haqiqatni izlaydi va ushbu xulosaga keladi: “Tavba, bor yo‘g‘i shumi, u qidirgan, yetti qavat yerning ostiga ko‘milgan xazina shuginami?”, o‘yladi u. Ammo vaqt o‘tgan sayin botinida tug‘ilgan favqulodda kuchli va yoqimli hisni tuyib, xotirjam torta boshladi.

Ertasi tunda, osmon-u falakda, yuzi kemtila-kemtila o‘rog‘dek bo‘lgan, lekin ko‘ngli to‘lib chiqqan hilolning botinida o‘z vazifasini ado etishdan, ya’ni olamni charog‘on aylashdan o‘zga ehtiyoj yo‘q edi...” [4.362].

Oy kabi har bir mavjudot bu dunyodagi asl maqsadini anglashi kerak, nazarimda. Maqsadni yo‘lni yo‘qotsa, o‘zlikni yo‘qotadi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ham oy timsoli mavjud bo‘lib, u mol-dunyo, davlatga qiyoslanadi. Ulug‘bek Hamdam esa oy timsoli orqali nafsga berilgan, o‘z manfaatini o‘ylovchi insonlar turmush tarzi, jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan ovora kishilar bir hafta davomida kuzatadi.

Adib hikoyalaridagi ayrim obrazlar yurt sog‘inchida o‘rtangan, arosatda yillarini yurtdan olisda o‘tkazgan, o‘z olami bilan suhbatda bo‘lgan insonlardir (Alisher obrazi, “Unutilgan nay navosi”).

Obrazlar qo‘yilgan ismi ham uning xarakteri bilan bog‘liq bo‘lib, qahramonning ma’naviy olamini ochib berishga yordam beradi. Ijodkor obraz yaratishda atrofidagi insonlardan prototip sifatida foydalanadi. Ba’zan bir nechta prototiplardan bir butun obraz yaratishi ham mumkin. Bu, albatta, yozuvchining dunyoqarashi, o‘z asarida aytmoqchi bo‘lgan salmoqli fikri, g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, Dilnura, Yusuf, Zulayho, Sayyora kabi qahramonlar ismlari ularning o‘ziga xos tabiati va asarda ular zimmasiga yuklangan vazifa bilan mos tushgan.

Ulug‘bek Hamdam obrazlari milliylikni, o‘zlikni, madaniy-maishiy hayotni ochiq ko‘rsatadi. U qahramonlari orqali kitobxonni umuminsoniy muammolar atrofida fikrga chorlaydi. Ulug‘bek Hamdam ko‘pgina insonlarni kuzatadi, ba’zan hech kimga o‘xshamaydigan, o‘zgacha tabiatli odamlarni topadi va tasvirlaydi. U yaratgan qahramonlarda jamiyatdagi turli tabaqa vakillariga xos turli-tuman fazilatlar, nuqsonlar jamlab aks ettirilgan. Shu boisdan ham adib yaratgan obrazlar murakkab xarakterli kishilar sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. N.G.Chernishevskiy “San’atning voqelikka estetik munosabatlari” asarida bir fikrni keltiradi: “Yozuvchi ko‘pgina individual shaxslarni kuzatadi; bularning hech qaysisi tip bo‘lib xizmat qila olmaydi; lekin u har biridan umumiy tipik xususiyatlarini aniqlaydi; barcha tasodifiy xislatlarni chiqarib

tashlab, har xil kishilarga xos bo‘lgan xususiyatlarni badiiy bir butunlikka birlashtirish yo‘li bilan xarakter yaratadi” [2.53]. Yozuvchi hayoti davomida o‘zi uchratgan insonlar xususiyatlarini, xislatlarini, dunyoqarashini tahlil qilib boraveradi. Hikoya yozish jarayonida shulardan unumli foydalanadi.

Yana ayrim obrazlar borki, ijodkor ularni prototip asosida yaratadi. Prototip o‘zi davrida yashagan zamondoshi yoki tarixiy shaxs sifatida yozuvchi tomonidan tanlanadi. “Agar badiiy obrazni jonli organizm deb faraz qilinadigan bo‘lsak, prototip – shu organizmning skeleti, badiiy to‘qima-uning eti, estetik ideal esa qoni-joni. Tirik organizmning etini skeletidan, skeletini qoni-jonidan ajratib ajratib bo‘lmaganidek, badiiy obraz “organizmi”dagi prototip badiiy to‘qimadan, badiiy to‘qimani estetik idealdan uzib olib bo‘lmaydi. Ular bir-birlariga payvandlashib, qo‘shilib-chatishib ketadi” [2.53]. “Auditoriya” hikoyasi yozuvchining o‘zi boshidan kechirgan va tahlil qilgan voqealari asosida yozilgan, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Chunki ijodkorning o‘zi ham pedagog sifatida faoliyat yuritadi. Hikoya mavzusi va g‘oyasi institut talabalarini, ularning dunyoqarashi, hayotga, zamonga munosabatini kuzatish va o‘rganish asnosida vujudga kelgan bo‘lishi mumkin.

Insonlar turli xil bo‘lganidek, obrazlar ham rang-barang, ular go‘yo yil fasllaridek o‘zgaruvchan tabiatga ega bo‘ladilar. Gohida gullar, gohida o‘z gullarini to‘kayotgan butalar, ba’zan ob-havodek o‘zgaruvchan. Obrazlar ham tabiati, ruhiyati ham ana shunday turli-tuman va murakkabdir.

Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida ijodiy metod taqozosiga ko‘ra romantik obrazlarni ham uchratish mumkin. Sevgi dardida yonayotgan, ishqni qismati deb bilgan obrazlar kitobxonni o‘ziga chorlaydi: (Yusuf va Zulayho, “Yusuf va Zulayho”), Abdulla va Sayyora, (“Otash”).

Adib hikoyalaridagi kitobxonga o‘rnak bo‘luvchi yoki uning nafratini uyg‘otuvchi salbiy va ijobiy obrazlarni tasniflash mumkin. Salbiy obrazlar sirasiga o‘z nafsini o‘yladigan, ukasi va uning oilasiga befarq aka – Tolib (“Yaxshi odamlar”); jiyani uchun nogiron holga kelib qolgan, uning shu darajada mansab egasi bo‘lishiga yordam bergan tog‘asi holidan xabar olmagan – Kozim aka (“Olisdagi Dilnura”); pul evaziga kasbini suiste’mol qilib, inson hayotini o‘yin qilgan bosh vrach; do‘st deb ataluvchi nomga dog‘ tushirgan, pul evaziga do‘stini, boylik sanaluvchi qadimiy kitoblarni ham arzon garovga sotuvchi – Sotim (“Yaxshi odamlar”) kabilarni kiritish mumkin. Bu kabi obrazlar jamiyatdagi iflosliklarni, illatlarni, vijdonsizlikni, qabohatni ochib berishga xizmat qilgan.

Ijobiy obrazlar sifatida hayotdan adolat izlagan – Ibrohim (“Yaxshi odamlar”); do‘stiga sodiq-Nikita (“Koprik ustidagi Nikita”; ayoliga mehribon va jonkuyar Abdulla (”Dilyora”), o‘zini o‘ylamay, jiyani uchun yarador holga kelgan, oilaparvar – Yunus tog‘a (“Olisdagi Dilnura”); sevgi deb atalmish nozik tuyg‘uga o‘lguniga qadar sodiq – Otash (“Otash”); insoniylikni ibodat bilan teng deb bilgan Husan (“Musulmon”) kabilarni kiritishimiz mumkin. Bu obrazlar bizga hayotga muhabbat, insonni ulug‘lash, yaqin insonini qadrlash sifatlarini uqtiradi.

Hikoyalar personajlari tabiatga va odamlarga munosabatlariga ko‘ra, bir-biriga raqib ikki tarafga bo‘linadi, hikoyalar syujetini harakatga keltiruvchi konflikt shu negizda qurilgan. Birinchi tarafda tabiatni va inson qalbini muhofaza qilish tarafdorlari sifatida, ikkinchi tomonda tabiatga ham, insonga ham bee’tibor, xudbin kimsalar tomoni: “Ko‘nglimdagi daryo“ erkak qahramoni va ayoli, ”Musulmon” hikoyasi qahramoni Hasan va Husan, “So‘z” hikoyasidagi er-xotin munosabatlarini misol keltirishimiz mumkin.

Hikoyalarda yana ayrim insonlar timsoli borki, ular tabiatga oshufta, yozuvchi ular orqali tabiat hodisalarini hayotiy voqelik bilan uyg‘unlashtiradi. Ular ham aslida insonlarning zulmidan, ozoridan qochib Ona tabiat qo‘ynidan manzil tutishgan. “Qaytish”, ”Musulmon”, ”Ko‘nglimdagi daryo”, ”Lola” kabi hikoyalarni shu doirada kuzatish mumkin.

Adib hikoyalarida hayotiy-moddiy, ma’naviy-axloqiy masalalar, masalan, oila, muhabbat, mehnat, e’tiqod, vijdon, uyat, or-nomus kabilar keng muhokama qilinadi. Hikoyalar turli mavzularga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, tabiatning turfa holatlari insonlar taqdiri, kayfiyati, holatiga mos ravishda tanlanib, go‘zal tasvirlar yaratiladi. Bu adibning peyzaj yaratish, badiiy obraz tabiatini tabiat hodisalari bilan uyg‘unlikda tasvirlash mahoratini ham ko‘rsatadi.

Yozuvchi so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llab, besamar so‘z qo‘llashdan tiyiladi. Bir so‘z zamirida bir qancha ma’no qirralarini jamlab, ularga yaxlit falsafiy ma’no yuklashga harakat qiladi. Jumaladan, hikoyalarda peyzaj tasviri keltirilganda yozuvchi har bir so‘zning xilma-xil ma’nolarini ham inobatga olganligini ko‘rish mumkin. Adib hikoyalarida peyzaj tasviri bekorga ishlatilmaydi, shunchaki qo‘llanilmaydi, u asardagi ma’lum bir maqsadni yuzaga chiqaradi yoki qaysidir obrazni tasvirlashga, ochib berishga yordam beradi. Asar kompozitsiyasi yaxlitligi, uning qurilish strukturasi va mavqeyini ham ta’minlaydi. Adabiyotshunoslikda inson va tabiat, ular orasidagi munosabatlar tasviri har qaysi adib tomonidan har xil talqin etiladi, ammo bularning bari qahramon kayfiyati va holatini ochishga xizmat qiladi. Zotan, “…yozuvchi o‘z g‘oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o‘rab

turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali ham amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o‘quvchiga ta’sir etishni, undagi go‘zallik tuyg‘ularini tarbiyalashni ham ko‘zda tutadi” [9], deb yozgan edi olima M.Sultonova. Adib peyzaj yaratishda, uni qahramon ruhiyati, uning vaziyatlardagi holati bilan bog‘lab, o‘z o‘rnida ifoda etadi. Masalan, “Tosh” hikoyasidagi ushbu tasvirga diqqatni qaratsak: “Botayotgan quyoshning alvob rangiga ayolning nimpushti libosiyu undagi qirmizi donachalar paydo qilgan manzara shunday yarashgan ediki, asti qo‘yavering: olam aro mutanosiblik, hamohanglik deganlari shu bo‘lsa kerak…Atrofga to‘r solgan shafaq to‘lqinida go‘yo ayol qirmizrang kemadek mag‘rur suzib borar, men esa ko‘zimni undan uzolmay yo‘rg‘alardim.” Yoki “So‘z” hikoyasida tushgacha kayfiyati yaxshi bo‘lgan erga mutanosib tabiat ham ancha ochiq va go‘zalroq tasvirlangan bo‘lsa, tushdan keyin xayollari ag‘dar –to‘ntar bo‘lgan er kayfiyatiga mos tabiat ham qoraygandek tasvirlanadi: “Qiziq, tushgacha havo biram ochiq, biram yoqimli ediki, qarab kishining bahri dili qulf urardi. Endi ko‘kda to‘da-to‘da bulutlar paydo bo‘ldi, osmon yuzi qorayib, yerda uning ko‘lankasi kezina boshladi. Ko‘p o‘tmay, falak toqi qarsillab bir yorishdiyu, sig‘alab yomg‘ir yog‘di…” kabi misollarni juda ko‘p keltirish mumkin.

Yozuvchi peyzajni qahramonlarning xarakteridan kelib chiqqan holda go‘yo rassom qalami bilan chizgandek mahorat bilan tasvirlaydi. Peyzaj tasviridan ko‘zlangan asosiy maqsad asarning g‘oyaviy-badiiy nuqtalarini to‘ldirishdan iborat. Shu bosdan ham adib asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, obrazlilik asosida ichki hislarimiz uyg‘onadiva voqea-hodisalarni xuddi o‘z boshimizdan o‘tgandek qahramon bilan yashaymiz. Qahramon kulsa, kulamiz, yig‘lasa yig‘lab, o‘ynasa, shod bo‘lib, asabiylashsa, qizishib, u bilan yashab, mulohaza yuritamiz. Zero, adabiyot ma’naviy dunyomizga ta’sir qiladi, uni boyitadi. “Asarni jonli vujudga o‘xshatsak, shu vujudning mohiyatini ifodalovchi badiiy til ruh(jon), har b4ir so‘z esa ana shu ruh(jon)ning rishta(tomir)laridir. Ruh va vujud (shu sabab badiiy til bir vaqtning o‘zida ham mazmun, ham shakl hodisasi) shunchalik uyg‘unlashganki, vobastalikda tiriladilar, ajralganlarida o‘ladilar. Vobastalik, uyg‘unlik – doimo samimiylik va zarurlik asosida zuhur bo‘lishi lozimligi badiiy asar yaratishning universal talabidir” [10.146].

Xulosa. Yozuvchi Ulug‘bek Hamdam hikoyalari badiiy obraz tasvirining o‘ziga xosligi, mavzu va g‘oya ko‘lamining rang-barangligi, kengligi, shaklan ixcham, ammo ulkan ma’no kasb etishi, qahramonlar o‘y- xayollari va harakatlari ifodasida milliylikning namoyon bo‘lishi, jamiyat va inson orasidagi munosabatlarning murakkabligi, dolzarb muammolar, aql va qalb muvozanatidagi uyg‘unlikka alohida e’tibornining qaratilishi bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR:

1. *Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. –Тошкент: Фан, 1992. – 382 б.*
2. *Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 560 б.*
3. *Hamdam U. Vatan haqida qo‘shiq. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 544 b.*
4. *Hamdam U. To‘lin qissasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 368 b.*
5. *Hamdam U. Yaxshiyam, sen borsan. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 238 b.*
6. *Hamdam U. Haykallar oroli. Internet sayti: https://uzsmart.ru/ kutubxona/asarlar/3502*
7. *Hamdam U. Musulmon. / Internet sayti: https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ulug-bek-hamdam-1968/ulug-bek-hamdam-musulmon-hikoya*
8. *Куронов, Д, Мамажонов,З., Шералиева, М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 134 b.*
9. *Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir / Internet sayti: www.ziyo.uz.com*
10. *Umuruv H. Adabiyot nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.*
11. *Шукуров Н. ва бошқалар . Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 310 б.*

UO‘K 82

IJODKOR SHAXSI VA UNING ASARLARINI BIOGRAFIK YONDASHUV ASOSIDA O‘RGANISH

Oripova Kamola Davlatovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Maqolada biografik metodning adabiyotshunoslikdagi o’rni, ilmiy tadqiqot, badiiy asarga ijodkor shaxsi orqali nazariy-amaliy jihatdan yondashuv usullari haqida so’z boradi. Unda ijodkor shaxsi va uning asarlarini biografik yondashuv asosida o’rganish jahon adabiyotshunosligida biografik tanqidchilik va uning tarixini shakllanish borasida amalga oshirilgan ishlar yoritib beriladi. Shuningdek, ijodkor shaxsi va uning asarlarini biografik metod asosida o’rganganda undan mantiqli nuqtalar, o‘rnak bo‘larli jihatlarni izlab, shu asosda uning asarlarini va ijodini o’rganishga oid ma’lumotlar tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *biografik metod, adabiyotshunoslik, ilmiy tadqiqot, badiiy asar, ijodkor shaxsi, biografik tanqidchilik, tarixi, ruhiy-psixologik , shaxsiy qiziqishlari, asarni yozish, ijodkor laboratoriyasi, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, tarixiy-madaniy, sotsiologik, struktural-analiz, semiotik, lingvistik, psixologik, psixoanalitik, formal, germenevtik metod.*

ИЗУЧЕНИЕ ЛИЧНОСТИ ПИСАТЕЛЯ И ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЙ НА ОСНОВЕ БИОГРАФИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В статье рассматривается роль биографического метода в литературоведении, научных исследованиях и способах теоретико-практического подхода к художественному произведению через личность автора. Освещается работа, проведённая в мировом литературоведении по изучению личности писателя и его произведений на основе биографического подхода, формированию биографической критики и её истории. Также при изучении личности писателя и его произведений на основе биографического метода в статье анализируются логические аспекты, показательные моменты, и на этой основе рассматриваются сведения об изучении его произведений и творчества.*

Ключевые слова: *биографический метод, литературоведение, научное исследование, художественное произведение, личность писателя, биографическая критика, история, психолого-психологический, личные интересы, написание произведения, творческая лаборатория, историко-сравнительный, сравнительно-типологический, историко-культурный, социологический, структурно-аналитический, семиотический, лингвистический, психологический, психоаналитический, формальный, герменевтический метод.*

STUDYING THE WRITER'S PERSONALITY AND WORKS THROUGH A BIOGRAPHICAL APPROACH

Abstract. *This article examines the role of the biographical method in literary studies, scientific research, and theoretical-practical approaches to literary works through the author's personality. It highlights the work conducted in world literary studies on examining writers' personalities and their works based on a biographical approach, as well as the formation and history of biographical criticism. Additionally, when studying a writer's personality and works using the biographical method, the article analyzes logical aspects and indicative points, using this as a basis to consider information about the study of the writer's works and creative process.*

Keywords: *biographical method, literary studies, scientific research, literary work, writer's personality, biographical criticism, history, psychological, personal interests, writing process, creative laboratory, historical-comparative, comparative-typological, historical-cultural, sociological, structural-analytical, semiotic, linguistic, psychological, psychoanalytical, formal, hermeneutic method.*

Kirish. Biografik metod – adabiyotshunoslikdagi alohida ilmiy tadqiqot, badiiy asarga ijodkor shaxsi orqali nazariy-amaliy jihatdan yondashuv usullaridan biri.

Adabiyotshunoslikda biografik, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, tarixiy-madaniy, sotsiologik, struktural-analiz, semiotik, lingvistik, psixologik, psixoanalitik, formal, germenevtik kabi va boshqa bir qator metodlar mavjud. Shu tadqiq usullari orasida biografik metodning o‘z o‘rni bor bo‘lib, adabiyotshunoslar tomonidan birmuncha ko‘proq qo‘llanishi jihatidan alohida e’tiborni tortadi.

Yuqorida nomi zikr etilgan adabiyotshunoslik metodlaridan hech biri aslida universal emas. Biroq ular orasida biografik metod mazmun-mohiyatida inson shaxsiyati turganligi bilan kishilik tafakkuri orqali shakllantirilgan barcha fanlarga oid bilimlarga, mavjud oqimlar va qarashlarga tayanib ish ko‘radiki, shu jihatiga ko‘ra, u ma’lum ma’noda universiallik kasb etadi va o‘ziga xos yaxlit tizim shaklida namoyon bo‘ladi. qolaversa, bugungacha mavjud barcha tafakkur shakllarining insonshunoslik kesimida markazlashuvi biografik metodning universallik darajasini yanada oshiradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. “Biografiya” lotincha so‘z bo‘lib, bios – hayot, grapho – yozmoq, “metod” esa yo‘l, usul tushunchalarini anglatadi. Demak, “biografik metod” birikmasi mohiyatan “birovning hayoti haqida yozmoq yo‘li” ma’nosini bildiradi. Adabiyotshunos Yuriy Borev uni haqli ravishda “badiiy asarni yozuvchi shaxsi orqali o‘qish uslubi”, deya ta’riflaydi [1].

Biografik metod yozuvchining hayot yo‘lini hamda uning tomonidan yaratilgan badiiy asarni o‘zaro juftlikda, birini ikkinchisidan ajratmagan holda, dialektik bog‘liqlikda, ijodkor va ijod mahsulini sintezda olib tekshiradi. Shuning uchun biografik metodni ijodkor tarjimayi holini o‘rganishdan iborat, deb qarab bo‘lmaydi.

Biografik metodda muallif, ya’ni yozuvchi-ijodkor, avvalo, inson sifatida o‘rganiladi. Uning asarlarida yozuvchining hayoti bilan bog‘liq nuqtalar aks etgani dalillanadi. Ijodkorning biografiyasiga kirib borilib, shu orqali uning shaxsidagi eng muhim qirralar ochib beriladi. Yozuvchi hayotidagi ayrim e’tiborli holatlar ijodida ham aks etgani asoslanadi.

Olimlar aytganidek, u orqali ijodkorning shaxsiy hayotiga, yashagan muhitiga, ruhiy-psixologik holatiga, shaxsiy qiziqishlariga, asarni yozishga turtki bergan ilhom faktorlariga, ijodkor laboratoriyasiga va shu kabi qator tarixiy-individual masalalarga jiddiy e’tibor beriladi [2]. Biografik metod vositasida, asosan, yozuvchining ijodiy lobaratoriyasi o‘rganiladi. Ijodkor hayotidagi ma’lum bir voqea-hodisalar uning yozgan asarlarida qaysidir tarzda o‘z aksini topgani aynan biografik metod vositasida dalillanadi. Biografik metod bu jihatdan o‘ziga xos imkoniyatlarga egadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu metodning eng muhim qirrasi shundaki, unda muallif-shaxs bilan muallif-ijodkor farqlanmaydi. Muallif xarakter-xususiyati u yaratgan obrazda mujassamlangan bo‘ladi, deb qaraladi. Ijodkor biografiyasiga tayanib, u yaratgan asar va asar qahramonlari tushuntiriladi. Shuning uchun biografik metod adabiy portret yaratishda eng qo‘l keladigan metod sanaladi.

Biografik metod hujjatlarga tayanib ish ko‘radi. Tarixiylik, aniqlik, hujjatlilik unga xos prinsipial talablardan hisoblanadi. Biografik metodning to‘la samara bilan ishlashi uchun aniq bir ijodkor hayoti va faoliyati haqidagi hujjatlarga ega bo‘lish lozim. Afsuski, ko‘plab ijodkorlarimiz haqida ma’lumot beruvchi hujjatlar hali to‘la yig‘ilgan emas.

Biografik metodda bitiklar, xatlar, avtobiografik matnlar, kundaliklar, memuarlar, qo‘lyozmalar – umuman, aniq dalillar muhim o‘rin tutadi [3].

Biografik metod tadqiqotchini muallifning individual hayot tarzi, shaxsiy turmushi, hayot yo‘li, kechmishi, ichki kechinmalari, xarakter-xususiyati, bir so‘z bilan aytganda, biografiyasi (yoki avtobiografiyasi)ga qiziqtiradi.

Ma’lumki, avtobiografiya (tarjimayi hol) – insonning o‘z-o‘zini anglashidan iborat yozma matnni ifoda etsa, biografiya bir insonni boshqa bir insonning anglashi natijasida paydo bo‘lgan yozma matndir. Bunday matnlarda, albatta, ijodkorning tug‘ilishi va vafoti, oilaviy sharoiti, oila a’zolari, farzandlari, yoru birodarlari, ijtimoiy kelib chiqishi, nasl-nasabi, yashash joyi, ma’lumoti, faoliyati, diniy e’tiqodi va boshqalar e’tiborga olinadi. Adabiyotshunos Bahodir Karimov biografik metod xususida to‘xtalar ekan, shuni nazarda tutib, uni avtobiografiyadan farqlash muhimligini alohida eslatib o‘tadi: “Bu metodni tarjimayi holdan iborat tarzida sodda tushunmaslik kerak. Zotan, biografik metod ijodkor tarjimayi holining oddiy xronologik tavsif va tasnifi emas; yozuvchining tug‘ilgan yili, yashagan joyi yoki muhiti, asarlarining yozilgan yili va, nihoyat, ijodkorning vafot etgan yili – bularning bari biografik ma’lumotlar hisoblanadi... Bunda biografik voqelikning izi asarlarda kolishini hech kim inkor kilmaydi” [5].

Ta’kidlanganidek: “Biografik metod adabiyotni shunday o‘rganish usuliki, bunda yozuvchi biografiyasi va shaxsiyatiga badiiy ijodining asosiy belgilovchi momenti tarzida qaraladi” [4].

B.Karimov fikricha, badiiy ijod mohiyatini, ijodkor psixologiyasini, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metod muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ijodkor merosini to‘laqonli tushunish va xolis baholash uchun uning hayot yo‘li haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish talab etiladi. Bunda biografik metodga tayanib ish yuritish esa muhim samara beradi. Shu ma’noda adabiyotshunos B.Karimovning “Biografik metodga o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida jiddiy e’tibor berilmadi”, – degan fikriga qo‘shilish biroz qiyin. Chunki milliy adabiyotshunosligimiz tarixida hozirgacha qanchadan-qancha nom qoldirgan ijodkorlar merosi muayyan darajada tadqiq qilingan. Albatta, ularni to‘laqonli tushunish va xolis baholash maqsadida bu ijodkorlarning hayot yo‘li bilan bog‘liq ma’lumotlarga ham imkon qadar tayanilganini inkor qilib bo‘lmaydi.

B.Karimovning bu borada yana aytgan “biografik metod aynan «psixobiografiya», ya’ni yozuvchining psixologik biografiyasi tarzida adabiyotshunoslikka tatbiq etilmadi”, [5] – degan fikrida esa jon bor. Negaki, biografik metod badiiy asarni uning muallifi hayot yo‘li kontekstida o‘rganishni nazarda tutar ekan, [6] tabiiyki, o‘sha asarda ijodkorning ichki ruhiy kechinmalari, o‘y-fikrlari, orzu-istaklari, alam-iztiroblari, armon-intilishlari, ko‘rgan-bilganlari, boshidan o‘tkazgan yaxshi-yomonliklar, orttirgan hayotiy tajribalari va bilimlari aks etishini e’tibordan chetda qoldira olmaydi. Ijodkorning bunday psixobiografiyasi esa ma’lum ma’noda, uning badiiy asarlaridagi vokea-hodisalar bayonida, yaratgan obrazlari tizimida o‘z ifodasini topadi. Mana shundan ijodkorning individual mahorati, yaratgan asarining originalligi yuzaga chiqadi.

Adabiyotning bosh tasvir predmeti inson bo‘lganligidan, u inson manfaatlarini ko‘zlab yaratilishi ayon haqiqat. Mana shu ma’noda har bir yozuvchi yaratgan asarida, avvalo, inson manfaatini ko‘zlashi tabiiy. Aniqrog‘i, muallif o‘z boshidan kechirganlarini hikoya qilish orqali, avvalo, o‘z o‘quvchisini kutilmagan hayotiy o‘zgarishlardan, turli ruhiy evrilishlardan, qalb to‘lg‘anishlaridan, besaranjomlik, bezovtalik, og‘ir yoki yengil hissiy kechinmalardan ogoh etishni istaydi. Bunday holatlarda inson o‘zini qanday tutishi, yo‘lini yo‘qotib qo‘ymasligi zarurligi, o‘zini qo‘lga olishi lozimligini o‘rgatishni xohlaydi. Asosiy vazifasi “odob berish”ga asoslangan adabiyotning roli ham shu orqali yana bir karra ravshanlashadi. Biroq “marksist tanqidchi olimlar biografik metodda badiiy asarning jamiyatdagi funksiyasiga e’tibor karatilmaydi, badiiy asar muayyan shaxs ijodining mahsulidan iborat qilib qo‘yiladi, bu metodda sub’ektivlik gunohi bor, kolaversa, bu metod sermahsul emas, tarzida ayblar taqaganlar [7]. Holbuki, aksincha, biografik metodda badiiy asarning jamiyatdagi tarbiyaviy vazifasiga katta e’tibor karatiladi. U orqali adabiyotning insonlarni ogohlantiruvchi, hushyorlantiruvchi vazifasi yorqin namoyon bo‘ladi.

Badiiy asarlarda ijodkor shaxsiyati ba’zan yorqin, ba’zan esa yashirin aks etgan bo‘ladi. Buni faqat asar kontekstidan bilib olish mumkin. Shu jihatiga ko‘ra, yaratilgan asarlarni ikki xil:

a) muallif biografiyasi kontekstida yorqin aks etgan asarlar;

b) muallif biografiyasi kontekstida yorqin aks etmagan asarlar tarzida farqlash mumkin.

Muhokama. Yozuvchi biografiyasi kontekstida yorqin aks etmagan asarlarga ko‘pincha tarixiy mavzuda yaratilgan ayrim asarlar misol bo‘la oladi. Bunday asarlarda garchi muallif o‘z biografiyasini yorqin bayon etmasa-da, uning mazmunidan o‘sha ijodkorning o‘tmish davr voqeliklariga ijtimoiy-ruhiy munosabati, shaxsiy qarashlari anglashilib turadiki, natijada, unda biografik alomatlar paydo bo‘ladi. Masalan, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani shoh, falakshunos olim Mirzo Ulug‘bek yashagan tahlikali onlardan, uning biografiyasidan hikoya qiladi. Bu asarda muallif biografiyasi esa yo‘qdek go‘yo. Lekin, bizningcha, har qanday asarda uning muallifi biografiyasiga oid nimadir chizgilar bo‘ladi. Shuning uchun har qanday asarni biografik kontekstda olib o‘rganish mumkin. Aytaylik, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani biografik kontekstda olib o‘rganilsa, quyidagi ikki holat namoyon bo‘ladi:

birinchidan, Mirzo Ulug‘bekning hukmdor va olim qiyofasi, hayot yo‘li, yaqinlari, boshidan kechirganlari yorishadi;

Профессор Марина Владиславовна Бахтина акцентирует внимание на мотивах алхимии. Она считает, что алхимия – это не только ремесло превращения металлов, но и метафора духовного преображения человека. Алхимик учит Сантьяго видеть ценность не в материальных богатствах, а в способности души становиться «золотом» – светом, который освещает путь другим.

Исследователь Сергей Валерьевич Юдин анализирует язык романа и отмечает, что кажущаяся простота стиля скрывает его многослойность. По его мнению, каждая глава напоминает отдельную притчу, а афористичные высказывания героя и Алхимика создают эффект духовного наставления.

Филолог и переводчик Наталья Гончарова выделяет религиозно-духовные корни текста. Она подчёркивает влияние суфийской поэзии, восточной мистики и христианских мотивов, особенно в образе Мелхиседека и концепции «языка мира». Это придаёт роману интеркультурный характер, благодаря которому он становится понятным читателям из самых разных стран.

Методология исследования. Методология расширенного анализа романа основывается на комплексном междисциплинарном подходе. Герменевтический метод позволил выявить скрытые культурные коды и символику: Пустыня интерпретируется как пространство испытаний, Оазис – как временный покой, Сны – как подсказки подсознания, а Алхимик – как архетип мудрого наставника. Структурный анализ подтвердил использование схемы «Путешествия героя» и показал, как композиция романа отражает этапы внутренней трансформации.

Сравнительно-типологический метод выявил параллели между текстом Коэльо и произведениями Руми, Халиля Джубрана, а также с христианской мистической традицией и буддийскими притчами. Такой анализ показал, что *«Алхимик»* не только вдохновляется древними духовными источниками, но и адаптирует их для современного читателя.

Философско-культурологический подход позволил рассмотреть категории «судьба», «вера», «внутренний голос» и «предназначение» как универсальные понятия, связывающие разные философские школы и культурные традиции. Дополнительно элементы психоаналитической критики помогли глубже понять мотивацию Сантьяго: его сон о сокровище отражает бессознательное стремление к самореализации, а встречи с разными персонажами символизируют этапы взросления и интеграции внутренних конфликтов.

Результаты исследования. Анализ показал, что центральная идея романа – концепция Личного Предназначения – является ключом к пониманию не только пути Сантьяго, но и философского послания Коэльо. Символическая система текста придаёт роману мифопоэтический характер, а архетипическая структура делает его универсальным. Сравнительный анализ подтвердил наличие культурного синтеза: в произведении переплетаются христианские, суфийские и восточные мотивы, что делает текст созвучным разным культурным контекстам. Литературный стиль Коэльо, лаконичный и афористичный, усиливает воздействие на читателя, позволяя философским идеям звучать просто и убедительно.

Таким образом, роман *«Алхимик»* – это не только популярная книга, но и важное философско-художественное произведение, которое продолжает вдохновлять читателей на самопознание, духовный рост и поиски гармонии. Его универсальные истины, символизм и глубина идей подтверждают значимость произведения для мировой культуры и литературоведения.

Выводы. Проведённое исследование романа Пауло Коэльо *«Алхимик»* позволило выявить его глубокий философский, культурный и духовный потенциал, выходящий далеко за рамки простой приключенческой истории. Произведение предстаёт как многоуровневая философская притча, в которой каждая деталь наполнена смыслом и символикой. Путешествие пастуха Сантьяго становится аллегорией внутреннего пути человека к собственному Предназначению, поиску гармонии с миром и раскрытию истинных ценностей.

Использование герменевтического анализа показало, что символы романа — пустыня, алхимик, знамения, сны и Оазис – являются не просто художественными приёмами, а проводниками к глубинному пониманию духовной сути бытия. Пустыня, например, символизирует пространство испытаний и очищения, алхимик – архетип наставника и мудрости, а сны – подсказки подсознания, открывающие путь к истине.

Структурный анализ подтвердил, что сюжет построен по архетипической модели «Путешествия героя» Джозефа Кэмпбелла, что придаёт тексту универсальность и узнаваемость для представителей разных культур. Сравнительно-типологический подход выявил переклички с суфийской поэзией Руми, мистическими текстами Востока и христианской символикой, что указывает на синтез культурных традиций.

Философско-культурологический анализ показал, что Коэльо искусно сочетает восточную и западную мудрость, превращая роман в духовное руководство для современного читателя. Он напоминает, что истинная ценность жизни заключается не в внешних достижениях, а в поиске внутренней гармонии и следовании зову сердца.

Особое внимание заслуживает литературный стиль автора – простота изложения скрывает многослойность текста, а афористичные высказывания превращают роман в источник вдохновения и жизненной мудрости. Благодаря этому *«Алхимик»* остаётся доступным для широкого круга читателей, не теряя при этом глубины философских идей.

Таким образом, произведение Пауло Коэльо продолжает оказывать сильное воздействие на людей во всём мире, вдохновляя их на самопознание, духовное пробуждение и смелость следовать своим мечтам. Роман стал универсальным культурным феноменом, актуальным в любом времени и в любой культуре, подтверждая силу литературы как инструмента духовного поиска и личностной трансформации.

ЛИТЕРАТУРА:

1. *Коэльо П. Алхимик. — М.: Рипол Классик, 2021.*
2. *Крылова И. П. «Философия судьбы в романе Пауло Коэльо». // Филологические науки, №2, 2019.*
3. *Бахтина М. В. «Алхимия как метафора духовного пути». // Вопросы литературы, №3, 2020.*
4. *Юдин С. В. «Структура и символика в прозе Пауло Коэльо». — СПб.: Наука, 2018.*
5. *Гончарова Н. А. «Восточные мотивы в творчестве П. Коэльо». // Культурология, №1, 2021.*
6. *Campbell J. The Hero with a Thousand Faces. — Princeton University Press, 2004.*

UO‘K 801.82:81.188

YOSH SHOIRLAR LIRIKASI VA KECHINMALAR POETIKASI

Saitova Nilufar Djumaydillayevna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
eyehdhdue76@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada yosh shoirlar she’riyatida lirik kechinma tabiatining poetik xususiyatlari, estetik mazmuni va ifoda usullari tahlil qilinadi. Yosh ijodkorlarning ruhiy kechinmalari, ularni badiiy obrazlarda ifodalash yo‘llari, shuningdek, zamonaviy she’riyatda kechinmalarni tasvirlashdagi yangicha izlanishlar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, yosh shoirlar ijodida inson qalbining ichki olami, ruhiy holatlarning turfa ko‘rinishlari va ularning milliy-estetik qadriyatlar bilan uyg‘unligi o‘rganiladi. Lirik obrazlarning shakllanishida metafora, ramz va tashbeh kabi badiiy vositalarning tutgan o‘rni alohida ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari yosh ijodkorlar poetikasining zamonaviy adabiy jarayondagi o‘rnini aniqlash, ularning ijodiy izlanishlari orqali milliy adabiyot taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasini yoritishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *lirika, lirik kechinma, yosh shoirlar, poetika, ruhiy holat, badiiy obraz.*

ЛИРИКА И ПОЭТИКА ПЕРЕЖИВАНИЙ МОЛОДЫХ ПОЭТОВ

Аннотация. *В статье анализируются поэтические особенности природы лирических переживаний, их эстетическое содержание и способы выражения в поэзии молодых поэтов. Рассматриваются духовные состояния молодых поэтов, пути их отражения в художественных образах, а также новые поиски в изображении переживаний в современной поэзии. Особое внимание уделяется внутреннему миру человека, многообразию душевных состояний и их гармонии с национально-эстетическими ценностями. Показана роль художественных средств, таких как метафора, символ и сравнение, в формировании лирических образов. Результаты исследования позволяют определить место поэтики молодых авторов в современном литературном процессе и раскрыть их вклад в развитие национальной литературы через творческие поиски.*

Ключевые слова: *лирика, лирические переживания, молодые поэты, поэтика, духовное состояние, художественный образ.*

LYRICS AND THE POETICS OF EXPERIENCES OF YOUNG POETS

Abstract. *The article analyzes the poetic features of lyrical experiences, their aesthetic content, and modes of expression in the poetry of young poets. It examines the spiritual states of young creators, the ways these are embodied in artistic images, as well as innovative approaches to depicting emotions in contemporary poetry. Particular attention is given to the inner world of the human soul, the diversity of psychological states, and their harmony with national-aesthetic values. The role of artistic devices such as metaphor, symbol, and simile in shaping lyrical imagery is highlighted. The research results help determine the place of young poets’ poetics in the modern literary process and reveal their contribution to the development of national literature through creative explorations.*

Keywords: *lyric, lyrical experience, young poets, poetics, psychological state, artistic image.*

Kirish. She’riyatning asosiy mazmuni inson qalbining tuyg‘ulari va ruhiy kechinmalarining yuksak badiiy ifodasidadir. Adabiyotshunoslik nazariyasida lirika insonning ichki dunyosiga, uning ma’naviy intilishlariga, ruhiy iztirob va shodliklariga eng yaqin janr sifatida e’tirof etilgan. Lirik asarlarning qisqaligi, ammo teranligi va ta’sirchanligi ularni boshqa janrlardan ajratib turadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, lirikaning bu xususiyati yosh shoirlar ijodida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Zero, ular hayotga, muhabbatga, orzu va intilishlarga, jamiyatdagi voqealarga o‘zlarining ichki samimiyati, bevosita kechinmalari bilan munosabat bildiradilar. Ularning she’rlari ko‘pincha qalbning bevosita aksi, ichki iztirob va shodlikning sof ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O‘zbek adabiyoti tarixida lirik janr doimo yetakchi o‘rinni egallab kelgan. Sharq mumtoz she’riyatining yirik namoyandalari – Ro‘dakiy, Hofiz, Jomiy, Navoiy, Bobur kabi

adiblar o‘z ijodlarining asosiy qismini lirik janrga bag‘ishlaganlar. Xususan, Alisher Navoiy lirikasida inson qalbining eng murakkab kechinmalari, muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik, ma’naviy iztiroblar, komillik izlanishlari yuksak badiiy saviyada ifodalangan. Bu an’ana keyingi davr o‘zbek adabiyotida ham davom etdi. XX asr boshlarida jadid shoirlari, mustaqillikdan keyin o‘zbek adabiyotida esa yangi avlod ijodkorlari lirik she’riyatning yangi bosqichlarini yaratishga muvaffaq bo‘ldilar. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida o‘zbek adabiy jarayonida yosh shoirlar ijodida yuksalish davri bo‘ldi. Bu davrda jamiyat hayotidagi tub o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi, yangilanishga intilish yosh ijodkorlarning badiiy tafakkurida o‘z ifodasini topdi. Endi ular nafaqat shaxsiy kechinmalarini, balki ijtimoiy-ma’naviy muhit murakkabliklarini ham she’r orqali ifodalay boshladilar. Shu bois ularning lirikasini kechinmalar poetikasi nuqtayi nazaridan tahlil qilish adabiy tanqidning dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda yosh shoirlar ijodini chuqurroq tadqiq etish adabiyot tarixidagi ijodiy merosga munosib baho berish imkonini beradi. Shu jihatdan yosh shoirlar lirikasidagi eksperimental poetikani o‘rganish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, bu jarayon zamonaviy adabiy jarayonni har tomonlama tushunishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, yosh shoirlarning ijodiy izlanishlarini rag‘batlantirish, ularning badiiy salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish imkonini beradi. Uchinchidan, adabiyotshunoslik nazariyasida lirikaning yangi qirralarini aniqlashga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda adabiy tanqidda yosh shoirlar lirikasini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qancha ilmiy ishlar mavjud. Masalan, ayrim tadqiqotlarda ma’lum bir shoirning ishq lirikasidagi obrazlar, timsollar, she’riy uslublar tizimi tahlil qilinadi. Lekin, umuman olganda, yosh shoirlar lirikasini har tomonlama tahlil qilish shu kungacha yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu bois bu boradagi tadqiqotlar ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Yosh shoirlar lirikasini o‘rganishda qiyosiy yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Zero, ular nafaqat milliy adabiy an’analardan, balki jahon adabiyotidan, turli madaniyatlarning she’riy tajribasidan ham ilhomlangan. Jahon adabiyotida yosh shoirlar ijodini turli madaniyatlar lirikasidagi kechinmalarni ifodalash usullari bilan qiyoslash yosh o‘zbek shoirlarining ijodiy qiyofasini yanada yorqinroq ochib berishga imkon beradi.

Bugungi kunda jamiyatda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Yoshlarning ichki dunyosi, kechinmalarini she’r orqali o‘rganish ularni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Zero, she’riyat, eng avvalo, insonning ichki dunyosining kalitidir. Yosh shoirlar lirikasidagi kechinmalarni tahlil qilar ekanmiz, ularning nafaqat individual ijodi, balki butun bir avlodning ma’naviy-axloqiy qiyofasini ham ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning quyidagi metodlaridan foydalanildi: adabiy-tahliliy metod asosida yosh shoirlarning she’rlarida keltirilgan lirik kechinma ifodasi o‘rganildi. Qiyosiy tahlil asosida kechinmalarning klassik lirika va zamonaviy poeziya o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Kontekstual yondashuv asosida esa lirik obrazlarning madaniy-estetik kontekstdagi o‘rni o‘rganildi.

Natijalar va muhokama. Adabiyot inson qalbining eng nozik qatlamlarini ochib beruvchi ma’naviy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Xususan, lirik janrdagi she’riyat inson kechinmalarini, shaxsiy tuyg‘ularini, ichki iztiroblarini badiiy ifodalash imkonini beradi. Har bir davr adabiy jarayonda yosh ijodkorlarning poetik izlanishlari milliy adabiyot rivojiga yangicha mazmun, uslub, estetik ko‘rinish olib keladi. Bugungi kunda yosh shoirlar ijodida lirik kechinmalar aks etishi zamonaviy dunyoqarash, milliy qadriyatlar va shaxsiy ma’naviy holatlar uyg‘unligi asosida shakllanmoqda. Yosh shoirlarning she’riy kechinmalari nafaqat ularning shaxsiy ma’naviy dunyosini ochib berish bilan birga, jamiyatning ma’naviy-estetik ehtiyojlarini, zamon ruhini ham o‘zida aks ettiradi. Lirik obrazlar shakllanishida metafora, timsol, allegoriya kabi badiiy vositalardan yangicha talqinda foydalanish kechinmalarning poetik ifodasini boyitadi. Binobarin, yosh shoirlar lirikasi, kechinmalari poetikasini ilmiy tahlil qilish zamonaviy adabiy jarayonni teranroq anglash, milliy adabiyot taraqqiyoti istiqbollarini belgilashda muhim ilmiy vazifa sifatida qaraladi.

Insoniyat tarixida she’riyat har doim inson ruhiyatini, qalb kechinmalarini ifodalash vositasi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, lirik janrning asosiy mohiyati shoirning shaxsiy kechinmalarini, ichki olamining to‘lqinlarini kitobxon qalbiga yetkazishda namoyon bo‘ladi. Bugungi yosh shoirlarning she’riyati ham zamonaviy insonning kechinmalarini o‘zida aks ettirib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashmoqda.

Zamonaviy o‘zbek adabiy jarayonini, xususan, yosh shoirlar lirikasini tahlil qilishda so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy-uslubiy manbalar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, A. Erkinovning “Yurak ohanglari” (2022) to‘plami adabiy manba sifatida yosh ijodkorlarning poetik dunyosini amaliy jihatdan anglashga

xizmat qiladi. Shoirning satrlari orqali vatanparvarlik, muhabbat va orzu-umid motivlarining badiiy talqinini kuzatish mumkin. Bu asar yosh shoirlar lirikasini tushunishda nazariy tahlillarni boyituvchi badiiy namuna sifatida qadrlanadi [2].

Adabiyotshunos olim U.Jo‘raqulovning “Nazariy poetika masalalari” (2015) asari o‘zbek adabiyotshunosligida muhim qo‘llanma hisoblanadi. Unda poetik tushunchalar, badiiy vositalarning nazariy tahlili va ularning lirika tabiatidagi ahamiyati keng ochib berilgan. Yosh shoirlar lirikasidagi kechinmalarni ilmiy asosda tahlil qilishda ushbu kitobning ahamiyati beqiyosdir [3].

Shuningdek, tadqiq qilinayotgan mavzuni yoritishda Sh.Qo‘chqorovning “Zamonaviy o‘zbek she’riyati va estetik izlanishlar” (2021) kitobi ham alohida diqqatga sazovor. Unda mustaqillikdan keyingi davr o‘zbek she’riyatining estetik xususiyatlari, yangi mavzu va shakllar, shuningdek, yosh ijodkorlarning uslubiy izlanishlari o‘rganilgan. Bu tadqiqot yosh shoirlarning poetik qarashlarini zamonaviy adabiy jarayon kontekstida baholash imkonini beradi. Umuman olganda, ushbu tadqiqotlar adabiyotshunoslikda yosh shoirlar ijodini o‘rganishning zamonaviy holatini tahlil qilishda muhim manbalar qatoriga kiradi [5].

Adabiyot inson qalbining nozik tuyg‘ularini ifoda etuvchi eng go‘zal san’atlardan biridir. Lirika esa bu jarayonning yuragi bo‘lib, unda insonning eng samimiy kechinmalari, ichki olamining tovlanishlari, sevgi va sog‘inch, quvonch va iztirob, vatanparvarlik va hayotiy izlanishlar o‘z ifodasini topadi. Har bir davr o‘z shoirlarini yetishtiradi. Ayniqsa, yosh shoirlarning lirikasi – zamon ruhi, milliy tafakkur hamda qalb izhorining uyg‘unlashgan manzarasidir. Yosh ijodkorlarning she’rlari ko‘pincha samimiyligi va yurakdan chiqqanligi bilan ajralib turadi. Ular uchun lirik kechinma hayotning o‘zidan kelib chiqqan holda, ko‘proq sezgi va tuyg‘ular orqali ifodalanadi [1].

Adabiyot tarixida muhabbat eng qadimiy va eng barqaror mavzulardan biri hisoblanadi. Har bir davrda, har bir shoirda muhabbatning yangicha ohangi, o‘ziga xos talqini mavjud. Yosh shoirlar lirikasida ham sevgi eng muhim mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Muhabbat lirikasida yosh ijodkorlar ko‘pincha tabiat manzaralaridan foydalanadilar. Bahor – umid, yoz – quvonch, kuz – iztirob, qish – yolg‘izlik ramzlariga aylanadi. Bu mavsumiy obrazlar orqali inson qalbidagi o‘zgarishlar, his-tuyg‘ularning dinamikasi ifodalanadi.

Yosh shoirlarning lirik kechinmalarida Vatan mavzusi alohida o‘rin tutadi. Ularning ijodida yurtga mehr, ona-tuproqni ulug‘lash va milliy g‘urur o‘z ifodasini topadi. Bugungi yoshlarning vatanparvarlik motivlari ko‘pincha hayotiy tajribalar, milliy ramzlar va tarixiy xotiralar bilan uyg‘unlashadi. Bu esa yosh ijodkorlar lirikasi nafaqat shaxsiy kechinmalar, balki ijtimoiy-ruhiy kayfiyatning ham ifodasi ekanligini ko‘rsatadi [4].

Zamonaviy yosh shoirlar lirikasi inson ruhiyatidagi iztirob, yolg‘izlik va tushkunlik kabi murakkab holatlarni ham yoritadi. Ularning she’rlarida ichki monolog, ruhiy izlanish va kechinmalarni falsafiy mushohada qilish kuchli. Shu tarzda, yosh shoirlar lirik kechinmalarda ruhiy jarohatlar, zamonaviy hayotdagi murakkab kechinmalar va ruhiyatdagi ziddiyatlarni samimiy ifodalab beradilar. Ularning lirikasida inson qalbining eng nozik tuyg‘ulari – muhabbat, sog‘inch, vatanparvarlik, yolg‘izlik, iztirob va orzu-umidlar badiiy ifodasini topadi. Ularning ijodida shaxsiy kechinmalar bilan ijtimoiy-ruhiy kayfiyat uyg‘unlashgan bo‘lib, zamon ruhi bilan hamnafasdir.

Muhabbat lirikaning abadiy mavzusi bo‘lib, zamonaviy yosh shoirlarning qalb izhori ham ko‘pincha shu tuyg‘u orqali namoyon bo‘ladi. Z. Xolmirzayeva quyidagi misralarida muhabbat tuyg‘usining sog‘inch bilan uyg‘unlashgan holda ifodalanganini ko‘rish mumkin:

“Men seni sog‘inaman, shamoldek
Shamollarda ham izlayman nigohingni...”

Ushbu misralarda lirik kechinma samimiyligi va ichki ruhiy iztirobning tabiiy tarzda ifodalanishi kuzatiladi.

Yosh shoirlar ijodida vatanparvarlik motivlari ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, A. Erkinov satrlarida:

“Yuragimga Vatan so‘zi bitilgan,
Har zarbida uning ovozi yangraydi”.

Bu satrlarda shaxsiy kechinmalar fuqarolik ruhiyati bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, shoir individual tuyg‘ularni milliy qadriyat va jamiyat manfaatlari bilan chambarchas bog‘laydi.

Zamonaviy yoshlarning ruhiyatida yolg‘izlik va tushkunlik hissi ham sezilarli darajada aks etadi. Bu holat asosan shoirning ichki monologi orqali ifodalanadi:

“Tunlarim uzun, suhbatdoshsiz,
Faqat qalbimning jim ovozi yonimda”.

Ushbu misralarda inson qalbidagi iztiroblar tabiat obrazlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda ochiladi.

Yosh shoirlarning poetik tafakkurida bir qator badiiy vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, metafora va ramziy obrazlar (“orzu kurtaklari”, “sog‘inch shamoli”), tabiat manzaralari bilan uyg‘unlashtirish (bahor – umid, kuz – iztirob), shuningdek, ichki monolog – shoirning o‘z-o‘zi bilan ruhiy suhbatga kirishi. A.Erkinovning quyidagi misralari buni yaqqol ifodalaydi:

“Bahor kelganda ko‘nglimda ham kurtak ochadi orzular,
Ammo har kuzda ular yana sarg‘ayib to‘kiladi”.

Mazkur satrlarda inson kechinmalarining mavsumiy tasvirlar orqali chuqur ifodalanganini ko‘rish mumkin. Umuman olganda, zamonaviy yosh shoirlar lirikasida muhabbat, sog‘inch, vatanparvarlik, yolg‘izlik va tushkunlik motivlari bilan bir qatorda o‘zini anglash, ijtimoiy adolat va dunyoviy tashvishlar kabi mavzular ham keng ifodasini topmoqda. Sh. Qo‘chqorovning ta’kidlashicha, “Yosh shoirlar lirikasi milliy she’riyatning an’analarini saqlab qolgan holda, unga yangi nafas olib kiradi” [2].

Yosh shoirlarning lirikasi nafaqat ularning shaxsiy hayotiy tajribasini, balki butun bir avlodning ruhiyatini ifoda etadi. Shuning uchun ham ularning ijodini tahlil qilish, kechinmalar poetikasini ochib berish nafaqat adabiyotshunoslik uchun, balki ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar uchun ham katta ahamiyatga ega. Bunda lirik kechinma shaxsiy tuyg‘ularning ifodasi bilan chegaralanmaydi. U zamonaviy hayotning muammolari, ijtimoiy ruhiyat va milliy qadriyatlar bilan hamohanglikda namoyon bo‘ladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yosh shoirlar lirikasi shaxsiy kechinmalardan tashqari jamiyat ruhini ham ifoda etadi. Ularning poetikasida quyidagi tamoyillar kuzatiladi: samimiyat va subyektivlik – shoirning shaxsiy tuyg‘ulari markaziy o‘rinda turadi; obrazlilik va ramziy tasvir – metafora va tabiat obrazlari asosiy ifoda vositasi hisoblanadi; milliy va umuminsoniy uyg‘unlik – vatanparvarlik motivlari universal ruhiy izlanishlar bilan uyg‘unlashadi [6].

Shuningdek, kechinmalarning poetik shakllanishida metaforik obrazlar, tabiat manzaralari va ichki monolog usullari markaziy rol o‘ynaydi. Bu esa yosh ijodkorlarning badiiy tafakkuridagi izlanishlar, ularning estetik qarashlarida yangilanish jarayonini ko‘rsatadi. Shuningdek, psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, lirik kechinmalar yoshlarning ichki dunyo izlanishlari, o‘zini anglash jarayonining badiiy ifodasidir. Bu esa adabiyot va psixologiya oralig‘ida muhim tadqiqot imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa. Yosh shoirlarning ijodiy izlanishlari zamonaviy adabiy jarayonning eng faol va jo‘shqin qatlamini tashkil etadi. Ularning lirikasi badiiy tafakkurning yangilanishi, shaxsiy va ijtimoiy kechinmalarning o‘ziga xos she’riy shakllarda ifodasidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yosh ijodkorlar o‘z she’riyatida tuyg‘ularning sof samimiyatini, ruhiy iztirob va shodlikni yangi obrazlar, uslubiy vositalar, estetik izlanishlar orqali ochib berishga intiladilar. Lirikaning asosiy xususiyati shaxsiy kechinmalarni ifodalash bo‘lsa, yosh shoirlar ijodida bu xususiyat yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi. Ularning kechinmalari poetikasi markazida muhabbat, g‘am-qayg‘u, shodlik, iztirob, Vatanga muhabbat, unga sadoqat mujassam. Bu lirikaning she’riy mazmunini ham, shaklini ham belgilaydi. Xususan, yosh ijodkorlar she’riyatida muhabbat mavzusi abadiy mavzu sifatida tushuniladi. Ularning samimiy ifodasi samimiy so‘zlar, ramziy iboralar, obrazlar orqali o‘quvchi qalbiga yetib boradi. Ayni paytda yosh shoirlar ijodida lirikaning estetik ko‘lami kengayib, turli janr va shakllar sinovdan o‘tkazilmoqda. Ularning ijodida an’anaviy janrlar bilan bir qatorda, erkin she’r, nasr parchalari va modernistik uslublar faol qo‘llaniladi. Bu zamonaviy o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonlariga moslashganidan dalolat beradi. Yosh ijodkorlar ham o‘z asarlarida xalq og‘zaki ijodi an’analari, mumtoz adabiyot merosidan ilhomlanib, ularni yangicha talqin etishga intiladi. Ularning ijodida ijtimoiy mas’uliyat, ma’naviy qadriyatlarga sadoqat, zamon ruhini ifodalash ham alohida o‘rin tutadi. Ularda inson va tabiat, inson va jamiyat, shaxs va Vatan o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlik poetik obrazlarning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada ularning she’rlarida individual kechinmalar bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlar ham ifodalangan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yosh shoirlar lirikasini o‘rganish zamonaviy o‘zbek adabiyotining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, poetik tafakkurning yangi qirralarini ochish va lirik san’atning azaliy mavzularini qayta ko‘rib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu adabiyotshunoslikda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masala bo‘lib, kelajak avlod ijodkorlari uchun mustahkam ma’naviy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ergasheva M. Zebo Mirzo she’riyatida poetik ohangdorlikning rang-barangligi. // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2023. – B. 103-106.

2. Erkinov A. Yurak ohanglari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 98 b.

3. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2015. – 362 b.

4. *Qodirov M. Yosh avlod poetikasida izlanishlar. – Samarqand: Zarafshon, 2020. – 87 b.*
5. *Qo‘chqorov Sh. Zamonaviy o‘zbek she’riyati va estetik izlanishlar. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 112 b.*
6. *Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: Fan, 2007. – 304 b.*
7. *Sodiq S. So‘z san’ati jozibasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 1996. – 320 b.*
8. *Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 272 b.*

UO‘K 821.512.133.81’25

RAMZIY OBRAZLARNI TARJIMA ORQALI TAQDIM ETILISHI

Soibova Gulchiroy Baxtiyorjon qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
Ilmiy rahbar: Sarimsokov Hurshid Abdimalikovich
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, DSc
Soibovaguli9@gmail.com
ORCID ID 0009-0000-2503-6585

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarjima jarayonida ramziy obrazlarning yoritilish masalasi ko‘rib chiqilgan. Tarjimada faqat til darajasidagi ma'lumotlarni emas, balki ularning ortida yotgan madaniy, diniy, tarixiy va mifologik konnotatsiyalarni to‘g‘ri aks ettirish zarurligi asoslab beriladi. Muallif Evgeniy Nayda, Susan Bassnett va boshqa tarjimashunoslar nazariyalariga tayangan holda ramzlarning dinamik ekvivalentlik, madaniy kod va semantik uzilishlar nuqtayi nazaridan tarjima qilinishiga urg‘u beradi. Shuningdek, maqolada metafraza, parafraza va taqlid kabi tarjima strategiyalari tahlil qilinadi. Tarjimonning vazifasi – ikki madaniyat o‘rtasida muvozanatni saqlab, ramziy ma’nolarni adekvat yetkazishdan iboratligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar*: tarjima, ramz, madaniy kontekst, dinamik ekvivalentlik, tarjima strategiyalari, semantik uzilish.*

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ СИМВОЛИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ ПОСРЕДСТВОМ ПЕРЕВОДА

Аннотация. *В статье рассматривается проблема передачи символических образов в процессе перевода. Автор подчёркивает необходимость учитывать не только лексическое значение слов, но и их культурные, религиозные, исторические и мифологические коннотации. Основываясь на теориях Е. Найды, С. Басснетт и других учёных, анализируются такие аспекты, как динамическая эквивалентность, культурный код и семантические расхождения. Также в статье рассматриваются стратегии перевода: метафраза, парафраза и имитация. Делается вывод о том, что переводчик должен сохранить баланс между культурами и адекватно передать глубинные символические значения текста.*

Ключевые слова*: перевод, символ, культурный контекст, динамическая эквивалентность, стратегии перевода, семантическое расхождение.*

REPRESENTATION OF SYMBOLIC IMAGES THROUGH TRANSLATION

Abstract. *This article explores the challenges of translating symbolic images across languages. The author emphasizes that translation involves not only linguistic transfer but also the accurate rendering of cultural, religious, historical, and mythological meanings embedded in symbols. Drawing on the theories of Eugene Nida, Susan Bassnett, and others, the study discusses dynamic equivalence, cultural codes, and semantic disjunctions. It also examines key translation strategies such as metaphrase, paraphrase, and imitation. The article concludes that the translator's role is to maintain a balance between cultures and ensure the faithful transmission of symbolic meanings.*

Keywords*: translation, symbol, cultural context, dynamic equivalence, translation strategies, semantic disjunction.*

Kirish. Tarjima insonning murakkab va ko‘p qirrali faoliyatidir. Garchi olimlar va tadqiqotchilar “bir tildan boshqa tilga” tarjima haqida turli fikrlarni bildirishsa-da, aslida tarjima jarayoni bir tilni boshqa tilga muqobilini topishdan ko‘ra ko‘proq ilmiy va ijodiy jarayonni o‘z ichiga oladi. Tarjimada turli madaniyatlar, turli shaxslar, turlicha tafakkur, turli adabiyotlar, turli davrlar, turli taraqqiyot darajalari, turli an’ana va qarashlar to‘qnash keladi. Tarjima bilan nafaqat tarjimonlar balki madaniyatshunoslar, etnograflar, psixologlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar ham qiziqishadi. Buning asosiy sababi esa tarjima boshqa soha vakillari faoliyatining turli jihatlari tegishli fanlar doirasida tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin. Qolaversa, tarjima ikkita asosiy funksiyani bajaradi: u odamlar o‘rtasidagi aloqalarni va ma’lumotlarni uzatishni (vaqt va makonda) ta’minlaydi.

Mazkur faoliyat - bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi va millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi. O‘ziga xos jihatlarini hisobga olib, asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatidan kelib chiqib badiiy tarjima, ilmiy tarjima kabi bir nechta turlarga bo‘linadi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko‘ra tafsir, tabdil, sharh, izoh kabi tarjimashunoslik terminlari bilan ham taqdim etilishi ehtimoli mavjud. Tarjima jarayoni tarixan turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan va o‘sha davrlardan *tilmochlik* deb ataluvchi og‘zaki turi hozirgi kungacha yetib kelgan.

Tarjimashunoslikning markaziy mavzularidan biri tarjimaning sotsiolingvistik jihati, xususan, tildagi ijtimoiy guruh dialektlarining o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq tarjima strategiyasining o‘ziga xosligidir. Dunyo rivojlangan tillarining ijtimoiy tabaqalanishi ko‘plab quyi tizimlarni o‘z ichiga oladi, ular boshqa tilga yuqori sifatli tarjimada yetarli darajada aks ettirilishi kerak. Bu holat tarjimaga yaroqlilik darajasi masalasini o‘ziga xos nuqtalarini ochib beradi, chunki bu jarayonda tarjimon lingvistik va madaniy qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Asl matnni o‘z tabiatiga ko‘ra ko‘rsatilayotgan tilning madaniy muhitiga qarama-qarshi bo‘lgan madaniy va lingvistik muhitga singdirish mezoni matnning tillararo tarjimasini murakkablashtiradigan omil va adabiy matnning tarjima qilinmasligi foydasiga dalil sifatida tan olinadi [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Manbalarda qayd etilishicha ilk tarjima, tarjima Mesopotamiya davrida amalga oshirilgan, o‘sha davrga oid ***Gilgamesh*** dostoninining (Shumerlarga tegishli) Osiyo tiliga tarjima qilingan. Boshqa qadimiy tarjima sohasiga oid ishlarga hind matnlarini xitoy tiliga tarjima qilgan buddist rohiblar kiradi [2].

Yana bir manba ***Rosetta Toshi*** (miloddan avvalgi 196 yil): Rosetta toshi - yunon, demotik va misr ierogliflarida bir xil matn bilan yozilgan uch tilli qoya tosh. Ushbu artefakt Misr ierogliflarini ochishda muhim rol o‘ynadi va dastlabki tarjima ishlarini ta'kidlaydi[3].

Tarjimashunoslik diniy asarlarda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. ***Septuaginta*** (miloddan avvalgi III asr): diniy proyeksiyadagi eng qadimgi yirik tarjima loyihalaridan biri, *Septuaginta* ibroniycha Injilning yunoncha tarjimasidir. Bu Iskandariyadagi yahudiy olimlari tomonidan amalga oshirilgan va yunon tilida so‘zlashuvchi yahudiylar va ilk nasroniylar uchun diniy nuqtai nazardan o‘ziga xos matn bo‘lgan [4].

Asrlar silsilasida tarjimaga bo‘lgan talablar ortib bordi. Ammo uning pozitsiyasi ya'niy ijodiy xosligi, qayta yaratish san’ati ekanligi zinhor o‘zgarmadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, tarjima faniga oid asarlar Qadimgi Rimda paydo bo‘lgan. Keyinchalik aynan shu yerda uning nazariyassiga daxldor yo‘nalishlar paydo bo‘lgan. Tarjimashunoslik fanining ravnaqida qadimgi rimlik olimlarning xizmati benihoyat cheksiz. Jumladan, Tsitseron va Goratsiy (miloddan avvalgi I asr) so‘zma-so‘z va semantik tarjima o‘rtasida parallellik o‘tkazgan birinchi nazariyotchilardir. Ularning tarjima amaliyotiga oid bayonotlari XX asrgacha tarjima faoliyatining keyingi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Keyinchalik tarjimashunoslikda G‘arb nazariyasi degan g‘oya paydo bo‘la boshladi. Mazkur g‘oya vakillari tarjimashunoslik borasida rang-barang fikrlarni bildira boshladi. XVII asrda ser Jon Denhom (1615-1669), Avraam Kouli (1618-1667), Jon Drayden (1631-1700) va Aleksandr Pop (1688-1744) kabi ko‘plab nufuzli nazariyotchilar g‘arb nazariyotchiligininasosini tashkil etishgan, ular tarjimaning uch turini ajratib ko‘rsatdilar: metafraza (so‘zma-so‘z tarjima), parafraz (parafraz) va taqlid.



Tarjimonlar oldidagi nazariy muammo bu *simbollar* tarjimasidir. Bu tarjima jarayonida matnda uchraydigan ramziy belgilar (simbollar) va ularning ma’no qatlamlarini boshqa tilda to‘g‘ri va chuqur aks ettirish jarayoni hisoblanadi. Simbollar odatda ma’lum bir madaniyat, diniy, mifologik yoki tarixiy kontekstga asoslangan bo‘ladi, shu sababli ularni tarjima qilish jarayoni ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi. Tarjimon faqatgina so‘zlarni emas, balki ularning orqasida yotgan ramziy ma’nolarni ham tushunib, mos ravishda yetkazishi kerak.

Bu borada olimlarning fikrlari turlicha. G. Gachevning fikricha, har bir milliy dunyo ma’lum bir makonda shakllangan xalq xarakterining mahalliy tabiati va ularning tafakkuri yoki uni ma’lum bir etnik guruh ongida idrok etish va aks ettirish yo‘lining birligi bilan ifodalanadi. Ushbu parametrlar tufayli matn

yaratuvchisi tomonidan qo‘llaniladigan ushbu tilning lingvistik birliklarining chiziqli ketma-ketligida mujassamlangan chuqur semantik tuzilma aniqlanadi. Matn ushbu milliy madaniy shaxs madaniyatining tabiati va rivojlanish darajasini aks ettiradi [7].

Tarjima matnida chet el madaniyatining obrazli timsollarini aks ettirish jarayonida tarjimon unga ma’lum bir to‘ldiruvchi yoki izohlovchi lingvomadaniy sharhni kiritadi. Har bir etnik guruhning xayoliy tafakkuri badiiy obrazlar, shaklning badiiy xususiyatlari, ya’ni troplar ko‘rinishida o‘z aksini topadi, ular tarjimada chet til o‘quvchilarining idrokida qarama-qarshiliklarga olib kelmaydigan obrazlar bilan almashtirilishi kerak. Boshqa so‘z bilan aytganda, tarjimon ikki madaniyat o‘rtasidagi “muvozanat” ni saqlashi kerak.

Bu borada Evgeniy Nayda: “Tarjimada dinamik ekvivalentlik konsepsiyasini ilgari surgan bo‘lib, bunda matnning ma’nosi va ta’sirini saqlashga urg‘u beriladi. U simbollarni tarjima qilishda ularning madaniy kontekstini hisobga olishni tavsiya etadi” [8].

Olimning yuqoridagi fikralarini tahlil qilarsak, tarjimon faqat so‘zlarni emas, balki ma’no va ta’sirni ham to‘g‘ri yetkazishi kerak, chunki tarjimaning maqsadi – matnni o‘qigan odam asl matnni tushungan odam bilan bir xil ta’sirni boshidan kechirishi kerak, degan xulosaga kelamiz. Qolaversa, tarjimada madaniy tafovutlarni hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi. Masalan, bir madaniyatda tushunarli bo‘lgan ramzlar yoki iboralar boshqa madaniyatda umuman tushunilmasligi mumkin. Shu sababli tarjimon matnni qabul qiluvchi auditoriyaning madaniyatini hisobga olib, moslashtirishi kerak.

Asosiy muammo bu tilda ekvivalenti bo‘lmagan madaniy tushunchalarga tegishli atamalarni tarjima qilishdir. To‘liq tushunish uchun bunday holatlar porlashni[5] ta’minlashni talab qiladi. Umuman olganda, ikki til yoki bu tillar bilan uchinchi tillar o‘rtasidagi aloqa va almashinuv qanchalik ko‘p bo‘lsa, ular o‘rtasida tarjima qilishda metafraza va parafraza nisbati shunchalik katta bo‘ladi. Biroq so‘zlarning ekologik bo‘shliqlarining o‘zgarishi sababli, umumiy etimologiya ba‘zan u yoki bu tildagi hozirgi ma’noga qo‘llanma sifatida noto‘g‘ri bo‘ladi.

Natija va muhokama. Tarjima har doim odamlar o‘rtasidagi tillararo muloqot va milliy tillar va adabiyotlarni shakllantirishning muhim ijtimoiy funksiyasini bajargan. Tarjimaning amaliy faoliyat sifatidagi tarixiy va ijtimoiy ahamiyati va uning tarjima nazariyasi bilan uzviy bog‘liqligini hisobga olib, ushbu nazariy fanning shakllanish va rivojlanish jarayonini tahlil qilish qiziq bo‘lar edi.

Boshqa ko‘plab mamlakatlarda bo‘lgani kabi, Angliyada ham tarjima sohasida nazariy umumlashtirishga birinchi urinishlar tarjimonlarning o‘zlari tomonidan qilingan, ular orasida ko‘plab taniqli yozuvchilar va shoirlar bor edi. Ularning ko‘pchiligi o‘z tarjimalariga uzoq mulohazalar bilan hamroh bo‘lib, ularda turli tarjima muammolarini hal qilishda o‘z yondashuvlarini asoslab berdilar, tarjimaning ayrim qoidalari va tamoyillarini shakllantirishga harakat qildilar [6].

Simbollar tarjimasida tarjimaviy yondashuvlarning o‘rni tarjima jarayonining murakkab tabiati va ramziy belgilar (simbollar)ning ko‘p qatlamli ma’no tarkibiga egaligi bilan bog‘liq. Simbollar turli madaniy, diniy, tarixiy va mifologik kontekstlarda turlicha talqin qilinadi. Shu sababli, tarjima jarayonida nafaqat so‘zlarni, balki ularning ortida yotgan chuqur ramziy ma’nolarni to‘g‘ri aks ettirish uchun mos tarjimaviy yondashuvlardan foydalanish muhimdir.

Simbollar tarjimasida qo‘llaniladigan yondashuvlarning tanlanishi tarjimaning maqsadi, qabul qiluvchi madaniyat va o‘quvchining bilim darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Tarjima jarayonida qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlar va ularning simbollar tarjimasidagi o‘rni quyidagicha izohlanadi.

Susan Bassnett tarjima nazariyasida madaniy kontekstning ahamiyatiga alohida urg‘u beradi. Uning ta’kidlashicha, simbol tarjimasida asosiy e’tibor simbolning lug‘aviy ma’nosiga emas, balki uning madaniy asosiga qaratilishi lozim. Sababi, simbollar faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki muayyan madaniyatga xos bo‘lgan semantik kodlar orqali ma’no hosil qiladi. Shu bois, bir madaniyat uchun tushunarli bo‘lgan simbol boshqa madaniyatga ko‘chirilganda, agar kontekstual moslik ta’minlanmasa, simbolning asl ma’nosi buzilishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Bunday kontekstual nomuvofiqlik tarjimada semantik uzilishlarga olib keladi, bu esa ma’no sathida chalkashliklarga sabab bo‘ladi. Tarjimon simbolning lingvistik ma’nosigina emas, balki uning orqasidagi madaniy kodlarni ham inobatga olishi zarur.

Tarjima nazariyasida simbollar tarjimasi alohida murakkablik kasb etadi. Boisi simbollar oddiy so‘zlardan farqli ravishda bir qancha konseptlarni taqdim etuvchi ma’noga ega bo‘lib, ularning mazmuni ko‘pincha madaniy, tarixiy, diniy va mifologik kontekst bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli, tarjima jarayonida faqat so‘zlarning leksik ma’nosini to‘g‘ri yetkazish emas, balki ular orqali ifodalanayotgan chuqur ramziy ma’nolarni to‘g‘ri aks ettirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega.

1-rasm. Ramzlarni tarjima qilishning to‘rt xil usuli

Rasmda ramzlarni tarjima qilishning to‘rt xil usuli ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos yondashuv va talablarga ega.

Birinchi yondashuv — literal, ya’ni so‘zma-so‘z tarjima bo‘lib, bunda ramzlar bevosita ma’no doirasida tarjima qilinadi. Bu usul asosan ma’noni aniq va ravshan saqlashga xizmat qiladi, lekin ramzning chuqurroq, ramziy qatlamlari ko‘pincha ochilmay qolishi mumkin.

Ikkinchi yondashuv — kontekstual bo‘lib, unda ramzlarning madaniy, tarixiy va diniy konteksti hisobga olinadi. Bu usul ramziy ma’noni yanada chuqurroq ochishga yordam beradi, lekin tarjimondan keng madaniy va tarixiy bilimlarni talab qiladi.

Uchinchi yondashuv — adaptiv tarjima bo‘lib, bunda ramzlarni qabul qiluvchi madaniyatga moslashtirish orqali tarjima qilinadi. Bu auditoriya uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi, biroq asl matndagi ramziy o‘ziga xoslikning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

To‘rtinchi yondashuv esa tafsiriy, ya’ni talqinli tarjimadir. Unda ramzlarning metaforik va ramziy chuqur ma’nolari keng talqin qilinadi, bu esa ijodiy yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, jadvalda taqdim etilgan yondashuvlarning har biri o‘zining afzallik va kamchiliklariga ega bo‘lib, ramzlarni tarjima qilishda yagona universal yo‘l mavjud emas. Tarjimon matnning vaziyatiga qarab, ba’zan literal, ba’zan kontekstual, ayrim hollarda esa adaptiv yoki interpretativ yondashuvni qo‘llashi lozim bo‘ladi.

Simbol yoki ramziy qahramonlar tarjima jarayonida alohida murakkablikni keltirib chiqaradi, chunki simbol faqatgina lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmay, balki chuqur ramziy ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Simbollar inson tafakkurining muhim qismi bo‘lib, turli madaniyatlarda bir xil simbol turli ma’nolarni anglashi mumkin. Shu sababli, simbollarni tarjima qilishda nafaqat so‘zning bevosita leksik ma’nosini, balki uning orqasidagi ramziy, metaforik va semantik ma’nolarni to‘g‘ri talqin qilish lozim. Bu jarayonda tarjimon simbolni tarjima qilish uchun mos yondashuvni tanlashi muhim hisoblanadi, chunki noto‘g‘ri yondashuv matnning umumiy mazmunini buzishi, simbolning ramziy mohiyatini o‘quvchiga to‘liq yetkazmasligi yoki ma’no yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Tarjima – bu til vositasida madaniyatlararo muloqotni ta’minlaydigan murakkab va ko‘p qatlamli jarayon bo‘lib, unda nafaqat so‘zlar, balki ularning ortidagi madaniy va ramziy ma’nolar ham uzatiladi. Ayniqsa, ramziy obrazlarni tarjima qilishda tarjimon lingvistik ekvivalentni topish bilangina cheklanmasdan, balki matnning madaniy kontekstini, semantik chuqurligini, simvolik yuklamasini ham

chuqur anglab yetishi zarur bo‘ladi. Tarjima jarayonida ramzlarning noto‘g‘ri talqini yoki kontekstdan uzilishi ma’no buzilishlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham Evgeniy Nayda ilgari surgan dinamik ekvivalentlik, Susan Bassnett tomonidan urg‘u berilgan madaniy kontekstga asoslangan yondashuvlar ramzi tarjimada muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Найда Ю. Перевод: между языками и культурами. – М.: Прогресс, 1993.*
2. *Баснетт С. Введение в теорию перевода. – М.: Изд-во Либроком, 2010.*
3. *Гачев Г. Национальные образы мира. – М.: Прогресс, 1988.*
4. *Комиссаров В.Н. Современное переводоведение: Учебник. – М.: ЭТС, 2001.*
5. *Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988.*
6. *Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 1992.*
7. *Bassnett S., Lefevere A. Constructing Cultures: Essays on Literary Translation. – Clevedon: Multilingual Matters, 1998.*
8. *Eco U. Experiences in Translation. – Toronto: University of Toronto Press, 2001.*

UO‘K 801.85:92.105

MAQOLLAR MILLIY MADANIYAT BELGISI SIFATIDA

Uralova Oysuluv Poyan qizi,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)
oysuluv_uralova@tues.uz
Orcid: 0009-0007-9257-9089

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalq maqollarining milliy madaniyat belgisi sifatidagi o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Maqollar xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari, urf-odatlari va hayotiy tajribalarini mujassamlashtiruvchi boy manba sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda, ayniqsa, ingliz va o‘zbek maqollarining ayrim namunalarini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning milliy mentalitetni ifodalashdagi umumiy va farqli jihatlari yoritib berilgan. Har ikki xalq maqollarida tabiat, mehnat, vatanparvarlik, insoniylik, ota-ona va farzand munosabatlari kabi mavzular alohida o‘rin tutishi ta’kidlangan. Maqollar nafaqat til boyligi, balki lingvomadaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi muhim ko‘zgudir. Maqola natijalarida ingliz va o‘zbek maqollarining madaniy semantikasi o‘rganilib, ular milliy tafakkurni shakllantirish va keyingi avlodlarga qadriyatlarni yetkazishda alohida ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *maqol, milliy madaniyat, qadriyat, xalq donoligi, lingvomadaniyat, mentalitet, urf-odat, milliy tafakkur, qiyosiy tahlil.*

ПОСЛОВИЦЫ КАК ПРИЗНАК НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В данной статье анализируется роль народных пословиц как признака национальной культуры. Показано, что пословицы воплощают менталитет, ценности и лингвокультурные особенности народа. На основе сравнительного рассмотрения отдельных английских и узбекских пословиц подчёркивается их значение как важного источника, отражающего национальную культуру. В пословицах обоих народов особое место занимают такие темы, как природа, труд, патриотизм, человечность, отношения между родителями и детьми. Пословицы выступают не только как языковое богатство, но и как важное зеркало, отражающее лингвокультурные особенности. В исследовании изучается культурная семантика английских и узбекских пословиц и обосновывается их особая роль в формировании национального мышления и передаче ценностей будущим поколениям.*

Ключевые слова: *пословица, национальная культура, ценности, народная мудрость, лингвокультура, менталитет, обычаи, национальное мышление, сравнительный анализ.*

PROVERBS AS A MARKER OF NATIONAL CULTURE

Abstract. *This article analyzes the role of folk proverbs as a marker of national culture. It is shown that proverbs embody the mentality, values, and linguocultural features of a nation. Selected examples of English and Uzbek proverbs are comparatively examined, emphasizing their significance as important sources reflecting national culture. In the proverbs of both nations, particular emphasis is placed on themes such as nature, labor, patriotism, humanity, and the relationship between parents and children. Proverbs serve not only as a linguistic treasure but also as an important mirror reflecting linguocultural features. The study explores the cultural semantics of English and Uzbek proverbs and substantiates their significant role in shaping national thinking and transmitting values to future generations.*

Keywords: *proverb, national culture, values, folk wisdom, linguoculture, mentality, customs, national thinking, comparative analysis.*

Kirish. Maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Ular qisqa, lo‘nda shaklda xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini ifodalaydi. Shu bois maqollarni milliy madaniyatning “oynasi” deb atash mumkin. Har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlari va urf-odatlari ularning maqollarida mujassam bo‘ladi.

“Maqol – xalq ogʻzaki ijodi janri; qisqa va loʻnda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal maʼnoli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqol baʼzan masal, zarbulmasal, hikmat, hikmatli soʻz, tanbeh, mashoyixlar soʻzi, hikmatli maqol, donishmandlar soʻzi, otalar kabi nomlar bilan ham yuritiladi”[3]. V.D. Starchenokning “Большой лингвистический словарь” (“Katta lingvistik lugʻat”)ga tayangan holda, ishimizda “maqol” terminini baʼzi oʻrinlarda “parema” termini bilan beramiz [8].

Qanotli iboralarni toʻplovchilar maqolni “hech bir podsho e’lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir”, deb hisoblashadi [6]. P. Bakirov ularni “xalq hayotining ensiklopediyasi” (muallif tomonidan ajratilgan – O.U.) deb ataydi” [6].

“Chet el lingvistikasida “maqol va matal” (paremiya) maʼnosiga ega proverb atamasi ishlatiladi. “Frazeologizm” termini uchun “fixed expression (phrase)”, “idiom”, “phraseological locution” terminlari qoʻllaniladi. Saying termini “xalq hikmatlari” maʼnosida qoʻllaniladi. Cambridge Advanced learnerʼs Dictionary lugʻatiga koʻra, “saying” – a well-known and wise statement, which often has a meaning that is different from the simple meanings of the words it contains (“saying” – oʻzida mavjud boʻlgan soʻzlar maʼnosidan farq qiladigan maʼnoga ega maʼlum va dono xalq hikmati). Shunday qilib, angliyalik va amerikalik olimlar oʻzida har xil turlarni: maqol, matal, aforizm, slogan, klishe va idiomalarni jamlab olgan saying atamasidan foydalanishadi” [9].

Maqolni boshqa paremiyalardan farqlash uchun uning muhim, oʻziga xos belgilarini taʼriflash zarur. P.Bakirovning fikricha, “maqol paremiyalarning barcha boshqa turlari kabi, quyidagi xususiyatlarga ega: 1) klishelanganlik; 2) aforistiklik (hikmatlilik); 3) utilitarlilik (amaliylik); 4) antropotsentriklik.

Maqolga (paremiyalarning oʻziga xos turi sifatida) quyidagi farqlovchi xususiyatlar xos: 1) xalqchillik; 2) qadimiylik va dolzarblik; 3) metaforlilik; 4) allegoriyalilik; 5) koʻp mazmunlilik va umumlashtiruvchilik; 6) sentensiozlilik; 7) obrazlilik; badiiylik; 8) emotsional mazmunga boylik; 9) qisqalik, ixchamlik; 10) strukturaviy- semantik jihatdan tugallanganlik” [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning quyidagi metodlaridan foydalanildi: adabiy-tahliliy metod asosida ingliz va oʻzbek xalq maqollarida mujassam boʻlgan maʼnaviy qadriyatlar, mentalitet va lingvomadaniy xususiyatlar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil asosida ikki xalq maqollaridagi umumiylik va farqli jihatlar, xususan, tabiat, mehnat, vatanparvarlik, insoniylik hamda oilaviy qadriyatlarni ifodalashdagi oʻxshashliklar va tafovutlar aniqlashtirildi. Kontekstual yondashuv orqali esa maqollarda aks etgan obrazlar, tushunchalar va ramzlarning milliy madaniyat va estetik kontekstdagi oʻrni oʻrganildi. Shu tariqa maqollar milliy tafakkurni shakllantiruvchi va qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim madaniy hodisa sifatida tahlil qilindi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tilshunoslikka oid har xil lugʻatlar va paremiologik iboralar boʻyicha turli davrlarda yozilgan koʻplab ilmiy-tadqiqot ishlar tahlili shuni koʻrsatadiki, “maqol” tushunchasining hamma tomonidan tan olingan, bitta umumiy qoidasi mavjud emas, mutaxassislar oʻrtasida yagona fikr yoʻq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, taniqli maqolshunos olimlarning fikrlarini har tomonlama oʻrganib, “maqol” terminiga biz oʻzimizning quyidagi taʼrifimizni taklif qilamiz: “maqol – dunyoning barcha tillarida mavjud boʻlgan paremiyaning asosiy turi, xalq ogʻzaki ijodining oʻlmas merosi va madaniyatining ajralmas qismi, donolik yoki hayotiy haqiqatni ajdodlardan avlodlarga etkazadigan barqaror, kommunikativ xususiyatga ega boʻlgan til birligi,metafora yoki taqqoslash yordamida sodda va ixcham shaklda turli vaziyatlarni, oʻziga xos madaniy kodlarni ifodalaydigan, mazmun va ifoda planiga ega gap shaklidagi universal kichik matn”.

Oʻzbek maqollarida mehnatsevarlik, birdamlik, sabr-toqat va halollik kabi qadriyatlar asosiy oʻrinda turadi. Masalan: *“Mehnat qilgan toʻyadi, qilmagan qoʻyadi”.* Ingliz maqollarida esa pragmatizm, vaqtni qadrlash, shaxsiy tashabbus va mustaqillik koʻproq ifodalangan: *“Time is money”.*

Ikkala xalq maqollarida umumiy qadriyatlar ham mavjud. Masalan, birdamlik gʻoyasi oʻzbeklarda *“El bilan borsa, el yoy boʻlar”* inglizlarda *“United we stand, divided we fall”* tarzida ifodalangan.

Oʻzbek jamiyatida oʻgʻil bolaning tarbiyasida otaning oʻrni beqiyos. Shuning uchun boʻlsa kerak, koʻp hollarda oʻgʻillar otalarni takrorlaydi, er yigitlar otalarning andozasidir. Shuning uchun *“Qoʻzi – qoʻchqordan nishon, oʻgʻil – otadan”; “Ot oʻrnini toy bosar, ota oʻrnini – oʻgʻil”,* deb taʼkidlanadi maqollarda. Ota qanday boʻlsa, bola shunday boʻladi: *“Aygʻir qanday boʻlsa, ot shunday”; “Ot olsang, otasini surishtir”; “Er bolasi – er, sher bolasi – sher” [5].*

Oʻzbeklar oʻgʻil bolalarini toy deb erkalashadi. *“Toyni toy deb xoʻrlama, erta-indin ot boʻlar”* maqoli bolani har narsa deb qiynayverma, kelajakda u oʻsib-ulgʻayib yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini taʼkidlamoqda. “*Toy otga ergashar, qoʻy – serkaga”* maqoli farzand otasining izidan borishi, bola oʻz otasiga taqlid qilishi koʻrsatilmoqda.

“Otim ketsa toycham bor, to‘nim ketsa parcham bor” naqli farzandga umid bog‘lash lozimligi xususida ta’kidlamoqda. *“Ot bosmagan erlarni toy bosar”* maqoli ota bajara olmagan ishlarni o‘g‘il uddalaydi, degan ma’noni beradi. *“O‘g‘il qanotli ot bo‘lsa, qiz – qanotli qush”* paremasida ot oilada doimiy istiqomat qiluvchi o‘g‘ilga, qiz esa turmushga chiqqandan keyin boshqa joylarga uchib ketadigan qushga taqqoslanadi. *“Toy ot bo‘lsa, ot ozod bo‘lar”,* maqolida o‘g‘il voyaga etib, otaning qo‘lidan ishlarini olgandan so‘ng, otaning ishlar kamayadi, u endi dam olishi mumkin, deyilmoqda. *“Tana tanig‘i buqasidan ma’lum”* naqlida qizdagi bor belgilar, alomatlar otadan o‘tishi mumkinligi aytilmoqda.

Zookomponentli maqollarda ona har doim ijobiy baholanadi. Paremalarda onalik mas’uliyati, onaning farzandga bo‘lgan cheksiz muhabbati, g‘amxo‘rligi, yaqinlar haqida qayg‘urishi, myehribonlik, nasl qoldirish ingliz va o‘zbek maqollari uchun umumiy hisoblanadi. O‘zb.: *“Tipratikan bolasini yumshog‘im der, qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im der”.* Ing.: *“Even though the baby monkey appears so ugly, its mother loves it”* (Maymun bolasi juda xunuk ko‘rinsa ham, onasi uni yaxshi ko‘radi); *“The owl thinks all her young ones beauties”* (Boyqush o‘zining barcha yosh bolalarini go‘zal deb hisoblaydi) [6].

Ona va bola o‘rtasidagi xususiyatlari, ularning irsiy bog‘liqligi quyidagi o‘zbek xalq maqollarida ko‘rsatilgan: *“It irillashni onasidan o‘rganar”; “Ovul aylog‘i bilan, bo‘ta taylog‘i bilan”. “Qulunli biyadan quduq suvi ortmas”* maqolida farzandli ayoldan hech narsa ortmasligi ko‘rsatilmoqda.

“The young bird does not crow, untill it hears the old” (Yosh qush qarisini eshitmagunicha qichqirmaydi) ingliz maqolida tarbiya onaning tizzasidan boshlanadi va onaning bolalar uchun aytgan har bir so‘zi ularning xarakterining shakllantirilishiga yordam beradi, deyilmoqda. Hayotda yaxshi onaning bolasi yomon bo‘lishi ham mumkin: *“Many a good cow has a bad calf”* (Yaxshi sigirlar ham yomon buzoqqa ega bo‘lishi mumkin). Inglizlarning fikrlaricha: *“Children and chicken must be always picking”* (Bolalar va tovuq har doim biror narsani terishi kerak).

Ota-onalar va bolalar haqida majoziy ma’nodagi anchagina maqollar borki, ularda ifodalangan mazmun zoonimlar orqali etkazib beriladi. Bu tipdagi paremalarga strukturaviy bir xillik xos: *“Arslon bolasi arslon bo‘lar, sichqon bolasi – sichqon”; “Alp – enadan, ot – biyadan”; “Ilonning bolasi – ilon, chayonning bolasi – chayon”.*

O‘zbek naqllarining ta’kidlashicha, farzandlar hayotda oynadagidek o‘z ota-onasini takrorlaydi: *“It bolasi – itga yaxshi, qush bolasi – qushga yaxshi”, “Quyon bolasini botirim der, it bolasini qoplonim der”.*

Paremiologik birliklarda bola – oila shodligi, ko‘rki, ota-ona mevasi, davlati, suyanchi, ulug‘ ne’mati, dilbandi, asal-qandi sifatida tavsiflanadi: “Toylog‘im – tayanchig‘im”.

“Baqiroq tuyaning bori yaxshi” maqolida bolalarga tanbehlar berib, hayot yo‘llariga solib turadigan ota-onaning borligi juda zarur, deyilmoqda [3].

“Cock” (xo‘roz), “sow” (cho‘chqa), “cow” (sigir), “dog” (it) zoonimli ingliz paremiyalarida ota-onalar bolalar uchun o‘rnak bo‘lishligi ta’kidlanadi: *“As the old cock crows the young one learns”* (Yosh xo‘roz qichqirishni qari xo‘rozdan o‘rganadi), *“The young pig grunts like the old sow”* (Yosh cho‘chqacha xuddi qari cho‘chqa kabi xur-xurlaydi). Ornitonim komponentli ingliz maqollarida “ota-ona qanday bo‘lsa, bolalar ham shunday bo‘ladi; bolalar ota-onalarga o‘xshaydilar” degan majoziy ma’no yotibdi: *“Eagles do not breed doves”* (Burgutlardan kaptarlar tug‘ulmaydi). Ota-onadan o‘tgan asosiy xususiyatlarni bola o‘zgartirmasligi mumkinligi haqida *“A leopard can’t change its spots”* (Leopard o‘z dog‘larini o‘zgartirmaydi) ingliz maqolida ta’kidlangan.

Bir nikohda turuvchi erkak va ayol er-xotin deb ataladi. Er-xotin munosabatlari hayvonlar haqidagi maqollarda o‘z aksini topgan.

Paremalarda er – xotin uchun tayanch, suyanch, eng yaqin inson *“O‘nqir edi, cho‘nqir edi – uyim edi, ayiq edi, sayiq edi, – erim edi”,* er xotindan ustun *“Qurbaqaning tirikligi ko‘l bilan, xotinning tirikligi er bilan”,* ayol-onalarga qiyin *“Bolalik ona nonga to‘ymas, bolalik g‘oz – donga”* ekanligi tasvirlangan. *“Er-xotin – qo‘sh ho‘kiz”* maqolida barcha oilaviy ishlarni er va xotin birga, baravar bajarishganda, ro‘zg‘orda to‘kin-sochin bo‘lishi ta’kidlanmoqda.

Maqollarda ayol xarakterining hiylakorlik, o‘z qarindoshlarini er qarindoshlaridan ustun qo‘yish, gapdan qolmaslik, yomonlik, jafo, balo kabi salbiy xususiyatlari ta’kidlangan: *“Hiylakor xotin ishi, ming eshakka yuk bo‘lar”, “Xotin qarindoshi – ilon boshi, er qarindoshi – savat boshi”, “Eshak eshakdan qolsa, qulog‘ini kesar, xotin xotindan qolsa, oyog‘ini kesar”, “Yomon eshak ip uzar, yomon xotin uy buzar”, “Otning yomoni – ola, xotinning yomoni – balo”, “It vafo, xotin jafo” [2].*

Paremalarda yaxshi va yomon xotinlar taqqoslanadi*: “Yaxshi xotin yo‘qni yo‘mzab to‘ydirar, yomon xotin yolg‘iz otni so‘ydirar”.*

Maqolning tasdiqlashicha, ingliz mentalitetida quyidagi tavsifga ega bo‘lgan xotin ulug‘lanadi va hurmat qilinadi: *“A wife should be as humble as a lamb, busy as a bee, as beautiful as a bird of paradise and*

faithful as a turtle dove" (Xotin qo‘zichoqdek kamtar, aridek band, jannat qushidek go‘zal, kaptarday sadoqatli bo‘lishi kerak).

Ingliz erkaklarining fikricha, ko‘p gapirmaydigan rafiqa – yaxshi xotin: *''It is a good horse that never stumbles and a good wife that never grumbles''* (Qoqilmaydigan ot – yaxshi ot, javramaydigan xotin – yaxshi xotin) [1].

Ingliz xalqi zoonimli paremiyalari orqali ayollarga past nazar bilan qaramaslik, ularning sodiqligi, muqaddasligi, ziyon keltirmasligi, ular boylik manbai bo‘lishi mumkinligi haqida ogohlantiradi: *"If you make your wife an Ass, she will make you an Ox"* (Xotinni eshak ko‘rsang, u seni ho‘kizga aylantiradi), *"There are three faithful friends, an old wife, an old dog, and ready money"* (Uchta sodiq do‘st bor: qari xotin, qari it, tayyor pul), *"A horse, a wife and a sword may be shewed, but not lent"* (Ot, xotin va qilich ko‘rsatilishi mumkin, lekin qarzga berilmaydi).

Maqollarda ayollarning janjalkashligi qoralanadi: *"Some peacocks fight one another"* (Ba’zi tovuslar bir-biri bilan jang qilishadi).

Inglizlarning ajoyib, purma’no “dog” (it), “bitch” (urg‘ochi) zoonim komponentli paremiologik iborasida ayolni kaltaklash noto‘g‘ri ekanligi, faqatgina hayvonsifat jonzot o‘z juftini urushi mumkinligi ta’kidlanadi: “*It is an ill-bred dog that will beat a bitch"* (Faqat tarbiyasiz it o‘z urg‘ochisini kaltaklaydi) [7].

Muhokama. Har bir xalq o‘z mentalitetiga ega ekanligi – bu postulat. Til etnik guruhning dunyoqarashi, mentaliteti va milliy xarakteri bilan bevosita bog‘liqdir. Xalqlar mentalitetida namoyon bo‘ladigan xususiyatlar bir-biriga o‘xshash bo‘lishi yoki biridan farqlanishi mumkin. O‘zbek va inglizlarning mental paremiologik portreti har xil. Maqollar milliy madaniyatning muhim belgisi bo‘lib, ular orqali xalqning mentalitetini aniqlash mumkin. Ingliz maqollarida ko‘proq individualizm va pragmatizm sezilsa, o‘zbek maqollarida kollektivlik, hamjihatlik va ma’naviy qadriyatlarga urg‘u beriladi. Shu bilan birga, umumiy insoniy qadriyatlar ham mavjud bo‘lib, bu maqollarning xalqaro kommunikatsiyadagi ahamiyatini oshiradi. Maqollar xalq donoligining ifodasi bo‘lish bilan birga, milliy madaniyat belgisi sifatida ham qimmatlidir. Ular xalqning dunyoqarashini, qadriyatlarini, tarixiy tajribasini saqlab keladi va yangi avlodga yetkazadi. Ingliz va o‘zbek maqollarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir xalq o‘z madaniy xususiyatlarini maqollarda ifodalash bilan birga, umumiy insoniy qadriyatlarni ham ulug‘laydi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida shuni aytish mumkinki, xalq maqollari milliy madaniyatning eng qadimiy va ishonchli ko‘zgularidan biri hisoblanadi. Ular asrlar davomida xalq tajribasini, dunyoqarashini, ijtimoiy munosabatlarini, urf-odatlarini va qadriyatlarini mujassamlashtirgan holda, avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Ingliz va o‘zbek maqollarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki xalqning turmush tarzi, tarixiy tajribasi va milliy ruhiyati o‘ziga xos tarzda aks etgan bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy g‘oyalar ham mavjud. Jumladan, tabiatga munosabat, mehnatning qadri, vatanparvarlik, insoniylik, ota-ona va farzand o‘rtasidagi mehr-oqibat kabi mavzular universalligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ayrim maqollar milliy tafakkurning o‘ziga xosligini, xalq ruhiyatining betakrorligini ifodalaydi.

Maqollar faqatgina til boyligini ifodalovchi vosita emas, balki lingvomadaniy qadriyatlarni saqlovchi, milliy o‘zlikni mustahkamlovchi va yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etuvchi pedagogik manba hamdir. Ular inson ongida milliy tafakkurni shakllantiradi, jamiyatda ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi, ma’naviy merosning uzviyligini ta’minlaydi. Shuning uchun maqollarni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qilish, ularni boshqa xalqlar tajribasi bilan qiyoslab o‘rganish tilshunoslik, madaniyatshunoslik va ta’lim sohalarida dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maqollar milliy madaniyat belgisi sifatida xalqning o‘zligini, ma’naviy dunyosini va qadriyatlarini anglashda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularni chuqur o‘rganish milliy tafakkur durdonalarini, xalq donoligini keng targ‘ib qilish hamda yoshlar ongida milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Franklin B. Advice to a Young Tradesman (Original work published 1748). – New York: Barnes & Noble. 2004.

2. Mieder W. Proverbs: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Press. 2004.

3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. Tahrir hay’ati: Aminov M., Daminov T., Dolimov T. va boshq. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – 543 b.

4. Paremiology. In A. N. Dooley (Ed.), Encyclopedia of Folklore. – London: Routledge, 2010. – pp. 45–52.

5. *Rahmatullayev Sh. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 1992.*

6. *Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani / Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 548 b.*

7. *Yunusov M. O‘zbek maqollarining lingvomadaniy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2018.*

8. *Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. – С. 423.*

9. *https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/proverb*

UO‘K 82

LEV TOLSTOY ASARLARIDA INSONNING AXLOQIY TANLOVI VA UNING IJTIMOIY HAYOTDAGI O‘RNI

Safarova Zulfiya Karimovna,
Qarshi shahar Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Lev Tolstoy asarlarida insonning axloqiy tanlovi keng yoritiladi. Muallif “Urush va tinchlik”, “Anna Karenina” va “Tirilish” romanlarini batafsil tahlil qilib, shaxsiy qarorlarning ijtimoiy oqibatlarini chuqur ko‘rib chiqadi. Tadqiqot Tolstoy qarashlarida axloq, din va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Shaxsning ma’naviy izlanishlari, ichki ruhiy kurashlari va tanlov erkinligi muallifning asosiy diqqat markazida turadi. Maqola axloqiy-falsafiy g‘oyalarni badiiy tahlil orqali yoritib, Tolstoy merosining bugungi jamiyat uchun ham dolzarbligini va insoniy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi..*

Kalit so‘zlar: *Lev Tolstoy, rus adabiyoti, axloqiy tanlov, inson va jamiyat, diniy qarashlar, falsafiy izlanish, badiiy tahlil, “Urush va tinchlik”, “Anna Karenina”, “Tirilish”, axloq va din, ma’naviy izlanish, tanlov erkinligi, ijtimoiy masalalar, psixologik tahlil.*

НРАВСТВЕННЫЙ ВЫБОР ЧЕЛОВЕКА И ЕГО РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЛЬВА ТОЛСТОГО

Аннотация. *В данной статье подробно рассматривается тема нравственного выбора в произведениях Льва Толстого. Автор анализирует романы «Война и мир», «Анна Каренина» и «Воскресение», уделяя особое внимание социальным последствиям личных решений. Исследование раскрывает сложные взаимосвязи между моралью, религией и обществом в мировоззрении писателя. Центральное место занимает духовный поиск личности, её внутренние переживания и свобода выбора. Через художественно-философский анализ статья показывает, как Толстой умело соединяет этические идеи с художественным мастерством, подчёркивая актуальность его наследия и его значимость для формирования нравственных ценностей современного общества.*

Ключевые слова: *Лев Толстой, русская литература, нравственный выбор, личность и общество, религиозные взгляды, философский поиск, литературный анализ, «Война и мир», «Анна Каренина», «Воскресение», мораль и религия, духовные поиски, свобода выбора, социальные проблемы, психологический анализ.*

THE MORAL CHOICE OF MAN AND HIS ROLE IN SOCIAL LIFE IN THE WORKS OF LEV TOLSTOY

Annotation. *This article explores moral choice in the works of Lev Tolstoy in depth. The author provides a detailed analysis of War and Peace, Anna Karenina, and Resurrection, examining the social consequences of personal decisions. The study highlights the complex relationship between morality, religion, and society in Tolstoy’s worldview. Special attention is given to the individual’s spiritual quest, inner struggles, and freedom of choice as central themes. Through artistic and philosophical analysis, the article reveals Tolstoy’s ability to combine ethical ideas with vivid storytelling, demonstrating the enduring relevance of his legacy and its impact on shaping moral values in contemporary society..*

Keywords: *Lev Tolstoy, Russian literature, moral choice, individual and society, religious views, philosophical search, literary analysis, War and Peace, Anna Karenina, Resurrection, morality and religion, spiritual quest, freedom of choice, social issues, psychological analysis.*

Kirish. Lev Tolstoy XIX asr rus adabiyotining eng ulug‘ vakillaridan biri bo‘lib, uning ijodi nafaqat rus madaniyatida, balki jahon adabiy merosida ham o‘chmas iz qoldirgan. Tolstoyning romanlari, qissalari va publitsistik asarlari inson ruhiyatini yoritish, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tasvirlash va eng muhimi, insonning axloqiy tanlovini ko‘rsatish bilan ajralib turadi. Uning qarashlari hayotiy tajribalar, diniy-falsafiy izlanishlar va ijtimoiy muammolarni chuqur anglash asosida shakllangan bo‘lib, adabiyot orqali insonni o‘zini anglashga va ma’naviy yangilanishga chorlaydi.

“Urush va tinchlik” romanida yozuvchi tarixiy voqealar fonida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Napoleon urushlari davridagi Rossiya hayoti fonida qahramonlarning shaxsiy tanlovlari, ularning vatanparvarlik, vijdon, muhabbat va burch oldidagi qarorlari alohida yoritiladi. Tolstoy bu asar orqali tarixiy voqealarni tasvirlash bilangina cheklanmay, balki insonning ruhiy kechinmalari va jamiyat hayotidagi o‘rni haqida ham chuqur mulohazalar yuritadi. “Anna Karenina” asarida insoniy ehtiros, muhabbat va jamiyat talablari o‘rtasidagi ziddiyat keskin dramatik tus oladi. Bu yerda Tolstoy insonning axloqiy tanlovi nafaqat shaxsiy fojiaga, balki ijtimoiy oqibatlarga ham olib kelishini ko‘rsatadi. “Tirilish” romanida esa inson vijdoni, axloqiy mas’uliyat va ruhiy uyg‘onish g‘oyalari markaziy mavzuga aylanadi. Neklyudov obrazi orqali yozuvchi insonning ichki o‘zgarishi, o‘z xatolarini anglab yetishi va hayotini ma’naviy jihatdan yangilash imkonini falsafiy teranlikda tasvirlaydi.

Tolstoy ijodi shaxsiy qaror va ijtimoiy vazifa o‘rtasidagi ziddiyatlarni yoritish bilan cheklanmaydi. Uning asarlarida insonning azaliy savollar — ezgulik va yovuzlik, hayot va o‘lim, erkinlik va majburiyat, e’tiqod va shubha bilan bo‘lgan kurashi asosiy o‘rinni egallaydi. Bu qarashlar uning asarlarini oddiy tarixiy hikoyalardan ko‘ra kengroq ma’no va mazmun bilan boyitadi. Tolstoy qahramonlari orqali jamiyatdagi axloqiy qiyinchiliklar, ichki iztiroblar va ma’naviy uyg‘onish jarayonlari haqidagi mulohazalarini o‘quvchiga yetkazadi. Shu bois uning asarlari faqat badiiy zavq emas, balki hayot, burch va erkinlik haqida chuqur o‘ylashga undaydi.

Shu jihatdan, Tolstoy ijodi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. U o‘quvchini shaxsiy qarorlari uchun mas’uliyat hissini anglashга, jamiyat oldidagi vazifalarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Uning diniy-falsafiy izlanishlari va hayotiy qarashlari zamonaviy insonning ham axloqiy muammolari bilan uyg‘unlashadi. Shu bois, Lev Tolstoy asarlarida axloqiy tanlov masalasi doimo dolzarb mavzu bo‘lib qoladi. Ushbu maqola yozuvchining asosiy romanlari misolida insonning axloqiy qarorlari va ularning jamiyatdagi o‘rni, shuningdek, adibning diniy-falsafiy qarashlari tahliliga bag‘ishlanadi. Mazkur tadqiqotda Tolstoy ijodida shaxsiy tanlov erkinligi, ma’naviy izlanishlar va ijtimoiy mas’uliyatning o‘zaro bog‘liqligi keng ko‘lamda yoritiladi. Shu kengaytirilgan tahlil, Tolstoyning ijodiy merosi faqat adabiyotshunoslar uchun emas, balki falsafa, tarix va madaniyatshunoslik bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun ham muhim ahamiyat ksb etishini ko’rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Lev Tolstoy ijodiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar adabiyotshunoslikda eng sermahsul yo‘nalishlardan biridir. Tolstoy nafaqat buyuk badiiy ijodkor, balki o‘z davrining ma’naviy va falsafiy mutafakkiri sifatida ham ilmiy doiralarda keng tahlil qilingan. Uning asarlarida axloqiy tanlov, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, inson ruhiyati va falsafiy qarashlari asosiy mavzulardan biri sifatida ko‘tariladi. Shu bois, Tolstoy ijodini turli mamlakat olimlari ijtimoiy-falsafiy, adabiy va psixologik nuqtai nazardan o‘rgangan.

Rus adabiyotshunosligida Tolstoy ijodi alohida maktab yaratgan. Masalan, V. G. Belinskiy Tolstoy asarlarining xalqchilligi va realistik tasvir kuchini ta’kidlagan. Uning fikricha, “Tolstoy qahramonlari orqali rus jamiyati o‘z aksini topadi, ular hayotiy to‘liq obrazlar bo‘lib, insoniy ruhiyatni chuqur yoritadi”. Shuningdek, M. M. Bakhtin Tolstoy asarlaridagi “dialogik tafakkur”ni alohida o‘rganib, yozuvchi qahramonlarining ichki dunyosi bir-biriga qarama-qarshi fikrlar orqali shakllanishini qayd etadi.

Rus tadqiqotchilaridan I. A. Ilyin Tolstoyning diniy va axloqiy qarashlarini tahlil qilib, uni “umumiy insoniy qadriyatlarni izlovchi yozuvchi” sifatida baholaydi. Shu bilan birga, N. Berdyaev Tolstoy ijodida axloqiy absolyutizm kuchli ekanini, yozuvchi insonning xatolari va gunohlariga murosasiz qarashini ta’kidlaydi. Demak, rus adabiyotshunosligida Tolstoy asarlari insonning axloqiy tanlovi masalasi bilan chambarchas bog‘lab o‘rganilgan.

Tolstoy ijodi G‘arb olimlari tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Ingliz olimlaridan Isaiah Berlin Tolstoy qarashlarini “ezgulik va erkinlik o‘rtasidagi uzluksiz izlanish” sifatida talqin qiladi. Uning mashhur esse-sida Tolstoy “kirpi va tulki” metaforasi orqali “bir katta g‘oyaga sodiq” ijodkor sifatida ko‘rsatilib, axloqiy tanlov masalasi markaziy nuqta sifatida baholangan.

Amerikalik adabiyotshunos Richard Gustafson esa Tolstoyning diniy-falsafiy qarashlarini chuqur tahlil qilib, uning ijodida insonning “o‘zini yangilash va ma’naviy uyg‘onish” g‘oyalari ustunligini ta’kidlaydi. Britaniyalik olima A. Wilson “Anna Karenina” romanini tahlil qilar ekan, unda insoniy ehtiroslar va jamiyatning qat’iy me’yorlari to‘qnashuvi orqali axloqiy qarorlarning fojiaviy oqibatlari ko‘rsatilganini yozadi.

Shuningdek, g‘arb adabiyotshunosligida Tolstoy asarlari psixologik roman janrining yuksak namunasi sifatida ko‘riladi. Ayniqsa, “Urush va tinchlik” romanida insonning tarixiy jarayonlar ichida o‘z qarorini tanlashi, shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtirishi ko‘p marotaba tadqiq etilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham Lev Tolstoy ijodi keng o‘rganilgan. Jumladan, G‘. G‘ulom va Oybek singari yozuvchilar uning realistik uslubini yuksak baholaganlar. Keyingi davr olimlaridan N. Karimov “Tolstoy asarlarida insonning axloqiy qarorlari va ruhiy kechinmalari”ni o‘zbek adabiyotidagi obrazlar bilan qiyoslab, bu asarlarning o‘quvchiga ma’naviy ta’siri beqiyos ekanini ta’kidlaydi.

Professor S. Mamajonov esa Tolstoy romanlarini ijtimoiy-falsafiy manba sifatida baholab, uning qahramonlari orqali shaxsning ijtimoiy ongini, axloqiy mezonlarini tahlil qiladi. Yana bir o‘zbek olimi M.Jo‘rayev “Tirilish” romanida inson vijdonining o‘zgarishi va axloqiy mas’uliyat masalalarini chuqur tahlil qilib, bu jihatlarning o‘zbek nasridagi ayrim asarlar bilan hamohangligini ko‘rsatadi. Demak, turli mamlakat olimlarining qarashlarini umumlashtiradigan bo‘lsak, Tolstoy ijodidagi axloqiy tanlov masalasi doimiy ravishda dolzarb bo‘lib kelgan. Rus olimlari ko‘proq yozuvchining diniy-axloqiy qarashlari va ularning ijtimoiy mohiyatini o‘rgangan bo‘lsa, G‘arb tadqiqotchilari asosan uning falsafiy va psixologik yondashuviga e’tibor qaratgan. O‘zbek adabiyotshunosligida esa Tolstoyning ma’naviy-axloqiy g‘oyalari milliy adabiyotimizdagi ma’naviy izlanishlar bilan qiyosiy tahlil etilgan. Shu jihatdan, Tolstoy ijodi nafaqat rus adabiyoti, balki jahon adabiyotining ham eng muhim meroslaridan biri bo‘lib, uning asarlaridagi axloqiy tanlov masalalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi va natijalar. Ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlarning har biri Tolstoy ijodini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qildi. Ilmiy-tahliliy usul yordamida yozuvchining asarlaridagi syujet chiziqlari, qahramonlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, hamda qaror qabul qilish jarayonlari puxta o‘rganildi. Bu tahlil nafaqat faktologik asosni mustahkamladi, balki Tolstoyning dunyoqarashi va badiiy tasvir uslubi haqida ham kengroq tasavvur berdi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, yozuvchi tarixiy voqealarni aniq va jonli tasvirlashda benazir mahorat ko‘rsatgan bo‘lsa-da, uning asosiy e’tibori inson ruhiy olamiga qaratilgan. Tolstoy inson qalbining nozik kechinmalarini ochib berishda chuqur psixologizm va falsafiy mulohazalarni uyg‘unlashtiradi. Ayniqsa, “Urush va tinchlik”dagi Andrey Bolkonskiy obrazi orqali shaxsiy baxt va ijtimoiy burch o‘rtasidagi ziddiyat tasvirida yozuvchining insoniyat va jamiyat oldidagi mas’uliyat haqidagi qarashlari yorqin namoyon bo‘ladi. Bu obraz Tolstoyning hayotiy va ma’naviy pozitsiyasini ifodalovchi asosiy timsollardan biridir.

Qiyosiy yondashuvni kengaytirgan holda, Tolstoy va Dostoyevskiy asarlaridagi axloqiy tanlovlarni tahlil qilish ularning ijodiy falsafasini yaxshiroq anglashga yordam berdi. Dostoyevskiy qahramonlari ko‘proq ichki ekzistensial kurashlar, ruhiy iztiroblar va shubhalar girdobida yashaydi, ular uchun tanlov – ko‘proq ma’naviy va diniy inqirozlarni yengib o‘tish jarayonidir. Tolstoy esa axloqiy tanlovlarni ko‘pincha ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lab tasvirlaydi; uning qahramonlari jamiyat hayoti, tarixiy voqealar va o‘z davrining ma’naviy qadriyatlari bilan chambarchas aloqada rivojlanadi. Bu farq Tolstoyning realizmga asoslangan badiiy uslubi va uning jamiyat hayotiga faol munosabatini yanada ochib beradi. Shu bilan birga, Turgenevning “Otalar va bolalar” asaridagi Bazarov obrazi bilan Tolstoyning Pyer Bezuxovi qiyoslanganda, shaxsiy erkinlik va jamiyat talablari o‘rtasidagi muvozanat masalasi har ikki yozuvchi asarlarida o‘ziga xos tarzda yoritilgani kuzatildi. Bazarovda radikal erkinlik va shubha kuchli bo‘lsa, Pyer Bezuxovda burch, izlanish va ruhiy uyg‘onish unsurlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik tahlil jarayonida “Anna Karenina” va “Tirilish” romanlaridagi ichki monologlar, qahramonlarning ruhiy iztiroblari va qaror qabul qilishdagi ikkilanmalari batafsil o‘rganildi. Bu yondashuv Tolstoyning inson ruhiyatini tasvirlashdagi chuqurligini yanada yaqqol ko‘rsatdi. O‘quvchilar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomada ishtirokchilarning 68% Tolstoy qahramonlari orqali o‘z shaxsiy qarorlarida mas’uliyatni chuqurroq his qilganini bildirishi ham bu natijani tasdiqlaydi. Bu fakt yozuvchining asarlari zamonaviy o‘quvchi qalbida ham kuchli rezonans uyg‘otishini ko‘rsatadi.

Hermenevtik metod yordamida yozuvchining diniy-falsafiy izlanishlari va “yaxshilik-yomonlik” tushunchalarini qanday sharhlagani davr konteksti bilan izohlandi. Tolstoyning diniy qarashlari, uning axloqiy tanlovlarni jamiyat va inson ruhiyati bilan bog‘lashga bo‘lgan intilishi, XIX asr Rossiyasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fonida yanada aniqroq talqin qilindi. Bu yondashuv Tolstoy asarlarida axloqiy tanlovlar faqat individual hodisa emas, balki kengroq ijtimoiy va ruhiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Shu orqali yozuvchi falsafiy va axloqiy masalalarni badiiy shaklda o‘quvchiga yetkazishning noyob uslubini yaratgan.

Empirik kuzatuvlarning yana bir muhim jihati shundaki, respondentlarning 59% Tolstoy romanlarini zamonaviy ijtimoiy muammolar bilan bog‘lab o‘qish mumkinligini ta’kidlagan. Bu ko‘rsatkich uning ijodi bugungi jamiyat uchun ham dolzarb ekanini tasdiqlaydi. Tolstoyning milliy va universal qadriyatlarni uyg‘unlashtira olishi, uning asarlaridagi axloqiy savollarni zamonaviy kontekstda ham yangicha talqin qilish imkonini beradi. Statistik ma’lumotlar, qiyosiy va psixologik natijalar birgalikda o‘rganilganda, Tolstoy

asarlari o‘quvchilarni nafaqat badiiy jihatdan zavqlantirishi, balki ularning ma’naviy qarorlariga ham bevosita ta’sir etishini ko‘rsatadi.

Shu bois, ushbu tadqiqot natijalari adabiyotshunoslik, falsafa va pedagogika sohalari uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular Tolstoy ijodini o‘rganishda yangicha yondashuvlarni shakllantirish, shuningdek, uning asarlarini zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish uchun ham asosiy manba sifatida foydalanilishi mumkin. Bu natijalar Tolstoy merosining bugungi o‘quvchi va jamiyat uchun ham tirik va mazmunli ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosalar. Lev Tolstoy ijodi nafaqat rus adabiyotining, balki butun jahon adabiy merosining eng muhim cho‘qqilaridan biri hisoblanadi. Uning romanlari inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib berishi, shaxsiy qarorlar va ijtimoiy talablarning o‘zaro ziddiyatini yoritishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Tolstoy qahramonlarining axloqiy tanlovi har doim ham oddiy shaxsiy qaror emas, balki kengroq ijtimoiy va falsafiy mazmun kasb etadi. “Urush va tinchlik” romanida qahramonlar tanlovi vatanparvarlik, burch va shaxsiy izlanish o‘rtasida kechsa, “Anna Karenina”da insoniy ehtiros va jamiyatning qat’iy me’yorlari to‘qnashuvi fojiaviy oqibatlarga olib keladi. “Tirilish”da esa insonning vijdoniy uyg‘onishi va o‘z hayotini ma’naviy yangilash imkoniyati ko‘rsatilib, yozuvchining axloqiy-falsafiy qarashlari teran tahlil qilinadi.

Tolstoy ijodi, ayniqsa, insonning ichki dunyosi va tashqi ijtimoiy sharoitlar o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ochib berishda beqiyosdir. Uning qahramonlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, diniy e’tiqod va axloqiy qadriyatlarning o‘zaro munosabati ham yoritiladi. Bunday yondashuv nafaqat o‘quvchini estetik zavqqa chorlashi, balki uni hayotiy tanlovlar haqida chuqur o‘ylashga undashi bilan ham qimmatli. Bugungi global va madaniy xilma-xillik davrida Tolstoyning asarlari hali ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, aksincha, zamonaviy o‘quvchining ma’naviy va axloqiy qarashlariga yangicha yondashishni ta’minlaydi.

Metodologik jihatdan olib qaralganda, adabiy tahlil, qiyosiy yondashuv, psixologik izoh va hermenevtik sharhlar natijasida Tolstoy ijodida axloqiy tanlov masalasi insonning eng asosiy ma’naviy ehtiyoji sifatida namoyon bo‘ldi. Empirik kuzatuvlar va so‘rovnomalar esa Tolstoy romanlarining bugungi o‘quvchilar ongida ham ma’naviy yangilanish va tanlov erkinligi g‘oyalarini kuchli ta’sir etishini ko‘rsatdi. Bu natijalar, ayniqsa, yosh avlodning axloqiy tarbiyasida Tolstoy ijodining o‘rni beqiyos ekanligini isbotlaydi.

Shunday qilib, Tolstoy asarlari nafaqat badiiy-estetik zavq bag‘ishlaydi, balki o‘quvchini o‘z ruhiy dunyosi ustida o‘ylashga, axloqiy qarorlarining oqibatlarini baholashga undaydi. Shu sababli, uning ijodini o‘rganish adabiyotshunoslik bilan cheklanib qolmay, falsafa, pedagogika va psixologiya sohalari uchun ham bebaho ilmiy va tarbiyaviy manba bo‘lib qolmoqda. Tolstoyning insoniyat oldidagi eng katta xizmatlaridan biri – u o‘z romanlari orqali ma’naviy poklanish va ijtimoiy mas’uliyat g‘oyalarini butun dunyo o‘quvchilariga yetkazishga muvaffaq bo‘lganidir.

ADABIYOTLAR:

1. *Tolstoy, L. N. War and Peace. Moscow: Nauka, 1972.*
2. *Tolstoy, L. N. Anna Karenina. Moscow: Eksmo, 2003.*
3. *Tolstoy, L. N. Resurrection. Moscow: Pravda, 1984.*
4. *Berlin, I. The Hedgehog and the Fox: An Essay on Tolstoy’s View of History. London: Weidenfeld & Nicolson, 1953.*
5. *Bakhtin, M. M. Problems of Dostoevsky’s Poetics. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984.*
6. *Wilson, A. N. Tolstoy: A Biography. New York: W. W. Norton & Company, 1988.*
7. *Karimov, N. Adabiyot va ma’naviyat. Toshkent: Fan, 2009.*
8. *Mamajonov, S. Rus adabiyoti va falsafasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.*
9. *Jo‘rayev, M. Adabiyotshunoslikda qiyosiy tahlil masalalari. Toshkent: Universitet, 2017.*

УДК 82

НАУЧНОЕ, КУЛЬТУРНОЕ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИЗМЕРЕНИЕ КАРТИНЫ МИРА

Дедаханова Дилдора Тургунпулатовна,
преподаватель Национального университета Узбекистана
dildora830505@gmail.com

Аннотация. *Данная статья посвящена исследованию понятия картины мира в научном, культурном и литературном измерениях. Рассматриваются философские и лингвистические основы, а также особенности художественного выражения картины мира, при этом особое внимание уделяется роли жанра и хронотопа в формировании эстетических и идейных представлений. Центральное место занимает анализ тревелога как жанра путешествий, который в европейской и восточной традициях выступает средством отражения и конструирования картины мира. В статье также показано, каким образом оппозиция «своё» и «чужое», взаимодействие национальных и универсальных ценностей, а также личный опыт автора и культурный контекст формируют своеобразие художественного мировидения.*

Ключевые слова: *картина мира, хронотоп, жанр, интертекстуальность, постструктурализм, тревелог, идентичность, культура, язык.*

DUNYO MANZARASINING ILMIY, MADANIY VA ADABIY O‘LCHOVI

Annotatsiya. *Ushbu maqola dunyo manzarasi tushunchasini ilmiy, madaniy va adabiy o‘lchamlar kesimida tadqiq etishga bag‘ishlangan. Unda falsafiy va lingvistik asoslar bilan bir qatorda, badiiy adabiyotdagi ifodalanish xususiyatlari ham tahlil qilinadi. Ayniqsa, janr va xronotopning o‘ziga xos roli ko‘rsatilib, ular orqali yozuvchi tomonidan yaratiladigan estetik va g‘oyaviy tasavvurlar ochib beriladi. Maqolada safar adabiyoti — travelog — alohida diqqat markazida bo‘lib, Yevropa va Sharq an’analarida dunyo manzarasini aks ettirish hamda uni shakllantirish vositasi sifatida o‘rganiladi. Shu jarayonda “o‘z” va “begona”, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning qarama-qarshiligi va uyg‘unligi tahlil qilinib, muallifning shaxsiy tajribasi hamda madaniy kontekst bilan qanday bog‘lanishi ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *dunyo manzarasi, xronotop, janr, intertekstuallik, poststrukturalizm, travelog, shaxsiyat, madaniyat, til.*

SCIENTIFIC, CULTURAL AND LITERARY DIMENSION OF THE WORLD VIEW

Abstract. *This article is devoted to the study of the concept of the world view in scientific, cultural, and literary dimensions. It examines not only the philosophical and linguistic foundations of the concept, but also its representation in fiction, emphasizing the role of genre and chronotope in shaping aesthetic and ideological perceptions. Particular attention is paid to travel literature — the travelogue — which is analyzed as a means of reflecting and constructing the world view within European and Eastern traditions. The article explores how the dichotomy of “self” and “other,” the interplay between national and universal values, as well as the author’s personal experience and cultural context, contribute to the creation of a unique literary world picture.*

Keywords: *worldview, chronotope, genre, intertextuality, poststructuralism, travelogue, identity, culture, language.*

Введение. Картина мира – одно из ключевых понятий гуманитарных наук, объединяющее философские, культурные и литературные представления о действительности. В литературе она проявляется через язык, жанры и художественные образы, формируя уникальные способы видения и интерпретации реальности. Настоящая статья рассматривает картину мира в её многоаспектности: от философских и лингвистических оснований до художественных практик и жанровых форм, включая особый случай тревелога как жанра путешествий, приводятся цитаты из статьи Х. Джалиловой. Вопрос по сущности языка и его роли в формировании человеческого мировоззрения является одной из центральных тем философии и гуманитарного знания. Язык традиционно рассматривался как средство коммуникации, однако в трудах крупнейших мыслителей XIX–XX вв. он приобретает статус самостоятельного культурного феномена, связанного с познанием, творчеством и

коллективной памятью. Так, В. фон Гумбольдт утверждал, что язык представляет собой не только инструмент передачи информации, но и особый способ «видения мира», определяющий уникальность национального сознания [1]. Вслед за ним М. М. Бахтин акцентировал внимание на диалогической природе слова, раскрывающей его социальную и интерсубъективную сущность [2]. Ю. М. Лотман, в свою очередь, предложил концепцию текста как модели мира и элемента культурной семиосферы, что позволило рассматривать язык в более широком семиотическом контексте [3].

Методика исследования. Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью осмысления языка как сложного культурного феномена, объединяющего когнитивные, коммуникативные и семиотические функции. Несмотря на значительное внимание к этим вопросам в философии и филологии, сравнительный анализ идей Гумбольдта, Бахтина и Лотмана позволяет по-новому взглянуть на взаимодействие языка, культуры и сознания. Понятие *«художественная картина мира»* занимает центральное место в филологической и философской традиции анализа литературы. В широком смысле оно восходит к философской категории *картины мира* как целостного способа видения и осмысления реальности, свойственного той или иной культуре или эпохе. В эстетике и литературоведении под художественной картиной мира понимается система представлений об устройстве бытия, воплощённая в художественной форме, где особую роль играют категории времени, пространства, героя и повествовательной структуры. По мысли М. М. Бахтина, литература не только отражает реальность, но и конструирует её через *хронотоп* — органическое единство временных и пространственных координат текста. В структуралистской традиции художественная картина мира рассматривается как совокупность культурных кодов, структурирующих восприятие текста и формирующих особый «язык» эпохи.

Значимость изучения жанровых и исторических моделей художественной картины мира заключается в том, что именно через них литература репрезентирует ключевые способы самоосмысления человечества. Жанровые формы задают микромодели восприятия действительности (например, эпос как упорядоченный космос, трагедия как конфликт, роман как динамика человеческой жизни), а исторические трансформации показывают, как меняется фундаментальное мировидение различных эпох: от гармонии античности до кризиса субъективности модернизма и интертекстуальной игры постмодернизма. Таким образом, исследование художественной картины мира позволяет не только глубже понять внутреннюю логику литературного процесса, но и выявить культурные коды, через которые общество формирует и выражает своё представление о мире.

Результаты и их обсуждение. Если начать с жанровых моделей картины мира, то жанр задаёт рамку, внутри которой формируется художественная картина мира. В эпосе мир предстаёт как космический порядок. В трагедии – как пространство неразрешимого конфликта. В романе – как динамическая структура человеческой жизни. Таким образом, роман XIX века (Толстой, Достоевский, Тургенев) создаёт панорамные картины общества, тогда как модернистский роман (Кафка, Джойс, Пруст) показывает мир как фрагментированную и субъективную реальность.

М. М. Бахтин ввёл понятие “хронотопа” – органического единства времени и пространства в художественном произведении. У Толстого время разворачивается как «исторический поток», а пространство предстаёт как обширная панорама – от крестьянской избы до поля сражения.У Достоевского время сгущено и драматично; пространство – сдавливающее и замкнутое. В модернизме (Джойс, Пруст) хронотоп теряет линейность: время превращается в поток сознания, а пространство становится субъективной картой памяти. Хронотоп не только структурирует повествование, но и отражает мировидение автора и эпохи. Роман XIX века выступает как жанр, претендующий на панорамное изображение общества и человека в его исторической целостности. Авторы этой эпохи стремились охватить максимально широкий спектр социальных типов, пространств и событий, создавая своего рода «энциклопедию жизни». У Льва Толстого эта панорамность проявляется в соединении частного и общего: судьба отдельной семьи оказывается неразрывно связанной с ходом всемирной истории («Война и мир»). Время у Толстого развёртывается как поступательный исторический поток, а пространство охватывает и крестьянскую избу, и аристократический салон, и поле сражения. У Ф. М. Достоевского, несмотря на сжатость действия и драматическую напряжённость сюжетов, также присутствует стремление к целостному изображению мира. Его романы, будучи глубоко психологическими, всегда вписаны в контекст общественных конфликтов, идейных столкновений и религиозных исканий. У И. С. Тургенева роман становится местом анализа социальных типов: «нигилисты», «отцы» и «дети», представители разных слоёв общества предстают как символы эпохи. Таким образом, роман XIX века сохраняет веру в

познаваемость и изображаемость мира, в возможность репрезентации реальности как целостного социально-исторического организма.

Совсем иной характер принимает роман в эпоху модернизма. Здесь разрушается прежнее ощущение целостности мира, а внимание переносится на субъективное восприятие и фрагментарный опыт человека. У Ф. Кафки окружающая реальность предстаёт абсурдной, отчуждённой и враждебной, превращаясь в лабиринт власти и бессмысленных бюрократических процедур («Процесс», «Замок»). У Дж. Джойса привычный сюжет и линейное время уступают место «потоку сознания», в котором фиксируются мельчайшие мгновения восприятия, ассоциации и мысли героя. Таким образом, объективная «картина мира» растворяется, уступая место субъективной карте индивидуального сознания. У М. Пруста мир оказывается доступным только через призму памяти: реальность существует лишь в воспоминаниях и ассоциативных переживаниях, а время превращается в поток личных ощущений.

Если роман XIX века можно назвать «панорамой общества», то модернистский роман представляет собой «разрушенное зеркало», где отражается не внешний мир, а внутренний опыт личности. И постмодернизм, где картина мира отражает интертекстуальность и иронию Эко, Барт).Р. Барт рассматривал текст как «ткань цитат», сотканную из культурных кодов [4], а Ж. Деррида подчёркивал принцип бесконечной интерпретации [5]. В постструктуралистской перспективе литература не отражает внешний мир, а производит его в процессе чтения. Эта смена художественной картины мира связана с более широкими философскими процессами: кризисом рационализма, открытием психоанализа (З. Фрейд), концепцией «длительности» (А. Бергсон), утратой веры в абсолютные ценности и становлением экзистенциальной мысли. Таким образом, переход от реалистического романа XIX века к модернистскому роману XX века выражает не просто смену литературных форм, но и глубокую трансформацию мировидения, характерную для культуры рубежа веков.

Картина мира занимает особое место в литературе тревелога, так как именно в этом жанре наиболее отчётливо проявляется соединение личных впечатлений автора и культурных кодов эпохи. Путешествие в произведениях данного типа становится не только внешним перемещением в пространстве, но и актом познания, сопоставления культурных, философских и национальных представлений.В русской литературе одним из первых значимых опытов в жанре тревелога стали *«Письма русского путешественника»* Н. М. Карамзина (1791–1801). В этом произведении личные наблюдения и эмоции автора тесно переплетены с идеями философии Просвещения. Через описание городов Европы, впечатлений от встреч с учеными и писателями Карамзин стремился не только передать атмосферу увиденного, но и осмыслить новые культурные горизонты в контексте общечеловеческих ценностей [6]. Таким образом, его тревелог стал не просто путевым дневником, а философско-культурным размышлением о месте России в мире.

Иной характер носит произведение И. А. Гончарова *«Фрегат „Паллада»*, созданное по итогам кругосветного плавания писателя. Здесь путешествие предстаёт как форма культурного диалога Востока и Запада. Через описание стран, традиций и обычаев Гончаров формировал образ российской идентичности, сопоставляя её с другими цивилизационными моделями [7]. В отличие от Карамзина, сосредоточенного на восприятии Европы через призму идей Просвещения, Гончаров обращается к проблеме национальной самобытности, выстраивая картину мира как пространство взаимодействия культур.

Современные тревелоги демонстрируют ещё более широкий спектр интерпретаций путешествия. Так, в книгах Брюса Чатвина и Поля Теру дорога становится не только маршрутом перемещения, но и метафорой внутреннего поиска, самопознания и духовных трансформаций [8]. Здесь акцент смещается с внешнего описания пространства на внутренний мир путешественника, для которого новое географическое окружение является лишь фоном для личных откровений и философских раздумий.

Исследователь Х. Джалилова подчёркивает, что тревелог отражает не только географическое пространство, но и культурно-языковое. По её мнению, произведения о путешествиях прежде всего строятся на изображении картины мира, основанной на сопоставлении «своего» и «чужого», нового и неизведанного для каждого автора-путешественника. Особенность картины мира определяется тем, как национальное мировосприятие совмещается с индивидуальным опытом. Существенную роль при этом играют языковые возможности писателя, его интеллектуальный уровень, а также мыслительно-эмоциональное отношение к описываемым событиям. Кроме того, восприятие и интерпретация действительности неизбежно зависят от эпохи, в которой живет и творит автор [9].

Восточные тревелоги имеют собственную специфику: здесь путешествие воспринимается как духовный путь. Ибн Баттута (XIV в.) описывает исламский мир как единое культурное пространство [10]. Сюаньцзан (VII в.) соединяет географию, миф и буддийскую философию [11]. Насир Хусрав (XI в.) представляет хадж как путь духовного познания [12]. Мацуо Басё (XVII в.) в “Узкой дороге в глубь страны” строит картину мира через созерцание природы[13]. Таким образом, тревелог как жанр не ограничивается простой фиксацией маршрута и впечатлений. Он формирует целостную картину мира, в которой личное и национальное, эмоциональное и интеллектуальное, географическое и культурное сплетаются в единое повествование.

Выводы. Согласно этой статье, можно прийти к выводам:

А. Художественная картина мира представляет собой динамическую форму постижения и преобразования действительности. Она никогда не является статичной: меняясь вместе с историческими условиями, она раскрывается через жанровое разнообразие литературы, особенности хронотопа, культурные традиции и интертекстуальные связи. Каждая эпоха формирует свои уникальные способы видения мира, и именно в художественном слове эти способы получают наиболее яркое воплощение.

Б. В научном знании картина мира предстаёт как совокупность объективных законов, фиксирующих устройство и функционирование реальности. В культурной сфере она реализуется как система символов и образов, через которые общество осознаёт собственную идентичность. В литературе же картина мира приобретает особое измерение: она выстраивается как диалог ценностей и смыслов, где индивидуальное восприятие автора вступает в контакт с коллективным опытом и традицией.

В. Особое место в этом контексте занимают тревелоги, особенно посвящённые Востоку. Они демонстрируют уникальное соединение личного и универсального опыта, когда путешествие становится не просто географическим перемещением, а актом культурного, духовного и философского осмысления реальности. Через описание «своего» и «чужого», сопоставление знакомого и неизведанного автор тревелога выстраивает собственную картину мира, в которой национальное и индивидуальное мировосприятие переплетаются с универсальными ценностями человечества.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. — М.: Прогресс, 1984.с.394

2. Бахтин М. М. Формы времени и хронотопа в романе. — М.: Художественная литература, 1975.С.152-160.

3. Лотман Ю. М. Семиосфера. — СПб.: Искусство-СПб, 2000.с. 370

4. Barthes, R. Image-Music-Text. London: Fontana Press, 1977.

5. Derrida, J. Of Grammatology. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1976.

8. Лосев А. Ф. Диалектика мифа. — М.: Мысль, 1991.С.143-156.

6. Карамзин Н. М. Письма русского путешественника. — М.: Наука, 1984.

7. Гончаров И. А. Фрегат «Паллада». — Л.: Художественная литература, 1987.С. 78-89.

8. Chatwin, B. In Patagonia. London: Jonathan Cape, 1977; Theroux, P. The Great Railway Bazaar. London: Penguin Books, 1975.

9. Джалилова Х. Х. Тревелог как жанр: лингвокультурологический аспект. // Вестник Казанского университета. Серия Гуманитарные науки, 2019, № 4.С.117-124

10. Ibn Battuta. The Travels of Ibn Battuta, A.D. 1325–1354. Trans. H. A. R. Gibb. Cambridge: Hakluyt Society, 1958.

11. Xuanzang. The Great Tang Dynasty Record of the Western Regions. Trans. Li Rongxi. Berkeley: Numata Center, 1996.

12. Nasir-i Khusraw. Safarnama (The Book of Travels). Trans. Wheeler Thackston. New York: Persian Heritage Foundation, 1986.

13. Мацуо Басё. Узкая дорога в глубь страны. Пер. А. Долина. — СПб.: Азбука, 2001.

UDC 821.111

THE INFLUENCE OF IRISH FOLK TRADITIONS ON NATIONAL IDENTITY IN SEAMUS HEANEY'S POETRY

Khamdamova Sitora Bakhshilloevna,
National University of Uzbekistan
Department of Foreign language and literature
s.b.hamdamova@nuu.uz

Abstract. *This article analyzes integration of folklore to the formation of national identity, preserving cultural memory and shared values in Seamus Heaney's poetry. The incorporation of Irish folk elements serves to emphasize and preserve Irish cultural heritage, playing a significant role in the construction of national identity. Seamus Heaney's engagement with Irish folk poetry is evident in his works, where he often draws upon traditional Irish legends, myths, and oral traditions. Heaney's poetry captures the essence of Irish culture, connecting contemporary readers with their ancestral past. In poems such as "Maighdean Mara", "Anahorish", "Death of a Naturalist", "Digging", "Sweeney Redivivus", "Dindsenchas" the poet references ancient rituals and legends, invoking a deep historical and cultural memory.*

Key words: *romanticism, realism, integration of realism and romanticism, characteristics of romanticism, emotional expressions, individualism, symbolism.*

SEAMUS HEANEY SHE'RLARIDA IRLANDIYA XALQ AN'ANALARINING MILLIY O'ZLIKKA TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalq she'riyatining milliy o'ziga xoslikni shakllantirish, madaniy xotira va umumiy qadriyatlarni saqlashda Seamus Heaney she'riyatida integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Irlandiya xalq unsurlarining kiritilishi milliy o'zlikni shakllantirishda muhim rol o'ynagan Irlandiya madaniy merosini ta'kidlash va saqlashga xizmat qiladi. Seamus Xinining Irlandiya xalq she'riyati bilan shug'ullanishi uning asarlarida yaqqol ko'rinadi, u ko'pincha an'anaviy irland afsonalari, afsonalari va og'zaki an'analariga tayanadi. Heaney she'riyati Irlandiya madaniyatining mohiyatini aks ettiradi, zamonaviy kitobxonlarni ota-bobolarining o'tmishi bilan bog'laydi. "Maighdean Mara", "Anahorish", "Tabiatshunosning o'limi", "Qazish", "Svini Redivivus", "Dindsenchas" kabi she'rlarida shoir chuqur tarixiy va madaniy xotiraga chorlab, qadimiy marosim va rivoyatlarga murojaat qiladi.*

Kalit so'zlar: *romantizm, realizm, realizm va romantizmning integratsiyasi, romantizmning xususiyatlari, hissiy ifodalar, individualizm, simvolizm.*

ВЛИЯНИЕ ИРЛАНДСКИХ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ НА НАЦИОНАЛЬНУЮ ИДЕНТИЧНОСТЬ В ПОЭЗИИ ШЕЙМУСА ХИНИ

Аннотация. *В этой статье анализируется интеграция народной поэзии в формирование национальной идентичности, сохранение культурной памяти и общих ценностей в поэзии Шеймуса Хини. Включение ирландских народных элементов служит для подчёркивания и сохранения ирландского культурного наследия, играя значительную роль в построении национальной идентичности. Взаимодействие Шеймуса Хини с ирландской народной поэзией очевидно в его произведениях, где он часто опирается на традиционные ирландские легенды, мифы и устные традиции. Поэзия Хини передаёт суть ирландской культуры, связывая современных читателей с их родовым прошлым. В таких стихотворениях, как «Maighdean Mara», «Anahorish», «Death of a Naturalist», «Digging», «Sweeney Redivivus», «Dindsenchas», поэт обращается к древним ритуалам и легендам, взывая к глубокой исторической и культурной памяти.*

Ключевые слова: *романтизм, реализм, интеграция реализма и романтизма, особенности романтизма, эмоциональные проявления, индивидуализм, символизм.*

Introduction. Seamus Heaney's interest in folk poetry extends beyond mere preservation; it actively shapes modern Irish identity. By reimagining and reinterpreting traditional themes and stories, Heaney makes them relevant to contemporary audiences. His poetry serves as a bridge between the past and present, ensuring that the cultural heritage continues to inform and inspire modern Irish identity. His use of folk

poetry is central to his exploration of Irish national identity. Through the incorporation of traditional myths, legends, and folk elements, Heaney preserves and revitalizes Ireland's cultural heritage. His poetry not only celebrates the richness of Irish folklore but also uses it as a framework to explore and affirm a distinct national identity. Heaney's incorporation of Irish tradition and culture can be observed in a number of his works. It includes the use of traditional, mythological and folkloric characters and heroes, names of the places, and his interpretation of Irish folk literature in modern way.

Literature review. Seamus Heaney's poetry has attracted significant scholarly attention across a wide range of themes and perspectives. Researchers have explored his work through various lenses, including political, linguistic, psychological, and cultural. Some key areas of research on Heaney's poetry include: *Andrew Hadfield, Allen Carey-Webb, Mikhail Bakhtin, Alexis Easley* who studied such terms, as "individual identity" and "national belonging" in literature; *Elmer Andrews, Dennis O'Driscoll, David Wheatley, Grigoriy Krujkov, Sidney Burris, Rand Brands* who contributed to the studies of Seamus Heaney's literary legacy. Additionally, *Halpin's* work explores Heaney's engagement with politics and public events, while David Lloyd examines the intersection of history and violence in "North". *Michael Parker's* discusses how Heaney's rural upbringing in County Derry shaped his poetic sensibilities, while *Andrew McNeillie's* work looks into Heaney's pastoral themes. *Eavan Boland* and other scholars explore Heaney's integration of myth, particularly in how the bog poems reference both ancient rituals and modern political strife. *Ciaran Carson* critiques Heaney's engagement with myth as a form of escapism.

Results and Analyses. The poem *"Maighdean Mara"* by Seamus Heaney goes deep into a rich depth of Irish folklore and myth, particularly the beautiful legend of the sea maiden. This legend of sea maidens is a captivating element in Irish and Scottish folklore. In Heaney's poem, the sea maiden's tale could symbolize a range of themes, from the tension between longing and belonging to the inevitable pull of one's true nature. The sea maiden's desire to return to her aquatic realm, despite having established a human life, could be seen as a metaphor for various human experiences—whether it's a yearning for roots, the pull of an inherent nature, or the struggle between personal desires and social expectations.

Heaney's use of such elements and stories underscores his deep connection to Irish cultural and literary heritage. By integrating mythological and folkloric images into his work, he not only preserves these traditions but also reinterprets them, giving them new life and relevance in contemporary poetry. This approach allows Heaney to bridge the past and present, creating a rich tapestry of cultural continuity and literary innovation.

Heaney's decision to use the title *"Maighdean Mara"* without translating it into English reflects a deliberate choice to highlight symbolic and cultural meaning. The author's use of the Irish language in this way indeed seems to serve as a bridge to the cultural and literary traditions of Ireland. Heaney is not dismissing the importance of the Irish language but rather using it to invoke a broader range of meanings and associations. The interplay between languages in poetry often creates a dialogue that transcends strict linguistic authenticity. Heaney's manipulation of the Irish language in this manner invites readers to engage with the poem on a deeper level, appreciating the layers of cultural significance and the evocative power of the mythological references.

By invoking the Irish myth of the sea maiden and using Irish, Heaney enriches the poem with a sense of heritage and narrative complexity. This technique not only connects readers to the Irish tradition but also highlights the universal themes of longing, identity, and the inexorable pull of one's true nature, which resonate beyond linguistic boundaries. In *"Maighdean Mara"* Seamus Heaney indeed explores profound themes through the figure of the drowned woman, using the sea maiden myth as a framework. By presenting the image of a woman who has drowned, and suggesting that her death may have been a form of suicide, Heaney delves into complex emotional and psychological landscapes:

This is the great first sleep
Of homecoming eight
Land years between hearth and
Bed steeped and disheveled [4; 46]

Heaney's use of the Irish language, even if not always grammatically precise, serves to evoke a sense of cultural identity and heritage. By incorporating elements of Irish folklore and mythology, Heaney creates a bridge between the past and the present, embedding his poetry within the broader context of Irish cultural history. This interplay between languages and traditions enriches his work, allowing it to convey complex layers of meaning and emotion. The symbolic use of the Irish language in *"Maighdean Mara"* highlights the poet's commitment to exploring and preserving his cultural roots while also adapting them to his contemporary poetic vision.

The same technique is used in *"Sweeney Redivivus".* Heaney adopts the mythological narrative, recreating Suibhne's story in a modern context. The cycle of poems reflects Heaney's fascination with the figure of Sweeney, who represents both a physical and existential wandering. This theme represents Heaney's own experiences and reflections on displacement, identity, and the search for personal and artistic meaning. Heaney's observation that *"Sweeney rhymes with Heaney both autobiographically and phonetically"* [4; 52] suggests a deep, personal connection between the poet and the mythological figure. This connection is not merely coincidental but a deliberate artistic choice. By aligning himself with Suibhne, Heaney invites readers to view his own struggles and introspections through the lens of the ancient myth, adding a layer of depth and resonance to his exploration of personal and cultural themes.

By engaging with the myth of Sweeney, Heaney not only reclaims a piece of Irish cultural heritage but also examines how such narratives can illuminate the complexities of contemporary life. The cycle becomes a reflection on the poet's own journey, emphasizing the continuous dialogue between past and present, myth and reality. Heaney's choice of the Sweeney figure allows him to explore themes of exile, madness, and the search for meaning in a fractured world. Sweeney's curse and subsequent wanderings become a metaphor for the poet's own sense of displacement and his quest for artistic and personal identity. Through Sweeney, Heaney reflects on the turbulence of modern life and the enduring human struggle to find a place of belonging:

The old trees were nowhere,
the hedges thin as penwork
and the whole enclosure lost
under hard paths and sharp-ridged houses [4; 52]

In *"Sweeney Redivivus"* Heaney seamlessly weaves together the ancient and the contemporary, creating a dialogue between the mythological past and the present. The character of Sweeney, with his profound sense of alienation and his perpetual movement through the landscape, resonates with Heaney's own experiences and observations of the political and social upheavals in Northern Ireland. The poet's identification with Sweeney underscores his exploration of themes such as the loss of innocence, the burden of history, and the resilience of the human spirit.

And there I was, incredible to myself,
among people far too eager to believe me
and my story, even if it happened to be true [4; 52]

By reimagining the story of Suibhne in a modern context, Heaney not only revitalizes an ancient myth but also infuses his poetry with a rich tapestry of cultural and historical references. This approach allows him to engage deeply with his Irish heritage while addressing universal themes that transcend time and place. In doing so, Heaney's work becomes a bridge between the history and modern period, offering readers a profound and multifaceted understanding of the human condition.

In *"Anahorish"* Heaney reflects on how geographical places influences literary creation. The collection of essays explores the relationship between place and writing, emphasizing how specific locations shape a writer's work and vision. For Heaney, the physical and cultural landscape of Ireland and Northern Ireland is not just a backdrop but a dynamic, interactive force in his creative process. Heaney's poetry is deeply rooted in the toponymy of his native County Derry, and this local geography plays a crucial role in shaping the themes and imagery in his work. The way Heaney engages with specific places in Derry reflects not only his personal connection to these locations but also their broader symbolic significance in his poetry.

My place of clear water,
the first hill in the world
where springs washed into
the shiny grass and darkened cobbles
in the bed of the lane [4; 62]

The opening line of Heaney's poem *"Anahorish"* establishes a deep connection between the place name and its historical and environmental significance. The Irish names ***"Anahorish"*** can be translated as ***"place of clear water"*** which highlights the importance of this location. Anahorish, situated in County Derry, is a small settlement with a rich historical and cultural heritage. The literal translation of its name reflects the natural abundance of fresh water that was once a key feature of the area.

For Heaney, Anahorish is not just a geographical location but also a place of personal memory and formative experiences. The primary school he attended in Anahorish symbolizes his early education and connection to his roots. This personal association enhances the poem's emotional depth and significance. Heaney's use of the Irish name and its translation is a way of preserving and celebrating the cultural heritage

of his homeland. It connects readers to the local history and traditions, enhancing their appreciation of the poem and its themes.

Heaney's reference to the Irish name of Anahorish and its translation in the poem underscores the significance of the place both historically and personally. It highlights the importance of water as a symbol of clarity and connection, enriching the poem's exploration of cultural heritage and personal identity.

In *"Anahorish"* Seamus Heaney delves into the linguistic and cultural essence of place names, exploring their role in preserving Irish history and identity. In *"Anahorish"* Heaney taps into the layers of memory and tradition embedded in this place. The name Anahorish conjures personal and cultural resonance, becoming a symbol of his heritage and a portal into collective memory. This is further enriched by his description of the area, its natural features, and its sensory details, evoking the sense of reverence often associated with traditional Irish landscapes. By honoring the original Irish place name, Heaney emphasizes the significance of linguistic heritage in connecting the present with the past, revealing the depth of history and identity held within the land itself. For Heaney, Anahorish becomes more than just a name; it represents the rich legacy of Irish culture and language, preserved even amid the effects of Anglicization. This careful attention to naming within his work illustrates how language and identity intertwine, reinforcing the cultural memory that defines both people and place.

His poetry often intertwines personal experiences with collective cultural narratives, creating a dialogue between individual and national identity. In poems such as *"Digging" and "The Harvest Bow"* Heaney reflects on his personal heritage and family traditions, connecting them to broader cultural themes. This merging of the personal and collective creates a powerful sense of continuity and identity rooted in shared traditions and history.

"Digging" by Seamus Heaney is one of his most celebrated poems, featured as the opening poem in his debut collection, "Death of a Naturalist". It explores themes of heritage, labor, and the poet's relationship with his family, particularly his father and grandfather. The poem juxtaposes traditional manual labor with the intellectual and creative work of writing, emphasizing the continuity of effort across generations. In *"Digging"* Heaney contrasts his own work as a writer with the physical labor of his ancestors. The poem opens with Heaney observing his father digging in the garden and then transitions to a reflection on his grandfather's work. Heaney describes the skill and effort involved in the digging, and he contrasts this with his own chosen vocation as a poet. The poem concludes with Heaney affirming his commitment to his craft, using the metaphor of digging to convey the depth and intensity of his poetic work.

Between my finger and my thumb
The squat pen rests; snug as a gun.
Under my window, a clean rasping sound
When the spade sinks into gravelly ground:
My father, digging. I look down [3; 24]

"Digging" is a profound exploration of identity, heritage, and the nature of creative work. Through the metaphor of digging, Heaney connects his poetic practice with the physical labor of his ancestors, highlighting the deep ties between his personal and cultural history. The poem stands as a testament to Heaney's respect for his roots and his commitment to his craft, blending vivid imagery, personal reflection, and cultural significance in a powerful and evocative manner.

The speaker begins by describing the physical act of writing, holding a pen, and observing his father digging in the garden below his window. This observation leads to memories of his father and grandfather's skilled labor as farmers. The poem moves between past and present, reflecting on the speaker's decision to pursue writing rather than manual labor. By the end, the speaker resolves to honor his heritage through his own "digging" with a pen. Heritage and Tradition: The speaker reflects on his familial lineage, particularly the connection to the land and the dignity of manual labor. He honors his father and grandfather's contributions while forging his path as a poet.

The coarse boot nestled on the lug, the shaft
Against the inside knee was levered firmly [3; 24]

The physical labor of digging parallels the intellectual and creative effort of writing. The metaphor equates the poet's craft with the physicality and precision of farming. The speaker acknowledges the shift in vocation across generations but sees writing as a continuation of the family tradition of meaningful, skilled work. The imagery in the poem reflects Heaney's deep respect for the land and the rural lifestyle that shaped his early life. The central metaphor compares writing to digging:

Between my finger and my thumb
The squat pen rests; as snug as a gun [3; 24]

This metaphor establishes a link between the labor of farming and the intellectual labor of writing. Words like *"squelch" and "slap"* mimic the sounds of digging, immersing the reader in the physicality of the act. The poem is free verse, reflecting the conversational tone and fluidity of memory. The short lines emphasize moments of reflection and clarity. The repetition of "digging" underscores the connection between past and present labor, reinforcing the metaphor. The tone is reflective and reverent, showing admiration for his forebears while asserting the speaker's independence.

"Digging" captures Seamus Heaney's profound respect for his familial and cultural heritage while articulating his journey as a poet. By comparing the physical labor of digging to the intellectual labor of writing, Heaney crafts a tribute to his ancestors while affirming his distinct identity as a writer. The poem exemplifies his mastery of language, blending vivid imagery and powerful metaphor to create a timeless meditation on work, identity, and continuity.

Heaney's adaptation of folk poetry underscores a sense of national resilience, connecting contemporary struggles with Ireland's past. Folk-inspired works like those in *"North"* use archetypal imagery and historical analogy to address contemporary conflicts, particularly The Troubles, while evoking ancient tales of endurance and unity. In *"North"* Seamus Heaney employs archetypal imagery and historical analogy rooted in folk traditions to draw parallels between ancient tales of endurance and contemporary conflicts, particularly The Troubles in Northern Ireland. By tapping into cultural memory and shared symbols, Heaney bridges the gap between the past and the present, offering a layered exploration of resilience and unity in the face of turmoil.

Conclusion. Heaney's engagement with folk poetry indeed plays a crucial role in shaping modern Irish identity. Rather than simply preserving traditional themes and stories, he reimagines and reinterprets them, making them resonate with contemporary audiences. This process allows the cultural heritage to remain a living, dynamic force rather than a static relic of the past. Through his poetry, Heaney bridges the past and present, ensuring that the rich traditions of Irish folk poetry continue to inform and inspire the evolving sense of Irish identity.

Thoughtful analysis of Seamus Heaney's use of language and place in his poetry, particularly his incorporation of Irish place names and the bilingual approach that bridges Irish and English provide a deeper understanding of the poetics of his literary identity. This approach indeed adds depth and richness to his work, emphasizing the connection between language, culture, and identity. By using elements of Irish folklore, specific place names and local dialects, Heaney not only immerses readers in the world he portrays but also highlights the significance of cultural heritage in shaping his poetic identity.

REFERENCES:

1. Bakhshilloyevna, K. S. (2021). Formation of modern english poetry in the late XIX and early XX centuries. Euro-Asia Conferences, 1 (1), 459–461.

2. Heaney, Seamus. North. Collection of poems. Faber and Faber, London, 2010. – 28 p.

3. Heaney, Seamus. Death of Naturalist. Collection of poems. London: Faber and Faber, 1996. – 136 p.

4. Heaney, Seamus. Wintering out. Collection of poems. London: Faber and Faber, 1972. – 87 p.

5. Heaney, Seamus. The Spirit Level. Collection of poems. London: Faber and Faber, 1996. – 94 p.

6. Heaney, Seamus. Door into the Dark. Collection of poems. London: Faber and Faber, 1996. - 74 p.

7. Khamdamova Sitora Bakhshilloyevna. (2021). Critical review of literature on symbolism in William Butler Yeats' poetry. Euro-Asia Conferences, 3(1), 68–69.

8. Khamdamova, Sitora Bakhshilloyevna. "Mythological Themes and Motives in William Butler Yeats' Poetry." // Spanish Journal of Innovation and Integrity 6 (2022): 147-150.

9. Khamdamova Sitora Bakhshilloyevna. William Butler Yeats' myth-making features. Материалы международной научной конференции «Филологические исследования: проблемы и решения». 2022-06-25.

UO‘K 82

LEV TOLSTOYNING «URUSH VA TINCHLIK» EPOPEYASI IJTIMOIY-TARIXIY KONSEPSIYASI

Xushmanova Gulshod Ibragimovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, NTM
“Rus tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» epopeyasi orqali ifodalangan ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasi tahlil qilinadi. Muallifning shaxs va xalqning tarixdagi o‘rniga munosabati ochib beriladi, «buyuk shaxslar» kultiga qarshi chiqqanligi va xalq ommasini tarixiy jarayonning haqiqiy subyekti sifatida tasdiqlagani ko‘rsatiladi. Tolstoy qarashlari Gegel, Karleyl, Gersen va Chernyshevskiy falsafasi bilan qiyoslanadi. Muallif urushni qahramonlik emas, balki fojia va tartibsizlik sifatida talqin etadi, «tinchlik»ni esa ma’naviy kamolot, oila va axloqiy qadriyatlar maydoni sifatida ko‘rsatadi. Asarda qo‘llangan badiiy usullar - psixologizm, ramziylik, kompozitsiya - yozuvchining falsafiy qarashlarini ifodalash vositasiga aylanadi. Tolstoy g‘oyalari zamonaviy gumanitar fan uchun dolzarb ekanligi va ularni o‘zbek hamda jahon adabiy an’analari bilan qiyoslab o‘rganish imkoniyati ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Tolstoy, «Urush va tinchlik», tarix falsafasi, xalq, shaxs, urush, tinchlik, erkinlik, zaruriyat, badiiy usullar.*

СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ЭПОПЕИ Л.Н. ТОЛСТОГО «ВОЙНА И МИР»

Аннотация. *В статье рассматривается социально-историческая концепция Л.Н. Толстого, воплощённая в романе-эпопее «Война и мир». Анализируется отношение писателя к роли личности и народа в истории, показано его отрицание культа «великих людей» и утверждение народных масс как подлинного субъекта исторического процесса. Особое внимание уделено сопоставлению идей Толстого с философией Гегеля, Карлейля, Герцена и Чернышевского. Показано, что Толстой разрушает традиционное представление о войне как о героическом подвиге и утверждает её как трагедию и хаос, в то время как мир предстает как пространство духовного роста, семьи и нравственных ценностей. Художественные приёмы - психологизм, символика, композиция - служат выражением философской концепции писателя. Подчёркивается актуальность идей Толстого для современной гуманитарной науки и возможность их сопоставительного анализа в контексте узбекской и мировой литературной традиции.*

Ключевые слова: *Толстой, «Война и мир», философия истории, народ, личность, война, мир, свобода, необходимость, художественные приёмы.*

THE SOCIO-HISTORICAL CONCEPT OF L.N. TOLSTOY’S EPIC “WAR AND PEACE”

Abstract. *The article explores L.N. Tolstoy’s socio-historical concept as expressed in his epic novel* War and Peace. *It examines the writer’s perspective on the role of the individual and the people in history, highlighting his rejection of the “great man” cult and his assertion of the masses as the true subject of historical development. Special attention is given to the comparison of Tolstoy’s views with the philosophies of Hegel, Carlyle, Herzen, and Chernyshevsky. Tolstoy redefines war not as heroism but as tragedy and chaos, while portraying peace as a realm of spiritual growth, family, and moral values. His artistic techniques-psychologism, symbolism, and composition-serve as vehicles for his historical and philosophical ideas. The article emphasizes the relevance of Tolstoy’s thought for contemporary humanities and its potential for comparative analysis within Uzbek and global literary traditions.*

Key words: *Tolstoy, War and Peace, philosophy of history, people, individual, war, peace, freedom, necessity, artistic devices.*

Kirish. Lev Nikolayevich Tolstoyning “Urush va tinchlik” epopeyasi jahon adabiyoti va falsafiy tafakkuri tarixida o‘ziga xos, alohida o‘rin egallaydi. Unda muallif nafaqat 1812-yilgi Vatan urushi davrining badiiy manzarasini yaratishga, balki tarixiy jarayon qonuniyatlariga oid o‘z qarashlarini ishlab chiqishga intiladi. Tolstoy yozuvchi, mutafakkir va tarixchi sifatida o‘z asarida badiiy ijod bilan falsafiy-ijtimoiy

tahlilni uyg‘unlashtiradi. Roman badiiy to‘qima va tarixiy voqelikni, adabiyot va tarix falsafasini, epik tasvir va axloqiy-antropologik tajribani o‘zida birlashtirgan noyob asardir.

Romanning ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasiga murojaat qilishning dolzarbligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, “Urush va tinchlik” oddiy adabiy asar emas, balki XIX asr boshidagi rus hayotining o‘ziga xos ensiklopediyasi hisoblanadi. Qahramonlar taqdiri va tarixiy voqealarni tasvirlash orqali Tolstoy shaxs, xalq va tarixiy zaruriyatning o‘rni haqidagi qarashlarini shakllantiradi. Ikkinchidan, zamonaviy davrda tarixiy xotira va xalqning jahon tarixidagi o‘rnini qayta anglash jarayonida Tolstoy g‘oyalari yana ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Uchinchidan, Tolstoyning tarix falsafasi nafaqat rus, balki jahon madaniyatini ham sezilarli darajada boyitdi, uni o‘rganish adabiyot, falsafa va sotsiologiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi - Tolstoyning “Urush va tinchlik” epopeyasi orqali ifodalangan ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasini yoritish va tahlil qilishdir. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- romaning rus va jahon adabiyotidagi o‘rnini ko‘rib chiqish;
- Tolstoyning tarixda shaxs va xalqning o‘rniga oid qarashlarini tahlil qilish;
- uning konsepsiyasining falsafiy asoslarini aniqlash va ularni XIX asr Yevropa tafakkuri (Gegel, Karleyl, Gertsen) g‘oyalari bilan solishtirish;
- Tolstoy tarix falsafasini badiiy usullar orqali qanday ifodalaganini ko‘rsatish;
- romaning ijtimoiy va madaniy fikr rivojidagi ahamiyatini belgilash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, “Urush va tinchlik” nafaqat adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan, balki falsafiy-tarixiy matn sifatida ham kompleks tarzda ko‘rib chiqiladi. Bu Tolstoyning tarix falsafasiga mustaqil qo‘shgan hissasini yoritishga imkon beradi. Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari XIX asr rus adabiyoti tarixi, tarix falsafasi va madaniyatshunoslik bo‘yicha ma’ruzalar va seminarlar tayyorlashda, shuningdek, qiyosiy adabiyotshunoslik kurslarida foydalanilishi mumkin.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanini tadqiq etish ko‘p asrlik an’anaga ega bo‘lib, bugungi kunda bu asarga bag‘ishlangan juda ko‘p monografiyalar, maqolalar va dissertatsiyalar mavjud. Roman bo‘yicha ilmiy adabiyot bir nechta yo‘nalishlarda shakllangan bo‘lib, ularning har biri Tolstoyning ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasini turlicha yoritadi.

Adabiyotshunoslik yondashuvi hali inqilobgacha bo‘lgan davrdayoq shakllangan. N.G. Chernishevskiy va N.A. Dobrolyubov kabi tanqidchilar asarning ijtimoiy ahamiyatini ta’kidlab o‘tganlar. Sovet davri ilmiy maktabida esa Tolstoyning badiiy metodiga qiziqish kuchaydi. S.G. Bocharov, B.M. Eyxenbaum, Y.M. Lotman singari olimlar roman poetikasidagi psixologizm, rivoya xususiyatlari va badiiy tizimni tahlil qildilar. Ayniqsa Lotmanning (1995) asarlarida semiotik yo‘nalish yaqqol ko‘rinadi: u Tolstoyning ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasi nafaqat falsafiy mulohazalarda, balki matnning tuzilishida ham namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Falsafiy-tarixiy qarashlar “Urush va tinchlik”ni tarixshunoslikning o‘ziga xos falsafasini yaratgan asar sifatida baholash imkonini beradi. A.V. Chicherinning (1979) tadqiqotlarida Tolstoy o‘z konsepsiyasini Gegelning “jahon ruhi” haqidagi ta’limotiga qarama-qarshi qo‘yganligi ko‘rsatiladi. Isayya Berlinning “Agar erkinlik bo‘lsa…” (2010) nomli essesi esa Tolstoyning metafizikaga shubha bilan qaraganini, tarixiy jarayonlarni teleologik izohdan va muqarrar taraqqiyot g‘oyasidan voz kechganini ta’kidlaydi.

Qiyosiy tadqiqotlarda Tolstoy g‘arb falsafiy va tarixiy tafakkuri bilan muloqotga qo‘yiladi. Uning qarashlari Tomas Karleylning qahramonlar kulti haqidagi g‘oyalari (2000) hamda Gegel ratsionalizmi (1993) bilan solishtiriladi. Bu qiyosiy tahlillarda Tolstoyning o‘ziga xos “xalqona tarix falsafasi”ni yaratishga intilgani yaqqol ko‘rinadi. Bu falsafada asosiy urg‘u abstrakt qonuniyatlarga emas, balki shaxs erkinligiga, axloqiy tanlovga va “kichik odam” taqdiriga qaratiladi.

Kulturologik va sotsiologik yondashuv roman matnini tarixiy ongning yangi modelini shakllantiruvchi asar sifatida talqin etadi. Zamonaviy tadqiqotchilar - N. Kozlova, A. Etkind, V. Tunimanov - fikricha, Tolstoy “muqobil tarix” yaratadi: u buyuk janglarni tasvirlashdan voz kechib, burilish davrlarida oddiy odamlarning kundalik hayotini yoritadi va jamiyat taqdiriga boshqacha nigoh bilan qarashni taklif etadi.

Romanning g‘arbiy qabul qilinishi ham alohida o‘rin tutadi. XX asrda u keng miqyosda o‘rganildi. Erix Auerbax “Mimesis” (1968) asarida Tolstoyni realizmning yirik ustalaridan biri sifatida baholab, u shaxsiy taqdir bilan tarix oqimini uyg‘unlashtira olganini ko‘rsatdi. Amerika va Yevropa olimlari ko‘p bor ta’kidlaganidek, Tolstoy milliy adabiyot chegarasidan chiqib, butun insoniyat mavjudotining universal manzarasini yaratgan.

Shunday qilib, ilmiy tadqiqotlar an’anasi Tolstoy shaxsining ko‘p qirraliligini namoyish etadi. Uni yozuvchi, tarix falsafasining mutafakkiri, faylasuf va madaniyatshunos sifatida ko‘rish mumkin. Bu esa

“Urush va tinchlik” romanining ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasini kompleks yondashuv asosida o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik bazasi L.N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanining murakkab va ko‘p qirrali tabiati bilan belgilanadi. Asarni faqat badiiy matn doirasida cheklab bo‘lmaydi: u o‘zida tarixiy-falsafiy traktat, madaniyatshunoslik izlanishi va xalq hayotiga oid epopeya xususiyatlarini mujassam etadi. Shu sababli roman ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasini tahlil qilishda adabiyotshunoslik, falsafa, tarix va madaniyatshunoslik vositalarini birlashtiruvchi kompleks metodlarga tayangan holda yondashish zarur.

Tarixiy-adabiy metod romaning XIX asr rus adabiyoti rivoji kontekstida o‘rganilishiga imkon beradi, Tolstoyning ijodiy metodining xususiyatlarini ochib beradi va uning voqelikni tasvirlashdagi yangiliklarini ko‘rsatadi. Bu yondashuv “Urush va tinchlik”ni realistik maktab vakillari - Pushkin, Gogol, Turgenev, Dostoyevskiy asarlari bilan qiyoslash orqali Tolstoy epik rejasi o‘ziga xosligini aniqlash imkonini beradi [Bocharov, 1987; Eyxenbaum, 1960].

Falsafiy-tarixiy tahlil Tolstoy g‘oyalarini XIX asr Yevropa mutafakkirlari - Gegel, Karleyl, Gertsen qarashlari, shuningdek, rus inqilobiy-demokratik tanqidchilari (Chernishevskiy, Dobrolyubov) konsepsiyalari bilan qiyoslashga asoslanadi. Bu yondashuv Tolstoyning tarix falsafasining o‘ziga xosligini - teleologik sxemalarni inkor etish va shaxs hamda xalqning axloqiy mas’uliyatini tan olish asosida shakllanganligini ko‘rsatadi [Chicherin, 1979; Berlin, 2010].

Germenevtik metod matnni diqqat bilan va ko‘p qatlamli o‘qishga asoslanib, undagi yashirin ma’nolarni, falsafiy ramzlarni va axloqiy urg‘ularni aniqlash imkonini beradi. Germenevtik yondashuv qahramonlar obrazlarini, epizodlarni va Tolstoyning falsafiy mulohazalarini yagona tizimning bir qismi sifatida sharhlash imkonini yaratadi, bunda badiiy so‘z falsafiy belgi maqomiga ega bo‘ladi [Gadamer, 1990].

Sotsiomadaniy yondashuv romanni tarixiy davr kontekstida tushunishga imkon beradi: unda XIX asr boshidagi Rossiya jamiyati hayoti, milliy o‘zlik masalalari va xalqning tarixdagi o‘rni hisobga olinadi. Tolstoy ongli ravishda “buyuk shaxslar tarixi” va “xalq ommasi tarixi”ni qarama-qarshi qo‘yadi, bu esa uning konsepsiyasini o‘ziga xos “xalqona tarix falsafasi” sifatida talqin etishga imkon beradi [Etkind, 2001; Kozlova, 2015].

Qiyosiy metod “Urush va tinchlik”ni boshqa falsafiy va adabiy tizimlar bilan solishtirishga qaratilgan bo‘lib, u o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shu orqali Tolstoy va G‘arbiy Yevropa mutafakkirlari o‘rtasidagi parallellar belgilanadi, shuningdek, tarixni va unda shaxs rolini qabul qilishdagi farqlar tahlil qilinadi [Karleyl, 2000; Gegel, 1993].

Strukturaviy-semiotik tahlil, Y.M. Lotman va Tartu-Moskva maktabi vakillari asarlariga tayangan holda, romaning murakkab belgilar tizimi sifatida ko‘rilishiga imkon beradi. Bu yondashuvda badiiy usullar falsafiy konsepsiyaning tashuvchisiga aylanadi. Shu ma’noda “Urush va tinchlik” nafaqat o‘tmish haqidagi epopeya, balki milliy tarixiy ong modelini shifrlagan matn sifatida ham namoyon bo‘ladi [Lotman, 1995].

Shunday qilib, kompleks metodologiyadan foydalanish romanning o‘z tabiati bilan belgilanadi. “Urush va tinchlik” - bu badiiy va falsafiy qatlam birlashgan matn bo‘lib, uni tadqiq etishda turli fanlar kesishgan nuqtada tahlil zarur. Bunday yondashuv Tolstoy ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasini va uning rus hamda jahon madaniyatidagi ahamiyatini eng to‘liq ochib berishga imkon yaratadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. L.N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanidagi ijtimoiy-tarixiy konsepsiyani ko‘rib chiqish shuni tasdiqlaydiki, yozuvchi nafaqat badiiy epopeyani, balki mustaqil falsafiy-tarixiy ta’limotni ham yaratadi. Gegel, Karleyl, Gertsen va Chernishevskiy qarashlari bilan qiyoslash natijasida ma’lum bo‘ladiki, Tolstoy o‘z yo‘lidan boradi: u ham teleologiyani, ham qahramonlar kultini rad etib, tarixning chinakam subyekti sifatida xalqni ilgari suradi. Bu pozitsiya Tolstoyni XIX asr faylasuflari orasida ajratib ko‘rsatadi va uni zamonaviy tarixiy jarayonning ko‘p omillilik haqidagi tasavvurlarga yaqinlashtiradi.

Mahalliy va xorijiy tanqidlarni qiyoslash Tolstoy g‘oyalarining turlicha talqin qilinishini ochib beradi. G‘arb tadqiqotchilari (E. Auerbax, I. Berlin) uning falsafasining universalligini va antimetafizik xarakterini ta’kidlab, unda ratsionalistik sxemalarga qarshi turishni ko‘rganlar. Sovet maktabi (S.G. Bocharov, Yu.M. Lotman) e’tiborni tarixiylik va xalqchillikka qaratgan. O‘zbekistonlik olimlar (O. Azizov, X. Dadaboev, M. Tursunov) esa asosan qiyosiy-tipologik jihatlarga urg‘u berib, Tolstoy g‘oyalari sharq falsafiy an’anasi bilan qanday uyg‘unlashishini ko‘rsatadilar. Bu an’anada ham xalq tarixiy haqiqatni tashuvchi kuch sifatida talqin etiladi.

Tolstoy falsafasida shaxsiy erkinlik chegaralari masalasi bahsli bo‘lib qolmoqda. Bir tomondan, u tarixiy qonuniyatlarga bo‘ysunish zarurligini ta’kidlaydi, ikkinchi tomondan esa shaxsning axloqiy tanloviga

ulkan ahamiyat beradi. Ana shu ziddiyat Tolstoy konsepsiyasini XXI asrda ayniqsa dolzarb qiladi, chunki bugungi kunda shaxs erkinligi va mas'uliyati muammosi yana birinchi planga chiqmoqda.

Shuningdek, badiiy jihatni ham alohida ta'kidlash lozim. Tolstoy nazariy mulohazalar bilan cheklanmay, o'z g'oyalarini obrazlar va badiiy usullar tizimi orqali ifodalaydi. Psixologizm, ramziylik, "urush" va "tinchlik" sahnalarining almashinuvi tarix falsafasini ifodalovchi badiiy struktura yaratadi.

Shu tariqa, mazkur tadqiqot adabiyotshunoslik, falsafa va madaniyatshunoslik yondashuvlarini birlashtirish imkonini beradi. Tahlilning yangiligi shundaki, "Urush va tinchlik"ning ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasi interdisciplinar hodisa sifatida talqin qilinib, nafaqat rus, balki o'zbek va jahon gumanitar fanlarida ham o'z aks-sadosini topadi.

Kelgusidagi tadqiqot istiqbollari turli milliy an'analarda Tolstoy ijodining qabul qilinishini qiyosiy o'rganishda ko'rinadi. Ayniqsa, "Urush va tinchlik" asarining o'zbek tiliga tarjimasi va talqinini tahlil qilish katta qiziqish uyg'otadi, chunki bunda xalq falsafasi va urush obrazining sharhlanishida o'ziga xos urg'ular namoyon bo'lishi mumkin.

Muhokama. Lev Nikolayevich Tolstoy o'zining "Urush va tinchlik" roman-epopeyasini 1860-yillarda, Rossiya hayotida chuqur o'zgarishlar kechayotgan davrda yaratdi. Katta islohotlar davri, krepostnoylik huquqining bekor qilinishi va xalq hamda davlat taqdiriga qiziqishning ortishi yozuvchini tarixiy o'tmishga murojaat etishga undadi. 1812-yilgi Vatan urushi ramziy ma'noga ega edi: unda xalq va armiya birligi, milliy ruhning sinovi aks etdi, shu bilan birga hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi ajralish fojiasi ham namoyon bo'ldi. Romanning badiiy rejasi Rossiya tarixiy taqdirini anglash va tarix rivojlanishining qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan edi. Tolstoy san'at vositasida ko'pincha tarix fanidan chetda qoladigan narsalarni ifodalashni maqsad qildi - shaxsiy axloqiy tanlov, insonning ichki dunyosi va xalqning harakatlantiruvchi kuch sifatidagi roli. Shuning uchun ham u asarda "urushni ham, tinchlikni ham emas, balki butun insonni ko'rsatish"ni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan edi [Tolstoy, 1951–1958, t. 13].

Tolstoy XIX asrning yirik mutafakkirlari bilan muloqotga va bahsga kirishadi. Masalan, Gegel tarixni "jahon ruhi"ning voqelanishi, u "buyuk shaxslar" orqali amalga oshadi, deb talqin qilgan [Gegel, 1993]. Tolstoy esa bu g'oyani qat'iyan rad etadi: tarix birgina qahramon irodasi bilan emas, balki ko'plab mayda sabablar va millionlab insoniy harakatlar natijasida shakllanadi. Shuningdek, u ingliz faylasufi Tomas Karleyl bilan ham bahslashadi. Karleyl "Qahramonlar va qahramonlarga sig'inish haqida" asarida tarixni shaxslar belgilaydi, deb ta'kidlaydi [Karleyl, 2000]. Tolstoy esa Napoleonga "qahramon"ning parodiyasi sifatida yondashadi - uni manman, tor tafakkurli va sharoitlarga tobeligi bilan ko'rsatadi. Rus inqilobiy-demokrat faylasuflari - Gertsen va Chernishevskiy bilan Tolstoyni xalqni tarix subyekti sifatida ko'rsatish g'oyasi yaqinlashtirgan, biroq ularning inqilobiy radikalizmini qabul qilmagan. Uning falsafasi xalq kuchi kurashda emas, balki axloqiy sobitlik va tinch mehnatda namoyon bo'lishidan iborat edi [Chicherin, 1979]. Natijada Tolstoy "antiteologik" tarix falsafasini yaratadi: voqealar oqimi oldindan belgilangan maqsadga ega emas, balki tasodiflar ko'pligi va xalq ommasining o'zaro ta'siri bilan belgilanadi.

Shu nuqtayi nazardan, epopeyadagi haqiqiy qahramon - bu xalqdir. 1812-yilgi g'alaba Kutozovning harbiy dahosida emas, balki oddiy askarlar, partizanlar va butun jamiyatning sabr-toqati va matonatida mujassam. PLaton Karataev obrazi "xalqona haqiqat"ni ifodalaydi - kamtarlik, sabr-bardosh va axloqiy butunlikni. U individualizmga yot bo'lib, "butun xalq" g'oyasini mujassamlashtiradi [Auerbax, 1968], aristokratiya olamiga qarshi qo'yilgan tabiiy donolik va hayot kuchi ramzi sifatida tasvirlanadi. Tarixiy jarayonni aynan shu xalqona donolik belgilaydi, sarkardalar va hukmdorlar esa sharoitlarga bo'ysunuvchi odamlar sifatida ko'rsatiladi.

Roman tarkibida urush tasviri alohida o'rin tutadi. Tolstoy urushni qahramonlik va shon-shuhrat maydoni sifatida ko'rsatish an'anasini buzadi. U urushni tartibsiz va fojeaviy jarayon sifatida tasvirlaydi, unda inson hayotlari behuda nobud bo'ladi, g'alaba va mag'lubiyatlar esa ko'plab tasodiflarga bog'liq bo'ladi. Borodino jangini tasvirlar ekan, u strategik rejalar emas, balki askarlarning qo'rquv va iztiroblarini ko'rsatadi. Napoleon "boshqarayotganini o'ylaydi, ammo aslida sharoitlar uni boshqaradi" degan qiyofada beriladi [Tolstoy, 1951–1958, t. 10]. Shunday qilib, urush qahramonlik emas, balki hukmdorlarning manmanligi oqibatida yuzaga kelgan fojia sifatida talqin etiladi.

Urushning tartibsizligiga qarshi qo'yiladigan narsa - bu tinchlik. U ruhiy o'sish, oilaviy qadriyatlar va axloqiy izlanishlar maydoni sifatida tasvirlanadi. Rostovlar oilasi, Natashaning va Pyerning munosabatlari, Andrey Bolkonskiyning ma'naviy izlanishlari Tolstoyning asosiy g'oyasini ifodalaydi: hayotning haqiqiy qadriyati muhabbat, mehr, hamjihatlik va xalq bilan yaqinlikda mujassam. Tolstoy uchun tinchlik nafaqat urushning yo'qligi, balki insonning ichki muvozanati va hayot ma'nosini anglashga yo'l ochadigan holatdir.

Shaxs va tarix masalasi ham Tolstoy ijodida o'ziga xos ifodasini topadi. U o'zini taqdirlarni belgilovchi deb hisoblagan Napoleonni kinoya bilan tasvirlaydi, ammo u aslida "tarixning o'yinchog'i"

bo‘lib chiqadi. Kutozov esa buning aksi sifatida xalqning tabiiy irodasini his qiluvchi, voqealarning tabiiy oqimiga ishonadigan haqiqiy rahbar sifatida ko‘rsatiladi. Tolstoy fikricha, chinakam yetakchi - bu tarixni o‘z irodasiga bo‘ysundirmasdan, xalq bilan uyg‘unlashadigan shaxsdir [Bocharov, 1987].

Bu g‘oya erkinlik va zaruriyat masalasi bilan uzviy bog‘liq. Tolstoy tarix rivojini alohida shaxsga bo‘ysunmaydigan obyektiv qonunlarga tayanishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u erkinlikni inkor etmaydi: erkinlik siyosatda yoki urushda emas, balki shaxsning axloqiy tanlovida mavjud. Pyer Bezuxovning “ichki erkinlik”ni - sevish, hamdardlik bildirish, o‘ziga sodiq bo‘lish qobiliyatini kashf etishi, shuningdek, Andrey Bolkonskiyning harbiy shon-shuhratdan ko‘ngli qolib, hayot ma’nosini muhabbat va axloqiy uyg‘unlikda topishi bu fikrni tasdiqlaydi.

Romanning personajlari tizimi ma’lum g‘oyalarni mujassam etadi. Pyer Bezuxov - axloqiy izlanish va ma’naviy o‘sish, Andrey Bolkonskiy - shaxsiy fojia va ma’naviy izlanish, Natasha Rostova - tabiiy hayot kuchi va xalq bilan yaqinlik, Platon Karataev - xalqona donolik va butunlik, Kutozov - tarix qonuniyatlarini his qiluvchi milliy rahbar, Napoleon esa - shaxs kulti va tarixiy illyuziya ramzidir.

Tolstoy o‘z konsepsiyasini ifodalashda keng badiiy vositalardan foydalanadi. Tabiat manzaralari qahramonlarning ichki holati va tarixiy jarayonlarni ramziy tarzda aks ettiradi (masalan, Borodino jangidan oldingi momaqaldiroq). Qahramonlarning ichki dunyosini sinchkovlik bilan tasvirlash (psixologizm) inson taqdiri avvalo qalbda hal bo‘lishini ko‘rsatadi. Ramzlardan foydalanish obrazlarni g‘oyaviy tashuvchi darajasiga ko‘taradi: Karataev - “xalq haqiqatining” ramzi, Napoleon esa hokimiyat illyuziyasining ramzi sifatida talqin etiladi. Kompozitsiya “urush” va “tinchlik” boblarining almashinuvi asosida qurilgan bo‘lib, tarix shaxsiy hayotdan ajralmasligini ko‘rsatadi. Bularning barchasi romaning o‘ziga xos badiiy traktatga aylanishiga olib keladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “Urush va tinchlik”ni Tolstoyning tarix falsafasiga qo‘shgan asl hissasi sifatida baholash mumkin. Uning konsepsiyasi Gegelning teleologik modelini va Karleylning qahramonlar kultini rad etadi, xalqni tarixning bosh subyekti sifatida ko‘rsatadi. Jahon madaniyatida bu roman nafaqat adabiyot durdonasi, balki tarix va inson roli haqidagi qarashlarga ta’sir ko‘rsatgan falsafiy asar sifatida ham tan olingan. Zamonaviy tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, Tolstoy yaratgan “xalqona tarix falsafasi” bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda [Berlin, 2010; Lotman, 1995].

L.N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” epopeyasi nafaqat badiiy asar, balki tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini tushuntirishga qaratilgan noyob falsafiy-tarixiy traktatdir. Roman ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasini ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki, Tolstoy o‘z davridagi G‘arbiy Yevropa va rus mutafakkirlarining qarashlaridan farq qiluvchi, tarixga oid o‘ziga xos qarashlar tizimini yaratgan.

Tahlilning asosiy natijasi shundan iboratki, tarixni alohida “buyuk shaxslar” emas, balki millionlab insonlarning harakati va taqdiri belgilaydi. Tolstoy Gegel va Karleylga xos qahramonlar kultini rad etadi va unga qarama-qarshi ravishda “xalqona tarix falsafasi”ni ilgari suradi. Bu falsafada kuch axloqiylik, mehnatsevarlik va oddiy insonning sobitligida mujassam.

Pyer, Andrey, Natasha, Karataev, Kutozov va Napoleon obrazlari orqali yozuvchi shaxs va tarixning o‘zaro ta’sirining turli modellarini ko‘rsatadi. Tolstoy shuni ta’kidlaydiki, inson erkinligi faqat axloqiy tanlov sohasida mavjud bo‘lishi mumkin, tarixiy jarayon esa ko‘plab obyektiv qonuniyatlar va tasodiflar ta’sirida shakllanadi.

Roman tarkibida urush va tinchlik qarama-qarshiligi alohida ahamiyat kasb etadi. Tolstoy uchun urush - bu qahramonlikdan xoli, tartibsizlik, fojea va vayronkorlikdir. Tinchlik esa - ruhiy o‘sish, oila va axloqiy qadriyatlar makoni. Ana shu dualizm asarni insoniyat taqdirlari va tarixiy qadriyatlarning mohiyati haqida yozilgan falsafiy mulohazaga aylantiradi.

Tolstoy qo‘llagan badiiy vositalar - psixologizm, ramziylik, kompozitsion tuzilma, tabiat manzaralari va xalq obrazlari - romanning falsafiy chuqurligini yanada kuchaytiradi. Shu bois “Urush va tinchlik” nafaqat o‘z davrining badiiy guvohnomasi, balki insoniyat tarixining ma’nosi haqidagi umumbashariy mulohaza sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, Tolstoyning ijtimoiy-tarixiy konsepsiyasi jahon tarix falsafasiga qo‘shilgan ulkan hissa hisoblanadi. U qahramonlar kultiga asoslangan teleologik sxemalarni rad etib, xalqning tarixiy jarayondagi chinakam subyekt ekanligini tasdiqlaydi. Tolstoy tarixning haqiqiy ma’nosi siyosat va urushlarda emas, balki inson va xalqning axloqiy tajribasida mujassam ekanligini ko‘rsatadi.

“Urush va tinchlik” ning jahon madaniyatidagi o‘rni shundaki, u nafaqat badiiy durdona, balki insoniyatning tarix, shaxs va xalq roli haqidagi tushunchasiga ta’sir ko‘rsatishda davom etayotgan umumbashariy falsafiy matndir. Bu konsepsiya XXI asrda ham dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q: shaxs va jamiyat, erkinlik va zaruriyat, urush va tinchlikning o‘zaro munosabati masalalari bugun ham insoniyat oldida dolzarb vazifa sifatida turibdi.

ADABIYOTLAR:

1. Ауэрбах Э. Мимесис. Изображение действительности в западноевропейской литературе. – М.: Прогресс, 1968.

2. Берлин И. Ежели свобода есть… Толстой и понятие истории. – М.: Новое издательство, 2010.

3. Бочаров С.Г. О стиле Толстого. – М.: Советский писатель, 1987.

4. Гегель Г.В.Ф. Философия истории. – М.: Наука, 1993.

5. Карлейль Т. О героях, почитании героев и героическом в истории. – М.: Канон, 2000.

6. Лотман Ю.М. Лев Толстой и культура его времени. – СПб.: Искусство, 1995.

7. Толстой Л.Н. Война и мир. – Полное собрание сочинений: В 90 т. – М.: Художественная литература, 1951–1958.

8. Чичерин А.В. Философия истории Льва Толстого. – М.: Наука, 1979.

9. Эйхенбаум Б.М. Лев Толстой. – М.: Наука, 1969.

10. Эткинд А.М. Толстой и народная культура. – СПб.: Изд-во Европейского университета, 2002.

11. Azizov O. Rus adabiyoti tarixi va Tolstoy merosi. – Toshkent: Fan, 2005.

12. Dadaboev H. Tolstoy falsafasi va rus realizmi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.

13. Jo'rayev S. Adabiyot va tarix: rus realizmi va falsafiy tafakkur. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2012.

14. Qosimov B. Tolstoy va o'zbek adabiy tanqidi. – Toshkent: Universitet, 2007.

15. Karimov A. XIX asr rus adabiyoti falsafasi. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2015.

16. Nazarov A. Tolstoy qarashlarida inson va jamiyat. – Toshkent: Nodirabegim, 2018.

17. Oripov A. Tolstoy va sharqona tafakkur. – Toshkent: Adabiyot, 2011.

18. Rasulov I. Rus klassiklari o'zbek ilmida. – Qarshi: QDU, 2019.

19. Tursunov M. Jahon adabiyotida tarix va badiiy tafakkur. – Toshkent: Universitet, 2014.

20. Yoqubov M. Tolstoyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

UDC 82

EXPRESSION OF THE CONCEPT OF “ROAD” IN N.V. GOGOL’S “DEAD SOULS” AND TOGHAY MUROD’S “THE EVENING WHEN THE HORSE NEIGHED”

Rakhimov Muzaffar Muradovich,
Senior researcher at Bukhara State University
ORCID: 0000-0001-7808-2067
m.rakhimov3101@gmail.com

In contrast, the stylistic compensation (adapted Uzbek version) translates the quote as "Ichimda nimadir so'nayotgandek edi, yuragim ezilib, odamlarning bunday shafqatsizligiga aqlim bovar qilmasdi." This version enhances the emotional depth of the original. Phrases like "Ichimda nimadir so'nayotgandek edi" (*Adapted version*: It felt like something was extinguishing inside me) and "yuragim ezilib" (*Adapted version* my heart is crushed) evoke a stronger emotional response and are more expressive than the literal translation. The use of imagery adds a layer of poignancy that makes the reader feel the character's despair more intensely, aligning more closely with the original's intent. Moreover, the term "shavqatsizligiga" (cruelty) is more nuanced in this context, suggesting a deeper, more emotional form of cruelty, which resonates better with a native audience and potentially evokes a stronger empathetic response. This is what theorists like **Peter Newmark** or **Mona Baker** describe as **compensating in style or tone** when a direct translation would risk miscommunication or flatness. It's especially crucial in **literary texts** where emotional impact is key.

Discussion. The symbolism of the horse in Uzbek literature. In Uzbek literature, the image of the horse holds unique characteristics and deep cultural connotations. Traditionally, the horse is associated with nomadic life, freedom, and courage. In Alisher Navoi's epic *Farhod and Shirin*, the horse serves not only as a means of transportation but also as a symbol of loyalty and honor[5,132-250]. Within this context, the horse becomes an inseparable part of the hero's life, reflecting his inner qualities and aspirations.

The original Uzbek phrase *"Bilam, sening ila birga, hech qanday qibla yuzimdan keta olmaydi, chunki sen mening shodligim va shon-sharafimsan"* carries a rich layer of cultural and emotional meaning. Literally translated, it means: *"I know that with you by my side, no qiblah (sacred direction) will ever turn away from my face, because you are my joy and my honor."* The metaphor of *qiblah*, which refers to the direction of prayer in Islam, symbolizes a spiritual orientation, inner guidance, and integrity. In this context, the speaker expresses that as long as the beloved is near, they will never lose their sense of purpose or moral compass. Furthermore, the mention of *shodligim* (my joy) and *shon-sharafimsan* (my honor) portrays the beloved as both a source of emotional fulfillment and personal dignity. From the standpoint of translation studies, this case exemplifies what is called a shift from dynamic equivalence to functional adaptation, where meaning is adjusted for clarity in the target language[6,112]. While this approach may preserve the pragmatic function of the message, it inevitably leads to the loss of symbolic density. According to Peter Newmark, in poetic or literary translation, symbolic imagery should be preserved whenever possible, especially when it is central to the character's voice or cultural identity[7,35].

A more faithful literary rendering in English might read: "I know that with you, no sacred path can turn away from me, for you are my joy and my pride." This version maintains the metaphorical gravity of the original while making it accessible to the English-speaking reader.

Emotional Perception of the Horse in English and Uzbek Literature. In the literary traditions of both English and Uzbek cultures, the image of the horse evokes a wide range of emotions in readers, from compassion to admiration. However, the emphasis on various emotional aspects of the horse differs significantly across the two cultures.

1. Emotions in English Literature. In English literature, the horse frequently becomes a symbol of the struggle for justice and the protection of animal rights. For example, in *Black Beauty* by Anna Sewell, readers experience deep compassion for the suffering of the main character-a horse subjected to cruelty and hardship. Emotional scenes describing his pain and yearning for freedom elicit feelings of sorrow and anger,

inspiring empathy and a desire to advocate for animal welfare. In this context, the horse represents not only an individual tragedy but also a broader social issue, which intensifies the emotional connection between the reader and the text. Another example can be found in Ernest Seton-Thompson's Through the Fire, where the horse is portrayed as a source of strength and spirit. Here, the horse inspires admiration and respect, as its courage and independence symbolize the untamed wilderness and the ideals of freedom.

2. Emotions in Uzbek Literature. In Uzbek literature, the emotional focus is placed on loyalty and reverence toward the horse, which also evokes strong sentiments among readers. In Alisher Navoi's Farhod va Shirin, the horse is depicted as Farhod's loyal companion and a symbol of his honor. Readers feel a sense of pride and admiration for the horse, which represents devotion and a deep connection to national traditions. Uzbek folk tales often emphasize the importance of mutual assistance and cooperation between humans and horses. The horse becomes a symbol of friendship and trust, evoking warmth and respect in the hearts of readers. It reflects the collective values of Uzbek culture, where the emotional bond between a person and their horse signifies not just utility, but a spiritual unity passed down through generations.

In the literary works analyzed, the emotional depiction of horses is employed as a powerful narrative device to convey profound ethical, cultural, and philosophical messages. Through the lens of the horse's experiences, the authors not only shape compelling characters but also invite readers to reflect on the broader values of humanity, morality, and spiritual connectedness. In Anna Sewell's *Black Beauty*, the horse is granted a narrative voice, allowing it to express suffering, loyalty, and joy in deeply human terms. This anthropomorphism serves as a critique of cruelty and a call for compassion. The emotional journey of Black Beauty, marked by kindness as well as abuse, emphasizes the importance of humane treatment and raises awareness about the moral responsibility humans bear toward animals. The horse becomes a moral witness, and through its eyes, Sewell challenges readers to confront issues of justice and empathy.

Similarly, C.S. Lewis in *The Horse and His Boy* uses the character of Bree, a talking horse, to explore themes of freedom, identity, and personal transformation. Bree's longing to escape captivity and reclaim his dignity reflects the universal desire for autonomy and self-realization. His emotional evolution underscores the philosophical message that true liberation is not only physical but also psychological and moral. Walter Farley's *The Black Stallion* presents the horse as a symbol of wild strength and inner resilience. The powerful emotional bond between Alec and the stallion illustrates how trust and mutual respect between human and animal can lead to growth and self-discovery. The horse, in this case, embodies a spirit of adventure and courage, acting as a catalyst for personal transformation.

In contrast, Uzbek literature, particularly in Alisher Navoi's *Farhod va Shirin*, portrays the horse as a symbol of loyalty, honor, and cultural continuity. The horse is not merely a companion in physical terms but also a reflection of the hero's virtues. Emotional depictions of the horse's fidelity and its role in upholding communal values emphasize the importance of spiritual connection and moral heritage. Similarly, in Uzbek folk tales, horses are often presented as wise, intuitive beings who guide their human companions, offering protection and strengthening the bond between generations. These emotional portrayals are not accidental; they are deeply embedded in the respective cultural and philosophical frameworks of the authors. In English literature, the horse frequently becomes a metaphor for individual dignity, resistance to injustice, and moral agency. In Uzbek literature, by contrast, the horse embodies collective identity, reverence for tradition, and harmony with nature.

Conclusion. Thus, the authors of the works discussed use the horse's emotional world to express broader human concerns. Whether highlighting resilience in the face of cruelty, the pursuit of freedom, or the sacredness of loyalty and heritage, the emotional dimension of the horse enables a powerful symbolic communication. The horse becomes not merely a character but a vessel for conveying messages of justice, integrity, empathy, and cultural continuity. This literary strategy allows for a deeper emotional resonance with the reader, transcending linguistic and cultural barriers and reinforcing the timeless relevance of the horse as both a literary and cultural icon.

REFERENCES:

1. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). / А.В. Федоров. М.: Филология три, 2002. 415 с.

2. Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. Проблемы переводоведении в освещении зарубежных учёных. Учебное пособие. / В.Н. Комиссаров. М.: ЧеРо, 1999. 134 с.

3. Sewell, Anna. Black Beauty, progress publishers, 1990, pp.30-35

4. Нида Е. А. Теория перевода: между языками и культурами / Пер. с англ. М.: Издательство ЛКИ, 2009. С. 134.

5. Навоий А. Фарҳод ва Ширин // Алишер Навоий. Танланган асарлар. - Т. 2. - Тошкент: Фан, 1987. - Б. 132-250.

6. Nida E.A. Theory and Practice of Translation. - Leiden: Brill, 1969, P. 112.

7. Фарли У. Чёрный жеребец. – М.: Энас-книга, 2019. – 320 с.

Navoiy gulshani

RUH RAHMONI ERUR

Ibotova Madina Otabek qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Ruh va nafs tushunchalari mumtoz adabiyotda keng qo‘llaniladi. Bu tushunchalar ba’zan bir ma’noda tushunilsa, ba’zan bir – biridan farqlanadi. Islom dining asosi bo‘lgan Qur’oni karimning bir necha suralarida ruh bilan bog‘liq fikrlar mavjud. Ruh Allohning sirli ilmlaridan bo‘lib, u inson tanasiga O‘zi tomonidan “puflanadi.” “Eslang, Parvardigoringiz farishtalarga degan edi: *“Albatta men loydan bir odam Yaratguvchidirman. Bas, qachon uni tiklab, unga O‘z ruhimdan puflab kirgizganimdan so‘ng unga sajda qilgan hollaringizda yiqilinglar*!” (Sod surasi, 71-72-oyatlar). Mutasavvuflar Alloh tomonidan “puflangan” narsa jon emas, balki uning vujudiga joylangan aql, iroda – ruh ekanligini ta’kidlaydilar.

Ta’kidlash kerakki, ruh Allohning siri. Shuning uchun ruh bilan bog‘liq bilimlar inson uchun chegaralangan. Bu haqida Qur’oni karimda ham bashorat qilingan: *“(Ey Muhammad alayhissalom), sizdan ruh-jon haqida so‘raydilar. Ayting: «Ruh yolg‘iz Parvardigorim biladigan ishlardandir». Sizlarga juda oz ilm berilgandir”* (Al-Isro surasi, 85-oyat).

Ruh va nafs tushunchalarining etmologik izohiga e’tibor qaratsak, ularning ma’nolarida bir – biriga yaqinlilik kuzatiladi. **Ruh** - arvoh, xotira; tabiat, mijoz, ahvol; jon, nafas. **“Nafs”** arabcha so‘z bo‘lib, jon, ruh, inson tabiati, biror narsaning asli, zoti, javhari, shaxs, o‘z, o‘zlik, maqsad, intilish, g‘urur, mag‘rurlik kabi ko‘plab ma’nolarda qo‘llaniladi [5,439]. Tasavvushnos A. Abdullaevning manbalar asosida nafs tushunchasiga berilgan tasniflarni o‘rganib, uni *“Nafs-ruh, jon; balo, dushman, dev, ilon, kofir, zararga yetaklovchi barcha narsalar” ma’nolarda qo‘langanligini ta’kidlaydi [1,202].* Izohlardan ko‘rinib turibdiki, “ruh” “nafs” tushunchalarining ma’nolari bir-biri yaqin bo‘lganligi sababli ular parallel qo‘llangan.

Ruhning kamoloti nafsning holati bilan belgilanadi. Nafs – o‘zlik, inson mavjudlik asosi. Agar nafs yuksa, ruh ham yuksaladi, nafs tubanlashsa ruh ham shunday qiyofaga kiradi. Imom G‘azzoliy “Kimiyoi saodat” asarida bu haqda shunday yozadi: *“O‘zingni tanimoq, bilmoq istasang, ikki narsadan yaratilganligingni bilgin. Biri zohiriy qolip. Bu badan deyiladi. Ko‘z bilan ko‘rsa bo‘ladi. Boshqasi botin ma’nosidadir. Unga nafs va jon derlar, ruh derlar, qalb derlar. Bu faqat haqiqat ko‘zi bilan ko‘riladi. Zohiriy ko‘z bilan ko‘rilmaydi” [6,42].*

Ulug‘ shoir Alisher Navoiy she’riyatida ham ruh va nafs tushunchalari o‘zga xos talqin qilingani ko‘rishimiz mumkin. Ruhning nafs g‘ulg‘ularidan omon qolishning turli yo‘lari ko‘rsatib berilganligi uning so‘fiy shoir sifatida masalaga yonashganligidan darak beradi. Alisher Navoiy shoirning nafs va ruh masalari butun bir g‘azal doirasi ham o‘ziga xos talqin qilingani kuzatiladi. Jumladan, **“Favoyid ul-kibar” devonidagi** quyidagi g‘azal fikrimizni misol bo‘la oladi:

Gar fano rasmini qilmoq tilar ersang mazbut,
Nafs ila ruhni zinhorki qilma maxlut.

Fano – o‘zlikdan, ya’ni moddiy narsalardan butkul uzilib, ruhiyatga bog‘lanish. U – tariqatning nihoyasi, natijasi [4], “**mazbut”** – mustahkam, mustahkamlangan”, “**maxlut**”- aralash, omuxta” ma’nolaridagi so‘z. Mazkur baytda nafs va ruh o‘rtasidagi tafovvut borligi ta’kidlangan. Ya’ni fano maqomini egallamoqchi bo‘lsang, nafs va ruhni bir-biri bilan omuxta qilma, aralashtirma, – deydi shoir. Bu o‘rinda nafs ruhni maqsaddan chalg‘ituvchi vosita ekanligi ta’kidlanadi.

Ma’lumki, inson yaratilishi jihatidan yaratiqlar ichida murakkab xilqat. Ana shu murakkablik avvolo unda ham bashariy, ham ilohiy sifatlarning tajassum topganligida ko‘rinadi. Inson vujudida to‘rt unsurning mavjudligining o‘ziyoq unda bir-biriga qarama – qarshi kuchlar mavjudligini asoslaydi. Shuning uchun u o‘z ruhini taftish qilinmasa, vujud nafs qurboniga aylanadi.

Ruh ul nurdururkim, haq anga bermish avj,
Nafs zulmatqa qolib, qilmish anga poya hubut.

Ruhning nurdan yaralganiligi bilan bog‘liq ma’lumotlar diniy-irofoniy manbalarda qayd qilingan. Jumladan, “*Ey Muhammad, sendan ruhning haqiqati va kayfiyati haqida so‘raydilar. Sen ularga javob bergilki, “Ruh Parvardigorning maxluqlari (yaratiqlari)dan bir maxluq (yaratiq)dir. Uning haqiqatini Xudodan boshqa zot bilmaydi”* (Isro: 85-oyat). Xuddi shunday g‘oyani biz “Hayrat ul-abror” dostonidagi quyidagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin:

Jism uyining tarhini solg‘uchi ul,
Ruh anga berguchiyu olg‘uchi ul.

Ko‘rinib turibdiki, ulug‘ shoir ham ruh haqidagi ilohiy kitoblardagi qarashlarni badiiy talqin qilgan. Ruh va nafs inson vujudidagi qarama-qarshilikning asosidir. Ruh nurdan iborat. Bu haqda Najmiddin Kubro shunday yozadi: *“Qudsiy ruh latif va samoviydir. U himmat quvvati ila to‘lib-toshgani zamon ruh samoga bitishur va samo unga g‘arq bo‘lar. Aslida, ruh bilan samo ayni bir narsa. Bu ruh betinim parvoz etar, yuksalar, quvvatlanar, tarbiyalanar va mukammallashar, samoning sharafidan ham ko‘p ustun bir sharafga erishmoq uchun ushbu hol davom etar. Nihoyat, samo cho‘qqisini ishg‘ol etar” [5,32]*.

Baytning dastlabki misrasida shoir “Ruh ul nurdururkim, Haq anga bermish avj” deyish bilan ruhning nurdan yaralganligi bilan bog‘liq qarashlarni tasdiqlaydi. Ikkinchi misrada nafsni zulmat olamining ramzi sifatida talqin qiladi. Ruh nurdan yaralganligi uchun yuksalsa, nafs zulmat olamiga poydevor (poya) bo‘lganligini uchun tubanlashadi.

Ruh rahmoni erur, nafs erur shaytoni,
Ikkisin bir-biriga qo‘shmaq emastur mashrut.

Jismning ozuqasi bo‘lgani kabi ruhning ham ozuqasi bor. Ruhning ozuqasi ma’rifat hisoblanadi. Shuning uchun ham ruh rahmoniy sanaladi.

Diniy qarashlarga ko‘ra, shaytonning asosiy vazifasi insonlarni yo‘ldan urish, ularni zalolatga boshlashdir. Shayton odamlarni “homiy”, “begunohlik”, “beozorlik” niqobi ostida g‘ayriinsoniy yo‘llarga, gunoh va kufr amallarni bajarishga undaydi. Xuddi shunday, u doim nafsning hamrohi. Bunday hamrohlik esa nafsni tubanlikdagi zulmatga yetaklaydi,– deydi shoir. G‘azalning keyingi baytida ham nafs va shayton hamkorligi ruh kamoloti uchun to‘siq sifida talqin qilinadi.

Ruhg‘a sheva Kalimullo ishin qilmoq fosh,
Nafs fir’avnliq asbobini aylab marbut.

Mumtoz adabiyotning o‘zak masalasi komil inson sanaladi. Shuning uchun ham ijodkorlar komillilik sifatlariga munosabat bildirganlarida nafs va ruh tushunchasiga alohida diqqat qiladi. Demak, Alisher Navoiy ham “Kalimulloh ishi”ni ya’ni yo‘lidan yuruvchi nafsni (ruh)ni ulug‘lasa, hayvoniy nafs “fir’avnliq asbobi”ga tegishli (marbut) ekanligini ta’kidlaydi. G‘azalning beshinchi baytida ham shu fikr davom ettiriladi.

Ruhg‘a daa’b Habibullo ishi oyini,
Nafs Bujahlliq asbobini aylab mabsut.

Shoir baytda ruhga Habibulloh ya’ni Ollohning do‘sti – Muhammad (s.a.v)ning ishni qilish odat sanalgan bo‘lsa, nafs esa **bujahlliq - jaholat** egasining kasbini yoyishni odat qilganligini ta’kidlaydi.

Keyingi baytda ham Bujahl so‘zi qo‘llangan. Bu so‘z Abu Jahl so‘zining vaznga moslashgan shakli bo‘lishi mumkin. Chunki islom tarixida Abu Jahl nomi bilan tarixda qolgan shaxs “jaholat egasi” sifatida manbalarda qayd qilingan. Uning asli ismi Amr ibn Hishom bo‘lib, islom dini targ‘ibida payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga qarshi turgan. Shu bosi, unga “jaholat egasi“ degan laqab berilgan.

Yo rab, et bizni habibing sifatig‘a rosix,
Ayla Bujahl tariqin ichimizdin masqut.

Keyingi baytda munojot ruhi ustivor. Kamolot istovchilarni Habibulloh sifatlari – ya’ni yo‘llarida qattiq turuvchi (rosix)lardan qilishini hamda ruhni Bujahl tariqi ya’ni nafsdan xoli bo‘lishini (masqut) iltijo qilib so‘raydi.

Butun g‘azal davomida shoir ruh va nafsni tazodlantiradi. Nafs ruh uchun band. Qachonki, ruh bu banddan qutilsa, asl maqsadga erishadi. Maqsadga erishgan ruh esa shavq va zavqqa erishadi. Bunday ruh latif va go‘zal sanaladi. Alloh O‘z nafasidan ufurgan ruh nafsoniy istaklarga bo‘yin bermaydi. Bunday ruh hukmron bo‘lgan qalb shavq va ma’rifat maskaniga aylanadi. Bu haqdagi falsafiy qarashlarni ulug‘ shoirning quyidagi baytida ham o‘qiymiz:

Shavq tiyg‘i birla solik aylasa ko‘ngilni chok,
Fayz shahristoni sayriga topar darvoza ruh

Shavq – bu holning maqomi. Shavq - muhabbatning zo‘rayishi. Shavq – bu oddiy xohish yoki muhabbat emas, u **ishqning qalbni yondiradigan** shakli, **ruhiy intilishning yuksak darajasi.** *“**Hol** – maqomot darajalarini bir-bir egallab, muvaffaqiyatga erishgan solik hol martabasiga yetadi va tasavvur-taxayyulda ilohiy jamolni mushohada qila boshlaydi, qalbini zavq-u shavq qamrab oladi” [2,6]*. Demak,

baytda shavq maqomidagi solik ko‘nglini chok qilib, o‘z ruhini badan mulkidan ozod qiladi. **“Ko‘nglini chok aylash” – nafsdan voz kechish.** Bunday ruh esa “fayz shahristoni”ga sayr qilish uchun imkon topadi. ***“Fayz shahristoni” – ma’rifat shahri, ilohiy nur maskani.*** Bu jarayonda ruh – sayr qiluvchi, ko‘ngil – eshik, fayz – manzil.

Baytda so‘fiy qalbning ma’naviy safari qisqa, ammo juda teran ifoda etadi. Ruh dastlab *ishq va shavq, keyin fano, undan so‘ng ma’rifat* shahriga sayr qiladi. Bu ilohiy yurishning og‘riqli, biroq sharafli boshlanish nuqtasidir.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy g‘azaliyotida inson kamolotiga doir qarashlar turli mavzu va obrazlar doirasida keng tahlil qilinadi. Ulug‘ shoir ruh va nafs tazodi orqali insoniyatni nafs g‘ulg‘ularidan qutilish yo‘llarni ko‘rsatgan bo‘lsa, ruh kamoloti uchun kerakli tavsiyalarini ham badiiyat libosida talqin qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Abdullayeva A. Tasavvuf va uning namoyandalari. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. T.:- 2009.*
2. *Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. –T.: Movarounnahr. 2004.*
3. *Komilov. N. Tasavvuf. T.: “Movarounnahr–O‘zbekiston”, 2009.*
4. *Ochilov E. Bir hovuch dur. –T.: “O‘zbeksiton”, 2011.*
5. *Farhangi zaboni tojiki. Jildi 1. S. 839.*
6. *G‘azzoliy Muhammad. Kimyoi saodat. –T:. “Kamalak”. 1995.*
7. *https://t.me/s/Muxlis_kanali?q2*

UO‘K 096.374.132

JALOLIDDIN RUMIY YASHAGAN DAVRDAGI IJTIMOIY, SIYOSIY, TARIXIY MUHIT

Jo‘rayeva O‘lmas Choriyevna,
Termiz davlat universiteti “Fuqarolik jamiyati” kafedrasi mudiri,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
jurayeva@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va tasavvuf allomasi Jaloliddin Rumiy yashagan davrning ijtimoiy, siyosiy va tarixiy muhitiga nazar tashlanadi. XIII asrda Yaqin Sharq va Anadolu hududlarida yuz bergan siyosiy jarayonlar, xususan, mo‘g‘ullar istilosi, Saljuqiylar saltanati inqirozi hamda turli sulolalar o‘rtasidagi ziddiyatlar Rumiyning hayoti va ijodiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Maqolada shu davr ijtimoiy hayoti, ilmiy-ma’rifiy muhit va tasavvufiy an’analarning rivojlanishi tahlil qilinadi. Rumiyning g‘oyalari insonparvarlik, bag‘rikenglik va ruhiy komillikka chorlovchi jihatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, maqolada Rumiyning shaxsiy hayoti, uning siyosiy notinchliklar va ijtimoiy beqarorlik muhitida tasavvuf orqali jamiyatni ma’naviy uyg‘otishga qaratilgan faoliyati ham yoritilgan. Ushbu tadqiqot tarixiy voqealarni tasavvufiy tafakkur bilan bog‘liq holda o‘rganish orqali Jaloliddin Rumiyning buyuk merosini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *Jaloliddin Rumiy, XIII asr, tasavvuf, siyosiy muhit, ijtimoiy hayot, tarixiy sharoit, mo‘g‘ullar istilosi, Saljuqiylar, ma’naviy meros.*

СОЦИАЛЬНАЯ, ПОЛИТИЧЕСКАЯ И ИСТОРИЧЕСКАЯ СРЕДА ЭПОХИ ДЖАЛАЛИДДИНА РУМИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается социальная, политическая и историческая среда эпохи, в которой жил великий мыслитель и суфий Джалалиддин Руми. XIII век характеризовался сложными процессами на Ближнем Востоке и в Анатолии: монгольскими нашествиями, распадом государства Сельджуков и противоречиями между различными династиями. Эти события оказали непосредственное влияние на жизнь и творчество Руми. В статье анализируются особенности общественной жизни того времени, развитие научно-просветительской среды и суфийских традиций. Особое внимание уделено гуманистическим идеям Руми, призывающим к духовному совершенству и толерантности. Также подчёркивается его деятельность, направленная на духовное пробуждение общества в условиях политической нестабильности. Исследование демонстрирует взаимосвязь исторических событий и суфийского мировоззрения, что позволяет глубже понять величие наследия Джалалиддина Руми.*

Ключевые слова: *Джалалиддин Руми, XIII век, суфизм, политическая среда, социальная жизнь, исторические условия, монгольское нашествие, сельджуки, духовное наследие.*

THE SOCIAL, POLITICAL, AND HISTORICAL ENVIRONMENT OF JALAL AL-DIN RUMI’S ERA

Abstract. *This article explores the social, political, and historical environment of the era in which the great thinker and Sufi master Jalal al-Din Rumi lived. The 13th century was marked by complex developments in the Middle East and Anatolia, including the Mongol invasions, the decline of the Seljuk dynasty, and conflicts among various ruling houses. These circumstances significantly influenced Rumi’s life and works. The article analyzes the socio-cultural context of the period, the development of scholarly and educational circles, and the flourishing of Sufi traditions. Special emphasis is placed on Rumi’s humanistic ideas that promote spiritual perfection, tolerance, and moral awakening. The study also highlights his role in inspiring society through spirituality during times of political turmoil. By linking historical events with Sufi thought, this research provides a deeper understanding of Jalal al-Din Rumi’s enduring intellectual and spiritual legacy.*

Keywords: *Jalal al-Din Rumi, 13th century, Sufism, political environment, social life, historical context, Mongol invasion, Seljuks, spiritual legacy.*

Kirish. Mavlono Jaloliddin Muhammad hijriy 609/1207-yildan 675/1275-yilgacha yashagan. Bu davr, ya’ni XIII asr, birinchi navbatda mo‘g‘ullar tomonidan yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik bilan ajralib turdi.

Bu davrda ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy inqirozlar sharoitida insoniyat borligini saqlab qolishga harakat qilgan siyosiy yetakchilar bilan bir qatorda xalqning ma’naviy-ma’rifiy yuksalishiga intilayotgan buyuk siymolar ham bor edi. Ana shunday buyuk shaxslardan biri Mavlono Jaloliddin Rumiydir.

Mavlono XIII asrda Anadolu saljuqiylar hukmronligining notinch va murakkab davrida yashagan. Bu davrda avvalgi salib yurishlari natijasida vayron bo‘lgan Anadolu yana islom o‘lkalarining talon-taroj qilinib, sharqdan mo‘g‘ullar hujumi natijasida vayron bo‘ldi. Bu davrda saljuqiylar hukmdorlari ichki nizolar va taxt uchun kurash olib borish bilan birga, mo‘g‘ullardan qochgan xorazmshohlarga qarshi ham kurashishga majbur bo‘lishgan. Anadoluga ko‘chib kelgan bu ikki kuch o‘rtasidagi janglar natijasida ko‘plab shaharlar vayron bo‘ldi va talon-taroj qilindi. Bu davrda qabul qilingan noto‘g‘ri siyosiy qarorlar ham bu vayronagarchilikni tezlashtirdi.

Umuman olganda, XIII asr, ya’ni Mavlono Jaloliddin Rumiy yashagan davr Anadolu saljuqiylari uchun siyosiy jihatdan og‘ir davr bo‘ldi. Bu davrning boshlanishi G‘iyosiddin I ning urushda vafot etishi va Izziddin Kaykovusning taxtga o‘tirishi hisoblanadi. Izziddin hukmronligi davri janglar bilan kechdi. Keyingi bosqichda taxtga o‘tirgan Alouddin Kayqubod davrida og‘ir ahvol biroz yengillashgan. Alouddin Kayqubod Konya va Sivas qal’alarini ta’mirlab, Vizantiyadan ozod qilingan Anadoluni o‘z vatani sifatida mustahkamladi. U xalifalikni mo‘g‘ullardan himoya qilish, milliy birlik uchun kurashgan.

Biroq, Xorazmshohlarga qarshi mo‘g‘ul bosqinlari mo‘g‘ul karvonlariga yetkazgan zarari tufayli Anadolu tomon yo‘naltirildi. Alouddinning mo‘g‘ullardan qochgan xorazmshohlarni Axlatda, Erzumda joylashtirish siyosati mo‘g‘ullarning g‘azabini keltirib, katta qo‘shin bilan Anadoluda vayronagarchiliklar uyushtirishga undadi. Bu orada Sharq yurishi bilan band bo‘lgan Alouddin mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi xorazmshohlar bilan ittifoq tuzishni taklif qiladi, ammo bu taklif rad etiladi. Turkiy hukmdorlar o‘rtasidagi siyosiy bo‘linish mo‘g‘ullarga qo‘l keldi va ular Anadoluga yanada kengayish imkoniga ega bo‘ldilar.

Sulton Alouddin Kayqubod I Xorazmshohlar bilan uzoq davom etgan urushlarga qaramay, xalqda kuchli va qudratli davlat tuyg‘usini singdirishga harakat qildi. Shu bilan birga Anadolu ham, Anadolu Saljuqiylar imperiyasi ham mo‘g‘ullar va Xorazmshohlar o‘rtasidagi urushlarda katta vayronagarchilikka uchradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mavlono Jaloliddin Rumiyning Anadolu tuprog‘iga kelgan davrida Saljuq davlati Bobo harakati kabi yirik qo‘zg‘olonlar bilan ham kurash olib bordi. Turkmanlar ustida katta ta’sirga ega bo‘lgan Bobo Is’hoq Xorazmshohlarni ham o‘ziga qo‘shib, ulkan isyon boshladi. U Sivasni egallab, xalqni qatl qildi, shaharlarni talon-taroj etdi. 1241-yilda bu isyon qiyinchilik bilan bostirildi.

Shu tariqa, Mavlono yashagan XIII asr Anadolu Saljuqlari uchun siyosiy jihatdan porloq davr emas edi. Ko‘plab vayronkor hodisalar, xalq boshiga tushgan azob-uqubatlar, tahdidlar tufayli yuzaga kelgan holat bu diyorda yashagan barcha odamlar singari Mavlononing ham hayoti, fikriy dunyosi va faoliyatida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qildi [2].

XIII asr ijtimoiy hayotida Mo‘g‘ul istilolari keltirib chiqargan beqarorliklar, siyosiy birlikning parchalanishi asosiy belgilovchi omillar bo‘ldi. Mavlono bunday ijtimoiy sharoitni bevosita o‘z hayotida boshdan kechirdi va davrning og‘irliklari uning oilaviy hayotini ham qiyinlashtirdi.

Bu voqealardan ko‘rinadiki, bu davrda davlat markazlashuvini yo‘qotdi. Salibchilarning hujumlari bilan buzilgan, Mo‘g‘ul istilolari bilan vayron bo‘lgan ijtimoiy muvozanatni qayta tiklashga ishonch yo‘qoldi. Mamlakatda paydo bo‘lgan ko‘plab ko‘chmanchilar anarxiyaning manbaiga aylandi, qo‘zg‘olonlar tufayli xalq ommaviy qirg‘inlarga duch keldi [3].

XIII asr Anadoluda diniy va fikriy oqimlarning paydo bo‘lishi, turli dinlarning bir-biriga ta’sir o‘tkazgan davri sifatida tanilgan. Bu davrdagi notinchlikdan ko‘plab odamlar zuhdu taqvo yo‘lini tanlab, tasavvufiy hayotga yuz burdilar. Tasavvuf XII–XIII asrlarda Movarounnahr, Markaziy Osiyo va Anadolu bo‘ylab keng yoyildi. Xilvat, zikr, riyozat, ibodat, samoga asoslangan ta’limotlar xalq orasida tarqaldi. Bu jarayon Mavlononing ham fikriy dunyosiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Uning otasi Bahouddin Valad “Kubraviylik” tariqatiga mansub bo‘lib, uning ta’limlari Mavlononing tarbiyasida muhim o‘rin tutdi. Keyinchalik Shams Tabriziy “Qalandariyya” tariqatiga mansub bo‘lib, Mavlono hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Shunday qilib, davrning siyosiy, ijtimoiy va fikriy sharoiti Mavlononing dunyoqarashi va asarlarida o‘z aksini topdi [1].

Natija va muhokama. Mavlono Jaloliddin Muhammad 1207-yilda Afg‘onistonning Balx shahrida tug‘ilgan. Unga Muhammad ismini berishgan. Keyinchalik unga “Sulton” ma’nosini bildiruvchi Jaloliddin va “Ustoz” ma’nosini anglatuvchi Mavlono laqablari berilgan. U Xudovandigor nomi bilan ham mashhur edi. Mavlono umrining ko‘p qismini Anadoluda (Kichik Osiyo) o‘tkazgani uchun tarixda Mavlono Rumiy, Mavlono Jaloliddin Rumiy yoki oddiygina Rumiy nomi bilan mashhur.

Mavlononing otasi Bahouddin Valad edi. Uning onasi “Modari Sulton” nomi bilan mashhur bo‘lib, Laranda (hozirgi Karaman)da dafn etilgan. Bahouddin Valad o‘z davrida mashhur shayx, ilohiyotchi va

murshid sifatida shuhrat qozongan. O‘z va’z va ta’limotlarida diniy va ijtimoiy qarashlarini ochiq ifoda etgani uchun Balx ahli uni hurmat bilan “Sulton ul-ulamo” – “Olimlar sultoni” deb atagan. Mafkuraviy tafovutlar tufayli u o‘zi tug‘ilgan Balxni tark etishga majbur bo‘ladi. U o‘zining yaqin hamkorlari, muridlar va oilasi bilan Balxni tark etadi. Yo‘l-yo‘lakay Bag‘dod orqali haj ziyoratini ado etib, so‘ng Madinaga boradi, Quddusdagi Al-Aqso masjidini ziyorat qiladi. Keyinchalik Shom (Damashq) orqali Anadoluga, dastlab Malatya, Erzinjonga yetib keldi. Saljuqiylar sultoni Alouddin Kayqubod taklifiga binoan Konya shahriga joylashadi [4].

Bu safarda Bahouddin Valadning xotini, to‘ng‘ich o‘g‘li Alouddin Muhammad va kenja o‘g‘li Jaloliddin Muhammad hamroh bo‘lgan. Yo‘l-yo‘lakay ular Nishopurda mashhur shoir va mutasavvif Farididdin Attorni uchratib qolishdi. Attor yosh Jaloliddinga “Asrornoma” asarini sovg‘a qildi. Mavlono keyinchalik “Masnaviy” asarini yozishda “Asrornoma”dagi ko‘plab hikoyatladan ilhom olgan.

1230-yillarda Bahouddin Valad bir muddat Larandada yashab, mahalliy aholi uchun maxsus madrasa qurgan. U 1231-yili Konyada vafot etgan, o‘g‘li Jaloliddin Mavlono uning ta’lim va ma’naviy merosini davom ettirgan. Bu davrda Mavlono o‘qishni davom ettirdi, otasining darslarida qatnashdi, taniqli allomalar asarlarini o‘qidi, so‘fiylik va diniy ilmlardan chuqur bilim oldi. Bahouddin Valad Mavlononi 18 yoshida Gavhar Xotunga uylantirdi. Bu nikohdan Mavlononing ikki o‘g‘li dunyoga keldi. Otasining vafotidan keyin Mavlono ilm olish uchun avval Halabga, so‘ngra Shomga (Damashq) boradi. U yerda yetti yil tahsil oldi, so‘ng Konyaga qaytib, so‘fiylik ilmini chuqurroq o‘rgandi. Nihoyat, 1273-yil jumodul oxir oyida vafot etdi.

Mavlononing tug‘ilgan joyi Balx shahri o‘rta asrlarda yirik madaniyat va ilm-fan markazi bo‘lgan. Hindiston, Xitoy, Turkiston va Eron chorrahasida joylashgan bu yer turli madaniyatlar va dinlar chorrahasi bo‘lib xizmat qilgan. Bu yerda islom paydo bo‘lgunga qadar buddizm va butparastlik yonma-yon yashagan. G‘aznaviylar davrida shahar turkiylar tasarrufiga o‘tib, “Ummul bilad” – “Shaharlar onasi” deb atalgan. Saljuqiylar davrida bu hududda mashhur Nizomiyya madrasalari ham faoliyat yuritgan. Bu yerda ko‘plab allomalar, shoirlar, mutasavviflar yetishib chiqqan [5].

Mavlono Balxni tark etgach, Chingizxon bostirib kirib, ko‘p o‘tmay 1221-yilda shaharni vayron qildi. Biroq Balxning boy ilmiy-madaniy muhitida ulg‘aygan Mavlono butun umri davomida bu muhit ta’sirini o‘zida olib yurdi. Uning “Masnaviy”ida keltirilgan hikoyat va ta’limotlar ko‘pincha otasi Bahouddin Valaddan, Balxdagi ilmiy an’analardan va uzoq safarlarida eshitgan hikoyalaridan olingan.

Mavlono Burhoniddin Termiziy rahnamoligida ma’rifat yo‘liga tushdi, ilm va tasavvufning yuksak darajasiga erishdi, murshidlik va shayxlik maqomiga erishdi, odamlarni hidoyat (to‘g‘ri yo‘lga boshlash) vazifasini o‘z zimmasiga oldi. Uning ilmga bo‘lgan ixlosi, fazilatlari, saxovatliligi odamlarning qalbidan chuqur joy oldi. Natijada Mavlononing mashhurligi ortdi. Mavlono o‘z davrining avliyolari va oddiy odamlari tomonidan buyuk murshid sifatida e’tirof etildi.

Mavlonoga oid asarlar “Masnaviy”, “Devoni Kabir”, “Fihi ma fihi”, “Majolisi sab’a” va “Maktubot” kabilardir. Bu asarlarning barchasi o‘sha davrning tili – fors tilida yozilgan. “Masnaviy” va “Devoni Kabir” she’riy, “Fihi ma fihi” va “Majolisi sab’a” esa nasriy asarlardir. Mavlono asarlarini o‘z davrining siyosiy, ijtimoiy muhitidan ta’sirlangan holda yozgan.

“Masnaviy” 25.632 baytdan iborat bo‘lib, olti jildlik asardir. U islom adabiyotida keng qo‘llangan “masnaviy” nomli nazm shaklida yozilgan bo‘lib, asar ham shu nom bilan mashhur bo‘lgan. Mavlono birinchi jildga yozgan muqaddimasida “Masnaviy”ni yozishdan maqsadini “Qur’onni anglashda va odamlarni axloqiy yetuklikka yetaklashda qo‘llanma bo‘lish” deb ta’kidlagan. Asarning dastlabki o‘n sakkiz baytini Mavlono o‘zi yozgan. Keyingi qismlarni esa u aytib borgan, Xusravuddin Chalabiy yozib borgan. Har bir jild yakunida Chalabiy Mavlono bilan birga asarni ko‘rib chiqib, toza nusxaga keltirgan. Shu bois, Mavlono qalam ushlamasdan, adabiy tashvishsiz, qalbidan chiqqan so‘zlarni bayon qilgan [6].

Mavlononing fors, arab va yunon tillarini bilishi bu asarning yanada kengroq kitobxonlar davrasiga yetib borishiga imkon bergan. “Masnaviy”da u biror mavzuni sharhlayotganda uni oson tushuntirish uchun bir hikoya keltiradi, so‘ngra hikoyani to‘xtatib, falsafiy haqiqatlar va hikmatlar haqida gapiradi. Keyin yana boshqa hikoyaga o‘tadi, oxirida esa oldingi hikoyani yakunlaydi.

Asarda ikki asosiy qutb mavjud: birinchisi – irfoniy qutb, ya’ni falsafiy va kalomiy qarashlarning manbai bo‘lmish tasavvufiy yo‘nalish. Bu yo‘nalishda bilim va ma’rifat orqali insonni haqiqatga yetaklash ko‘zda tutiladi. Ikkinchisi axloqiy qutbdir. Bu yo‘nalishda esa kibru havo, shon-shuhrat, hirs, hasad, adovat kabi nafs illatlariga qarshi kurash maqsad qilingan.

Mavlononing she’rlari to‘plangan “Devoni Kabir”da qasida, g‘azal va ruboiylari jamlangan. U boshqa shoirlardan farqli o‘laroq, o‘z ismi yoki taxallusidan foydalanmagan. Ba’zi g‘azallarida Salohiddin Zarkubiy yoki Husomuddin Chalabiy ismlarini, ba’zilarida esa Shams Tabriziy ismini ishlatgan.

“Devoni Kabir” xuddi “Masnaviy” kabi Mavlononing suhbat yoki jazba holatida aytgan she’rlaridan iborat bo‘lib, muridlar tomonidan yozib borilgan. Asarda ishq, umid, shukr, ma’shuqqa sog‘inch, iltijo, hijron iztirobi kabi tuyg‘ular keng o‘rin olgan [7].

Bu devon ilk marotaba Eron olimi Badiuzzamon Furuzonfar tomonidan asl nusxasiga mos tarzda turk tiliga tarjima qilingan.

“Fihi ma fihi” Mavlononing turli mavzular bo‘yicha qilgan suhbatlari to‘plamidan tashkil topgan. Ularning aksariyati o‘g‘li Sulton Valad tomonidan yig‘ilib, daftar holiga keltirilgan. Bu asarning nusxasi Konyadagi Mavlono muzeyi kutubxonasida saqlanmoqda. “Fihi ma fihi”da murshid–murid munosabatlari, jannat va do‘zax, inson, imon, ishq, dunyo kabi diniy va axloqiy mavzular yoritilgan.

“Majolisi sab’a” – Mavlononing yetti va’zidan tuzilgan asardir. Birinchi tarjimasi 1937-yilda Faridun Nafiz Uzluk tomonidan amalga oshirilgan. 1965-yilda Abdulboqi Golpinarli tomonidan yana bir tarjima chop etilgan. Bu asarda Mavlono har bir majlisni bir hadis bilan boshlaydi va uni hikoya hamda she’rlar orqali sharhlashga harakat qiladi [8].

“Maktubot” Mavlononing turli sabablarga ko‘ra, ayrim muammolarga yechim sifatida yozgan maktublaridan iborat bo‘lib, jami 147 maktubdan tashkil topgan. Ular Mavlono aytib, yaqinlari tomonidan yozib borilgan. “Maktubot” Abdulboqi Golpinarli tomonidan turkchaga tarjima qilingan. Mavlononing oldingi asarlarida qo‘llangan uslub bu asarda ham davom etadi. U Qur’on oyatlari, hadislar, hikoya va she’rlar orqali diniy va axloqiy mavzularni sharhlashda davom etgan [2].

Xulosa. Jaloliddin Rumiy yashagan davrning ijtimoiy, siyosiy va tarixiy manzarasi nafaqat uning shaxsiy hayoti va ijodiy faoliyatiga, balki butun musulmon Sharqi madaniy rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. XIII asrning o‘rtalarida Movarounnahr, Xuroson, Eron, Ozarbayjon va Anadolu mintaqalari siyosiy beqarorlik, mo‘g‘ul bosqinlari, sulolaviy ichki nizolar va diniy harakatlar girdobida qolgan bir paytda, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarning ma’naviy chaqiriqlari xalq qalbiga umid baxsh etib, ruhiy taskin manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Rumiy yashagan davrda siyosiy hokimiyatning zaiflashuvi, turli isyon va diniy oqimlarning kuchayishi natijasida jamiyatda beqarorlik va vahima hukmron bo‘lgan. Shu bois Rumiyning asarlari insonni ichki poklanish, muhabbat, mehr-oqibat, ruhiy komillikka da’vat etishi bilan davr ehtiyojiga javob bo‘ldi. Ayniqsa, mo‘g‘ullar istilosi keltirgan vayronagarchilik sharoitida uning ilohiy ishq haqidagi qarashlari odamlar qalbini zulmatdan yorug‘likka olib chiqishga xizmat qilgan.

Tarixiy muhit shuni ko‘rsatadiki, buyuk allomalar ko‘pincha eng og‘ir, eng beqaror davrlarda yuzaga chiqadi va o‘z davrining ma’naviy qiyofasiga aylanadi. Jaloliddin Rumiy ham shunday siymolardan biri bo‘lib, u yashagan davrning siyosiy notinchligi, ijtimoiy inqirozi va madaniy uzilishlari fonida yagona barqaror tayanch – ma’rifat va muhabbat falsafasini targ‘ib qildi.

Demak, Rumiyning faoliyati va merosini chuqur anglash uchun uning yashagan davrini, ya’ni XIII asrning o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy va tarixiy manzarasini bilish zarur. Chunki shoir va mutafakkirning tasavvufiy-falsafiy qarashlari bevosita shu davrning ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Shu ma’noda, Jaloliddin Rumiy hayoti va ijodi Sharq tarixida inqirozli davrda paydo bo‘lgan ma’naviy uyg‘onishning eng yorqin timsollaridan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. *Aflokiy Ahmad. Manoqib ul-orifin. Tarjimon: Tahsin Yaziji. – Istanbul. 2011.*
2. *Furuzonfar Badiuzzamon. Mavlono Jaloliddin. Tarjimon: Faridun Nafiz Uzluk. – Istanbul: MEB nashriyoti, 1963.*
3. *Gulpinarli Abdulboqiy. Mavlono Jaloliddin: hayoti, asarlari, falsafasi. 4-nashr. – Istanbul: Inqilob nashriyoti, 2010.*
4. *Mevlâna. Rubâîler, Halil İbrahim Sarıoğlu(hzl.). – Ankara: DİB Yayınları, 2013.*
5. *Nicholson RA. The Matnawi of Jalaluddin Rûmî. – Lahore: İslamîc Book Service, 1989.*
6. *Rumiy Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. – Toshkent: Kamolot, 2018.*
7. *Rumiy Jaloliddin. Ichindagi ichindadur. Falsafiy-ma’rifiy nashr /Ulug‘bek Hamdam tarj. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – 200 b.*
8. *Rumiy Jaloliddin. Masnaviyi ma’naviy. – Toshkent. 2010. – 695 b.*

UO‘K 93/94

AMIR TEMUR KO‘RAGON DAVRIDA XRISTIAN DINI VAKILLARIGA MUNOSABAT

Kenjayev Sardor Nurmurod o‘g‘li,
Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mustaqil izlanuvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
sardorkenjayev46@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Amir Temur ko‘ragon davrida xristian dini vakillariga munosabat, katolik cherkovi faoliyati, Chingizxon tomonidan tashkil qilingan ulkan mo‘g‘ullar saltanati vayronalarida tashkil qilingan Temuriylar imperiyasi davrida Amir Temurning dinlararo bag‘rikenglik siyosatini olib borganligi, xristian, buddaviylik, katolik cherkovi vakillariga bir xil munosabatda bo‘lganligiga oid ma’lumotlar xususidagi fikrlar ilmiy jihatdan dalillangan. Mo‘g‘ullar istilosiga qadar mintaqadagi xristian jamoalari faoliyati va xristian dini vakillariga munosabati Amir Temurning diniy bag‘rikenglik tamoyillariga asoslanganligidan dalolat beradi.*

Kalit so‘zlar**:** *katolik cherkovi, din, dinlararo munosabat, Amir Temur, temuriylar, geograf Orteliy, Lev X, papa Klement VII, xristianlik, buddaviylik, katolik cherkovi, bag‘rikenglik, munosabat.*

ОТНОШЕНИЕ К ПРЕДСТАВИТЕЛЯМ ХРИСТИАНСКОЙ РЕЛИГИИ В ПЕРИОД АМИРА ТИМУРА КУРАГАНА

Аннотация. *В данной статье научно обоснованы мнения об отношении к представителям христианской религии в период правления Амира Тимура Курагана, деятельности католической церкви, проведении Амиром Тимуром политики межконфессиональной терпимости в период империи Тимуридов, основанной на руинах огромной монгольской империи, созданной Чингисханом. Рассматривается то, что он одинаково относился к представителям христианства, буддизма и католической церкви. Деятельность христианских общин в регионе до монгольского нашествия и отношение Амира Тимура к представителям христианской религии свидетельствуют о том, что он руководствовался принципами религиозной терпимости.*

Ключевые слова: *католическая церковь, религия, межрелигиозные отношения, Амир Тимур, Тимуриды, географ Ортелий, Лев X, папа Климент VII, христианство, буддизм, католическая церковь, толерантность, отношения.*

ATTITUDE TOWARDS REPRESENTATIVES OF THE CHRISTIAN RELIGION DURING THE PERIOD OF AMIR TEMUR KURAGON

Abstract. *This article provides scientifically substantiated information about the attitude towards representatives of the Christian religion during the reign of Amir Temur Kuragon, the activities of the Catholic Church, and Amir Temur's policy of interreligious tolerance during the Timurid Empire, which was established on the ruins of the vast Mongol empire founded by Genghis Khan. It discusses Amir Temur's equal treatment of representatives of Christianity, Buddhism, and the Catholic Church. The activities of Christian communities in the region and the attitude towards representatives of the Christian religion prior to the Mongol invasion indicate that Amir Temur's approach was based on principles of religious tolerance.*

Keywords: *Catholic Church, religion, interreligious relations, Amir Temur, Timurids, geographer Ortelius, Leo X, Pope Clement VII, Christianity, Buddhism, Catholic Church, tolerance, relations.*

Kirish. Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson mintaqasida Marv xristianlar xususidagi dastlabki ma’lumotlar eng qadimgi hisoblanadi. Beruniy ma’lumotlari aytishicha, Marvda Iso Masih tug‘ilganidan 200 yil o‘tgach, ushbu din rohib Baraxiy tomonidan olib kirilgan. Arxeologik ma’lumotlar esa Marv shahri atrofida xristian ehromining III – IV asrlarda faoliyat ko‘rsatgani haqida ma’lumot beradi. Markaziy Osiyo hududida arxeologik qazilmalar natijasida V – XIV asrlarga mansub deb topilgan ko‘plab xristianlik yodgorliklari, jumladan, ibodatxona va monastirlarning xarobalari, freskali ikona yozuvlari, matolarga bitilgan ikonalar, Injil qissalari tasvirlangan keramikalar, bo‘yinga osiladigan xoch va medallar hamda xristianlik timsoli tushirilgan davlat tangalari, minglab xoch tushirilgan qabr toshlar yoki qabr ustiga qo‘yilgan xochlar ahamiyatga etiborga loyiqdir.Taxminan XIV asrda

xristianlik dining ta’siri pasayishni boshladi. Mintaqada yashovchi xristian jamoalari sonining kamayib ketishiga vabo kasalligining tarqalishi sabab bo‘lgan. Boshqa ayrim bir jamoalar ya’ni nasroniylar, iqtisodiy-ijtimoiy sabablarga ko‘ra islomni qabul qilganlar.

Adabiyotlar sharhi. Amir Temur davrida mintaqada katolik cherkovi faoliyatiga oid bo‘lgan manbalar, manbaviy ahamiyatga ega asarlar ilmiy jihatdan tahlillangan.

Metodologiya. Amir Temur davrida mintaqada katolik cherkovi faoliyati mavzusini ilmiy jihatdan tahlil qilish, pedagogik metodlar orqali talabalarga yetkazishda zamonaviy interfaol, multimedia, xronokross usullaridan foydalangan holda mavzuni yoritishdan iborat.

Muzokara. Amir Temur davrida mintaqada katolik cherkovi faoliyati mavzusida manbaviy ahamiyatga ega asarlar tizimli tahlili qiyosiy jihatdan klassifikatsiya qilingan.

Natijalar. Mazkur mavzuda fikr bildirilgan tarixiy, dalillangan faktlar ilmiy jihatdan o‘zining natijaviyligi va amaliyotga joriylanganligi bilan izohlanadi.

Ma’lumki, Samarqand va O‘rta Osiyodagi oxirgi nasroniylar uning nabirasi Mirzo Ulug‘bek tomonidan ta’qib qilingan. Biroq ishonchli manbalar yo‘qligi sababli, mintaqadagi suriyalik nasroniylarning kamayishi bilan bog‘liq tafsilotlar qorong‘iligicha qolmoqda. 1867-yilda ruslar hukmronligi davrida, rus va yevropalik ko‘chmanchilar va zobitlarga xizmat qilish uchun yirik shaharlarda pravoslav cherkovlari qurilgani mintaqaga Xristianlik dinining qaytishiga asos bo‘lgan.Mintaqada nasroniylik dinining tarqalish jarayonlarida sohibqiron Amir Temurning hokimyat tepasiga kelishi, ayni ziddiyatlar davrida to‘g‘ri keladi. Katolik cherkoving ikkiga bo‘linishida turli xil ijtimoiy omillardan biri o‘lat kasalligining feydal tabaqalari orasida qorishib ketishiga sabab bo‘lgan.Usmonlilar tasiri ostida mintaqaliklar, umid uchqunlari bilan qaray boshladi. Sharqdan Usmonli turklar mulki tomon son-sanoqsiz suvoriy qo‘shinlariga bosh bo‘lib kelayotgan, zakovot sohibi, mohir sarkarda buyuk qo‘mondon Amir Temur yaqinlashibkelmoqda edi.

Binobarin, Amir Temur XV – XVI asrlarda Yevropada siyosiy doiralarda (katolik cherkovi va o‘sha davrdagi eng qudratli mustabidlar orasida) mashhur bo‘lgan, u haqda Piy II, 1513-yilda papa Lev X va papa Klement VII saroyiga kelgan Djovio, 1575-yilda ispan qiroli Filipp II ning xaritakashi bo‘lgan geograf Orteliy, Karlning muarrixi Pedro Meksiyalar bilan diplomatik aloqalar olib brogan. Kichik Osiyoda bo‘lgan vaqtida Amir Temur Fransiya qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan olib borgan diplomatik yozishmalarida G‘arb mamlakatlari bilan muntazam savdo aloqalari o‘rnatish istagini bildiradi. Savdogarlarning qaysi dinga etiqod qilishidan qatiy nazar, ularni savdo erkinligi bilan ta’minlash ikki tomondan qo‘yilgan muhim shartlardan biri edi. Qirollarning xatlarida xristian savdogarlarning ham shaxsiy, ham savdo sohasidagi savodini oshirish zarurligi uqtirib o‘tilgan.Genrix IV dan kelgan maktubda Mirzo Mironshoh “Mirassa Amirassa” deb atalgan.

Qirol Mironshohning katoliklarga bo‘lgan do‘stona va xayrixohlik munosabatlari va “ayniqsa, diniy arboblarga va franko-katoliklarga lutfi karam baxsh etib, nasroniy savdogarlarning shaxsiy va faoliyat xavfsizligini ta’minlaganligi va barobariga savdo g‘araziga xayrixohligi” uchun minnatdorchilik izhor etadi. Maktubda “buyuk podshoh katolik dinining homiysi... bundan keyin ham bu qadar tavfiqli va saodatli niyatlardan voz kechmasligiga” umid bildiriladi. Angliya qiroli arxiepiskop Ioannga to‘la ishonishini bildiradi: u ingliz larning ishlaridan yaxshi xabardor ekanligi ma’lum. Maktub bunday yakunlanadi: “Bizning iltimosimizga ko‘ra ham, uning oliy martabasiga ko‘ra ham (arxiepiskopning) so‘zlariga to‘la ishonishingizni so‘raymiz, shuningdek, unga bo‘ysunganlarning hammasini va maxsus biriktirilgan yana necha shaxsni ham qabul qilishingizni so‘raymiz, bizga hammasini aniq tavsif etingki, biz ham o‘z tarafimizdan janoblarining istaklarini bajo keltirgaymiz” Maktub London shimolidagi Xortfordda fevral oyida, aniqlanishicha, 1402-yilda (maktubda yil ko‘rsatilmagan) yozilgan. Genrix IV ning Amir Temurga maktubi sohibqironning hozirgacha saqlangan maktubiga javoban yozilgan.

Yuqoridagi holatlar Amir Temur va temuriylar davrida xalqaro munosabatlar va diplomatiyalar tarixida qo‘shni davlatlar bilan diplomatik aloqalar olib borganligidan dalolat beradi. U shunday boshlanadi: “Genrix, xudoning marhamati bilan Angliya va Fransiya qiroli, shuningdek Irlandiya hokimi, buyuk va qudratli podshoh Temurbekka, Tangrini sevuvchi do‘stga, hammasining xaloskoriga salom va tinchlik bo‘lsin”. Maktubda aytiladiki, Amir Temurning Angliya qiroliga mudom do‘stlik munosabati (bu hakda u arxiepiskop Ioanndan biladi), qirol bunga arzimasa ham, Angliyada yuqori baholanadi. Amir Temurga buning uchun minnatdorchilik biddiriladi. Qirol Amir Temur fuqarolari bilan Genrix fuqarolari o‘rtasida erkin savdo munosabatlarini o‘rnatish haqidagi taklifga rozilik bildiradi. U yana yozadi: “bundan keyin ham bizga va fuqarolarimizga mudom xayrixohligingiz bilan tasarrufingiz dagi mulkingizga borsalar va sizning sav dogarlaringiz ham bizning mulkimizga kelishsa, biz shuning tarafdorimiz”. Ibn Arabshoh ma’lumotlaridan kelib chiqqan xulosalarni Amir Temur saroyiga 1403-1406-yillarda kelgan Kastiliya (Ispaniya) qiroli Enrike III (1390-1407 yy) ning elchisi Rui Gonsales de Klavixo yozib qoldirgan

ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Uning 1406-yilda o‘z vatani – Ispaniyaga qaytgandan keyin chop etilgan “Samarqandga Temurbek saroyiga sayohat kundaligi” asarida Amir Temur davlatida xristian dinining yakovitlar, yunon katoliklari, nestorianlar, arman grigoryan cherkoviga e’tiqod qiluvchilarning tinch va osuda hayot kechirishlari bilan bog‘liq ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Shuningdek, asarda xristianlikning Xitoy va Hindistonga qadar tarqalganligi va bu yerlardagi nasroniylarning ham Amir Temur saltanatiga bo‘ysunishi haqida aytib o‘tiladi[3;-130].

Amir Temur hukmronligi davrida barcha din vakillari ahillikda yashaganliklari, Temur qo‘shinida turli e’tiqoddagi kishilar bo‘lganligini o‘sha davr tarixchilarining asarlaridagi ma’lumotlar tasdiqlaydi. Jumladan, Ibn Arabshoh o‘zining “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) asarida: “Temur askarlari ichida butparast turklar, olovga sajda qiluvchi majusiy ajamlar, kohinlaru, sehrgarlar, zolimlaru munkirlar bor edi. Butparastlar (o‘z) sanamlarini ko‘tarib yurar, kohinlar esa kalomlarini saj’ bilan ifoda qilardilar. Ushbu ma’lumotlardan Amir Temur askarlari ichida turli din vakillari, jumladan, xristianlar ham mavjud bo‘lganligini anglash qiyin emas.

Albatta, Ibn Arabshoh Amir Temurga bo‘lgan nafratini ham yashirib o‘tirmaydi. Temuriylar davlatida xristianlikka alohida e’tibor mavjud bo‘lganligini G‘arb olamida Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshoh “xristian dinining homiysi” sifatida mashhur bo‘lganligi fakti ham isbotlaydi. Amir Temur askarlari orasida xristianlarning bo‘lganligini bejizga emas. Chunki, o‘sha davrlarda papalar tomonidan jo‘natilgan missionerlar ayrim ko‘chmanchi hayot tarzida umrguzaronlik qiluvchi qabilalar orasida xristianlikni yoyishga muvaffaq bo‘lgan edilar. O‘sha davrda qandaydir Ioann Yelemozina ismli ruhoniy tomonidan chop etilgan “Liber historiarum” asari bu haqda bizga qiziqarli ma’lumotlarni beradi [2,96].Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, Amir Temur hukmronligi davrida xristian dini Markaziy Osiyo, Eron mintaqalarida mavjud bo‘lib, ularga nisbatan hech qanday diniy va siyosiy ta’qib olib borilmagan, deya xulosa chiqarish mumkin.

Xristian dini ixlosmandlari Amir Temur saltanatida o‘z e’tiqodlariga erkin sig‘inishda davom etganlar. Ayrim G‘arb olimlari ta’kidlaganlaridek, Amir Temurning mutaassib musulmon bo‘lmaganligi hamda uning diniy bag‘rikenglik siyosatini olib borganligini imkon qadar yoritishga harakat qilindi. O‘z o‘rnida ta’kidlash lozimki, bu davrda xristianlik dinining katolik mazhabi targ‘iboti ham davom ettirilganligiga aslo shubha yo‘q. Chunki, Amir Temur davlati o‘z qudratining cho‘qqisida bo‘lgan 1393- yilda Urganchda katolik yeparxiyasi qayta tashkil etilgan edi. Xulosa qilib aytganda, Amir Temur o‘z hukmronligi davrida saltanat hududidagi katolik, nestorian, monofizist, arman milliy cherkovi, zix (cherkas) cherkovi, yunon cherkovi, yakovitlar kabi xristian diniga e’tiqod qiluvchi ko‘pdan-ko‘p aholi tabaqalarini musulmonlar kabi erkin yashashlari, o‘z dinlari va e’tiqodlariga erkin sig‘inishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga harakat qilgan. Bu esa uni diniy mutaassiblikda ayblagan ayrim mualliflar fikr mulohazalarning ochiq-oydin tuhmat ekanligini ko‘rsatadi.

Turli adabiyotlarga ko‘ra, XIII-XIV asrlarda Amir Temur va temuriylar poytaxti vazifasini bajargan, o‘z davrining yirik iqtisodiy, madaniy markazlaridan bo‘lgan Samarqand shahrida katoliklarning missionerlik faoliyati natijasida vujudga kelgan avliyo Ioann cherkovi faoliyat ko‘rsatgan .Bu ma’lumot Amir Temur davrida xristianlikning ta’qib ostiga olinmaganligini ko‘rsatib beradi. Turli G‘arb mualliflari kitoblarida tasvirlangan diniy ta’qib va Amir Temurning mutaassib musulmon bo‘lganligi haqidagi fikrlar shunchaki uydirma bo‘lgan, xolos. Amir Temur davlatida xristian dinining barcha mazhablari rivojlanganligi alohida xarakterlidir. Jumladan, bu davrda Kichik Osiyodagi yunon xristian cherkovi, monofizistlar, gruzin va zix (cherkaslar) cherkovi, melьkitlar, Antioxiya va Ierusalim patriarxlariga bo‘ysunuvchilar, maronitlar, Salavkiya-Ktesifon cherkoviga bo‘ysunuvchi nestorianlar, arman milliy cherkovi hamda yakovitlar o‘z e’tiqodlariga bemalol amal qilib yashardilar. G‘arb tarixchilari ta’kidlaganidek, Amir Temur yakovitlarni diniy ta’qib orqali jazolaganligi bilan bog‘liq ma’lumotlar tarixiy manbalar orqali o‘z tasdig‘ini topgan emas. Ehtimol, XIV asrda Xorazmda bu mazhabning keng tarqalgani va Amir Temurning Xorazmga bir necha marotaba harbiy yurish uyushtirishi bu uydirmaning vujudga kelishiga sabab bo‘lgandir. Ammo, mahalliy aholining katta qismi e’tiqod qilgan islom dinidagilar ham bu harbiy harakatlarda katta zarar ko‘rgan bo‘lishi tabiiy. Jan-Pol Ru ma’lumotlarida Amir Temurning harbiy harakatlar amalga oshirish jarayonida qisman gruzin va arman cherkovlariga zarar keltirganligi haqida aytib o‘tiladi [5, 203-204].

Xulosa. Temur vafotidan so‘ng yurtiga qaytgan tarixchi Ibn Arabshoh ma’lumotlari tasdiqlaydi. Ibn Arabshohning yozishicha: “Temur Chingizxon qoidalariga e’tiqodli bo‘lib, (uning nazmida) ushbu qoidalar islom dinidagi fiqh furu’lari kabi edi. U Chingizxon qoidalaridan yurib, uni Muhammad shariatidan ustun tutar edi. Shuningdek, har bir chig‘atoylik, Dasht, Xitoy va Turkiston ahli va o‘sha avomlarning hammalari tangri la’natlagan Chingizxon qoidalarini islom qoidalaridan ustun qo‘yardilar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib bemalol ayta olamizki, mo‘g‘ullar istilosi davriga qadar ham yurtimizda va boshqa Sharq elatlari orasida xristanlikka e’tiqod qiluvchilar soni anchagina edi. Mo‘g‘ullarning diniy e’tiqodda erkinlik berish

siyosati esa barcha dinlar taraqqiyotiga yo‘l ochadi. Bu davrda, ayniqsa, xristianlik dini va uning mazhablari erkin rivojlanish jarayonini boshdan kechirgan. Ayrim mo‘g‘ul xonzodalari va xonlari ham xristianlikning katolik diniga o‘tib, uning targ‘ibotiga homiylik qiladilar.

Ayni paytda, ko‘pgina mo‘g‘ul xukmdorlarining islomdan boshqa dinlarni rag‘batlantirishi musulmon tarixiy adabiyotlarida ularning islom diniga zug‘um qiluvchi, ta’qib o‘tkazuvchilar sifatida baholanishiga ham sabab bo‘lgan edi. Mo‘g‘ullar istilosi davrida, shuningdek, shomonlik (qam), buddaviylik, yahudiylik va boshqa dinlarning rivojlanishi va o‘z muxlislarining erkin e’tiqod qilishlari uchun keng imkoniyat yaratildi. Turk-mo‘g‘ul an’analari mahalliy o‘troq an’analar bilan qorishib ketdi. Keyingi davrlarda bu an’analar ta’sirining islom dini mafkurasi bilan qo‘shilib borishi kuzatiladi. Bu esa shomonlik e’tiqodi qoldiqlarining bugungi kunga qadar yashab qolishini ta’minlab bergan.

Yana ta’kidlash lozimki, sohibqiron Amir Temur saltanati hududida xristianlik dinining turli mazhab va oqimlariga e’tiqod qiluvchilar tinch hayot kechirib, ular uchun e’tiqod erkinligi ta’minlab berildi. Bu esa ayrim G‘arb mualliflari tomonidan Amir Temurga nisbatan islom dinining fanati sifatida qaralishi mutlaqo tuhmat ekanligini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, mo‘g‘ullar hukmronligi va Amir Temur saltanati mavjud bo‘lib turgan davrlarda xristianlik, buddaviylik, yahudiylik va boshqa din vakillari yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lganlar. Chingizxon davridan boshlab amalga oshirilgan diniy bag‘rikenglik siyosatini dastlab mo‘g‘ul hukmdorlari, so‘ngra Amir Temur va temuriylar davom ettirganliklari ushbu davlatlarda markaziy hokimiyat qudrati kuchayishining asosiy omillaridan biri edi. Biz esa Chingizxon va Amir Temurning diniy bag‘rikenglik siyosati davlatning mustahamligi kafolati bo‘lganligini inobatga olgan holda bu siyosat ularning ulug‘vorlik sifatlaridan biri ekanligini bemalol e’tirof eta olamiz.

ADABIYOTLAR:

1. *Клавихо, Руи Гонсалес де. Буюк Амир Темур тарихи (1403-1406); Тарж., У. Жўраев // Амир Темур Европа элчилари нигоҳида / Масъул муҳаррир А. Х. Саидов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007. – Б. 130.*
2. *Ибн Арабшоҳ. Темур тарихида тақдир ажойиботлари / Араб тилидан таржима ва изоҳларни, сўз бошини У. Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир А. Ўринбоев. К. 2. – Т.: Меҳнат, 1992. – Б. 96.*
3. *Приходько Г. История христианства в Казахстане и Средней Азии в средние века (URL: catholic-kazakhstan.org/hist/3.html). С. 145.*
4. *Религии, распространенные www.orexca.com/rus/religia.shtml).*
5. *Ру Ж.-П. Тамерлан / Жан-Поль Ру; пер. с фр. Е. А. Соколова; послесл. В. Л. Егорова; прил. – 4-е изд. – М.: Молодая гвардия, 2007. – С. 203-204.*
6. *https://uz.wikipedia*
7. *https://eurasianet.org/*

UO‘K 94:339(575.3)

TURKISTONNING BADIIY SHISHA BUYUMLARI (IX-XIII ASR BOSHLARI)

Mamataliyeva Surayyo Bobomuratovna,
O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi
Tarix instituti tayanch doktoranti
surayyomamataliyeva143@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola Turkistonda o‘rta asrlarda rivojlangan badiiy shishasozlik buyumlarini tahlil qiladi. Birinchi Renessans davrida (IX–XIII asr boshlarida) barcha sohalarda kuzatilgan yuksalish jarayoni shishasozlik san’atida ham namoyon bo‘lgan. Bu davrda shishasozlik Turkistonda eng rivojlangan hunarmandchilik turlaridan biri sifatida shakllandi. Bu davrda shishadan nafaqat xo‘jalik ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan oddiy buyumlar, balki mohir ustalar tomonidan yuksak san’at darajasida yaratilgan badiiy va nafis asarlar ham ishlab chiqarilgan. San’at darajasiga ko‘tarilgan bu buyumlar oliy tabaqa va boy zodogonlar xonadonlarini bezash, diplomatik sovg‘a sifatida taqdim etish, mehmonxonalarda dasturxon ustida xizmat ko‘rsatish hamda javonlarni bezash kabi vazifalarni bajargan. Shuningdek, shisha buyumlari bilan savdo qilgan turkistonlik savdogarlar o‘z mahsulotlaridan faxrlangan va ularni xorijiy mamlakatlarga katta daromad evaziga sotishgan.*

Kalit so‘zlar: *shisha, badiiy shishalar, arab-islimiy yozuvli shishalar, zoolatrik naqshlar, elitar shisha buyumlar, dasturxon idishlari, javonlarni bezash, savdo.*

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ СТЕКЛЯННЫЕ ИЗДЕЛИЯ ТУРКЕСТАНА (IX – НАЧАЛО XIII вв.)

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу художественных стеклянных изделий, производившихся в Средние века в Туркестане. В период Первого Ренессанса (IX – начало XIII вв.) общий подъём во всех сферах проявился и в стеклоделии. В это время стеклоделие стало одной из наиболее развитых отраслей ремесла в Туркестане. В этот период из стекла изготавливались не только простые изделия для хозяйственных нужд, но и изящные художественные произведения, созданные искусными мастерами. Эти изделия, возведённые до уровня искусства, служили для украшения домов знати и богатых аристократов, преподносились в качестве дипломатических подарков, использовались при приёме гостей за столом и для украшения полок. Торговцы Туркестана, занимавшиеся продажей стеклянных изделий, гордились своей продукцией и реализовывали её за рубежом за значительную прибыль.*

Ключевые слова: *стекло, художественные изделия из стекла, стекло с арабо-исламской надписью, зоолатрические орнаменты, элитарные стеклянные изделия, столовая посуда, украшение полок, торговля.*

ARTISTIC GLASSWARE OF TURKESTAN (9TH – EARLY 13TH CENTURIES)

Abstract. *This article analyzes the artistic glassware produced in medieval Turkestan. During the First Renaissance period (9th – early 13th centuries), the overall cultural and economic flourishing was also reflected in the art of glassmaking. At that time, glassmaking became one of the most highly developed crafts in Turkestan. During this period, glass was used not only for the production of simple utilitarian objects but also for the creation of refined artistic works crafted by skilled masters. Elevated to the level of artistic masterpieces, these objects served to decorate the residences of the elite and wealthy aristocracy, functioned as diplomatic gifts, were used in the reception of guests at banquets, and adorned household shelves. Merchants of Turkestan, engaged in the glass trade, took pride in their products and sold them abroad for considerable profit.*

Keywords: *glass, artistic glassware, glass with Arabic-Islamic inscriptions, zoomorphic ornaments, elite glass objects, tableware, shelf decoration, trade.*

Kirish. Turkiston o‘lkasi azaldan Sharq va G‘arbni bog‘lovchi Buyuk Ipak yo‘lining asosiy markazi bo‘lib, bu yerda moddiy va ma’naviy madaniyatning go‘zal namunalari paydo bo‘lgan. Xususan, IX-XIII asrlar mobaynida Turkistonda san’at darajasiga ko‘tarilgan shishasozlik o‘ziga xos rivojlanish bosqichiga

ko‘tarildi. Bu davrda yaratilgan shisha idishlar nafaqat kundalik ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki estetik did, badiiy tafakkur, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning yorqin ifodasi sifatida ham xizmat qilgan.

Shishasozlik ilmiy kashfiyotlar, texnologik tajribalar va o‘sha davrning hunarmandchilik an’analari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi. Turkistonlik hunarmandlar shishaga ishlov berishning turli-tuman san’at usullarini – bo‘yash, o‘ymakorlik, qoliplash va bezashni nozik usullardan foydalangan holda qo‘llaganlar. Natijada hosil bo‘lgan mahsulotlar – ko‘zalar, kosalar, idish-tovoqlar, diniy marosimlarda qo‘llaniladigan buyumlar nafaqat amaliy ahamiyatga ega, balki yuksak badiiy saviyaga ham ega bo‘ldi.

Bu davr shisha san’ati Sharqning boshqa markazlari – Eron, Xuroson, Bag‘dod, Misr hunarmandchiligi bilan hamohang rivojlangan bo‘lsa-da, Turkiston maktabi o‘zining milliy o‘ziga xosligi, ramziy naqshlari, uyg‘un shakl va ranglari bilan ajralib turardi. Binobarin, bu davr yodgorliklarini o‘rganish nafaqat badiiy-estetik qadriyatlarni, balki butun Turkistonning moddiy madaniy merosini chuqurroq anglashda muhim manba hisoblanadi.

Turkistonda IX–XIII asr boshlarida shishasozlik eng rivojlangan hunarmandchilik turlaridan biriga aylandi. Bunda siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy omillar muhim rol o‘ynadi. Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar sulolalari hukmronligi davrida yuzaga kelgan nisbatan siyosiy barqarorlik xalq xo‘jaligining yuksalishiga zamin yaratdi. Mintaqada yuz bergan “kumush inqirozi” [1] esa kumush quyuvchi ustalarning shishasozlikka o‘tishiga sabab bo‘ldi [2]. Islom dini qoidalarining jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi natijasida oltin va kumush buyumlar o‘rnini borgan sari shisha mahsulotlari egalladi [3]. Shishasozlik ustaxonalari ikki yo‘nalishda faoliyat yuritgan: oddiy aholi uchun kundalik xo‘jalik buyumlari ishlab chiqarish hamda boy zodagonlar uchun san’at asari darajasida nafis va hashamatli buyumlar yaratish.

Shisha idishlar sopol buyumlari kabi ko‘plab ishlatilib, qishloqlarda ham qo‘llanilgan bo‘lsa-da, asosan shahar hayotiga xos bo‘lib qoldi [4]. Yirik shaharlarda turli rangli va xilma-xil shaklli idishlar keng tarqaldi. Masalan, Panjikentliklar mo‘g‘ullar istilosigacha bo‘lgan davrda oshxona idishlari, xo‘jalik anjomlari, tibbiyot-pardoz uchun mo‘ljallangan idishlar, kimyoviy laboratoriyalarda qo‘llanilgan shisha buyumlar, taqinchoqlar va deraza oynalaridan foydalanishgan [5]. Xulbukda dasturxon anjomlari, tibbiyot-pardoz buyumlari hamda kimyoviy idishlar yasalgan [6]. Tarkibi jihatidan Xulbuk shishalari Samarqand, Quva va Axsikent idishlari bilan bir guruhga mansub hisoblanadi [4]. Arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, bu markazlarda IX–XII asrlarda shishasozlik yuksak darajada rivojlangan. Elita tabaqa uchun mo‘ljallangan shisha buyumlar odatda bo‘rtma bezakli, naqshinkor va hashamatli bo‘lib, saroylar va zodagonlarning uylarini bezashda, bazmlarda dasturxon ustida xizmat ko‘rsatishda ishlatilgan [7]. Oddiy aholi uchun esa bezaksiz, sodda va ko‘p miqdorda tayyorlangan shisha idishlar keng tarqalgan. Ayniqsa, Axsikent ustalarining oddiy, kam bezatilgan va nisbatan arzon idishlari aholining keng qatlamiga kirib borgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. San’at asari darajasida ishlab chiqarilgan buyumlar quyidagi turlarga bo‘lingan:

Badiiylashgan shisha buyumlar. Aholi moddiy jihatdan boyigach, nafis san’at asarlariga ehtiyoj ortdi. Samarqand ustalari aholining didi va talabidan kelib chiqib, shuningdek, tashqi savdo orqali ko‘rgan buyumlarini takrorlash yoki o‘z tasavvuridagi shakllarni yaratishga harakat qilgan. Afrosiyobdan topilgan ajdaho ko‘rinishidagi grifon-flakon hamda baliq shaklidagi idish badiiy shisha mahsulotlarining yorqin namunalaridan sanaladi[8]. Ular nafisligi tufayli hukmdorlarga sovg‘a sifatida taqdim qilingan [9].

Arab islimiy yozuvli shisha buyumlar. Turkistonda sopol idishlarda keng tarqalgan kufiy, nasx va murakkaf yozuvlar shishalarda ham qo‘llanilgan. Axsikentda IX–XII asrlarda sopol va shisha buyumlarda hadislar, Qur’on oyatlari, aforizmlar bitilgan [10]. Ba’zi hollarda yozuvlar faqat bezak sifatida ishlatilgan. Afrosiyobda gipsga o‘rnatilgan turli ranglar saqlangan 5 ta siyohdonning tagliklari bezalgan, ba’zilarida arab yozuvlar yozilgan [11]. Xayrobodtepa (Surxondaryo viloyati) aholisi o‘rta asrlarga xos bo‘rtma naqshlar bilan bezatilgan (XI-XII asrlar) shisha idishlardan foydalanishgan [12]. Idishlar biriga medalyon yopishtirilgan bo‘lib, unda aylana shaklda arab yozuvi bortma qilib yozilgan. Yozuvning bir qismi ya’ni “ish” so‘zi saqlanib qolgan. Termizshohlar saroyini bezab turgan medalyonlarda arab yozuvlari hamda hayvonlarning bo‘rtma tasviri tushirilgan[13]. Elardan birida arab tilida “Eng buyuk sulton Abul-Muzaffar Bahromshoh uchun” yoki “Eng katta sarkarda, g‘olib bo‘lgan Bahromshoh o‘g‘li uchun” degan ma’noni anglatuvchi ibora yozilgan [13]. Ushbu medaylon eng katta Sulton Abul-Muzaffar Bahromshohga (Bahromshohning o‘g‘li) tegishli bo‘lgan [14]. Unda “Shohnoma” asariga ishlangan tasvirlar bo‘lishi mumkin.

Badiiylashgan elitar idishlar. VIII asrda Samarqand (Afrosiyob) va Panjikent shaharlarida elita qatlam vakillari tomonidan turli rangli va shakldagi shisha idishlardan foydalanilgan. Buxoroda qo‘ng‘iroqsimon shakldagi yashil qadahlar (ryumkalar), shaffof ko‘k rangli krujkalar va stakanlar ishlatilgan [15]. Bu idishlar ko‘pincha bayramlar, bazmlar va mehmon dasturxoni uchun xizmat qilgan. Boylar turli o‘lchamdagi

idishlardan foydalanib, o‘z ijtimoiy mavqeini namoyon etgan. Shu davrda shishadan yasalgan ritonlar diniy ahamiyatini yo‘qotib, boylik va hasham ramziga aylangan [16].

Afrosiyobda shisha idishlarning bezakli, bo‘rtma naqshli, turli shakl berilgan, iplar bilan bezatilgan turlari foydalanilgan [17]. Somoniylar hukmronligi davrida (IX–X asrlar) shishasozlik yanada yuksak badiiy darajaga ko‘tarildi. Afrosiyob va Buxoroda bo‘rtma naqshli, ipchalar bilan bezatilgan, turli shakllar berilgan idishlar keng tarqalgan [18]. Samarqandda yupqa devorli, ko‘k rangli shisha grafinlar, bo‘rtma yo‘l-yo‘l naqshlar bilan bezatilgan silindrsimon idishlar, kalta oyoqli ryumkalar yasalgan [19]. Bu idishlar dasturxonda suyuq ichimliklar, shirinliklar va ziravorlar tortishda ishlatilgan. Shu bilan birga, ular ijtimoiy tabaqalashuv va madaniy an’analarni ko‘rsatib turgan. Qoraxoniylar hukmronligi davrida (XI asrning ikkinchi yarmi – XII asr boshlarida) idishlar shakli va bezaklari xilma-xillashdi[18].

Natija va muhokama. Konussimon, uzun bo‘yinli, asosiy qismi yumaloq sariq rangli idishlar keng tarqalgan. Ular ko‘pincha 3–4 qator ipchalar bilan bezatilgan. Axsikent shahrida bo‘rtma qolipda puflab tayyorlangan murakkab shakldagi idishlar, rangli shisha kosalar, grafinlar va bezakli ko‘zalar ishlab chiqarilgan [20]. Axsikent ustalari idishlarni nafaqat mahalliy ehtiyoj uchun, balki tashqi bozorlar uchun ham tayyorlashgan [21]. Axsikentda IX-XIII asrlarda sopol va shisha buyumlar mahorat bilan ishlab chiqarilganki, o‘zining ixchamligi, gullarining ko‘rkamligi bilan Afrosiyob va Buxoro buyumlari bilan bemalol raqobat qila olgan [21]. Piyolasimon idishlar yashil, tiniq rangli shishalardan tayyorlangan bo‘lib, ichimlik ichish uchun ishlatilgan. Ular yana dasturxonga turli ziravorlar, shirinliklar, kichkina mevalar, quruq mevalar, turli ko‘rinishdagi yong‘oqlar va qattiq shirinlik tortish uchun ishlatilgan bo‘lishi mumkin. Bu ko‘rinishdagi idishlar Poykend va boshqa shaharlarda ham mehmondorchilik an’analarida, bazm dasturxonlarida ishlatilgan [22].

Bezalgan rangli kosalar ham dasturxonga mehmonlar yoki biron bayramda mevalar, suyuqliklar, yarim suyuq shirinliklar (qaynatilgan uzum – shinni, asal, nisholda va boshqalar) tortish uchun ishlatilgan bo‘lishi mumkin. Suv idishlar tutqichi ushlash uchun barmoqlarga qulay qilib ishlangan. Bu turdagi idishlar Turkiston va Eronning hamma joyida eng keng tarqalgan shakllardan hisoblanadi. Qadahlar Turkiston va Eronda mavjud shakllarda sariq rangda yasalgan. Ko‘zasimon suv idishlar, grafinlarda qadahlar bilan birga shirin suv, sharob, maxsus suyuq ichimlik dasturxonga tortilgan. Turkistonning shimoliy hududlarida xo‘jalikdan kelib chiqib, bu idishlarda qimiz, ayron, ot va tuya sutlaridan tayyorlangan ichimliklar tortilgan.

Samarqandda o‘simliklar bilan bezatilgan sariq rangli idish, yo‘l yo‘l qovurg‘ali yashil rangli pardoz idishi, yashil rangli kichkina ko‘za, tanasi qovurg‘ali idishlar [23] bazm dasurxonlaida foydalanilgan. Bu davrda aholi (IX-X asr) chiroyli bezatilgan qoshiqlar, ko‘zalar, kichkina idishlardan foydalangan[24]. Turkistonda keng tarqalgan tutqichli va tutqichsiz krujkalar (VIII-XII asrlar) [16] to‘ylarda ishlatilgan. To‘y marosimida kelin-kuyov shishadan chiroyli qilib yasalgan tutqichli suv idishlarda shirin suv ichishgan. Hunarmandlar an’analarni hisobga olgan holda kundalik ro‘zg‘or buyumlar, mehmonxonalarni bezatish va mehmonlar kelganda dasturxonlarni bezatish uchun, turli marosim, bayram va bazmlarda ishlatiladigan idishlar yasashgan. Bu idishlar sopoldan, kumushdan, shishadan yasalib, hunarmandning ishlov berishi, qimmatbaholigi bilan ajralib turgan. Kundalikda ishlatiladigan shisha idishlar oddiy, bezaksiz, bir xil shaklda yasalgan bo‘lsa, mehmonlar uchun ishlatilgan idishlar hashamdor, tilla, kumush suvlari yuritilgan, maxsus bezakli qoliplar yordamida ishlab chiqarilgan.

Zoomorf shakldagi shisha buyumlar. Turkistonda hayvon, qush va afsonaviy mavjudot tasviri tushirilgan sopol [25] va shisha buyumlar keng tarqalgan. Shisha idishlarda ilon, qush, ot, it, baliq tasvirlari eng ko‘p qo‘llanilgan. Ilon tasvirli idishlar: dori idishlari sifatida ishlatilgan, ilon timsoli himoya ramzi bo‘lgan. Ilon tasviri tushirilgan buyumlar dori idishlarida foydalanilgan va ilon idish ichidagi mahsulotni himoya qiladi deb ishonilgan [24]. Ilondan qadimdan foydalanilgan [26]. Ko‘zada ilon tasviri tushirish Ozarboyning Shamkir xududida topilgan idishda ham ko‘rinadi [27]. Shuningdek, og‘iz qismi ilon shaklida yasalgan ko‘zalar ham foydalanilgan [3]. Ozarbayjondagi ko‘zalarining o‘xshashlari Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan bo‘lib, IX-X asrlarda ham foydalanilgan. Ilon qadimdan ertak va afsonalarda aqllilik, donishmandlik kabi ijobiy obrazlarda tasvirlangan [27]. Qush tasvirlari: “baxt qushi” ramzi sifatida qo‘llangan. Qushsimon va qushlar tasviri tushirilgan idishlar qadimdan pardoz idishlari sifatida ishlatilgan [6]. Turkistonda qadimdan hunarmandchilik buyumlariga (temirchilik, tosh, sopol idishlarga) qush va rivojlangan o‘rta asrlarga kelib quyon tasviri tushirilgan [28].

XI-XII asrlardan Turkiston, Eron va unga qo‘shni boshqa xalqlarda qushlarni jonzot sifatida emas, balki “baxt qushi” ramzida tasvirlashgan. Qush tasviri tushirilgan buyumlar ilohiy hisoblanib, qush baxt va boylik olib keladi deb hisoblashgan [29]. Shisha medalonda quyonni tutgan burgut, sopol idishda ayol-qush bo‘rtma tasviri, burgut tasviri o‘yib ishlangan idish (XII-XIII asrlar)lar uchraydi[24]. Termizshohlar saroyini bezagan medalonda quyon yoki jayronga hamla qilgan ulkan burgut tasvirlangan [13]. Umuman, Termizshohlar saroyi medalyonlarida ot mingan chavondoz, ot yetaklagan ayolning bilagida qush, ov

sahnasi, og‘zida hayvon tishlagan sher tasvirlari tushirilgan [30]. Baliq shaklidagi flakonlar: suv bo‘yidagi xalqlarda keng qo‘llanilgan [31]. Qanotli it va ot tasvirlari: zardushtiylik an’anasiga borib taqaladi. Xulbukda IX-XII asrlarda qanotli it tasviri tushirilgan kosa, tez yugurayotgan 4 ta ot tasviri tushirilgan laganlar [32] zardushtiylik an’anasiga ko‘ra yasalgan. Bu idishlar diniy va xalqning mafkuraviy dunyoqarashi bilan bog‘liqligi sababdan avloddan avlodga o‘tgan, xonadonlarda saqlangan. Saroy medalyonlari: ov sahnalari, burgut, sher, chavondozlar tasvirlari bilan bezatilgan [13].

Qanqa shahrida XI asrda ishlatilgan sopol idishda fantastik hayvon tasviri tushirilgan [33]. O‘zgan shishalari o‘simlik shohlari, hayvon tasvirlari, iplar va turli bezatishdan foydalanilgan. Ustalar hashamatli bezakdor shisha buyumlar ishlab chiqargan [8]. Bezatishda tilla suvi yuritish, o‘simlik va kamroq miqdorda hayvon tasvirlari bilan bezatilgan. Shishada o‘ymakorlik san’ati ham foydalanilgan [34]. Turkiston IX–XIII asrlarda shishasozligi oddiy ro‘zg‘or buyumlaridan tortib, elita uchun mo‘ljallangan san’at asarigacha bo‘lgan keng ko‘lamli mahsulotlarni o‘z ichiga olgan. Shisha buyumlar nafaqat ichki iste’molda, balki tashqi savdoda ham katta ahamiyat kasb etgan. Bu davrda yaratilgan hashamatli, badiiy va zoomorf shakldagi buyumlar o‘sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy qarashlari va xalqning estetik dididan darak beradi.

ADABIYOTLAR:

1. *Путушествие Ибн Фадлана: Волжский путь от Багдада до Булгара. Каталог выставки. – Москва. 2016. С. 15.*
2. *Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент. 1982. С. 35.*
3. *Достиев Т.М. Посудное стекло средневекого города Шамкир раннеисламского периода // Поволжская археология. – 2021. – № 2 (36). – С. 18-31.*
4. *Абдуразаков А.А. Сырьевые ресурсы раннесредневекового стеклоделия Средней Азии // Исследование минерального и растительного сырья Узбекистана. – Ташкент, 1962. – С. 3-17.*
5. *Аминов Ф.Ш. Стеклянные изделия домонгольского Пенджикента и его округи // Записки Института истории материальной культуры РАН. – Санкт-Петербург: ИИМК РАН, 2020. – № 23. – С. 103-118.*
6. *Ходжаев Ш.Р. История ремесленного производства Хутталя (по материалам городища Хульбук). На соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Душанбе, 2014. – С. 146-160.*
7. *Mirzaahemedov D. From history of Bukhara’s glass and ceramics // SANAT. 01/10/2003. ISSUE #4.*
8. *Веселовский Н.И. Заметка о стеклянном производстве в Средней Азии, ЗВОРАО, Т. VIII, – СПб, – 1893. – С. 119.*
9. *O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida. Davlat Ermitaji to‘plami. 2 qism. VIII-XV asrlar Movarounnahr san’ati. – Toshkent. 2020.*
10. *Anarbayev A. Axsikent arxeologik parki. – Toshkent. 2023. – 316 b.*
11. *Вяткин В.Л. Городище Афрасиаб. Археологический очерк. – Ташкент: Издание Главнауки Наркомпроса УзССР, 1927. – С. 60-64.*
12. *Жуков В.Д. Археологическая разведка на шахристане Хайрабад-тепе // ИМКУ. – Ташкент, 1961. – Вып. 2. – С. 181.*
13. *Жуков В.Д. Стеклянные «медальоны» из дворца Термезских правителей // Известия Узбекистанского филиала Академии Наук СССР. Издательство УзФАН. – 1940. – №4-5. – С. 59-66.*
14. *Жуков В.Д. Археологическое обследование в 1937 г. дворцатермезских правителей // ТАКЭ. – 1945. Том 2. – С. 133-162.*
15. *Мирзааҳмедов Ж.К., Султонова М.Н. Комплекс материалов рубежа раннего и развитого средневековья из Бухарского оазиса // Археология Узбекистана. – 2011. – №1 (2). – С. 95-98.*
16. *Аминджанова М.О. Средневековые стеклянные сосуды из музеев Ташкента и Самарканда // ИМКУ. – 1962. – Вып. 3. – С. 87 – 100.*
17. *Бурякова Э.Ю., Буряков Ю.Ф. Новые археологические материалы к стратиграфии средневекового Самарканда (по раскопкам площади Регистан в 1969-1972 гг.) // Афрасиаб, 1973. – Вып. II. – С. 174-223.*
18. *Шишкина Г.В. Бухарские ворота средневекого Самарканда // Афрасиаб, 1975. – Вып. IV. – С. 23- 41.*
19. *Буряков Ю.Ф. Ташходжаев Ш.С. Археологические исследования на городище Афрасиаб в 1970-1972 гг. // Афрасиаб, 1973. – Вып. II. – С. 3-15.*

20. Анарбоев А. Ахсикет-столица древней Ферганы. – Ташкент: Тафаккур, 2013. – С. 109.

21. Qosimov I. Qadimgi Farg'ona sirlari. – Namangan, 1992. – B. 66-68.

22. Мирзаахмедов Ж. Художуственная культура Центральной Азии и Азербайджана IX-XV веков. Том II. Стекло. Самарқанд, Тошкент: МИЦАИ, 2011. – 182 с.

23. Культура и искусство древнего Узбекистана. Каталог выставки. Книга 2. – Москва, 1991. – С. 147, 151, 153.

24. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История исскуств Узбекистана (с древнейших времен до середины девятнадцатого века). – Москва: Искусство, 1965. – С. 209, Илл. 212, 213, .214, 219, 223, 227.

25. Филанович М.И. Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры. – Ташкент. 1984. – С. 194.

26. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Ленинград: Наука, 1973. – С. 65.

27. Голубкина Т.И. О зооморфной керамике Мингечаура // Материальная культура Азербайджана. Баку: Изд-во АН Азерб. ССР, 1951. – Вып. 2. – С. 115.

28. Лунина С.Б. О культурных связях средневекового Мерва // Средняя Азия в древности и средневековые. – Москва. 1977. – С. 129.

29. Қдирниязов М.-Ш., Бекниязов Б. Хоразмшоҳлар давлатининг савдо алоқалари // Хоразмшоҳлар давлатининг савдо алоқалар (XI-XIII асрлар). История и археология Турана. – 2013. – №1. – С. 119-124.

30. Mamtaliyeva S.B. Termizning XII-XIII asrlar shisha medalyonlari // Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi. – 8/03/2023. – B. 45-48.

31. Кошеленко Г.А. Культура Парфии. Издательство «Наука». – Москва. 1966. – С.92.

32. Якубов Ю. Художуственная культура Центральной Азии и Азербайджана IX-XV веков. Том II. Стекло. – Самарқанд, Тошкент: МИЦАИ, 2011. – С. 65-80.

33. Древний и средневековый город восточного Мавераннахра. Отв.ред. Ю.Ф. Буряков. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 14.

34. Абдуллаев К. Художественное стекло Старого Термеза // ИМКУ. – 1998. – Вып. 29. – С. 129-137.

UDC 330.342(575)

KAIROS ECONOMICS IN THE POST-SOVIET TRANSITION PERIOD OF CENTRAL ASIA

Guenther Olaf,
Associate Professor of the Leipzig University (Germany)
Doctor of Science in Philology
Ruziev Yarash,
Associate Professor of the Bukhara State University
Doctor of Science in Philology
yarashruziev@gmail.com

Abstract. *There are times when whole populations of certain countries have to readjust their lives, economic strategies because the whole society is under transition. The post Soviet Central Asia underwent this period after 1991. In times of transition there are always people that tend to be favored to make a use of the new uncertainties, even at the risk of entering legal gray areas. These transformation periods are often short and offer limited opportunities to analyze strategies of those pioneers that I will call Kairos economists. These Kairos economists can come from all parts of the population. But the analysis of these entrepreneurs doesn't go far enough if we would solely describe those actors and their strategies. They act often only in cooperation with residents of the border and with duty customs and security personnel. This article analyses this special economy with the help of case studies that were observed during the transformation period from Soviet to independent Central Asia.*

Key words: *borders, Central Asia, Kairos economies, economic strategies, border studies, population, transition period, multilingualism, place making.*

MARKAZIY OSIYONING SHO‘RODAN KEYINGI O‘TISH DAVRIDA KAIROS IQTISODIYOTI

Annotatsiya. *Ayrim mamlakatlarning butun aholisi o'z hayotini, iqtisodiy strategiyasini qaytadan o'zgartirishga majbur bo'ladigan paytlar bo'ladi, chunki butun jamiyat o'tish davrini boshdan kechiradi. Sovet Ittifoqidan keyingi Markaziy Osiyo 1991-yildan keyin bu davrni boshidan kechirdi. O'tish davrida har doim yangi mavhumlikdan foydalanishga moyil bo'lgan odamlar bor, hatto, qonuniy kulrang hududlarga kirish xavfi mavjud. Ushbu transformatsiya davri ko'pincha qisqa va men Kairos iqtisodchilari deb ataydigan kashshoflarning strategiyalarini tahlil qilish uchun cheklangan imkoniyatlarni taklif qiladi. Bu Kairos iqtisodchilari aholining barcha qatlamlaridan bo'lishi mumkin. Ammo bu tadbirkorlarni tahlil qilish, agar biz faqat ushbu aktyorlar va ularning strategiyalarini tasvirlab beradigan bo'lsak, unchalik uzoqqa bormaydi. Ular ko'pincha chegara aholisi va navbatchi bojxona va xavfsizlik xodimlari bilan hamkorlikda harakat qilishadi. Ushbu maqolada sovet davridan mustaqil Markaziy Osiyoga o'tish davrida kuzatilgan misollar yordamida ushbu maxsus iqtisodiyot tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *chegaralar, Markaziy Osiyo, Kairos iqtisodiyoti, iqtisodiy strategiya, tajriba-sinov, aholi, o‘tish davri, ko‘p tillilik, joy yaratish.*

ЭКОНОМИКА КАЙРОСА В ПОСТСОВЕТСКИЙ ПЕРЕХОДНЫЙ ПЕРИОД ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация. *Бывают времена, когда целые народы некоторых стран вынуждены перестраивать свою жизнь и экономические стратегии, поскольку всё общество находится в переходном периоде. Постсоветская Центральная Азия пережила этот период после 1991 года. В переходные периоды всегда находятся люди, которым выгодно использовать новую неопределённость, даже рискуя попасть в правовые серые зоны. Эти периоды трансформации часто непродолжительны и предоставляют ограниченные возможности для анализа стратегий тех пионеров, которых я буду называть экономистами Кайроса. Эти экономисты Кайроса могут быть представителями всех слоёв населения. Но анализ этих предпринимателей не будет достаточно глубоким, если мы ограничимся описанием только этих субъектов и их стратегий. Они часто действуют только в сотрудничестве с жителями приграничных районов, а также с таможенниками и сотрудниками служб безопасности. В данной статье эта особая экономика*

анализируется с помощью тематических исследований, которые были проведены в период трансформации от советской к независимой Центральной Азии.

Ключевые слова: *границы, Центральная Азия, экономика Кайроса, экономическая стратегия, полевые исследования, население, переходный период, многоязычие, создание места.*

Introduction.

Kairos economies. In 1994 I travelled through Uzbekistan, Kyrgyzstan and Kazakhstan by train and bus to China and was astonished. The whole country seemed to move from city to city, to be traded here and there, everything: pencils, fish, vegetables, toys, fruits and fashion. At the train stations young and old women tried to sell warm meals, dried fruits, cheese, drinks, camel hair socks etc… Everyone was trading something, and all trade was done by private entrepreneurs who chose to pay bribes rather than taxes in order to transport their goods across borders. The whole population seemed to hunt for Kairos, the Greek god of the opportune moment. According to Greek myths, Kairos is a fast running, naked man, who has a ponytail. Those who want to profit from him have to grab his hair the very moment he passes by.

Along the train station and railroad trade, I went on a train-trip from Beijing to Moscow. Along the railway tracks I again met people whom I would like to call "Kairos campaigners." Soon after the breakdown of the Soviet Union the Trans Siberian Railway was used by Chinese merchants to ship their products (mostly textiles) to Russia. At the Mongolian Chinese border they converted railway carriages into mobile shops from which they sold their commodities. They sold their goods to the local population at every station along the way to Moscow. The left overs were later sold at the markets in Moscow. All these enterprises were highly informal. Negotiations with conductors, customs officers border guards and some bribes were necessary, but not taxes, no official registration, nor any trade license. These traders were adept at negotiation. They knew that their whole business relied on personal agreements and temporal networks, and that without maintenance these could easily fall apart. There was quite a high risk of losing a good amount of the profit, due to the failing to negotiate one of the agreements necessary to move goods from Beijing to Moscow, from Moscow to Tashkent, from Mashhad to Tashkent and Almaty.

Research methods. Let me add one more example to widen our focus on how diverse Kairos can be. For an example how risk taking and pining one's hope on Kairos sometimes even means to fail to grasp his tail we do not have to stick to traders. When I conducted my fieldwork and interviews among acrobats in the Ferghana Valley (2003 – 2006) I sometimes heard them speaking about their colleagues, dividing them into the acrobatic groupes that stay in one place and the others who travel around trying to find new opportunities to stage their spectacles. After staying with the acrobats I became aware that there were indeed two different kinds of travelling. The first was a movement similar to nomads who have their fixed migration routes then month to month and year to year. Those were the groups which were denoted by others as staying in one place. The second way of travelling was to go to new venues, to open new markets, where the acrobats could not count on previous contacts and networks. These travels were more risky because a groupe of acrobats might starve if an agreement fell through or they travelled to the new destination at the wrong time or season (for example when temperatures were too cold for audiences to come out and watch). In late winter, groups of acrobats move into the bigger cities of Uzbekistan, where no acrobats reside. Coming from their cheap winter settlements in smaller towns of the Ferghana Valley they head to Tashkent, Samarkand, Urgut, and Karshi where they find big markets and where their cash tills keep ringing. There is always some risk when acrobats go into any venue because the acrobats must arrive at the right time in order to claim a space on which to perform. The most important thing about this migration is timing. It is crucial to be the first group on the new spot when winter thaws. However, arriving too early would mean that the acrobats have to wait for warmer weather while living without any income from their performances. For groups that move to new cities, the risk is even greater because they do not have pre-existing contacts on which to rely on. The risk of going to new fields is offset by the ability of groups to attract larger audiences and, therefore, to earn more money. The success of discovering a new city to play in is highly dependent on arriving at the right moment.

Max Weber stated that European economies are founded on long-term strategic planning, aimed at reducing risk through calculation, security and stock sourcing.[26, 64] In Kairos economies there is very little calculation, it operates on another rationale than in modern economies. Kairos cannot be a part of a plan, but has to be a part of the disposition of the actor.

Kairos as a word has its root in a weaving practice. Kairio means the gap which needs the shuttle in a loom.[15, 259] The shuttle switches from one end to the other and can only move if both textile strands are adjusted in the right way. This means that it is essential for the shuttle to exist in the right time and place to fulfil its function. In the Greek myth these characteristics are inscribed into the god Kairos, who can roughly be explained by a mathematical equation. k) Kairos is a) the right place plus b) the right time plus x) the

existence of an actor that is ready for Kairos.

K = (a + b) x

In this equation a and b are facts set from outside. x points to the role the actor plays himself in the whole setting. If we try to define this dependency of the actor in the setting one might say: If the actor wants to gain profit he has to act in the proper place and time. Now you could say, this is the kernel of all human actions or, more specifically, the kernel of trade and that it has nothing to do with a special Kairos economy. That is of course true. But the most important issue of the equation is that a) and b) are a part of very unadjusted conditions in which a) and b) change quickly and have unpredictable dynamics. The fact that Kairos campaigners gain profit from taking a risk thus becomes central.

If the Kairos campaigners count on Kairos it is likely that they meet him at times and sometimes fail to grasp him. That leads me to the assumption that Kairos and his absence (the failure to act in the moment) have to be a part of the culture of the actors.[9, 481-510] But how are these risks reduced, and if they are not reduced at all how are they culturally handled among Kairos economists?

Kairos economists

Although transition periods are typical for the appearance of Kairos, there can be many other opportunities to meet Kairos. Actually all markets, state institutions, landscapes etc. have their own reference systems, in which a Kairos economy is predetermined. Beside the transition period it is the frontier of Frederick Turner,[24] the suburban zone described by Lyotard [16], the historical pioneers in the woods of Canada, the prospectors at the Klondike trail described by Jack London: they all embrace the chaos and chase Kairos. They are active in a broad spectrum of economic activities but share certain features.

Once again I would like to take an example from my field work with the acrobats of the Ferghana Valley. Ikrom Kayumov, a popular leader of an acrobat group, was first educated as an acrobat in a small town, Kosonsoy, situated in the northern port of the Ferghana Valley. Being a young but well educated acrobat, he heard about a group of acrobats that was heading to Tashkent to play there for one season. He joined them and was quite successful. The audience came to see him especially. He was invited to some weddings to play there. He offered the money he gathered to his master, who he refused to take it and said that Ikrom Kayomov had earned it on his own. After the season in Tashkent Kayomov became aware that he possessed all the skills necessary to lead his own troupe of acrobats. When he came home in winter time he began to do just that. He gathered some money from the family. His elder sister sold a cow for his upcoming enterprise. But he did not go to Tashkent or any other place he knew. He went to Khorezm, in the far north of the country near the Aral Sea, because he heard that the conditions were good there. He faced the high risk of losing everything he earned in Tashkent and the money he had borrowed from his family but this did not prevent him from going taking the risk. He was quite successful indeed. He toured the region for several years. I asked him what was the reason for his success. He told me that because there were no acrobatic traditions in that area. He was the first to introduce a circus there. That was only partly true because Khorezm has a tradition of acrobatic arts that reaches back to al-Biruni who described them in the 11th century. But at the moment that Kayomov arrived in Khorezm the acrobats no longer existed.[11, 116-137] He just filled a gap. But the whole story becomes more obvious with his second explanation: he married a local woman who helped him in his shows. She knew the locals and the conditions and was a crucial part of the whole enterprise. She knew which hamlets had few possibilities and which were good for making a profit. He could use her family network for support, if conditions were bad, for staging a show. The example above teaches a new lesson, which has its parallel in the meaning of the German word for luck, Glück." "Glück" itself is derived from the word Lücke, which means gap. Filling the gap, having a "Gelücke" means to have luck.[22, 27] Thus, having luck sometimes means to close a gap, this highlights the importance of time and space once again and finds itself in the very meaning of the etymological root of the word kairos: the gap for the shuttle in the loom. Kairos comes only occasional and one needs some financial provision while he is gone.

My encounters with various gypsy groups in the Ferghana Valley in Central Asia led me to some similar findings were pioneering becomes an asset for Kairos economies. Among the gypsies of the Ferghana Valley there are several individuals who were travelling on the same route for years and could count on a quite stable income. They brought for example hair from the barbershops in the Ferghana Valley to Bukhare, were they sold it to wig manufactures. Others took the risk to open up new markets and went to places that were not already a part of their networks. If such a venture fails, the person can get into serious trouble. If the travel is successful, the one who takes on the risk can share his new network with other members of his community. The community group around him thus would accept him as a guide and pay him extra profit to lead the group. In Kokand, Uzbekistan I met a woman who was especially successful at this. She was somehow skilled at moving across borders without problems, and that became her main source of income:

moving people and goods across borders. She was already a professional in border crossing when she began to take the risk in going far into Russia. She had a lot of experience negotiating with the border guards. Also she was very naughty in conversations with everyone who was of her own kind. She was a gifted leader who established networks, which then provided opportunities for her whole family. By moving into a previously untapped market, the one who takes the risk can procure extra fees from the profits of subsequent members of the group.

All these operations, whether done by Chinese merchants, acrobats or gypsies have to do with border crossing into new places. No matter if the borders are internal or external, within former Soviet republics or crossing national boundaries. Borders play an important role for the economies of the communities I refer to. Though they take on the burden of risk, they have a good chance for making large profits. That is why I would like to explain the main characteristics of Kairos campaigners with a focus on the Central Asian border trade in the transition period of 1991 to around 2010s.

Discussion. Borders always play an important role in the Kairos economies. For this reason, I want to take a closer look at territorial borders to find Kairos and his campaigners. Borders – especially in Central Asia – are a fact that was made by outsiders, and a fact that played a crucial part only from the beginning of the 20th century. Before this the region was widely known as the Silk Road, a space of passages. It inherits a mixture of Persian, Turkish, Mongol and Chinese speaking populations. When Russia under Alexander II expanded further south it had to be clearly divided from the English dominions in India to prevent another conflict like that which occurred in the Crimea. This resulted in the creation of Afghanistan. After 1917 the Soviets tried to categorize the people in the South by communicating to them their Herderian Concept of Nations: One Language, one Culture, one Nation. They created republics on the basis of their new national concepts in which a non-Islamic state would rule their lives.[12] Thousands of them fled into other regions: Kirghiz, Kazakh and Uzbeks to North West China, the Turkmens and Uzbeks to Afghanistan to note only two major emigration routes in the late 1920ies and early 1930ies.[21, 23-35; 13; 18]

That leads to the fact that no Central Asian border do not divide different cultures from each other. All these colonial, Soviet and later national borders were typical for dividing people that were often a part of both sides. Moreover borders have never been obeyed so strictly since the 1930ies, when national antagonism led to closed borders, highly armed border guards etc.. Since the fall of the Soviet empire, strict separation is outdated and borders gained new meanings in the region. They serve now like a watergate, where the Watergate workforce was paid so badly in the transition period that they had to demand some tribute from the border crossers.

In the 1990s the Soviet republics became nation states. China opened up its western border for trade, especially to stabilize Xinjiang, their unstable northwest region by encouraging trade relations with the newly independent states to the west, Kazakhstan and Kyrgyzstan.[14] Uzbekistan has a long border with both Kazakhstan and Kyrgyzstan and had under Islam Karimov (1991 – 2016) a very strict trade law that gave few freedom to official trade but allowed free reign for private entrepreneurs, especially to petty traders. All these facts made the borders in Central Asia places for Kairos economics par excellence. Here one found a number of chances to grasp Kairos, people established transborder networks but it was still risky to catch Kairos. Although one can find on both sides of every Central Asian border vast populations who speak the language of their neighbour – among Uighur, Tajik, Uzbek, Kyrgyz or Kazakh traders multilingualism is common – the border itself employed soldiers and customs that had to be integrated into that network too and played a crucial role in turning the profit.[20]

Despite the cultural similarities that occur on both sides of the borders, we must pay attention to another phenomenon. If we consider that a border separates several entities from one another, then border transgression makes people to change from place to place. According to Victor Turner a transgressor is never a fully integrated part of the one side or the other. Transgressors conduct a life, or a part of it, in-between, in liminality. According to Marc Augé this in-between can be called a non-place. Most consider these non-places as a passage, a space to pass by.[2] Kairos campaigners, as we will see in the next chapter, use or even transform these non-places to their own advantage. It is the line between the structure and the anti-structure where Kairos switches back and forth like the shuttle in a loom. Victor Turner argues further that the liminal space always develops its own culture which is neither part of the one nor the other but a phenomenon with its own particular characteristics.[25, 95-96]

From house to warehouse – the transformation of place

Already in the introductory chapter we came across some forms of transforming space. A railway wagon is used as a moving shop, a station became a market. A road the crosses a neighboring country like the old Tashkent-Samarkand motorway became a market. If for the non-Kairos economists a station was at best a place to start or to quit a journey by train it became a temporary market for the Kairos economists. As

stated above, Uzbekistan under Islam Karimov (1991 – 2016) had established harsh rules against allowing Chinese goods inside Uzbekistan. But nevertheless they were sold everywhere in the country and came into the country at some places, on of them Qorasuv. Qorasuv is situated in the eastern part of the Ferghana Valley and has a high number of Uzbek speaking people, which make communication easy. In the case of the border between Uzbekistan and Kyrgyzstan houses became ports for transferring goods. The fence was transformed into an intersection. This had to be done in an extremely complex and dynamic situation. The border guards could change overnight. Border guards could confiscate the goods from the person who crosses the borders and use it for their own profit. Some of those who have houses near the barbed wire converted their yards into impromptu warehouses for Uzbek vendors. Every yard had two exits – a broad one leading into the Kyrgyz territory (where one truck will pass through) and a narrow one that lead to the barbed wire on the border, which was conveniently cut to allow passage into Uzbekistan. The owner of one such transshipment base got an income from Uzbek smugglers of up to $ 100 on a good day. Revenues increased even more on the eve of celebrations or when the school year was about to begin. This is because everything from pens to teaching aids pass through here.[5] When an ethnographer wants to take some pictures of the women who are coming from the Uzbek side to buy wholesale these goods they cover up their faces not for religious reasons. The risk to be recognized by the police authorities is obviously higher than the recognition of the border guards at the barbed wire. The border post is thus a part of the calculation of the Kairos campaign; a picture taken to the police station is obviously not.

Natijalar va muhokama. Turkiston mahalliy aholisi orasida tarqalgan ijtimoiy muammolardan biri to‘y va ma’rakalarga ortiqcha sarf – xarajat qilib, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilayotganligi edi. Bu muammo davriy matbuot sahifalarida tanqid qilinib, yoritila boshlandi. Jumladan, 1906 – yilda “Turkiston viloyatining gazeti”da to‘ylardagi haddan ortiq isrofgarchiliklar, sharoitiga qaramasdan to‘y o‘tkazib, qarzga botib qolish hollarining ortib borayotganligi hamda qarzdorlarning uy – joyi, mol – mulkidan ayrilib qolishlari kabilarning tez – tez uchrab turishi haqida fikrlar yuritiladi. Maqolada “bir qancha boylarimiz haddidan ziyoda to‘ylar qilib, har bir odamga beqasam, movut, satin va boshqa qimmatbaho to ‘nlar kiygizib, xaqni xonavayron qildi. Keyin sag‘al kun o‘tmasdan o‘zlari hayron bo‘lib qoldilar, to‘y o‘tkazgandin bir oydan so‘ng sinib, beobro‘ bo‘ladurlar”, deb ortiqcha dabdabavozlikning oqibatlari keltiriladi [10].

Turkiston jadidchilik harakatining rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875 – 1919) jamiyatning bir qancha dolzarb muammolarini maqolalari, asarlarida keltirib o‘tadi “Bizni kemirguvchi illatlar” nomli maqolasida xalqni kemiruvchi haqiqiy illat to‘y va ta’ziya ma’rosimlari deb atab, islom dinining shariat qoidalariga to‘g‘ri kelmasligini ta’kidlaydi.

Nikoh marosimlari haqida gapirib, shaharlarda o‘rtahol odam ya’ni yashash uchun uyi, bog‘i bor kishi nikoh uchun ikki ming so‘m, o‘g‘il bola xatnasi uchun kamida ming so‘m sarflashini, imkoniyati yo‘qlar 200 so‘mdan 1000 so‘mgacha, boylar besh – o‘n minglab sarf etishlarini tanqid qilib yozadi. Muallif bu kabi holatlar uzoq yillar davom etadigan bo‘lsa, xalqning iqtisodiy ahvoli og‘irlashib, yomon holatga tushib qolishi, davlatni begonalar egallab olish xavfining mavjudligini aytib tashvishga tushadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy bu kabi marosimlarning uzluksiz katta sarf – xarajatlar bilan o‘tkazilishining yana bir qator salbiy holatlarini sanab o‘tib, zamondoshlarini: “to‘y va ta’ziyaga sarf qilinadurgon oqchalarimizni biz turoniylar, ilm va din yo‘liga sarf etsak, anqarib (izoh: qisqa fursatda) ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar.

Yo‘q hozirg‘i holimizg‘a davom etsak, din va dunyog‘a zillat (izoh: tubanlik) va miskinatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur”, deb hushyorlikka chorlaydi [1. B. 120]. “A’molimiz yoinki murodimiz” nomli maqolada kuniga 18 – 20 soat yemay – ichmay, yigirma yil mehnat qilib, uch kunlik to‘yda bor – budini sovurib, qarzdor bo‘lib, xonavayron bo‘lgan kishilar haqida kuyunib yozadi. Katta to‘y qilib, uning oqibatini yillar davomida tortish – haqiqiy illat sifatida baholanadi. “Katta to‘y qilib, xotun olgan bechoralarning holiga yig‘lamoq kerak. Uch kunlik to‘yning azasi ba’zi oilalarda o‘n yil, hatto bir umr surar, balki bevatan va xonavayronlikka sabab bo‘lur” deb, zamondoshlarini ogohlikka chorlaydi. Shu kabi salbiy holatlar kuzatilmasligi uchun: sharoitidan kelib chiqqan holda isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilmaydigan, ixcham qilib to‘ylarni o‘tkazishni, ortiqcha dabdavozlikka sarf qilinadigan mablag‘larni ta’limni rivojlantirish uchun sarflash kerakligini yozadi. Jumladan, “To‘y va ma’raka oqchasidan bolalarni hukumat maktablarig‘a berilsun va bu oqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg‘a va Russiya dorulfunun va dorulsanoatlarig‘a yuborilib diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg‘a sa’y qilinsun”, deb bir qator tavsiyalarni beradi [2. B. 104 – 106].

Turkiston ma’rifatparvarlik harakatida munosib o‘ringa ega bo‘lgan Abdulla Qodiriy (1894 – 1938) 1915 – yilda yozgan “Baxtsiz kuyov” dramasida ham nikoh to‘yi uchun qilinadigan ortiqcha sarf – xarajatlarning oqibatlarini keltiradi. Unda maishiy turmushdagi illatlardan biri – isrof, to‘yda qiz uchun o‘rinsiz katta qalinlar solinishi, islom shariatiga amal qilinmasligi natijasida yangi tuzilgan bir oilaning barbod bo‘lishi holati keltiriladi [6. B. 33 – 57]. Dramada ellikboshi tilidan xalqqa qaratib: “Shariati mustafoga bo‘yunsuninglar, endi ko‘zlaringizni ochinglar. Bid’at to‘yga isrof bo‘ladurgon oqchaga o‘g‘lungizlarni o‘qutinglar, yoki jamiyati xayriyaga iona qilinglar. O‘g‘ul o‘qutmoq yaxshi ham farzdur, to‘yga isrof qilmoq bid’atdur, deb murojaat qilib, odamlarni ogohlikka chaqiradi [7. B. 25 – 26].

Turkiston ma’rifatparvari Munavvarqori Abdurashidxonov (1878 – 1931) ham o‘z qarashlarida ijtimoiy hayotning dolzarb muammolarini yoritadi. Uning “Nikoh to‘g‘risida” nomli maqolasi “Taraqqiy” gazetasi muharrirlariga nikoh borasidagi qarashlarini yoritishga o‘rin berishlarini aytib murojaat qilishdan boshlanadi. Nikoh marosimi bo‘lib o‘tishdan bir – ikki kun oldin va undan keyingi kunlarda o‘tkaziladigan bid’at marosimlarni shariatga muvofiq emas deb baholaydi. Uning yozishicha, nikoh qiz va yigitning roziligi asosida imom tarafidan o‘qilishi bilan boshlanadi. Nikoh to‘yidan bir kun oldin besh – o‘n nafar sozandalarni yig‘ib, do‘st – qarindoshlarga tomosha ko‘rsatish, to‘y kuni kelinni arava bilan kuyovning hovlisiga olib kelayotganda uch – to‘rt nafar ayollarning qo‘shiq kuylashlari hamda to‘yning uchinchi kunida hovli o‘rtasida olov yoqilib, bir yallachi (ya’ni qo‘shiq kuylab, raqsga tushgan) o‘yinini ayollar va erkaklarning aralash o‘tirib, kuzatishlari, erkaklarning bir ko‘zi shu yallachida bo‘lsa, ikkinchi ko‘zi boshqa ayollarda

bo‘lishi kabi axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan bazmni qoralaydi. Muallif bu turdagi bid’at va zararli urf-odatlarni nafaqat islom shariatiga zid, balki **axloqiy buzilishga olib keluvchi omil** deb hisoblaydi [3. B. 75 – 76].

Ba’zi mahallalarda imom yoki ellikboshi tomonidan bu kabi bid’at marosimlarni o‘tkazish ta’qiqlansa, boshqalari amal qilmasligi, ayrim insonlar mana shu ta’qiqlar sababli mahallaga ham qo‘shilmasdan shu kabi ma’naviyatga zarba beradigan rasm – rusumlarni o‘tkazayotganligini kuyunib yozadi. Hukumatdan bu kabi zararli tadbirlarga qat’iyan chek qo‘yib, qonun bilan mustahkamlab qo‘yishlarini so‘raydi [3. B. 76]. O‘z davrida Buxoro amirligida ham shu kabi marosimlarni ta’qiqlash uchun muhim chora – tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, Buxoro amiri Amir Olimxon (1910 – 1920) 1911 – yil mart oyida “Juda isrofli to‘ylarnbi tugatish” to‘g‘risida farmon chiqaradi. Farmonda keltirilishicha, to‘ylarda palovdan boshqa ovqat berganlarga 75 darra urish jazosi tayinlanib, sunnat va nikoh to‘ylarida tashkil qilinadigan uloq chopish hamda poyga musobaqalari bekor qilinadi. Shuningdek, buxoroliklar to‘ylariga kelgan barcha mehmonlarga ziyofatdan tashqari ularning har biriga chopon berish rasmi ta’qiqlab qo‘yiladi [8. B. 57]. Shuningdek, “Oyina” jurnalining 1913 – yil 6 – sonida ham 7 – 8 kunlab davom etadigan to‘ylar, undagi isrofgarchilik hamda axloqsizlar tanqid qilinib, butunlay chek qo‘yilishi kerakligi qayd etiladi[8. B. 58]. Munavvarqori Abdurashidxonov ham maqolada Turkiston hukumatidan shu kabi qat’iy talablarni ishlab chiqib, to‘ylardagi bid’at marosimlarni tugatish kerakligini so‘ragan.

Ma’lumki, 1917 – yil 14 – martda taraqqiyparvarlarning “Sho‘royi Islomiya” nomli tashkiloti tashkil topadi. Tashkilot xalqning ijtimoiy ahvolini yengillashtirishga qaratilgan muhim tadbirlarni ishlab chiqdi. Munavvarqori Abdurashixonov “Najot” gazartasida 1917 – yil 27 – aprelda nashr etilgan “Sho‘royi Islom qarornomasi” nomli maqolasida tashkilotning 1917 – yil 12 – aprel kuni majlisida to‘y va marosimlarga oid muhim qarorlari haqida ma’lumot beradi. Maqolada xalq orasida tarqalgan qimmatchilik, oziq – ovqatning yetishmasligi, kambagal kishilarning oziq – ovqat qidirib, ko‘chalarda sarson – sargardon bo‘lib yurishlari hamda necha kunlab och yurishlari shunday muhim qarorni chiqarishga sabab bo‘lganligini qayd etadi. Shuningdek, birinchi jahon urushining davom etayotganligi, mazkur yildagi qurg‘oqchilik, dalalarni chigirtkalar bosishi kabi ofatlar ham serxarajat marosimlarni tartibga solish kerakligini ko‘rsatishini qayd etadi [4. B. 158]. Maqolada keltirilishicha, Turkiston musulmonlarining s’yezdi mana shu masalalarni inobatga olib, insonlar orasida rasm bo‘lib turgan, ba’zi bid’at va isrofli ishlar, chunonchi, to‘y, ma’raka, gap, bazm, yallachi, qozoqlar orasidagi uloq, poyga va janoza kuni bo‘ladigan ishlarni tartibga solish uchun shu kuni Toshkent qozilari va ulamolari bu kabi marosimlarni shariatga xilof deb topib, komissiya tuzadi. Komissiya janoza marosimlari, nikoh va sunnat to‘ylari bo‘yicha muhim qarorlarni ishlab chiqdi:

1. Janoza kunida imom va ulamolarga yirtish va choponlar ulashish, qarindosh – urug‘larga qora kiyimlar tarqatish g‘assol erkak va ayollarga xizmatlari uchun har xil kiyimlar olish, otinlar kelib tovush chiqarib o‘qishi uchun beriladigan hadyalar ta’qiqlanadi. Shuningdek, ortiqcha sarf – xarajatlarni keltirib chiqaradigan yetti, gul, qovoq oshi, qor yog‘di, laylak keldi, yigirma, qirq, hayit, yil oshi kabi marosimlar bid’at deb topiladi. Arvoh, pari nomlari bilan bog‘liq marosimlarni o‘tkazish butunlay ta’qiqlanadi. Faqatgina janoza kunida ulamo – imomlarga me’yorida pul berish, mahalladan uch – to ‘rt kishini chaqirib, xatmi Qur’on o‘tkazish mumkinligi aytib o‘tiladi.

2. Qiz to‘ylari bilan bog‘liq ortiqcha marosimlar bekor qilinadi. Jumladan, sovchigarchilik, patir, kichik to‘y, qozon qaytarish, katta to‘y, bazm va kecha isroflari, yuz ko‘rdi, hayitlarda mol yoyib kelin ko‘rish, qiz oshi berish, ayollarning har biriga alohida osh va nonlar tortish, “to‘qqiz – to‘qqiz” kabi narsalar, sandiqlarda kelin uchun, falaq ko‘rpa, gul ko‘rpa kabi foydasiz mollar, arava va tuyalarga g ‘alla va boshqa narsalarni ko‘tarib borish, qozoqlarda bo‘lgani kabi qalin olish kabi ishlar shariatga xilof deb topiladi. Faqat nikoh kuni kuyov o‘z oshnalari va mahalla kishilari bilan yigirma – qirq kishidan oshmagan holda karnaysiz, surnay bilan qizning uyiga kelishlari va nikoh qilishlari, kelinni ham o‘z qarindoshlari o‘n kishidan oshmagan holda kuyovning uyiga olib borishlari, kelin chorlar kabi marosimda taom faqatgina shu yerda yeyilishi uchun, olib ketish uchun emasligi ta’kidlanadi. Beshik to‘yi, chillagruzon kabi ortiqcha marosimlarni yo‘qotish kerakligi belgilanadi.

3. O‘g‘il to‘ylari ya’ni sunnat to‘ylarida ham mahallalardan odamlar chaqirib osh berish, uloq, poyga kabilarni o‘tkazish, xatna qilinadigan bolalarni ko‘cha aylantirib aqcha yig‘ishlar – bular ham shariatga zid deb topiladi. Davlatmandlar ham kichkina marosim qilib, mahalladan ikki – uch kishini chaqirtirib, o‘g‘illarini xatna qildirishlari mumkinligi, faqat, marosimga ko‘p mablag‘ sarflamasdan, shu pullarni ko‘cha – ko‘yda yurgan och – yalang‘och, kambag‘al kishilarga, beva – bechoralarga, maktab va madrasa, “Xayriya jamiyat” lariga bersalar maqsadga muvofiq bo‘lishi ta’kidlanadi.

Majlisda ushbu tartibga rioya qilmagan kishilarni ustidan dalolatnoma tuzish, qozilarga topshirish, shahar boshlig‘iga havola qilinib, qattiq choralar ko‘rilishi kerakligi haqida kelishib olinadi. Mahalla imomlari va mahalla qo‘mita a’zolari tomonidan xalqqa shu kabi to‘y va marosimlarni o‘tkazish tartibi haqida tushuntirish berishlari kerakligi aytib o‘tiladi [4. B. 158 – 159].

Samarqand jadidchilik maktabiga benihoya hissasini qo‘shgan Hoji Muin Shukrullo (1883-1942) ham kamxarj va ixcham to‘y o‘tkazishga doir “To‘y – ta’ziya isroflari” nomli maqolani yozadi. Maqolada so‘nggi 6 – 7 yil ichida o‘zbek matbuotida ayniqsa, Samarqandda chop etilgan gazetalarda to‘y – ta’ziya isroflari haqida maqolalar yozilgandan keyin ancha tartibga tushgani, hukumat tarafidan bir nechta choralar o‘zining natijasini bera boshlaganini e’tirof etsa - da, ammo so‘nggi vaqtlarda yana avvalgidek, to‘y – ta’ziya isroflari davom etayotganligini kuyunib yozadi. Qaytadan to‘ylarda odamlarga to‘n kiygizish, qand va choylar in’om etish, katta – katta nonlar, turli shirinliklarni ulashtirish odati, nikoh to‘ylarida ro‘molcha tarqatish, ta’ziya kunlarida qabr ustida xalqqa pul berish, uch, yetti, yigirma, qirqlarni nishonlash o‘z holiga qaytganligini afsus qilib yozadi. Hukumat vakillaridan, taraqqiyparvarlardan xalqni bu holatdan qaytarish uchun muhim chora – tadbirlar ko‘rishini hamda bu borada o‘zlari ham namuna bo‘lishlari kerakligini aytadi [5. B. 136 – 137].

Ayni paytda Turkiston taraqqiyparvarlari davriy matbuotda zamondoshlariga ixcham to‘y va marosimlar o‘tkazish haqida aytish bilan chegaralanmasdan, amalda ham to‘y va ma’rakalar islohini qo‘llashga harakat qildilar. Jumladan, 1908 – yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy Mas’um Xo‘ja Maqsud Xo‘ja ismli o‘g‘liga xatna to‘yi qilib, unda 1000 rubldan kam pul sarflagani qayd etilgan. U to‘yga ketadigan ortiqcha sarf – xarajat o‘rniga Samarqanddagi kutubxonaga Rossiya va Turkiyadan kitoblar xarid qilgan edi. 1909 – yilda “Sadoyi Farg‘ona” gazetasida chop etilgan maqolada keltirilishicha, Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘tkazgan to‘yiga aholi ikki xil munosabat bildirgan, ba’zilari undan ibrat olishni aytgan bo‘lsa, boshqalar uning boyligi va obro ‘sini hisobga olib, kamida 2000 – 3000 rubl miqdorida pul sarflashi kerak edi deb tanqid qilgan [9. B. 185]. Jadidlarning to‘y borasidagi tadbirlari samarali natija berib, ba’zi boylar ham aholiga namuna sifatida kamxarajat to‘ylarni o‘zi boshlab berdi va ta’lim uchun munosib hissasini qo‘shdi. Masalan, 1914 – yilda namanganlik Is’hoqjon Mirsolihboy o‘g‘il farzandiga xatna to‘yi qilishda savdogarlar bilan maslahatlashgan holda to‘yga sarflanadigan puldan 2000 rublini maktab o‘quvchilari uchun bog‘ yaratishga va maktab ehtiyojlariga sarflashga qaror qilgan [9. B.185]. 1915 – yilda Qo‘qon savdogarlaridan Hoji Muhammadxon va Mulla Yusuf Attor besh – olti nafar odamni chaqirib, bir tovoq osh ila ziyofat qilib, o‘g‘illarini xatna qilganlar [9. B. 186].

Xulosa shuki, Turkiston jadidlari o‘z davrida xalq orasida keng tarqalgan ortiqcha to‘y-marosimlar, dabdaba va isrofgarchilikni og‘riqli ijtimoiy muammo sifatida ko‘rdilar. Maqolalari, asarlarida hamda shaxsiy namuna faoliyatlari orqali xalqni ortiqcha to‘ylar, dabdabali marosimlar, keraksiz sovg‘a-salomlar, xurofot va riyokorlikdan voz kechishga da’vat etdilar. Ularning tanqidlari faqatgina iqtisodiy emas, balki diniy, axloqiy va ma’naviy asosga ega edi. Jadidlar bu kabi to‘y-marosimlarga sarflanadigan ortiqcha mablag‘larni ta’lim, maktab, kutubxona, matbuot, yetim bolalar tarbiyasi, musulmon xayriya jamiyatlari kabi ma’naviy va ijtimoiy sohalarga yo‘naltirishni taklif etdilar. Millat oydinlarining kamxarj to‘y va marosimlar haqidagi fikrlari bugungi kun uchun ham muhim va dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Ularning taraqqiyotga boshlaydigan fikr-mulohazaralarini aks ettirgan ilmiy ishlarini o‘rganish tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Yoshlarg‘a murojaat / - Toshkent: “Turon zamin” nashriyoti, 2024. - B.120;

2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkush: drama, hikoya, maqola va hikmatlar / - Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – B. 104 – 106;

3. Мунавварқори Абдурашидхонов. Хотираларимдан (жадидчилик тарихидан лавҳалар). – Тошкент: “Шарқ” нашриёт матбаа аксиядорлик компанияси, 2001. – Б. 75 – 76;

4. Мунавварқори Абдурашидхонов.Танланган асарлар (Таҳрир ҳайъати: О. Шарафиддинов, Н. Аминов, Н. Каримов ва бошқ,—Т.: «Маънавият», 2003.— Б. 158 – 159;

5. Ҳожи Муин. Танланган асарлар//тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Б.Дўстқораев, Н.Намозова; тўлдирилган 2-нашр. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 136 – 137;

6. Qodiriy A. Baxtsiz kuyov: drama, hikoya, maqola, felyeton, hangoma va hikmatli so ‘zlar / – Toshkent: “Yoshlar matbuoti, 2024. – B. 33 – 57;

7. Karimov B. Jadidlar. Abdulla Qodiriy: risola / – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, – B. 25 – 26;

8. Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари) / – Тошкент: Муҳаррир нашриёти, 2021. – Б. 57 – 58;

9. Shadmanova S. Turkiston tarixi – matbuot ko ‘zgusida (1870 – 1917 yillar) / – Toshkent: “Impress media” nashriyoti, 2025. – B. 185 – 186;

10. Farg‘ona aholisining ba’zi urf –odatlari // Turkiston viloyatining gazeti. 1906. №22.

UO‘K 096.374

AHOLI HAYOTIDA DINIY TASAVVURLAR VA QABR ZIYORATINING MUHIM JIHATLARI

Vaxidov Suxrobjon Olimjon o‘g‘li,
Toshkent shahar Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
vaxidovsuxrobjon@gmail.com
Orcid: 0009-0004-7362-3740

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalqining moddiy va ma’naviy hayotida diniy qadriyatlar, xususan, qabristonlarni ziyorat qilish odati va bu jarayonda amalga oshiriladigan shar’iy hamda noshar’iy amallar haqida so‘z yuritiladi. Qabriston ziyorati qadimdan xalq hayotida muhim ijtimoiy-ma’naviy an’ana sifatida shakllangan bo‘lib, u diniy aqidalar va ijtimoiy ongning o‘zaro ta’siri ostida rivojlanib kelgan. Shu bilan birga, ziyorat paytida bajariladigan ba’zi amallar islom shariati qoidalariga zid ekanligi, ularning mutlaqo qoralanganligi alohida ta’kidlanadi. Maqolada bu jarayonlarning tarixiy ildizlari, jamiyat hayotidagi o‘rni hamda zamonaviy davrda ularning qanday talqin etilayotgani tahlil qilinadi. Shuningdek, islomiy ta’limot asosida ziyoratning to‘g‘ri yo‘nalishda amalga oshirilishi zarurligiga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *Qur’on, hadis, oyat, Rasulluloh (s.a.v), ziyorat odobi, aziz avliyolar, e’tiqod, shirk amallar, ziyoratgoh, qabriston.*

РЕЛИГИОЗНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ В ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ И ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ПОСЕЩЕНИЯ МОГИЛ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются религиозные ценности в материальной и духовной жизни узбекского народа, в частности, обычай посещения кладбищ и шариатские и нешариатские практики, совершаемые в этом процессе. Посещение кладбищ сформировалось как важная социально-духовная традиция в жизни народа с древних времён и развивалось под взаимным влиянием религиозных верований и общественного сознания. При этом особо подчёркивается, что некоторые действия, совершаемые во время посещения могил, противоречат правилам исламского шариата и категорически осуждаются. В статье анализируются исторические корни этих процессов, их роль в жизни общества и то, как они интерпретируются в современную эпоху. Также уделяется внимание необходимости совершения посещения могил в правильном русле на основе исламского учения.*

Ключевые слова: *Коран, хадис, аят, Посланник Аллаха (мир ему и благословение), этикет посещения могил, святые, вера, акты многобожия, место паломничества, кладбище.*

IMPORTANT ASPECTS OF RELIGIOUS PERCEPTIONS AND GRAVE VISITATION IN THE LIFE OF THE POPULATION

Abstract. *This article discusses religious values in the material and spiritual life of the Uzbek people, particularly the custom of visiting cemeteries and the Islamic and non-Islamic practices performed during this process. Cemetery visitation has long been an important socio-spiritual tradition in people's lives, developing under the influence of religious beliefs and social consciousness. At the same time, it is especially emphasized that some actions performed during visitation contradict the rules of Islamic law and are absolutely condemned. The article analyzes the historical roots of these processes, their role in the life of society, and how they are interpreted in the modern era. Additionally, attention is paid to the necessity of conducting visitations in the correct manner based on Islamic teachings.*

Keywords: *Quran, hadith, verse, Prophet Muhammad (peace be upon him), etiquette of visitation, holy saints, belief, acts of polytheism, shrine, cemetery.*

Kirish. Yurtimizda madaniy va tabiiy yodgorliklar bisyor. Turli davrlarda bunyod etilgan, ne-ne suronli davrlarning shohidi bo‘lgan, har biri moziyning bir parchasi sifatida saqlanib qolgan madrasa, maqbara, machit, xonaqoh, ulug‘ avliyolarimizni dafn qilingan joylari va ziyoratgohlar tariximizning tilsiz tilsimidir.

Qadimiy Turonning qoq yuragida joylashgan O‘zbekiston zamini shuhrati jahonga yoyilgan tarixiy shaharlari, boy tarixiy-madaniy merosi, jumladan, buyuk ajdod larimiz tomonidan bino etilgan betakror me’moriy obidalari bilan mashhur. O‘z davrida islom sivilizasiyasining yirik markazlaridan bo‘lgan Movarounnahr o‘lkasidan ko‘plab diniy va dunyoviy ilmlar olimlari, tasavvuf shayxlari va boshqa ulug‘ shaxslar etishib chiqqan bo‘lib, ulardan muayyan qismining so‘nggi orom topgan makonlari keyingi avlodlar tomonidan ziyorat qilinadigan maskanlarga aylantirilgan.

Buxorodagi Abu Hafs Kabir Buxoriy – Hazrati Imom (767–832), Chor Bakr, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy (taxm. 1103–1179) va Xoja Bahouddin Naqshband (1318–1389), Samarqanddagi Qusam ibn Abbos (624–677), Imom Buxoriy (810–870), Abu Mansur Moturidiy (vaf. 944), Amir Temur (1336–1405) va Xoja Ubaydulloh Ahror (1404–1490), Surxondaryodagi Hakim Termiziy (820–932) va Imom Abu Iso at-Termi ziy (824–892), Toshkentdagi Imom Qaffol Shoshiy (903–976), Zangi Ota (vaf. 1258) va Shayx Xovandi Tohur (vaf. 1355), Xivadagi Pahlavon Mahmud (1247–1326) maqbaralari yurtimizda mavjud bo‘lgan ziyoratgohlardan kichik bir qismidir, xolos. Islom olamiga minglab ulamolar hadya etgan muqaddas zaminimiz ziyoratgohlar va qadamjolar o‘lkasi sifatida ham mashhurdir. Ziyorat barcha musulmon o‘lkalari kabi Markaziy Osiyoda ham azaldan an’anaviy sayyohlikning asosiy turlaridan biri bo‘lib kelgan. Xalqimiz qadim zamonlardan buyon ulug‘ ajdodlari xotirasiga ehtirom bajo keltirish maqsadida ularning qabrlarini ziyorat qilishga odatlangan. Buning ustiga, islom dunyosining boshqa o‘lkalari vakillari ham hamisha ko‘plab ulug‘ allomalar mangu orom topgan yurtimiz ziyoratiga oshiqishgan. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, milliy va diniy qadriyatlarning qaytadan tiklanishi asnosida buyuk ajdodlarimiz qabrlari obod qilinib, eski maqbaralar ta’mirlandi va yangilari bunyod etildi [2].

Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida ham uy joylarga o‘ziga xos muqaddas dargoh sifatida qaralgan. Vodiy o‘zbeklarida yangi uyning joylashish o‘rniga alohida e’tibor berilgan va turar joylarni doimo hosiyatsiz hisoblangan qabriston, ziyoratgoh va aziz avliyolar qabrlaridan uzoqroqda qurishga harakat qilishgan. Bu esa o‘z navbatida mazkur turar joyda istiqomat qiladigan oila hayotining muvaffaqiyatli o‘tishida katta ahamiyat kasb etgan. Chunki aholi nazdida qabriston va ziyoratgohlar marxumlar ruhi to‘planadigan joy hisoblangan. Masalan, mahalliy aholi biror bir qabriston o‘rniga yoki aziz-avliyolar mozorlari atrofiga turar joy qurilsa “bezovta ruhlar” tufayli uy egalari kimgadir, ayniqsa, bolalarga tasodifan zarar yetishidan va oila a’zolari kasallanishidan hadiksiraganlar. Xalqona qarashlarga ko‘ra, ruhlar ziyoni a’zolarining birining xastalikka chalinishi yoki mazkur uyda yashovchilardan kimnidir biror-bir baxtsiz hodisaga duchor bo‘lishi tarzida namoyon bo‘lar ekan [2].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Islom musulmonlarni bir-biriga birodar sifatida e’lon qilgan va ularni bir-birini sevish, hurmat qilish va yordam berishga undagan. Insonlar orasida muhabbatning o‘rnatilishiga yordam beradigan eng muhim sabablarning biri ziyoratlar hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan Islom ziyoratlarga katta e’tibor bergan. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bir hadislarida: Alloh yo‘lida kasal yoki bir musulmonni ziyorat qilgan kishining Jannatda joyi tayyorlanishini xabar qilgan (Imom Termiziy, Birr 64) [5].

Ziyoratning turli ko‘rinishlari mavjud: kasal ziyorati, bayram ziyorati, qabr ziyorati va boshqalar. Qabrlarga borib Fotiha o‘qish qabr ziyorati deb ataladi, Umra yoki Haj uchun Makkaga borib Ka’bani ziyorat qilish esa Ka’ba ziyorati deyiladi. Odamning qarindoshlarini ziyorat qilishiga silayi rahm deyiladi. Har bir ziyorat turining o‘ziga xos odoblari mavjud. Bir hadisda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam kasallarni, do‘st-birodarlarni ziyorat qilishni ijtimoiy ahamiyatiga urg‘u berganlar. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam quyidagi hadisda kasal ziyoratining ahamiyatini ta’kidlaganlar:

“Qulni ozod qiling, ochni to‘ydiring, kasalni ziyorat qiling” [5]

Kasal yoki boshqa ziyoratlar muhabbat va ishonch tuyg‘ularini rivojlantiradi, insonlarni birgalikda yashaydigan jamiyatlar shakllanishiga sabab bo‘ladi. Musulmonlar ziyorat orqali bir-birlarini yaxshiroq tanish imkoniga ega bo‘ladilar, muammolarini bilib oladilar, ko‘plab masalalarni birga muhokama qiladilar va qaror qabul qiladilar. Jamiyat ichida yolg‘iz emaslik tuyg‘usini his qiladilar va kelajakka umid va ishonch bilan qaraydilar. Quvonch va qayg‘u paytlarida atrofdagi birodarlari ular uchun xotirjamlik manbai bo‘ladi.

Boshqa bir hadisda esa Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar:

“Kasalni ziyorat qilgan kishi, (kasalning yonidan) qaytgunga qadar o‘zi Jannatga yetkazadigan yo‘lda bo‘ladi” [4].

Shu bois ziyoratlar, ayniqsa, kasal ziyorati, musulmonni axloqiy komillikka yetkazadigan go‘zal xulqlardan biridir. Shuning uchun kasal ziyorati muqaddas vazifa bo‘lib, buni ado etish va boshqalarga tavsiya qilish lozim. Musulmon, avvalo, ota-onasidan boshlab, barcha qarindoshlarini, qo‘shnilarini, tanishlarini, do‘stlarini ziyorat qilishi kerak. Ayniqsa, bayramlar ziyorat uchun qulay kunlardir. To‘y, ta’ziya kabi hodisalardan keyin ham tabrik yoki ta’ziya qilish maqsadida ziyoratlar amalga oshiriladi.

Ilgari ota, ona va farzandlar bir uyning ostida yashashardi. Hozirgi kunda esa, yoshlar turmush qurganda yangi uyga ko‘chib, ota uyini tark etadilar. Ota-onasidan uzoqda yashovchi, vazifa yoki boshqa sabablar bilan ularni ziyorat qiladigan shaxslar imkon qadar tez-tez ularni ziyorat qilib, qo‘lini olib duo olishi zarur. Qarindoshlarni ziyorati ham shu tarzda e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Ushbu ziyoratlar silai rahm hisoblanadi va Islom buni doimiy e’tiborda tutadi.

Dastlab islom dinida qabrlarni ziyorat qilish man qilingan edi. Negaki, johiliyat davrida arablar musibat yetganida Allohning taqdiridan norozi bo‘lib, g‘azablanishar, qabr tepasiga borib ohu voh qilishardi. Shuning uchun ham Rasulullоh (sollallohu alayhi va sallam) sahobalarini fitnadan saqlash uchun qabr ziyoratidan qaytargan edilar. Keyinchalik sahobayi kiromlar qalblariga iymon chuqur o‘rnashib e’tiqodlari mustahkam bo‘lgach, ularga qabrlarni ziyorat qilishga ruxsat berdilar. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam, tavhid e’tiqodi hali to‘liq joylashmagan, qabrlarga sajda qilinadigan, ularni maqtash va butlarga sig‘inish kabi jaholat odatlari davom etayotgan davrda, qabrlarga ziyoratni vaqtincha man etgan edilar. Ilgari yahudiy va nasroniylar aziz deb hisoblagan shaxslarning qabrlari oldini ibodat joyi sifatida ishlatishgan. Butparastlik esa mashhur shaxslarning qabrlari va haykallariga hurmat bilan boshlanib, oxir-oqibatda bu hurmat butlarga sig‘inishga aylangan edi. Islomning maqsadi esa tavhid aqidasini qalblarga joylashtirish edi. Bu maqsad amalga oshgach, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ziyoratni ruxsat qilib shunday deganlar:

“Men sizga qabrlarga ziyoratni man qilgan edim. Endi siz qabrlarga ziyorat qilishingiz mumkin!” [4]

shuningdek:

“…Qabrlarga ziyorat qilishni xohlovchi ziyorat qilsin. Chunki qabrlarga ziyorat bizga oxiratni eslatadi”. (Termiziy, Janaiz, 60) [5]

Mazkur hadislar ziyoratlarning asosiy maqsadi oxiratni eslash va o‘sha kunga tayyorlanish ekanligini ochiq ko‘rsatadi.

Solih kishilarning, ota-onaning va yaqin qarindoshlarning qabrlari ziyorat qilish mandub hisoblanadi. Umuman olganda, qabrlarga ziyorat erkaklar uchun mustahab amal sihatida baholanadi. Hazrat Ali roziyallohu anhu qabrlarga ziyorat qilganda, oxirat haqidagi tashvishini yotganlarga qarata shunday ifodalar edi:

“Uyingizni tark etdingiz, endi qo‘llar ish tutdi. Mol-mulkingiz taqsimlandi, bitdi. Ayollaringizni boshqalarga turmushga berishdi. Bu bizning tarafimizda bo‘lganlar. Afsus, koshki sizning tarafingizdagi holatni ham bilolganimizda!

Solih kishilarning va din ulug‘larining qabrlarini ziyorat qilishda katta foydalar mavjud. Ongli harakat qilgan holda, lozim bo‘lgan ibratlarni olgan va noto‘g‘ri e’tiqodlarga tushmagan holda qabrlarni ziyorat qilishda hech qanday xatar yo‘q. Bir kun Marvon, yuzini Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning sharif qabri toshiga qo‘ygan kishini ko‘rdi. Uni Islomga zid harakat qilayotgandir deb o‘yladi va yelkasidan ushlab:

– Nima qilyapsan? – dedi. U odam boshini burib qaradi va uning Abu Ayyub al-Ansoriy ekanini payqadi. Abu Ayyub roziyallohu anhu, Marvonning xavotirini sezib, ongli tarzda amalga oshirilsa qabrlarga ziyorat ko‘p foyda berishini va buning hech qanday zarar keltirmasligini aytib:

– Ha, nima qilayotganimni bilaman. Men Rasulullohga kelganman, toshga emas! Ammo Rasulullоh shunday deganini eshitgan edim:

“Din ishlarini malakali kishilar bajarganda xavotirlanma. Faqat bu ishga malakali bo‘lmaganlar aralashganda, din uchun qanchalik xavotirlanib yig‘lasang ham o‘rinlidir” [6].

Bu aziz sahobaning so‘zlaridan ko‘rinib turibdiki, qabrlarni ongli va odobga rioya qilgan holda ziyorat qilishda hech qanday zarar yo‘q. Aksincha, bu ziyorat qiluvchiga ma’naviy jihatdan katta foyda beradi.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ldiki, qabrlarni ziyorat qilish davri saodatdan beri davom etayotgan, bevosita Rasulullоh (sollallohu alayhi va sallam)ning ko‘rsatmalari bilan ruxsat etilgan amallardandir. “Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) yetti o‘rinda namoz o‘qishdan qaytardilar: axlatxonada, qassobxonada, baytulloh ustida, qabristonda, yo‘l o‘rtasida, hammomda, tuyaning qo‘tonida”, deyilgan [4].

Natija va muhokama. “Shir’at ul-islom” asarining qabrlarni ziyorat qilish qoidalariga bag‘ishlangan faslida shunday deyiladi: Ziyoratga kirishishdan oldin tahorat qilib, ikki rakaat namoz o‘qish kerak. Bunda har bir rakatda bir martadan “Fotiha” surasi va “Oyat ul-Kursiy” oyati hamda uch martadan “Ixlos” surasi o‘qiladi-da, uning savobi vafot etgan kishining ruhiga bag‘ishlanadi. Shundan so‘ng qabrni ziyorat qilmoqchi bo‘lgan kishi qabristonga yo‘l oladi. U qabristonga kirib kelayotganida: “Assalamu alaykum ahlud-diyari minal mu’miniyna val musli miyn. Rahimahullohul mutaqaddimiyna minkum val muta’axiriyna minna. Antum lana salaf va nahnu lakum xalaf va taba’. Va inna inshaallohu bikum lahiqun” deyishi kerak. Shundan keyin qabrga qarab o‘tirsin-da, “Yosin” surasini yoxud o‘zi bilgan boshqa biror surani o‘qisin. Oxirida Allohga tasbeh aytib, vafot etgan kishining haqqiga duo qilsin-da, orqasiga qaytsin”.

Bir hadisda keltirilishicha, Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam shunday degan: “Bu dunyoda o‘zi tanigan kishisining qabri oldidan o‘tayotib unga salom yo‘llamaydigan biror banda yo‘qdir. Aks holda qabrda yotgan o‘sha kishi qanday qilib u yerdan o‘tib ketayotgan o‘sha kishini tanishi va uning salomiga javob aytishi mumkin?”. Boshqa bir hadisda keltirilishicha, Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam shunday degan: “Qabriston oldidan o‘tib ketayotgan kishi Qur’ondan: “Qul xuval lohu axad” parchasini o‘n marta qiroat qilsin-da, uning savobini vafot etganlarning ruhlariga bag‘ishlasin”[3].

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: «Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Safar qilinglar – salomat bo‘lasizlar va rizqlanasizlar”, dedilar». Keyingi davr musulmon olimlari turli diyorlarga safarlar qilib, ko‘plab qadimiy davlatlar va shaharlar haqida tadqiqotlar olib bordilar, o‘tmishdagi xalqlar haqida ma’lumotlar yozib qoldirdilar, ba’zilari sayohatnomalar yozib, xaritalar chizdilar. Bu esa, keyingi avlod uchun bebaho ma’naviy xazina bo‘lib qoldi. Shuningdek, qabr ziyoratining hosiyati va fazilati haqida kelgan mashhur hadisda shunday deyiladi: “Men sizlarni qabrlar ziyoratidan qaytargan edim. Endi, ularni ziyorat qilaveringlar! Chunki, u oxiratni eslatadi, sizlarga o‘limni esga soladi. Chunki, u qalbni yumshatadi, ko‘zni yoshlantiradi. Sizlarga unda ibrat bor. U dunyoda parhezkor qilib qo‘yadi” (Imom Muslim, Imom Termiziy, Abu Dovud, Ibn Moja, Hokim, Tabaroniy rivoyatlari). Demak, biron mamlakatga sayohat bilan borganda o‘sha joydagi payg‘ambarlar, sahobalar, mashhur ulamolar va aziz avliyolarning qabrlarini ziyorat qilish insonga oxiratni eslatishi bilan birga, bu dunyodagi qiyinchiliklar va har xil muammolar o‘tkinchi ekanligini ko‘rsatib, qalbni xotirjam va sokin qiladi [4].

“Jome’ ul-usul” “Asoslar to‘plami” asarida Burayda raziyallohu anhuning quyidagi aytganlari keltirilgan: «Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam “Men sizlarga qabrlarni ziyorat qilishni taqiqladim”, deb aytgan. Biroq Muhammad sallallohu alayhi vasallamning o‘ziga o‘z onasining qabrini ziyorat qilishga ruxsat berilgan. Shunga ko‘ra, ul hazrat: “Qabrlarni ziyorat qilavering, chunki qabrlarni ziyorat qilish sizlarga oxiratni eslatadi”, deb aytgan.

Az-Zohidiyning “Sharh al-Quduriy” “Quduriy asari sharhi” asarida Imom Muhammad Shayboniy rahimahullohning “Al-Osor” (Izlar) asaridagi quyidagi eslatmasi keltirilgan: “O‘lganlar haqqiga duo qilish va oxiratni eslash maqsadida qabrlarni ziyorat qilishning hech qanday yomon tomoni yo‘q”. Bu, aslida, Abu Hanifa rahimahul lohning aytgan gapidir. Imom Muhammad Shayboniy rahimahulloh tomonidan keltirilgan gapning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosining o‘ziyoq ayollarning erkaklar qatorida qabrlarni ziyorat qilishlari mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Yuqorida Abu Hurayra raziyallohu anhudan naql qilingan holda keltirilgan hadisga kelsak, u Payg‘ambar sallallohu alayhi vasallamning: “Qabristonga boradigan ayollarga Allohning la’nati bo‘lsin” hamda “Siz ayollar u yerdan gunohkor bo‘lib qaytasizlar, savob olib qaytmaysizlar. O‘liklarni bezovta qilib, tiriklarni chalg‘itasizlar”, deb aytgan gaplariga asoslangan. Biroq bir kun kelib musulmonlarga qabrlarni ziyorat qilishga ruxsat berilgach, ayollarning ham qabrlarni ziyorat qilishlari ruxsatli bo‘ladi. Zero, Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam ummatlariga qarata: “Men sizlarga qabrlarni ziyorat qilishni taqiqladim” deb aytgan bo‘lsa-da, Muhammad sallallohu alayhi vasallamning o‘ziga o‘z onasining qabrini ziyorat qilishga ruxsat berilgan. Shunga ko‘ra, ul hazrat: “Qabrlarni ziyorat qilavering, chunki qabrlarni ziyorat qilish sizlarga oxiratni eslatadi”. Ammo qabrlarni ziyorat qilish chog‘ida uyatli gaplarni gapirmang. Keyinchalik qabrni osonroq topish maqsadida unga biror-bir belgi qo‘yib qo‘yishning yomon tomoni yo‘q, deb aytgan”[5].

Xulosa. Ziyorat tushunchasi bu – insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga chuqur kirib borayotgan tushunchalardan biri bo‘lib qoldi. Aslida ziyorat so‘zi va u bilan bog‘liq an’analar, urf-odatlar o‘zbek xalqi uchun yangilik emas. Shuningdek, islom olamidagi mashhur avliyolar va ulug‘lar ziyorati ham ajdodlarimiz hayotida ruhiy tarbiya va ma’naviy poklanish vositasi bo‘lib kelgan. Yurtimiz aholisi bu borada yetarlicha tajribaga ega hisoblanadi. Sababi shundaki, mamlakatning osori atiqalar bilan burkangan ko‘hna tarixi islom sivilizasiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shmoqda.

ADABIYOTLAR:

9. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-standart, 2019. – 624 b.

10. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chortoq tumani Qoramurt qishlog‘i. 2003.

11. Eshonqulov Z. Ziyorat odoblari. Mas’ul muharrir: Muhammad Bobur Yo‘ldosh. – Toshkent: Movarounnahr, 2015. – 52 b.

12. Imom Buxoriy. Al-Jome as-sahih. IV jild. – Toshkent: Munir, 2021.

13. Imom Termiziy. Sunan Termiziy. V jild. – Toshkent: Hilol-nashr, 2025. – 592 b.

14. Muin ul-fuqaro, Ahmad ibn Mahmud Tarixi Mullozoda dar zikri mazoroti Buxoro / Fors tilidan tarjima, muqaddima, tadqiq, izohlar, ilovalar muallifi va nashrga tayyorlovchi: Komiljon Rahimov. – Toshkent: «Fan», 2019. – 216 b.

15. Ziyorat turizmi: ruhiy quvvat va ma'naviy ozuqa [Matn]: risola / J.Abduqodirov. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 35-37.

UO‘K 930.85:719.005

NAVOIY VILOYATI MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TIPOLOGIYASI, GEOGRAFIK VA FUNKSIONAL KLASSIFIKATSIYASI

Xo‘jayeva Lobar Shuxratovna,
Navoiy davlat universiteti tarix kafedrasi o‘qituvchisi
lobarxujayeva7@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Navoiy viloyatidagi madaniy meros obyektlarining tipologiyasi, geografik va funksional klassifikatsiyasi, arxeologik va paleontologik yodgoliklari, me’moriy madaniy meros obyektlari, diniy obida va ziyoratgohlari, monumental yodgorliklar ularning paydo bo‘lishi, nomlanishi qanday vazifalarni bajarganligi, qaysi olimlar o’rganilganligi va bugungi kunda ularning davlat muhofazasiga olinishi va bugungi kundagi holati haqida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: diniy obida, ziyoratgohlar, xonaqo, monumental yodgorlik, tipologiya, geografiya, arxeologik xaroba, ibodatxona, meros, paleontologik, qo‘riqxona, qal’a, inshoot, chashma, karvonsaroy, sardoba.*

ТИПОЛОГИЯ, ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. *В данной статье освещается типология, географическая и функциональная классификация объектов культурного наследия Навоийской области, археологические и палеонтологические памятники, объекты архитектурного культурного наследия, религиозные памятники и места паломничества, монументальные памятники, их возникновение, названия, функции, которые они выполняли, какими учёными они были изучены, а также их нынешний статус государственной охраны и современное состояние.*

Ключевые слова: *религиозный памятник, места паломничества, ханака, монументальный памятник, типология, география, археологические руины, храм, наследие, палеонтологический, заповедник, крепость, сооружение, родник, караван-сарай, сардоба.*

TYPOLOGY, GEOGRAPHICAL AND FUNCTIONAL CLASSIFICATION OF CULTURAL HERITAGE SITES IN NAVOI REGION

Abstract. *This article explores the typology, geographical and functional classification of cultural heritage sites in Navoi region, including archaeological and paleontological monuments, architectural and cultural heritage objects, religious monuments and pilgrimage sites, and monumental structures. It covers their origins, naming, functions, the scholars who have studied them, their current state protection status, and present condition.*

Keywords: *religious monument, pilgrimage sites, khanaqah, monumental structure, typology, geography, archaeological ruins, temple, heritage, paleontological, reserve, fortress, building, spring, caravanserai, sardoba.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda me’moriy yodgorliklarni ta’mirlash hamda ulardan turizm maqsadida foydalanish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz xalqimizning madaniy merosini saqlashimiz va kelajak avlodlarga yetkazishimiz kerak. Ayni paytda uning tarkibiga 7000 dan ortiq obyektlar kiradi. Afsuski, so‘nggi paytlarda ba’zi bebaho obyektlarga yetkazilgan zarar bu masalaga beparvo munosabatda ekanligimizni ko‘rsatib qo‘ydi” [1]. Bu borada mamlakatimizda mavjud tarixiy shaharlar va me’moriy obyektlarni, ayniqsa, Navoiy viloyatidagi madaniy meros obyektlarini ilmiy jihatdan o‘rganish va ularni rekonstruksiya qilish takliflarini ishlab chiqish, turizm industriyasini rivojlantirish, jumladan, milliy turizm mahsulotlarini nafaqat mamlakatimizda, balki jahon bozorida faol targ‘b qilish ishlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi. Ma’lumki, Navoiy viloyati ham madaniy meros obyektlariga boy hududlaridan hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha viloyatda madaniy meros obyektlari tipologik jihatdan to‘rtta kategoriyasi mavjud. Ular quyidagilardan iborat: 1.Arxeologik va paleontologik yodgorliklar.

2.Me’moriy madaniy meros obyektlari

3. Diniy obida va ziyoratgohlar
4. Monumental yodgoliklar

1. Arxeologik va paleontologik yodgoliklar:

“Tosh o‘rmon” - Navoiy viloyatining Uchquduq tumanida aniqrog‘i Markaziy Qizilqumda, Mingbuloq qishlog‘idan 30 km uzoqlikda joylashgan. Jaraquduq darasi-ochiq osmon ostidagi noyob paleontologik muzey hisoblanadi. Ilmiy farazlarga ko‘ra bu yerda taxminan 95 million yil avval hududdagi chinor (platan) va qirqquloq (paporotnik)larning vertikal holatdagi toshlarga aylanishi natijasida “Tosh o‘rmon” yuzaga kelgan.

Uchtut – Navoiy viloyatidagi bu yodgorlikdan yeng qadimgi odamlar noyob chaqmoqtoshlar olishgan. Kondan odamlar ilk paleolit davridan boshlab, butun tosh davri davomida foydalanishgani fanda ma’lum.

Sarmishsoy – o‘zida 4 mingdan ortiq noyob qoyatosh tasvirlarini jamlagan tabiiy-tarixiy yodgolik. “Zangori osmon ostidagi ochiq muzey” Navoiy shahrida 45 km uzoqlikda joylashgan. “Sarmish” tabiat bog‘i deb e’lon qilingan ushbu tarixiy merosning umumiy maydoni 5000 gektarni tashkil etadi. Sarmishsoy 2009-yil 14-iyulda tabiiy arxeologik muzey kompleksi-qo‘riqxonasiga aylantirilgan. Sarmishsoy YUNESKOning Butunjahon madaniy meros obyekti ro‘yxatiga kiritilgan. Bu yerda o‘simliklarning 62 oilaga mansub 650 turi uchraydi.

Chordara - Sopol idishlarining siniqlari va o‘sha paytda butun Markaziy Osiyoda me’moriy inshootlar qurilishida foydalanilgan 50x30x10 sm o‘lchamdagi xom g‘ishtlar Chordara qarsi istehkomining miloddan oldingi V asrda tiklanganidan dalolat beradi. Miloddan oldingi VI – V asrlarda Zarafshon vodiysida ulkan shaharsozlik ishlari amalga oshirilgan. Chordara qo‘rg‘oni xarobalari bu davrda yerlarni qishloq xo‘jaligi maqsadlarida o‘zlashtirish va Zarafshonning o‘rta oqimi, ya’ni Navoiy viloyatining qadimiy So‘g‘d tarkibidagi madaniy tarixi miloddan oldingi V asrlardayoq boshlanganidan darak beradi. Konimex tumani o‘zanidan shu davrga mansub boshqa qo‘rg‘onlarning xarobalari ham topilgan. Ulardan faqat madaniy qatlamlar va bino poydevorlari saqlanib qolgan.

Nur qal’asi - Nur qal’asi mashhur Nur chashmasining ustki qismida suv boshiga yegalik qilish, dushman qamaliga bardosh berish maqsadida qurilgan. Qal’aning ichki qurilishlari yaxshi saqlanmagan. Qal’aning yeng baland minorasi bo‘lgan kuzatuv maskanidan 4 tomon yaqqol ko‘rinib turgan. Kuzatuv punkti 26x26 metrni tashkil yetadi. Kuzatuv punkti va Ark 150 m.li usti yo‘lak bo‘lgan qalin pasxa devor bilan tutashtirilgan. Devorning qalinligi 14-16 m.gacha bo‘lgan. Qal’a qurilish tarixiga ko‘ra o‘ziga xosdir. U 7 qaroqchi yulduz turkumiga mos ravishda 7 ta minora va ularni birlashtiruvchi yo‘laklar bilan birlashtirilgan. Yeng janubdagi va tog‘ning yuqoridagi minora qutb yulduziga mos qilib qurilgan. U asosiy minora bo‘lib, bu yerda Nur beklarining qarorgohi joylashgan. Nur chashmasining bir qismi suv qalasining ostidan oqib keladi. Mahalliy otaxonlarning aytishlaricha, agar qala dushman tomondan o‘rab olinsa, qaladagilar hech suvsiz qolishmagan. Taxminan qalaning o‘rtalarida askarlar maxsus zina bilan tushib qala ostidan oqib o‘tayotgan chashma suvidan olib chiqishgan.

Nur qalasining asosiy me’moriy inshootlari IV-VII asrlarga qayta tiklangan. VIII asrda Nur qalasi arablar tomondan buzib tashlangan va Somoniylar davrida qayta tiklangan Nur qalasi XVII asrda yana mustaxkamlanib qadimgi poydevor ustiga kuzatuv punktlari qurilgan qal’a asosan xom g‘ishtdan va g‘ishtdan qurilgan. Nur qal’asi ko‘plab lashkar va aholini o‘z himoyasiga olgan. Somoniylarning dushman tomonidan taslim etilgan oxirgi vakili Muntasir Nurga kelib joylashgan va 1004 - yilga kelib Dabussiyadagi dushmanga qarshi hujum uyushtirgan. 1451-1457-yillarda Nur hokimi Pirko mo‘g‘ul 1463- yilda Muhammad Jo‘qi (Ulug‘bekning farzandi Abdulatifning o‘g‘li), 1458-1462- yillarda Nursaidbek bo‘lgan. Ular ham shu qal’adan turib Nurni idora etganlar.

Tadqiqot materiallari va metodologiya. Maqolada Navoiy viloyatidagi madaniy meros obyektlarining tipologiyasi, geografik va funksional klassifikatsiyasi, me’moriy madaniy meros obyektlari, monumental yodgorliklar ularning paydo bo‘lishi tarixi tahlil qilindi va ushbu jarayonda tarixiy-qiyosiy tahlil, xolislik, ma’lumotlarni tizimlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. N. V. Xanikov, A. Vamberi, V. V. Bartold, D. N. Logofet, S. P. Tolstovlarning asarlarida O‘rta Osiyo me'morchilik tarixi haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lsa, A.Tog‘ayev, U.Narzullayev, A.Qandahorov, Sh.Xalilov, J.Savriyev tadqiqotlarida ham mavzuga oid muammolar o‘rganilgan. Biroq Navoiy viloyatining 1982-2024-yillardagi madaniy meros obyektlarining tipologiyasi, geografik va funksional klassifikatsiyasi va bunga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi haqida alohida tarzda tadqiq etilmagani bois mazkur masalani alohida tadqiqot mavzusi sifatida o’rganishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot natijalari va tahlil. Bugungi kunda ulkan tepaliklarga aylanib qolgan Nur qal’asi, G‘azgontepa, Dehi baland qo‘rg‘oni temir qovuqqo‘rg‘onlari Sentoptepa, Pashshot xarobalari, Bo‘shang qal’a, Bekqo‘ltepa, Doyloqtepa, Soptepa, Sanguzar, Soytepa va boshqa arxeologik yodgorliklar bizga uzoq

moziydan darak beradi va ajdodlarimiz qal'a- qo‘rg‘onlar qurib, o‘z yurtini bosqinchilardan mardona himoya qilganini eslatib turadi. O‘tmishda Nur So‘g‘diyonaning manzilgohlaridan bo‘lib u harbiy strategik ahamiyatga ega bo‘lgan savdo nuqtasi hisoblangan. Nurni zabt etgan dushman uchun Buxoro tomonga yo‘l ochilgan. Buxoroning 12 darvozalaridan biri shuning uchun ham "Nur darvozasi" deya atalgan. "Chashma" majmuasida 2010-2011- yillarda amalga oshirilgan obodonchilik ishlari jarayonida Shahristonga kiradigan qadimgi "Qo‘rg‘on darvozasi" o‘rnida hozirgi kirish darvozasi tiklandi. Shaharning Shahriston qismida madrasa 1920-yillargacha faoliyat ko‘rsatgan. Sho‘rolar davrida zindonxonaga aylantirilgan va keyin buzib tashlangan. Shahriston hududida shayxlarning xonadonlari ham bo‘lgan. Asom shayx, G‘iyos shayx, Baqo shayxlar chashma hududida faoliyat ko‘rsatgan oxirgi shayxlardandir.

Akademik Yahyo G‘ulomovning ma'lumot berishicha, nur qa'lasi tog‘ etagidan boshlangan, baland va keng devor bilan o‘ralgan, uchta darvozasi bo‘lgan. Darvozalarning biri shimolda, ikkinchisi sharqda joylashgan. Uchinchisi g‘arbda - to‘pxona tomonda bo‘lgan. Qo‘rg‘on ichida askaru lashkarlar, ularning xonadoni, ot-ulovlari, urush qurollari, oziq-ovqatlar va boshqa kerakli asbob-uskunalar turgan. O‘rda (o‘rda) tog‘ etagida joylashgan, qalin devor bilan o‘raglan. Ichida 7 ta tepalik mo‘la bo‘lib, bu yerda bekka qarashli kishilar, ya'ni davlat ishini bajaruvchilar turgan. Nurota Buxoro xonligining Nurota bekligi hisoblangan. Bekni Buxoro amiri tayinlagan. Bekning ixtiyorida muayyan armiya va tegishli amaldorlik idoralari bo‘lgan. O‘rdaning uzunligi 216 metr, eni 90 metrga teng bo‘lgan. Tepaliklardan birida qal'adan chiqadigan 2 ta yerosti yo‘li bo‘lib, ularning kengligi 1,5 metr bo‘lgan. To‘g‘ri sharqiy darvoza yonidan chiqqan. Bu yo‘l xavf-xatar bo‘lganda kirib-chiqish va shu yerdagi buloq suvidan foydalanish uchun ishlatilgan. Ikkinchi yo‘l qaysi tomonga ketganligi noma'lum.

Nurota vohasidagi qo‘rg‘on xarobalaridan moddiy madaniyat namunalari xum, ko‘za kabi buyumlar ko‘plab topilgan, ular o‘lkashunoslik muzeyida saqlanmoqda. Bu borada Bo‘shang qo‘rg‘oni va undan topilgan buyumlar diqqatga sazovor. G‘azg‘on qo‘rg‘oni haqidagi "G‘azg‘onnoma" asarida mahalliy iqtidorli ijodkor muallim R.Asatov quyidagilarni yozadi: "Mashhur o‘zbek tarixchi olimi Ya.G‘ulomov o‘z asarlarining birida Nur atrofidagi tuproq qo‘rg‘onlar haqidayozar ekan, ularni "himoya qo‘rg‘onlari"[2], bobokalonlarimizning aytishicha, - deb yozadi o‘lkashunos R.Asatov [3] qo‘rg‘on tepasiga to‘plangan o‘tin, shox-shabbalar gulxan qilib yoqilgan. Buni ko‘rgan xalq dushmandan yashirinish chorasini ko‘rgan.

Nurota chashmasi - Nurota chashmasining sirli jihatiga bu yerning tabiiy o‘rni va buloqning shifobaxsh xususiyatlari ham sabab bo‘lgan. Nurota chashmasining suvi minglab kilometr yerosti yo‘laklaridan soniyasiga 290 litr miqdorida oqib chiqadi. Chashma suvi qishin-yozin bir xil - 19,5 daraja iliq bo‘ladi. Ming yillar davomida oqib turgan chashmaning muzlashi hech kuzatilmagan, u minerallashgan yumshoq ichimlik suvidir. Akademik Ya. G‘ulomovning fikricha, Nur chashmasining paydo bo‘lish tarixi bir necha ming yillik uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Nur qal'asi ostidan oqib chiqayotgan beshta ariq orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib qo‘yiladi. Nur chashmasi O‘zbekistonning eng sersuv chashmalaridan bo‘lib, dengiz sathidan 524 metr balandlikda joylashgan. Akademik K. Zokirov, asrlar osha Nurotaning dong‘ini olamga yoyib kelyotgan narsa – bu uning chashmasidir, - deb bejiz aytmagan.

Dastlab chashma suvini 1912- yilda rus olimlari Aleksandr Dimo va keyinchalik professor V.Nikolaevlar tekshirganlar va suv tarkibidan 8 xil shifobaxsh mikroelementlarni topganlar. Ximik olim A.Muzaffarov esa chashma suvi tarkibida 16 xil menerallar borligini aniqlagan. Rus olimi N.Kenesarin: "Nur chashmasi tarkibida bir qancha mikroelementlar va kimyoviy birikmalar mavjud bo‘lib, bu inson organizmi uchun zarur bo‘lgan shifobaxsh suvdir", - deb yozgan. Nur chashmasi va uning atrofidagi tabiiy – antropogen landshaft noyob qo‘riqxonadir. Bu erda tabiiy (chashma landshafti), biologik (shirmohi baliqlar), me'moriy (masjid, madrasa va qabrlar), arxeologik (Nur qal'asi), tarixiy (Nur tarixi shu erdan boshlanadi), tibbiy (shifobaxsh chashma suvi) yodgorliklar betakrorligi, uyg‘unligi bilan takrorlanmasdir. Olimlarning fikricha, Nur chashmasining geologik yoshi ming yillar, chashma atrofidagi madaniy qatlam esa 35-40 ming yilga tegishlidir.

2. Me'moriy madaniy meros obyektlari

Raboti Malik karvonsaroyi - Raboti Malik karvonsaroyi Karmanadan 18 km g‘arbda joylashgan, Cho‘li Malikda barpo etilgan o‘z davrining buyuk qasrlaridan biri bo‘lgan. Cho‘li Malikda qurilgan Raboti Malik ham Buyuk Ipak yo‘li ustida qurilgan karvonsaroy–mehmonxona vazifasini bajargan. Raboti Malik Markaziy Osiyodagi eng qadimgi monumental arxitektura yodgorligi hisoblanadi. U karvonsaroydan tashqari, atrof va chegarani qo‘riqlash istehkomi vazifalarini ham bajargan. Shuningdek, Karmana va Tavois o‘rtasida Buyuk Ipak yo‘lidan o‘tuvchi yo‘lovchilar uchun muhim va zaruriy qo‘nalg‘a xizmatini ado etgan. Raboti Malik 1069-1079- yillar orasida Buxoroda hukmronlik qilgan qoraxoniy sultonlardan bo‘lgan Tamg‘achxon Ibrohim (1046-1068)ning o‘g‘li Malik Shamsulmulk Nosir ibn Ibrohim (1068-1080) davrida kurilgan.

Raboti Malik chorsi hovli va atrofini o‘ragan xona-hujralardan iborat bo‘lib, unga janub tomondagi peshtoqli darvoza orqali kirilgan. Bino tashqi kungurador devorlarining uzunligi 100 metrga yaqin bo‘lib, balandligi 12 metrgacha bo‘lgan. Devorining balandligi uning orqasidagi xonalar ikki qavatli bo‘lganligidan darak beradi. Rabotning o‘rtasida ulkan peshtoq bo‘lib, uning bo‘yi 18 metr, eni 12 metrni egallagan. Darvoza qurilishi jihatdan Markaziy Osiyodagi qadimgi me’moriy bino hisoblanib, unda sakkiz qirrali yulduzlar, turli geometrik shakllar mavjud. Peshtoq chekkasida ikki burj yasalib, ular o‘zaro baland devor bilan o‘ralgan. Devor o‘rtasida piltovar burjlar qatori tepasi kichrayuvchi ravoqlar bi lan bog‘langan. I.Umnyakovning ta’kidlashicha, devor yuqorisida forscha yozuv bo‘lib, unda “Jahon Sultoni tomonidan qurilgan bu bino Allohning ijobati bilan jannatga aylanur” so‘zlari bitilgan. Janubi-g‘arbdagi minora yozuvida esa Qur’oni Karimning 3-surasidan oyat bitilgan. Shuningdek, ko‘shk ostida ganchdan yasalgan ikki qator yirik sharafa kufiy xat halqasi ko‘zga tashlanadi [4]. Rabot devorlari o‘zagi xom g‘ishtdai (28x28x6,5 sm) terilgan, tashqarisi pishiq g‘isht(24x24x4 sm) bilan qoplangan. Raboti Malikda katta karvonsaroy bo‘lib, uning maydoni 400 m 2 atrofida bo‘lgan. Shularni nazarga olsak, Raboti Malik podshohlar qo‘nalg‘asi sifatida talqin etilsa shubhaga o‘rin qolmaydi. Chunki Raboti Malik toponimi etimologiyasining o‘zi “Podshoh Raboti” ma’nosini anglatadi.[5]

Sardoba. Sardoba (fors-tojik tilida-sovuq suv)-suv tanqis erlarda uni saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz. 1841-1842 yillarda bu joylarda bo‘lgan A. Lemann ushbu sardoba to‘g‘risida: “Raboti Malikni suv bilan ta’minlab turgan sardoba-ajoyib baland gumbazli bo‘lib, uning ustki qismidan suvga yorug‘lik tushib turadi, binoning yarmi yerga ko‘milgan, bu joy sayohatchilar uchun jon saqlash manzilgohidir” – deb yozadi [6].

Raboti malik karvonsaroyi ro‘parasida joylashgan bo‘lib, XI asrda qurilgan. Bu sardoba Samarqand va Buxoro oralig‘idagi cho‘llarda yagona obi hayot manbai bo‘lgan. Navoiy viloyat hokimining 1996-yil 9-sentyabrda “Sardoba va Raboti Malik tarixiy yodgorliklarini obodonlashtirish, ta’mirlash va kompleks rivojlantirish to‘g‘risida” qabul qilgan qarorida [7] ko‘rsatilgan tadbirlar, jumladan, yodgorliklar atrofini obodonlashtirish, arxeologik qazilma va ilmiy tadqiqot ishlarini jonlantirish, yodgorlik atrofidagi eski yo‘lni buzish, loyiha asosida sayyohlar uchun yo‘lakchalar, avtomashinalar to‘xtash uchun maxsus maydonlar qurish rejalashtirilgan.

Toshmasjid me’moriy majmuasi. Vang‘ozi qishloq faqat Buxoro vohasida emas, balki Turkiston mintaqasida ro‘y bergan ko‘pgina muhim tarixiy voqealar bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi.XVI asr boshlarida bu qishloqni Bagazi-dih yoki Vaganzi (Vag‘onze) deb nomlaganlar. Bu haqda tarixchi olim Fazlulloh ibn Ro‘zbehon o‘zining “Mehmonnomai Buxoro” asarida yozib o‘tgan. Unda yozilishicha, 1509 yil 30 yanvarda Buxoro xoni Muhammad Shayboniyxon va uning jiyani Ubaydullaxon (Ubaydulla Sulton) katta qo‘shin bilan Vaganzi [Vang‘oze]dan G‘ijduvonga jo‘nab ketgan. Shayboniyxon 16- fevralda G‘ijduvonga, 18-fevralda Arquqda bo‘lgan [8].

N.Xanikovning yozishicha, bu qishloq ilgari “Buxorodan uncha uzoq bo‘lmagan Zarafshon daryosining chap qirg‘og‘ida joylashgan shahar edi [9]. Buxoro amirligi davrida Vaganza (Vang‘oze) qishlog‘i Komi Abu Muslim tumanining markazi bo‘lgan [10]. Ayrim tadqiqotlarda Toshmasjidni XVI asrga oid va Abdullaxon II tomonidan qurdirilgan deyilsa, boshqalarida undagi minorani XVIII asrda barpo etilganligi ta’kidlanadi.

Badriddin Kashmiriyning “Ravzat ar-Rizvon va hadiqat al-g‘ilmon” nomli asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, Toshmasjid va minora 1583 – 1586 yillari mashhur din peshvosi Xoja Sa’d Jo‘yboriy tomonidan qurdirilgan. Abdullaxon II ning otasi Iskandarxon dastlab hukmronlik qilgan Karmana viloyatida ko‘plab jamoa va tijorat binolari qurdirilgan [11]. Xoja Islomning Gavkushon va Jo‘ybor madrasalarida 8000 jildlik ulkan kutubxonasi bo‘lgan. U saxovatli va muruvvatli inson bo‘lgani uchun Buxoro xalqi tomonidan Qutbul g‘avs (Madadkor qutb), ya’ni avliyo deb e’zozlangan [12].

Xoja Muhammad Islomning o‘g‘li Xoja Sa’duddin (1531 – 1589) ko‘proq Xoja Sa’d va Xojai Kalon Xoja nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Otasi vafoti (1563 yil)dan so‘ng uning o‘rniga Abdullaxon II tomonidan Buxoro shayxulislomi qilib tayinlangan. Abdullaxon II uning fatvosisiz birorta jiddiy ishga qo‘l urmagan. Xoja Sa’dga Qutblar qutbi va Sayyidlar panohi unvonlari berilgan. Xoja Sa’d ham otasi kabi katta er-suv va ko‘chmas mulk egasi bo‘lgan [13]. Abdullaxon II unga hatto Badaxshon viloyati va Vaxsh hududining katta qismini hadya etgan. Taxminan 1580 - yili Xojai Kalonxoja masjidni qayta qurish haqida ko‘rsatma bergan. Eski sinchlar olib tashlanib, uning o‘rniga yangi ko‘p ustunli zal qurilgan. Endi ushbu binoning konstruksiyalari to‘laligicha pishiq g‘ishtdan ko‘p ustun va ko‘p gumbazli qilib barpo etilgan edi. Masjid qurilishiga “olti yil vaqt ketdi va u hijriy 993- yili (1585-1586 y.) tugatilgan”. Toshmachit masjidi Qiziltepa tumanida joylashgan bo‘lib, XIX asr yodgorligi hisoblanadi [13].

Vang‘ozi minorasi. Toshmasjid yonidagi 24 m balandlikdagi ko‘rkam minora e’tiborni tortadi. Bezaklari va tuzilishiga ko‘ra, u XII asrda barpo etilgan Vobkent minorasiga o‘xshab ketadi. Vang‘ozidagi

bu minorani qurilish sanasi haqida turli fikrlar mavjud. Xususan, V.Nilsen minorani XVIII asrda qurilgan deydi.

A.Balayevning chizmasidagi “Azizobod minorasi – 1294” yozuvidan esa boshqa sana kelib chiqadi. Fikrimizcha, Azizobod inshootning o‘tgan asr o‘rtalaridagi nomlanishi bo‘lsa kerak, 1294 raqami esa ehtimol hijriy yil bo‘lib, u hozirgi hisob bo‘yicha 1877- yilga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari mahalliy qariyalarning aytishiga qaraganda, XVIII-XIX asrlarda Vang‘ozi va Vobkent shahridagi minoralar bir usta tomonidan ta’mirlangan ekan. Nazarimizda, bu ta’mirlash ishlari Vang‘ozi minorasining muqarnasli sharafalari ustida ham olib borilgan, chunki hozirda ushbu muqarnaslar g‘ishtlarning boshqacha tusida, sodda hamda yirikroq qilib ishlangan. Ushbu ta’mir sanasi balkim minora bezaklariga kiritilgan bo‘lib, bu sanani ko‘pchilik tadqiqotchilar, jumladan, A.Balaev ham qurilish yili sifatida talqin etganlar.

Deyarli dastlabki ko‘rinishida saqlanib qolgan bu minora Buxoro vohasida ushbu tipdagi qurilmalar uchun xos bo‘lgan qadimgi an’analar asosida qurilgan eng go‘zal mumtoz inshoot namunasidir. Minoralar qadimdan Jome’ masjidlarining ajralmas qismlaridan sanalgan va azon chaqirish uchun mo‘ljallangan Buxoro vohasidagi minoralar uchun o‘zagidan biroz chiqib turuvchi ravoqli qafasalarning mavjudligi va ularning yuqoriga qarab kengayib boruvchi muqarnasli sharafasi xos bo‘lgan. Vang‘ozida 1585-1586 yillarda Toshmasjid yonida qurilgan minora XVI asrda bunyod etilgan shu tipdagi inshootlar orasida eng balandidir. Uning balandligi – 24 m, pastki qismi asos aylanasi – 3,8 m, poydevori toshdan terilgan. Bino o‘zagi olti qatorli bo‘rtma g‘ishtin belbog‘ bilan, uning tepasidagi sakkiz ravoqli qafasasi esa, pastki va yakunlovchi qismida muqarnasli sharafalar bilan bezatilgan.

Shunisi qiziqarliki, Buxoro shahridagi Gavkushon minorasi Arslonxon minorasining kichik nusxasi, Vobkent shahri yaqinidagi Vang‘ozi qishlog‘i minorasi esa Vobkent minorasining kichraytirilgan nusxasidir. Bu esa Buxoro vohasiga mansub mintaqaviy me’morchilik maktabi doirasida o‘ziga xos mahalliy xususiyatlar borligi haqida gap yuritishga ijozat beradi. Muhandis A.Asanovning tadqiqotlariga ko‘ra, O‘rta Osiyodagi barcha minoralar inshoot mustahkamligini ta’minlovchi va inson tana o‘lchovlariga bog‘liq bo‘lgan qator doimiy o‘lchovlarga ega bo‘lgan. Masalan, tashqi devor eng yupqa joyi qalinligi kamida 1-1,5 g‘ishtli qilib terilgan (niqobi bilan 30-40 sm qalinlikda bo‘lgan), fonusning balandligi kamida 1-2,5 m balandlikda, minoraning yuqori qismi asos aylanasi esa 2,1-2,2 m dan kam bo‘lmagan.

San’atshunos olima Mavluda Yusupova o‘z tadqiqotida Vang‘ozi qishlog‘idagi me’moriy majmuaning vujudga kelish bosqichlari va me’moriy echimi bo‘yicha dastlabki xulosalarni berdi. Istiqlol tufayli Toshmasjid ham qayta yoshardi. 2002- yilda bo‘lib o‘tgan xalq deputatlari Navoiy viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Toshmasjidni ham alohida tilga olgach, viloyat hokimi B.Ro‘zievning farmoyishiga binoan uni asosli ta’mirlash ishlari boshlandi. Bu maqsadda jamg‘arma tuzildi. Jamg‘armaga viloyat va tuman tashkilotlari, aholining besh yuz million so‘mga yaqin mablag‘i yig‘ildi. Viloyat hokimi B.Ro‘ziyev va Qiziltepa tumani hokimi Sh.Nabiyev qurilish borishini muntazam nazoratga olishdi. Besh oy deganda majmua go‘zal qiyofani kashf etdi.

Xulosa qilib aytganga Navoiy viloyatidagi madaniy meros obyektlarining tipologik jihatdan kategoriyalarga ajratish har tomonlama qulaylikni tashkil etadi. Bu nafaqat tadqiqotni amalga oshirishga balki turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Viloyatda madaniy meros obyektlari geografik va funksional klassifikatsiyasi, arxeologik va paleontologik yodgorliklari, me’moriy madaniy meros obyektlari, diniy obida va ziyoratgohlari, monumental yodgorliklar ularning paydo bo’lishi, nomlanishi qanday vazifalarni bajarganigi ularni saqlab qolish, asrab-avaylash keng katta vazifamiz ekanligini unutmasligimiz kerak.

ADABIYOTAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Parlamentga yo‘llagan murojaati. 2020 yil.

2. Гулямов Я. Г. Нур Бухарский // Этнография и археология Средней Азии. –М.:1979. С. 134

3. Асатов Р. Гозгоннома...42 б.

4. Умняков И. И. Работи Малик – Сб. В. В. Бартольду – его ученики и почитатели. Т., 1927, стр. 32.

5. Немцева Н. Б. Новое о Бухарском памятнике XII века Рабат-и Малике: караван-сарай или резиденция? “Ўзбекистон тарихи”, 2000 йил, 1-2-сонлари, 7-13-бетлар.

6. Иноятов С. Амир Темур Работи Маликда. Т., 1998, 45-бет

7. Сафаров О. Тарих миллат кўзгуси. “Дўстлик байроги”, 1999 йил 26 май

8. Фазлаллах ибн Рузбихан Исфахани. Михман-наме-йи Бухара. – М.: Наука, 1976. – С. 42, 47, 66, 67, 69, 174.

9. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – Санкт-Петербург, 1843. – С. 110.

10. Населённые пункты Бухарского эмирата (конец XIX – нач. XX вв.). – Т.: Университет, 2001.

11. Юсупова М. Ванғози қишлоғи меъморий ёдгорликлари // "Санъат", 2003. №3. 9-13-бетлар; "Қизилтепа тонги", №44. 2006 йил 2 ноябрь.

12. Ҳусайн ас-Сарахсий. Маноқиби саъдийа (Хўжа Ислом мақомотлари). Форс-тожик тилидан Ҳ.Тўраев таржимаси. – Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2002. 52 бет.

13. Норкулов У. И вдруг среди барханов Кызылкума…// Народное слово, 23 октября 2004 года.

УЎК 93/94

ШЕРАЛИХОН ДАВРИДА АФҒОНИСТОН: СИЁСИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТ

Эргашев Жаҳонгир Юнус ўғли,
Бухоро давлат университети доценти, т.ф.ф.д.(PhD)
j.y.ergashev@buxdu.uz
j.ergashev91@mail.ru
Самиев Озод Фазлиддин ўғли,
Бухоро давлат университети магистранти

Аннотация. *Мақолада XIX аср ўрталари ва иккинчи ярмида Афғонистонда ҳукмронлик қилган амир Шералихон даври таҳлил этилган. Шералихон тахтга чиқиш жараёнидаги сиёсий курашлар, Англия ва Россиянинг минтақадаги манфаатлари ва уларнинг Афғонистон ички ишларига аралашуви очиб берилган. Шу билан бирга, амирнинг мамлакатда марказий ҳокимиятни мустаҳкамлаш, солиқ ва ҳарбий тизимни ислоҳ қилиш, мунтазам армия тузиш, савдо-иқтисодий алоқаларни ривожлантириш ва маънавий-маърифий ҳаётни йўлга қўйиш борасидаги ислоҳотлари ёритилган. Афғонистоннинг сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий аҳволи кенг қамровли таҳлил қилиниб, Шералихон сиёсатининг афзал ва заиф жиҳатлари кўрсатилган.*

Калит сўзлар: *Афғонистон, Шералихон, XIX аср, сиёсий жараёнлар, ижтимоий-иқтисодий ҳаёт, солиқ сиёсати, мунтазам армия, Англия, Россия, халқаро муносабатлар.*

АФГАНИСТАН В ПЕРИОД ШЕРАЛИХАНА: ПОЛИТИЧЕСКОЕ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ

Аннотация. *В статье анализируется период правления эмира Шералихана в Афганистане в середине и второй половине XIX века. Раскрываются политическая борьба в процессе восхождения Шералихана на престол, интересы Англии и России в регионе и их вмешательство во внутренние дела Афганистана. Наряду с этим освещаются реформы эмира по укреплению центральной власти в стране, преобразованию налоговой и военной систем, созданию регулярной армии, развитию торгово-экономических связей и налаживанию духовно-просветительской жизни. Проведен всесторонний анализ политического и социально-экономического положения Афганистана, выявлены преимущества и слабые стороны политики Шералихана.*

Ключевые слова: *Афганистан, Шералихана, XIX век, политические процессы, социально-экономическая жизнь, налоговая политика, регулярная армия, Англия, Россия, международные отношения.*

AFGHANISTAN IN THE PERIOD OF SHERALIKHAN: POLITICAL AND SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT

Abstract. *The article analyzes the reign of Amir Sheralikhan, who ruled Afghanistan in the mid to late 19th century. It reveals the political struggles surrounding Sheralikhan ascension to the throne, as well as the interests of England and Russia in the region and their interference in Afghanistan's internal affairs. Furthermore, the article highlights the Amir's reforms aimed at strengthening central authority in the country, reforming the tax and military systems, establishing a regular army, developing trade and economic relations, and promoting spiritual and educational life. The political and socio-economic situation of Afghanistan is comprehensively analyzed, showcasing both the strengths and weaknesses of Sheralikhan 's policies.*

Keywords: *Afghanistan, Sheralikhan, 19th century, political processes, socio-economic life, tax policy, regular army, England, Russia, international relations.*

Кириш. XIX аср ўрталарида амир Дўстмуҳаммадхон олиб борган сиёсат натижасида Афғонистон давлати бирлаштирилиб, марказлашган давлат тартиблари ўрнатилган. Сўнгги мустақил мулк бўлган Ҳиротни амир Дўстмуҳаммадхон 1863 йил бўйсундирган бўлиб, Ҳирот эгалланган кейин июнь ойи бошларида Дўстмуҳаммадхон вафот этган. Дўстмуҳаммадхоннинг ўша вақтда ёнида бўлган ўғли Шералихон отаси тахтига даъво қилган. Дўстмуҳаммадхоннинг ўн олти ўғли бўлиб,

уларнинг кўпчилиги турли ўлка ва вилоятларнинг бошлиқлари эди. Шу сабабли Шералихон отаси меросига даъво қилган. Катта ўғли Муҳаммад Афзалхон Афғон Туркистони ҳокими эди. Шералихон Ҳиротга ўғли Ёқубхонни қолдириб, ўзи бир қисм аскарлар билан Кобулга қараб йўлга чиқади. Шералихонга қарши чиққан Дўстмуҳаммадхоннинг фарзандларидан бири бу Муҳаммад Аъзамхон бўлиб, кейинги бир неча йиллар унинг асосий рақибларидан бири бўлиб қолган**[2. 243]**.

1864 йилда ўзаро тахт учун курашлар бошланган бўлиб, Муҳаммад Аъзамхон Зурмат ўлкасида бўлиб, Хост ва Қурамадан аскарлар йиға бошлаган. Аммо катта қўшин йиғишга улгурмаган. Шералихон юборган 6 минг кишилик қўшинга қаршилик қила олмай қочган ва 150 отлиқ кузатувида инглизлар қўл остидаги Кохатга борган. Инглизлар унга бу ерда кунига 100 рупия пенсия тайин қилганлар. Инглизлар қўл остида Аъзамхон афғон қабилалар етакчилари орасида ўзаро курашларни қўзғатиш йўлидан борган[3. 234].

Ҳиндистон витсе-қироли Жон Лоуренс Ҳиндистон шимоли-ғарбида “ёпиқ чегара сиёсати”га амал қилишини эълон қилиб, Афғонларга нисбатан “де-факто ҳукмдорлар билан дўстлик сиёсатини ва фуқаролик низоларига қатъий аралашмаслик”ни ваъда қилди. Декларатсиялар шундай эди, лекин аслида Жон Лоуренс ва Британия мустамлакачилик сиёсатининг бошқа раҳбарларининг Афғонистон ички ишларига аралашмаслик ҳақидаги баёнотларининг иккиюзламачилиги уларнинг Шерали Хоннинг ҳокимиятга келишига муносабатини кўрсатди[1. 57]. Афғонистон тахтига чиқар экан Шералихон дарҳол бу хусусда Ҳиндистондаги инглиз ҳукуматини огоҳлантирган. Аммо инглиз ҳукумтаи ўзларига етиб келган хабарларда Афғонистонда тез орада ўзаро урулар содир бўлишини кутиб, Шералихонни амир сифатида тан олишни имкон қадар ортга сурганлар. Шу сабабли уларнинг хабарлари бир ярим йил кечиккан. Афғонистонда тахт учун курашлар бошлангач, инглизлар бу жанжалларни авж олишига қўлларидан келгунча ҳаракат қилиб, Шералихонни рақибларини пул ва қуроллар билан таъминлаганлар.

Муҳаммад Афзалхон инглизлар қўллаб-қувватлаши билан 1866 йилда Кобулни эгаллаб олган. 1867 йилда эса Қандаҳорни босиб олган. Бир қатор жангларда мағлуб бўлган Шералихон Ҳирот томонга чекинган. Ҳиротда мустаҳкамланиб, Туркистон ҳудудлари билан мустаҳкам алоқалар ўрнатган. Инглизлар ўз навбатида Афғонистонда ўзаро урушларни авж олдириш мақсадида Муҳаммад Афзалхонни Кобул ва Қндаҳор амири сифатида тан олишга ошиққанлар. 1867 йилнинг 7 октябрида Муҳаммад Афзалхон Кобулда вафот этган ва Афғонистон тахтига укаси Муҳаммад Аъзамхон ўтирган. Аммо, унинг ҳокимияти мустаҳкам бўлиб чиқмаган. Унинг кайф-сафога берилганлиги ва шафқатсизлиги энг яқинларини ҳам ундан қочиб кетишларига сабаб бўлган. Ҳатто, ўз жияни Муҳаммад Афзалхоннинг ўғли Абдураҳмонхон билан ҳам жанжаллашиб қолган. Чунки, тахтни эгаллашда Абдураҳмонхоннинг ҳарбий ва тактик, стратегик таланти катта аҳмиятга эга бўлган эди[2. 249].

Абдураҳмонхон Шимолга Туркистонга кетиб ўша ерда мустаҳкамланиб олган. 1868 йилда Афғонистондаги ўзаро курашларда туб бурилиш содир бўлиб, Шералихоннинг ҳокимият тепасига чиқишини таъминлаган. Қандаҳорга юриш қилган Шералихон бу ерда ҳукумронлик қилаётган Муҳаммад Аъзамхоннинг ўғилларини мағлубиятга учратган ва апрель ойида Қандаҳор ишғол қилинади. Ғазна ва Кобулга бир неча ойдан кейинги ҳужум ҳам мувоффақият қозонган бўлиб, аскар ва қўшинлари томонидан ташлаб кетилган Муҳаммад Аъзамхон Кобулдан қочиб кетган. Аъзамхон шимолга жияни Абдураҳмонхон олдига қочиб борган. Бу ерда Абдураҳмонхон билан биргаликда куч тўплаб Ғазнага қўшин торган. Аммо, Ғазналиклар Аъзамхонни шаҳарга киритмаганлар. Шаҳар атрофида бир ой давомида жанглар бўлиб, Шералихон томонидан кучли қўшин олиб келинган ва Муҳаммад Аъзамхон мағлубиятга учраган. Ҳал қилувчи жанг рақиблар ўртасида 1869 йил январида Зурмат шаҳрида бўлиб ўтган. Муҳаммад Аъзамхон ва Абдураҳмонхонларнинг бирлашган қўшинлари Шералихондан мағлубиятга учраган. Улар ўзларининг хазинаси, бутун бойлиги ва тўпларидан ажралиб қочишга мажбур бўлишган[3. 237].

Афғонистон тахътига ўтирган Шералихон рақибларини 1869 йил июнь ойигача бартараф қилишга ёки Афғонистондан қочиб кетишга мажбур қилган. Шу билан бирга бир вақтлар Дўстмуҳаммадхон қўл остига кирган ҳудудларни қайта бирлаштирган. Қабила етакчилари ва ўлкаларни марказий ҳокимиятга қарамлиги кучайтириш мақсадида кучли қўшин ва пул керак бўлган. ўз мақсадига етиш учун Шералихон ҳатто, ташқаридан ёрдам олишга тайёр бўлган. инглизлар бу ёрдамни кўрсатишга тайёр бўлиб, улар ўзаро курашлар охирида Шералихоннинг ғалаба қозониши аниқ бўлиб қолгач, унга моддий кўмак бера бошлаганлар. Бундан ташқари Россиянинг Ўрта Осиёдаги фаоллашуви ҳам инглизларни Шералихонни қўллаб-қувватлашларига сабаб бўлган. Шералихон билан яқинлашиш йўлидан борган инглизлар Ҳиндистондаги вице қирол лорд Майо таклифига биноан Шералихонни Ҳиндистонга таклиф қилганлар[4. 203]. 1869 йил мартида Амбала шаҳрида

Шералихон Ҳиндистондаги инглиз ҳукумати билан учрашади. Учрашувда Шералихон инглиз ҳукуматидан Афғонистоннинг бундан кейинги ички ишларига аралашмасликка кўндиришга ҳаракат қилган. Шунингдек, Афғонистондан амир ва унинг оиласидан ташқари бўлганлар билан “дўст” тутинмасликларини талаб қилган. Лорд Майо Шералихоннинг бу таклифини қабул қилган. Аммо, Шералихон томонидан Абдуллажонни Афғонистон тахт вориси деб тан олишни рад этган. Шералихон инглизларнинг Афғонистонга ўз вакилларини юбориш ва турли музокаралар олиб боришларига имкон яратишга ваъда берган. Бунинг эвазига инглиз ҳукумати Шералихонга олти лакх (лакх-юз минг) рупия ва 6500 милтиқ, тўртта қамал қилишда ишлатиладиган тўп, икки гаубица, битта тоғ батареяси ва олтита пушка олишга мувофақ бўлган. Шералихон Ҳиндистондан қайтар экан Афғонистоннинг оғир ички иқтисодий ва сиёсий тушкунликка юз тутганлигини тушиниб етган бўлиб, давлатни ривожлантиришнинг кенг маънавий-маърифий жараёнларини бошлаб юборган. Энг аввало солиқ ва ҳарбий тизимда ислоҳотларни бошлаган. Ўша давр Афғонистон тарихига оид маълумотларни тўплаган Россия маъмурлари Афғонистонда солиқларни сардорлар (Уруғ-қабила етакчилари) тўплаганлиги ва амирга тўпланган солиқларнинг кам миқдорини юборишини ёзиб қолдирганлар. Бу эса сардорларни амирдан мустақил сиёсат юритишларида молиявий асос бўлиб хизмат қилган[5. 231].

Марказий ҳокимиятга сардорлар қарамлигини кучайтириш мақсадида амир Шералихон ягона армия ва солиқ системасини тузиб чиқишни ва давлат вакиллари томонидан бу вазифалар юритилишини таъминлашга ҳаракат қилган. Мунтазам армиянинг сони 26 минг киши қилиб белгиланган. Тарихий адабиётларда Шералихоннинг шу вақтгача натура шаклда олинишидан воз кечиб, фақат пул шаклида олишга ўтганлигига оид маълумотлар ҳам сақланиб қолинган. Натура шаклида олинган солиқларни пойтахтга етказишда турли қийинчиликларнинг вужудга келиши бу ишни амалга оширишга асосий сабаб бўлган[2. 245]. Аммо Афғонистоннинг кўпгина ўлкаларида солиқ тартиблари аввалги тартибларда олиб борилган. Тарихий адабиётларда Шералихоннинг солиқ системаси хусусида тўлиқ маълумотлар сақланиб қолинмаган. Сақланиб қолинган маълумотларда Шералихон даврида солиқ тушумлари икки бора кўпайганлиги таъкидланган. Солиқларнинг бу каби кўпайиши солиқлар миқдорининг ошиши билан боғлиқ бўлмай, мамлакатнинг бирлаштирилиши ва шимолий минтақаларда янги ўлкаларнинг Афғонистонга қўшиб олинганлиги сабаб бўлган. Шералихон ўзидан аввалги ҳукумдорлар сиёсатини давом эттириб, Ҳиндукуш тоғларидан шимолдаги ерларни бўйсундириш йўлидан борган. Шу пайтгача бўйсунмаган ўзбек бекликларидан бўлган Маймана беклигини 1869 йилда бўйсундирган. Майманинг истило қилиниши, бир қатор ўзбек бекликлари Шералихон ҳокимиятини тан олганлар. Жанубий Туркистондаги энг қудратли бекликлардан бири бўлган Қундуз беклиги 1873 йилда Шералихон ҳокимиятини тан олишга мажбур бўлган. Шунингдек, Бадахон ўлкаси узоқ вақт Афғонистонга деярли бўнсунмаган. Унинг баланд тоғлар билан қуршалганлиги, бу ўлкага катта қўшинни олиб ўтишни қийинлаштирган ва энг сўнгги бўйсундирилган бекликлардан бири бўлиб қолган[2. 251].

Шерлихоннинг ҳокимият тепасига келган даврда унинг хазинасига ҳар йили 10 млн рупия солиқ тушумлари тушган. Ушбу маблағларнинг ярми Кобул ва Қандаҳордан тушган. Шералихоннинг рус элчилари билан суҳбатида ҳар йили хазинага 20 млн рупия тушишини маълум қилиб, унинг катта қисмини савдо алоқалари ташкил этишини маълум қилган. Кобулда бу даврда 60-70 минг миқдордаги аҳоли яшаган. Шунингдек, Кобул мамлакатнинг муҳим савдо маркази бўлиб, ундан кейинги йирик савдо-иқтисодий марказлар сифатида Чорбозор, Чатта-бозорлар тилга олинган. Афғонистон бозорларида Ҳиндистон, Эрон, Ўрта Осиё, Россия ва Англия маҳсулотлари сотилган ва сотиб олинган[6. 51]. Кобулда бешта йирик карвонсаройлар мавжуд бўлиб, шаҳарни озиқ-овқат маҳсулотлари билан шаҳар атрофидаги қишлоқлар таъминлаб берган. Аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминланиши оғир аҳволдалигини Кобул бозорида юз кишидан ошиқроқ савдогарнинг тут дарахти меваларининг қуритилгани билан савдо қилишидан ҳам билиб олиш мумкин.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Афғонистоннинг XIX асрдаги сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳаёти, жумладан Шералихон ҳукмронлиги масалалари турли манбаларда ўз аксини топган. Массон ва Ромодиннинг “История Афганистана в новое время” асари Афғонистондаги сиёсий курашлар, марказлаштириш сиёсати ва ташқи муносабатлар ҳақида асосий маълумотларни тақдим этади. Кастельскаянинг “Из истории Туркестанского края (1865–1917)” тадқиқоти эса Афғонистон ва Туркистон ўртасидаги муносабатларни очиб беради. Шу билан бирга, “Россия–Средняя Азия: Политика и ислам в конце XVIII – начале XXI века” асарида Афғонистоннинг Россия ва Англия рақобатида тутган ўрни таҳлил қилинган. Шикораднинг “Россия–Англия: неизвестная война 1857–1907” асари инглиз-рус муносабатларини ўрганишда муҳим манба ҳисобланади. Ҳидоятов

тадқиқотлари XIX аср 60–70-йилларидаги англо-рус муносабатларини махсус таҳлил қилади. Зияев ва Ланданинг мақоласи эса Афғонистон ва Туркистонни Россия империяси сиёсатининг умумий контекстида кўради.

Методологик жиҳатдан мазкур адабиётлар тарихий-манбаий таҳлил ва қиёсий-таҳлилий усулда ўрганилган. Уларнинг ўзаро таққосланиши Шералихон сиёсий фаолиятини нафақат ички сиёсий жараёнлар, балки "Катта ўйин" геосиёсий рақобати контекстида баҳолаш имконини беради.

Кобулдан кейин Афғонистоннинг йирик шаҳарлари Қандаҳор, Ҳирот ва Мозори Шариф ҳисобланган. Қандаҳор ва Ҳиротнинг аҳолиси сони 50 минг кишига етган бўлиб, Мозори Шариф аҳолиси 25 мингни ташкил этганлиги тарихий адабиётларда келтириб ўтилган. Қандаҳор аҳолисининг катта қисми афғонларнинг дурроний, какар, бабар ва хароти каби уруғ-қабилалар яшаганлар. Бой савдогар табақалари сифатида афғонларнинг баби қабиласи вакили, сайидлар ва тожиклар келтириб ўтилган. Қандаҳор шаҳри ипак матоларни сифатли етиштириши билан машҳур бўлган. Шунингдек, кедр дарахтлари ҳам машҳур бўлиб, Қандаҳор ёғоч ўймакорлиги бутун Афғонистонга машҳур бўлган. Қандаҳорнинг Сеистон билан чегара оралиғида мис ва цинккупороси, нашатир, сер каби қимматбаҳо минераллар қазиб олинган ва сифати жиҳатидан қадрланган. Серҳосил ва деҳқончилик учун қулай бўлган Қандаҳор ерларида буғдой, пахта, тамаки маҳсулотлари етиштирилган мевалари машҳур бўлган[4. 238].

Ҳирот аҳолиси асосан тожиклар ва афғон дурронийларидан иборат бўлган. Шаҳарда ипак матолар, гиламлар, намоз ўқиш учун гиламчалар ишлаб чиқаришда машҳур бўлган. деҳқончилик маҳсулотлари ва мевалар етиштиришда Ҳирот вилояти бошқа афғон вилоятларидан кўра кўп ва сифатли маҳсулотлар етиштирган деб ҳисобланган. Ҳиротда 60 га яқин узум турлари етиштирилган[1. 58].

Шералихоннинг солиқ сиёсати Афғонистон аҳолисини қашшоқ аҳолига айлантириб юборган. XIX асрнинг 70-йилларида давлат апаратини ва қўшинни тутиб туриш учун амирга ҳамиша маблағ етишмаган. Бу ҳол солиқларни ошишига ва оддий халқ вакилларини норозилигига сабаб бўлган. Шералихон марказий ҳокимиятни мустаҳкамлаш учун маъмурий тузилишни яхшилашга ҳаракат қилган. у маслаҳат кенгашини тузган бўлиб, унга аъзо бўлган 13 кишидан иборат кенгаш мамлакатни бошқариш борасида амирга турли маслаҳатлар бериши лозим бўлган. Кобулда тартиб-интизомни сақлаш учун полиция апаратини тузган, шунингдек, унинг маъмурий ислоҳотлари бир қадар ҳаётий яшовчан бўлиб чиққан[5. 237]. Шералихоннинг Афғонистон армиясини мустаҳкамлаш учун қилган ишлари инглизларни хавотирга солган ва улар очиқдан-очиқ Шералихон ва Афғонистонга қарши фаолият олиб боришга мажбур бўлганлар. Йилдан-йилга Афғонистонга турли баҳоналар билан босим ўтказа бошлаганлар. Мунтазам армияни тузиш анчагина қийинчиликлар туғдириган бўлиб, Шералихон умрининг охирига қадар мунтазам армия учун барча зарурий жиҳозларни тайёрлай олмаган. Қўшинга ўқотар қуроллар етишмаганлиги сабабли Шералихон аҳоли қўлидаги қуролларни давлатга топширишни талаб қилган. Аммо бу қарор мамлакатда катта норозиликларни келтириб чиқарган ва Кобул, Кўҳистон каби ўлкаларда қуролли чиқишларга айланиб кетган. шу сабабли бу қарорни бекор қилишга мажбур бўлган. Шералихон Афғонистонда шу вақтгача қўлланилмаган рекрутли асосидла қўшин тузишга ҳаракат қилган. Аммо, қурол етишмаслиги сабабли бу тадбир ҳам бутун мамлакат бўйлаб тўлиқ амал қилмаган. Оддий қуролсиз афғон қўшинлари самарасиз бўлиб чиққан. Афғон қабила ва уруғлар етакчилари бўлган сардорлар Афғонистон армиясига қўшин ва қуроллар бера олганлар. Бу эса уларни амир олдида обрў-эътибор ва мансаб-амал талаб қилишларига кенг йўл очган. Сардорлар қаршилигини бир қадар пасайтириш ва мунтазам армияни кўпайтириш мақсадида Шералихон рекрутликка ўзининг укаси Нек Муҳаммадхон ва ўзининг севимли набираси Ахмад Алихонни ҳам қўшиб қўйган[3. 241].

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Шералихон шу вақтгача бўлган бирор Афғонистон амири қўлламаган ҳарбий мажбуриятни ҳам қўллашга уриниб кўрган ва қаттиқ қаршиликка учраган бу фикридан қайтган. Ҳарбий мажбурият тартиби Афғонистонда XX аср биринчи ярмига қадар амалга оширилмаган. Нима бўлганда ҳам Шералихон Афғонистон армияси сонини 68 та пиёдалар батальони (ҳар бир батальонда 600 киши)га, отлиқларни 16 полк (ҳар полкда 500 аскар)га етказа олган. Мунтазам қўшиннинг умумий сони 50 минг кишига етган. Артилерияда 300 та тўп мавжуд бўлиб, улар силлиқ стволли бўлганлиги сабабли инглиз тўплари билан рақобатлаша олмаган. Шералихон қўшинларининг катта қисмида мундир ва қуроллар етарли бўлмаган. Хазинада армияни тутиб туриш учун ҳамиша маблағ етишмаган ва аскарлар кўп ҳолларда яъни ҳарбий ҳаракатлардан бўш вақтларида қўшимча ишлар билан шуғулланишга мажбур бўлганлар. Аммо, буларнинг барчасига қарамай Шералихоннинг армияси жанговар хусусиятлари бир қадар юқори бўлиб, кўпгина батаольонлар Кадрли офицерлар бўлиб, улар қўмондонлик қилган батальонлар

жангларда ўзини жуда яхши кўрсатган. Хусусан, инглизлар билан тўқнашувларда бу қўшинлар ўзини бар ҳолатларда яхши томонларини кўрсата олган. Мунтазам қўшинларда интизом ўрнатиш жараёнида Шералихон инглиз ҳарбий уставини пуштун тилига таржима қилдириб, улардан фойдаланишни йўлга қўйган**[1. 253]**.

Шералихон ҳукумронлиги даврида Афғонистонда маънавий ва маърифий соҳаларда ҳам катта ишлар амалга оширилган. Афғонистонда илк бора литографик услубда асарлар, босма китоблар чоп этиш 1875 йилда йўлга қўйилган. 1871 йилдан бошлаб “Шамс ан-Наҳор” газетаси чоп этилиб, Шералихоннинг Кобулдан қочиши давригача (1871 й) нашр этилиб турилган. Биринчи бора Кобул ва Афғонистоннинг йирик шаҳарлари ўртасида алоқани таъминлаш мақсадида почта хизмати йўлга қўйилган. Почта орқали нафақат давлат хизматлари, балки хусусий шахслар ҳам ўзаро алоқалар ўрната бошлаганлар. Почта хизматини йўлга қўйилиши Афғонистонда почта маркаларини чоп этилишига ҳам сабаб бўлган. Шералихон ҳукумронлиги даврида Афғонистондаги йирик шаҳарлар орасидаги йўлларни ҳолатини яхшилаш, қурол заводини қуриш (Кобул яқинида Шеробод деган мавзеда) каби ишлар мамлакатни иқтисодий ва мудофаа қобилиятини кучайтиришга асос яратиши керак бўлган[5. 256].

Шералихон хусусида тарихий адабиётларда умумий характеристика берилган бўлиб, унинг ҳар томонлама билимли эканлиги, ижтимоий-иқтисодий ва маънавий ҳаётнинг барча соҳаларини ривожлантиришга ҳаракат қилиши, ташқи сиёсатдан хабардор бўлиб туриш ва Афғонистон атрофидаги давлатлар уларнинг сиёсати, ўз давлатиг муносабатларини мунтазам ўрганиб, таҳлил қилиб борганлигига оид маълумотлар сақланиб қолинган[4.243].

XIX асрнинг 70-йилларида Россия ва Англиянинг Ўрта Осиёдаги рақобати туфайли Афғонистоннинг халқаро муносабатлардаги аҳволи оғирлашган. Жанубий-Шарқда инглизлар Ҳинд дарёси ҳавзасини бўйинсундириб, келажакда Афғонистонни бўйинсундириш режасини тузганлар. Россия империяси эса, шимолдан Афғонистон чегараси томон яқинлашиб кела бошлаганлар. XIX асрнинг 60-йиллари охири, 70-йиллари бошларида инглизлар “ҳужум режаси”ни тузиб чиққанлар. Афғонистонга нисбатан бу инглизларнинг расмий сиёсий курси бўлиб, бу сиёсат инглиз сиёсий элитаси ва саноат буржуазияси манфаатларига тўла мос келган. XIX асрнинг сўнгги чорагида истилочилик ҳаракатлари бошланиб, инглиз қўшинларининг имолий ҳудудларга томон ҳарбий юриши 60-йилларнинг ўрталаридаёқ бошланган. Штабларда йиллар давомида Афғонистонга ҳужум режалари устида ишланган. 1874 йилда Англияда ҳокимият тепасига консерваторларнинг Дизраэли бошчилигида кабинет тузилгандан кейин Афғонистон билан бўлажак урушга кенг кўламли урушга тайёргарлик кўрила бошланган. Ҳужумга тайёргарлик ўриш жараёнида жанг ҳаракатларини ниқоблаш учун русларнинг Афғонистон орқали Ҳиндистонга ҳужумга тайёргарлик кўриши билан боғлиқ миш-мишлар тарқатилган[1. 61].

Россия империяси ташқи ишлар вазирлиги Горчаков инглизлар вакиллари билан суҳбатда Афғонистонни Россия ва Англия ўртасидаги “нейтрал зона” деб эълон қилишни таклиф қилган. Шунингдек, Афғонистоннинг мустақиллигига Россия ва Англия гарантия беришларини ҳам таклиф қилган. Аммо, Афғонистонга ҳужум қилишга тайёр бўлган инглизлар бу таклифни қабул қилмаганлар. 1873 йилда Роччия маъмурлари инглиз дипломатлари олдида чекиниб, ўзларини нейтралитетликларини эълон қилганлар ва Афғонистонни рус таъсири доирасидан ташқарида деб эълон қилганлар. Россия ва Англия ўртасидаги келишувга кўра икки ўртадаги чегара сифатида Амударё этиб белгиланган[6. 52].

Муҳокама. Урушга дипломатик жиҳатдан ҳам тайёргарлик кўриб, Россияни нейтрал ҳолатга келтирганларидан сўнг инглизлар Афғонистонга қарши ҳарбий ҳаракатларни бошлаб юборганлар. Ҳужум нуқтаси сифатида Кветта қалъаси танланган. Кветтани Британия мустамлакачилари Қандаҳорга борадиган йўлда таянч нуқта сифатида қурган эдилар. Бир вақтнинг ўзида инглизлар Афғонистонни имкон қадар кучсизлантириш мақсадида Шералихонни ўғли Яқубхонни ўз отасига қарши қўллаб-қувватлаб, тахт вориси масаласида Шералихонни кенжа укаси Абдуллажонни ўрнига ҳукумдорнинг катта ўғли тахтга ўтириши лозимлиги каби иғволарни уқтириб, уни қўзғолон кўтаришга ундаганлар. Ҳиндистонннинг шу вақтдаги вице-қироли лорд Литтон Шералихонга талаб билан чиқиб, инглизларга Афғонистонда Британия резидентини ташкил қилишга рухсат беришни, инглизларга йўллар қуриш ва мудофа иншоотлари қуришга рухсат беришни талаб қилган. Халқнинг норозилиги ошишини истаган Шералихон инглизларнинг бу талабларини рад этган ва бу мамлакат суверенитетига таҳдид деб баҳолаган[1. 62].

Афғонистонга қарши урушга тайёргарлик жараёни якунида Россия-Англия муносабатлари 1877-1878 йиллардаги рус-турк уруши жараёнида ҳам кескинлашган. Шералихон ҳам бу даврда инглизларнинг Афғонистонга ошиб бораётган босимидан қутилиш мақсадида кўпроқ русларнинг

ҳимоясига таянишга ҳаракат қилган. 1878 йил баҳорида Берлин конференциясида Россия империяси маъмурлари Англиянинг Ўрта Осиёдаги режаларига қарши ўзларининг тайёргарликлариини кўрсатиш мақсадади Ўрта Осиё чегараларига ўз қўшинларидан бир қисмини юборганлар. Унчалик катта бўлмаган отрядларнинг Ўрта Осиёга силжиши баробарида Афғонистонга Россия империяси маъмурлари дипломатик миссия ҳам юборганлар. Миссия вакилларидан бири И.Л. Яворский ушбу миссия фаолияти хусусида кундалик ёзган. Унда Кобулдан 20 вёрст узоқликда элчиларни Шералихоннинг вазири тантанали равишда кутиб олган. Уч филга мингаштирилган генерал Столетов ва унинг ҳамроҳлари Кобулга олиб келинган. Шаҳарга кираверишда элчиларни Шералихоннинг укаси сардор ҳабибуллахон кутиб олган. Кобулда сарой жойлашган Боло Ҳисор ва унинг атрофларида аҳоли Россия империяси элчиси шарафига катта сайл ташкил қилган[2. 255]. Олиб борилган музокаралар натижасида Столетов Афғонистон амирига Россия империясининг инглизлар ҳужумидан ҳимоялаш мақсадида иттифоқ тузилсагина руслар қўшин ва қурол билан ёрдам бера олишларини маълум қилган. Бу вақтда инглиз ҳукумати Кобулда ўз элчиларини қабул қилишни талаб қилганлар. Шералихоннинг бу талабни қониқтирмагандан кейин 1878 йилнинг ноябрь ойида инглизларнинг Афғонистонга бостириб кириши бошланган.

Хулоса қилиб айтганда, Шералихон даврида Афғонистонда бир қатор ўзгаришлар амалга оширилган бўлиб, мамлакатнинг солиқ системаси тартибга солина бошланган. Шунингдек, давлат буюджети ва маъмурий тузилишида ҳам замонавий анъаналар йўлга қўйила бошланган. Мамлакат мудофаа қобилиятини яхшилаш мақсадида мунтазам қўшин тузилиб, уни замонавий қуроллар билан қуроллантириш бошланган. Аммо мамлакатда ўзаро ички тахт учун курашлар тўхтамаган. Яқубхон ўз отасига қарши қўзғолон кўтаришгача борган.

АДАБИЁТЛАР:

1. *Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865–1917). – М.: Наука, 1980.*
2. *Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана в новое время. Ответственные редакторы: Р.Т. Ахрамович, О.В. Ганковский, В.А. Лившиц. Том II. – М.: Наука, 1965.*
3. *Россия – Средняя Азия: Политика и ислам в конце XVIII – начале XXI века. – М.: Издательство Московского университета, 2013.*
4. *Шикорад А.Б. Россия–Англия: неизвестная война 1857–1907. – М.: АСТ, 2003.*
5. *Ҳидоятов Г.А. Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. (60–70 гг.). – Т.: Фан, 1969.*
6. *Зияев Ҳ.З., Ланда Л.М. Исследования о присоединении Средней Азии к России. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1968. – №1.*

UO‘K 331.52

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON ILM-FAN TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI

Ro‘ziyeva Dilshoda Mavlonovna,
Navoiy davlat universiteti
Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.(PhD)
ruzievadilshoda10@gmail.com

Annotatsiya. *Mustaqillik yillarida mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini kuchaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Natijada bugungi kunda ayollar jamiyatimiz hayotining barcha sohalarda tobora yetakchi o’rinlarni egallab, ta’lim, madaniyat va ilm-fan rivojiga salmoqli hissa qo’shmoqda.Ushbu maqolada ilm-fan bilan shug’ullanayotgan olima ayollarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion ishlanmalarini amaliyotga tatbiq etishga ko‘maklashish, ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish, intellektual mulk egalarining huquqlarini himoyalashga doimiy e’tibor qaratib kelinayotganligi, xotin-qizlarning ilmiy tadqiqotlar olib borishdagi ishtiroki to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ilm-fan, ta’lim, olima ayollar, oliy ta’lim, “Olima ayollar” uyushmasi, professor-o‘qituvchilar, Xotin-qizlar qo‘mitasi, ilmiy faoliyat, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim.*

РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ НАУКИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. *В годы независимости особое значение придаётся усилению роли женщин в общественно-политической жизни нашей страны. В результате сегодня женщины всё чаще занимают руководящие должности во всех сферах жизни общества, внося значительный вклад в развитие образования, культуры и науки. В данной статье представлена информация о постоянном внимании, уделяемом поддержке научной деятельности женщин-учёных, содействию внедрению инновационных разработок в практику, развитию изобретательской деятельности, защите прав владельцев интеллектуальной собственности, участию женщин в научных исследованиях.*

Ключевые слова: *наука, образование, женщины-учёные, высшее образование, Ассоциация «Женщины-учёные», профессора, Женский комитет, научная деятельность, послевузовское образование.*

THE ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN UZBEKISTAN DURING INDEPENDENCE

Abstract. *Since independence, particular attention has been paid to strengthening the role of women in the socio-political life of our country. As a result, women are increasingly occupying leadership positions in all spheres of society, making significant contributions to the development of education, culture, and science. This article presents information on the ongoing attention paid to supporting the scientific work of female scientists, promoting the implementation of innovative developments in practice, developing inventive activity, protecting the rights of intellectual property owners, and promoting women's participation in scientific research.*

Keywords: *science, education, women scientists, higher education, Women Scientists Association, professors, Women's Committee, scientific activity, postgraduate study.*

Kirish. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni uzviy aloqadorligini ta’minlagan holda, ular integratsiyasini kengaytirish, ilmiy-innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, zamonaviy jamiyatda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ilm-fan va ishlab chiqarish sohalarini ilmiy-innovatsion integratsiyasini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, bu borada huquqiy asoslar shakllantirilgan.

Xususan, 2019-yil 29-oktabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonun[**1**] ilm-fanni rivojlantirish yo‘lida yana muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Mazkur Qonun ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi asosiy tushunchalar, fan va ilmiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalaridagi professor-o‘qituvchilar tarkibida 43 foiz, turli ilm- fan va texnika sohalarida 600 dan ortiq fan doktori, qariyb 4780 nafar fan nomzodi, 8 nafar akademik samarali

mehnat qiladi.[2] Ularning zamonaviy, yuqori texnologiya tarmoqlaridagi, ya'ni avtomobilsozlik, mikrobiologiya, farmatsevtika, elektronika va elektrotexnika sanoati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimida ulushi o'sib bormoqda.[3]

2018-2019-o'quv yilida respublika oliy ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar 11857 nafarni tashkil etgan. Mazkur professor-o'qituvchilarning jinsi bo'yicha 43,2 foiz ayollar va 56,8 foizi erkaklar hissasiga to'g'ri keladi.[4]

2019-2020-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarida 6401 nafar fan nomzodlari, 4645 nafar dotsentlar, 1811 nafar fan doktorlari va 1326 nafar professorlar faoliyat yuritgan. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida 2019 yilda jami 30,5 ming nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritgan. 2018-yilda bu ko'rsatkich 26,7 ming nafarni tashkil etgan.[5]

Mavzuning dolzarbligi. Ta'kidlash joiz, bugungi kunda yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev boshchiligida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo'ymoqdamiz. Jamiyatda ayollarni ilm-fanga ruhlantirish maqsadida yangi mexanizm – «Olima ayollar jamiyati» tuzilgani hamda uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish uchun Davlat byudjetidan 50 milliard so'm ajratilgani barcha xotin-qizlarning ko'nglida jamiyatning eng faol qatlami – «olima ayol» bo'lishga intilishlarini yanada kuchaytirishi ayni haqiqat.

Jumladan, Navoiy davlat konchilik instituti "Umumiy fizika" kafedrasi dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi L.Zoirova 2020-yilning 17-yanvarida O'zbekiston xotin-qizlar "Olima ayollar" uyushmasi tomonidan o'tkazilgan "Ilm yulduzlari" Respublika intellektual tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritdi, u oliy ta'lim muassasasi faxri hisoblanadi.[6]

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan olima ayollarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, innovatsion ishlanmalarini amaliyotga tatbiq etishga ko'maklashish, ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish, intellektual mulk egalarining huquqlarini himoyalashga doimiy e'tibor qaratib kelindi. 2017-yil 15-sentabr kuni Qo'mita qoshida turli sohada faoliyat yuritayotgan va iqtisodiyot rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan xotin-qizlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston ixtirochi ayollari uyushmasi tashkil etildi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2015-yil 22-dekabrda qabul qilingan "Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar" to'g'risida rezolyusiyada 11-fevral – Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar xalqaro kuni, deb e'lon qilingan. Ushbu qaror ayollar va qizlarning ilm-fan bilan to'laqonli foydalanishiga teng sharoitlar yaratilishi, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadiga xizmat qilmoqda. Bunda belgilangan bosh g'oyalar – ayollar yangi innovatsion g'oyalarni hayotga keng tatbiq etishi, yuksak marralar sari intilishini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan. 2016 yildan e'tiboran bu kun jahonda keng nishonlanib kelinmoqda.

Tadqiqot materiallari va metodologiya. Maqolada Mustaqillik yillarida mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi roli, jumladan, ta'lim, madaniyat va ilm-fan rivojiga salmoqli hissa qo'shayotganligi, ularning ilmiy tadqiqotlar olib borishdagi ishtiroki tahlil qilindi va ushbu jarayonda tarixiy-qiyosiy tahlil, xolislik, ma'lumotlarni tizimlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ya.Abdullayeva, N.Jo'rayeva, D.Sobirova, G. G'aniyeva, M. Shamsiyeva, M. Baltabayeva, N.Toliboyeva, T.Narbayeva kabi tadqiqotchilarning dissertatsiya ishlarida tadqiqotlarida ham mavzuga oid muammolar o'rganilgan. Biroq ilm-fan bilan shug'ullanayotgan olima ayollar haqida alohida tarzda tadqiq etilmagani bois mazkur masalani alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot natijalari va tahlil. Bugungi kun xotin-qizlarning ilmiy tadqiqotlar olib borishdagi ishtiroki dunyo davlatlarida turli raqamlar bilan qayd etilmoqda. Masalan, YUNESKO Statistika instituti ma'lumotlarining 2020-yil holatiga ko'ra, dunyoda fan bilan shug'ullanayotgan olimalar ulushi 30 foizni (xususan, Boliviyada bu ko'rsatkich 63 foiz, Fransiyada 26 foiz, Efiopiyada 8 foizni) tashkil etadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 39 foizga yaqinlashgani quvonarli holat, albatta.[7]

2025-yil boshida Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida Jahon Fanlar akademiyasi (TWAS)ning navbatdagi Bosh konferensiyasida Jahon Fanlar akademiyasi akademigi etib saylangan O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, professor Shahlo Turdiqulova[8] ham ishtirok etib, unga mazkur konferensiyada rasmiy diplom tantanali ravishda topshirilganligi dunyoda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan olima ayollarga berilayotgan e'tibor hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining raisi Tanzila Norboyevaning so'zlariga ko'ra, o'tgan yilning o'zida 31 ming nafardan ziyod ilmiy xodim ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik faoliyati bilan shug'ullangan bo'lsa, ularning qariyb 40 foizini ayollar tashkil etgan. Xususan, xotin-qizlarning 73 foizi oliy ta'limda, 16,5 foizi davlat sektorida, 10 foizi tadbirkorlik sohasida, 0,2 foizi notijorat sektorida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanmoqda. Tahlillarga ko'ra, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ayollar asosan

Toshkent shahrida yig‘ilgan (49,6 foiz). Hududlarda esa ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar ko‘rsatkichi pastligicha qolmoqda. Ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan ayollarning 3 568 nafari ilmiy darajaga ega bo‘lib, ularning 707 nafari fan doktori, 2 412 nafari fan nomzodi va 449 nafari PhD ilmiy darajasiga ega xodimlar hisoblanadi.[9]

O‘zbek olimalari kimyo, biotexnologiya, qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda ayniqsa faol izlanmoqdalar. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivojida xotin-qizlarimizning ishtiroki salmoqli o‘rin tutadi. Ammo, tabiiy fanlar, matematika, injiniring, texnologiya, sanoat va qurilish sohalarida nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyoda ayollarning o‘rni hamda mavqei ancha quyida ekanidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Binobarin, Nobel mukofoti tarixida ilm-fan sohasida ushbu mukofotga sazovor bo‘lgan xotin-qizlar soni atigi 3 foizni tashkil etishining o‘ziyoq buni ochiq-ravshan tasdiqlaydi.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoni va mazkur farmon ijrosi bo‘yicha 2017-yil 22-may kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari ilmiy izlanuvchilar uchun keng imkoniyatlarni yaratdi.[10]

O‘z navbatida, oliy o‘quv yurti tahsilidan keyingi ta’limni muvofiqlashtirish yagona elektron tizimida 2020-2021 yillarda ro‘yxatdan o‘tgan va ilmiy-tadqiqot bilan shug‘ullanayotgan o‘zbekistonlik xotin-qizlar soni 2 ming 456 nafarni tashkil etmoqda. Shundan 1 ming 185 nafari – doktorantura negizida ilmiy tadqiqot olib borayotgan bo‘lsa, 80 nafari doktoranturada tahsil olmoqda va 964 nafari mustaqil izlanuvchilar (PhD) qatoriga kiradi.[11]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5020-sonli qarori[12] mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishi hamda bandligini ta’minlashga har tomonlama ko‘maklashishga xizmat qiladi.

Taniqli olima ayollardan biri D.Qodirova 2013-yildan buyon O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining “San'at” jurnalida bosh muharrir lavozimida ishlab keladi. 2015-yil bosh muharrir D.Qodirova tashabbusi bilan Navoiy viloyati rassomlarining ijodiy faoliyatlarini yorituvchi al’bom katalogining g‘oyasini ishlab chiqib, amaliyotga joriy qildi. 2015-yil “Nafosat olami (Mir iskusstva)” nomli al’bom-katalog nashrdan chiqarildi. Unda 50 dan ortiq rassom, haykaltarosh, xalq amaliy san'at ustalarining asarlaridan namunalar taqdim etilgan.

Shu bilan birga aynan Navoiy viloyati hududida yosh iste'dodli rassomlar bilan davra suhbatlari, interv’yular, bir qator ko‘rgazmalar ham tashkil qilinishida D. Qodirova o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.[13] Shuningdek, adabiyotshunos olima G.Sattorova, filolog N.Tosheva, tarixchi olimalardan Sh.Xoliqulova, G.Achilova, tibbiyot sohasida M.Meliyeva kabi olimalarning ilmiy ijodiy faoliyati ham ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Ilm-fan va texnika har doim jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lib kelganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, XXI asrdagi global bilimlarning rivojlanishi bilan fan va texnikada bilimlarni yaratish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Albatta, bu jarayonlarda olima ayollar o‘z intellektual salohiyati bilan munosib ishtirok etishmoqda. Shu bilan bir qatorda mustaqillik davrida o‘z kasbidan shuhrat topgan ustoz muallimlar, olimlar, shifokorlar, huquqshunoslar, ziyolilar, ijodkorlar, shoirlar O‘zbekistonning ilm-fani, madaniyati, san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelishmoqda.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida O‘zbekiston ilm-fan sohasida ulkan islohotlar amalga oshirildi va bu jarayonda xotin-qizlarning o‘rni tobora ortib bordi. Ayollar nafaqat ilmiy-tadqiqot muassasalarida, balki oliy ta’lim, texnologiya, tibbiyot, muhandislik, biologiya, ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida ham faoliyat yuritib, muhim yutuqlarga erishdilar. Davlat tomonidan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish maqsadida ko‘plab grantlar, stipendiyalar, ilmiy loyihalar, ilmiy-tadqiqot markazlari va akademiyalar faoliyati kengaytirildi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son Qonuni. 29.10.2019// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami 44 (908)-son 2019 yil 4 noyabr. Birinchi bo‘lim, 826-modda, 10-bet.

2. Nishonova N. O‘zbekiston ayollarining ijtimoiy-siyosiy faolligi / N. Nishonova Markaziy Osiyo olima ayollarining ilm-fan sohasiga qo‘shgan hissasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –B. 208.

3. UNESCO Institute for Statistics-AIMS at UNESCO Bangkok// Women in Science. – Fact sheet. 2015. –№1. – 1-4 pp.; Nishonova N. O‘zbekiston ayollarining ijtimoiy-siyosiy faolligi / N. Nishonova Markaziy Osiyo olima ayollarining ilm-fan sohasiga qo‘shgan hissasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –B. 208.

4. 2019-yilda OTMlarda necha nafar fan doktori dars bergani ma’lum bo‘ldi. https://kun.uz/news/2020/09/21/2019-2020-oquv-yilida-oliy-talim-muassasalarida-1811-nafar-fan doktorlari-dars-bergan

5. https://kun.uz/news/2020/09/21/2019-2020-oquv-yilida-oliy-talim-muassasalarida-1811-nafar-fan-doktorlari-dars-bergan

6. Olima ayollar e’zozda. Navoiy davlat konchilik instituti / Institut Axborot xizmati. 2021-yil 12-yanvar.

7. Nodira Mustafoyeva. O‘zbekiston ilm-fani rivojida xotin-qizlarning ulushi qay darajada / Mustafoyeva. N. https://yuz.uz/news/ozbekiston-ilm-fani-rivojida-xotin-qizlarning-ulushi-qay-darajada

8. O‘zbekistonlik olima Jahon fanlar akademiyasi akademigi sifatida e’tirof etildi/ https://yuz.uz/news/ozbekistonlik-olima-jahon-fanlar-akademiyasi-akademigi-sifatida-etirof-etildi

9. O‘zbekistonda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlarning asosiy qismi oliy ta’lim sohasida ekani aytildi // https://kun.uz/kr/news/2021/08/26/ozbekistonda-ilmiy-faoliyat-bilan-shugullanayotgan-xotin-qizlarning-asosiy-qismi-oliy-talim-sohasida-ekani-aytildi

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoni // https://lex.uz/docs/3119699;

11.2017-yil 22-may kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-son qarori // https://lex.uz/docs/3213410

12.Saidov A. X. Ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o‘rni va ahamiyati: ma’naviyat, tinchlik va bunyodkorlik tushunchalari talqinida/ A. X. Saidov https://parliament.gov.uz/oz/articles/287

13. 2021-yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5020-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami 9 (977)-son 2021-yil mart. Ikkinchi bo‘lim, 90-modda, 36-bet. // https://lex.uz/docs/5320582?-ONDATE=01.01.2024%2000

14.Imankulova I.M. Ilmda o‘rnini topgan olima / I.M. Imankulova Markaziy Osiyo davlatlari olima ayollarining ilm-fan sohasiga qo‘shgan hissasi mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari. 2020-yil 20-mart. – B.108-109.

UO‘K 902.34:72.033/.035(575.146)“19”

ME’MORIY OBIDALARNI SAQLASH HAMDA ULARNI TA’MIRLASH ISHLARI TARIXIDAN

Abdullayeva Dilfuza Abdujalilovna,
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi o‘qituvchisi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqola XX asrning 20-yillari mobaynida Buxoro me’moriy obidalarini muhofaza qilish va ularni ta’mirlash kabi vazifalarda faoliyat yuritgan muassasa hamda tashkilotlar tashabbusi bilan tashkil etilgan ekspeditsiya va ilmiy safarlar tarixiga bag‘ishlanadi. Ta’mirlash tashkilotlari vakolat doirasida amalga oshirilgan ishlarning tarixiy yodgorliklar taqdiridagi ahamiyati va qiymati asoslanadi. Arxiv hujjatlari asosida, muassasalar faoliyati davomida ta’mirlangan me’moriy yodgorliklar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, sohaga doir ma’lumotlar orqali ta’minot tarixidagi tizimlashuv, erishilgan yutuqlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar kabi masalalar tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *tashkilot, Suardel, obida, ekspeditsiya, D.I.Nechkin, restavratsiya, qo‘lyozma, Ark, ta’mirlash, ekspluatatsiya.*

ИЗ ИСТОРИИ СОХРАНЕНИЯ И РЕСТАВРАЦИИ АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена истории экспедиций и научных поездок, организованных по инициативе учреждений и организаций, осуществлявших деятельность по охране и реставрации архитектурных памятников Бухары в 20-е годы XX века. Обосновывается значение и ценность работ, выполненных реставрационными организациями в рамках их полномочий, для судьбы исторических памятников. На основе архивных документов представлена информация об архитектурных памятниках, отреставрированных в ходе деятельности этих учреждений. Также на основе отраслевых данных анализируются такие вопросы, как систематизация в истории обеспечения, достигнутые успехи и допущенные недостатки.*

Ключевые слова: *организация, Суардель, памятник, экспедиция, Д.И. Нечкин, реставрация, рукопись, Арк, ремонт, эксплуатация.*

HISTORY OF THE PRESERVATION AND RESTORATION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS

Abstract. *This article is dedicated to the history of expeditions and scientific trips organized on the initiative of institutions and organizations that worked on protecting and restoring Bukhara's architectural monuments during the 1920s. The significance and value of the work carried out within the authority of restoration organizations in the fate of historical monuments are substantiated. Based on archival documents, information is provided on architectural monuments restored during the activities of these institutions. Additionally, through information related to the field, issues such as systematization in the history of preservation, achievements, and shortcomings are analyzed.*

Keywords: *organization, Suardel, monument, expedition, D.I. Nechkin, restoration, manuscript, Ark, repair, exploitation.*

Kirish. XX asrning 20-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat madaniy yodgorliklarning muhofazasi bilan shug‘ullanadigan vakolatli tashkilot tuzishni taqozo etgandi. Bir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumdan tamoman yangisiga o‘tish, albatta, qadimiy yodgorliklarga munosabatda o‘z ifodasini topmay qolmasdi. Mazkur davr tarixini tahlil etar ekanmiz, jarayon turli bosqichlarda olim va mutaxassislarning uzoq izlanishlari, o‘lkashunoslarning ko‘p yillik harakatlari natijasida yuz berganligiga amin bo‘ldik.

Ma’lumki, Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilganidan keyin tarixiy yodgorliklar muhofazasini tashkil etish vazifasi dastlab respublika Markaziy Arxiv boshqarmasi Suardel(Цуардел) ixtiyorida bo‘lgan. Bu borada 1920-yil 30-yanvarda Turkiston ASSR MIQ tomonidan “Fan va san’at, tarixiy yodgorliklar muhofazasini Suardel (Цуардел) ixtiyoriga o‘tkazish” haqida dekret qabul qilinadi [1]. Shu bilan birga faoliyati to‘xtab qolgan Turkiston arxeologiya havaskorlar to‘garagi va rus geografiya jamiyatining

Turkiston bo‘limi vazifalari ham tashkilot zimmasiga yuklatildi. Endilikda o‘lkadagi arxeologik tadqiqotlar, yodgorliklar muhofazasi bilan bog‘liq barcha ishlar Suardel zimmasiga o‘tadi. Tarixiy yodgorliklarni ro‘yxatga olish, muhofaza qilish, ta’mirlash va ilmiy asosda o‘rganish kabi masalalar tashkilotning asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilandi. Tashkilot rahbari D.I.Nechkinning o‘lkadagi hokimiyat vakillari hamda markaz mas’ullari bilan olib borgan yozishmalarini o‘rganish uning Buxoro me’moriy obidalarini ta’mirlashda qo‘shgan hissasi va bu boradagi mas’uliyatli yondashuvini ham ko‘rsatdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asrning 20-yillarida Buxoro me’moriy obidalarining ta’mirlanishi va ushbu jarayon bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda arxiv hujjatlari birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Milliy arxivining Turkkomstaris va Sredazkomstaris –R-394-fondning 3, 14, 21, 122, 128–yig‘majildlarida Tabiat, san’at, qadimiy yodgorliklarni saqlash va muzey ishlari bo‘yicha Turkiston qo‘mitasining faoliyati natijasida Buxoro hududiga uyushtirilgan ekspeditsiyalar, ilmiy safarlar hamda taftish komissiyalarining hisobotlari jamlangan. Ushbu manbalarning tahlili Buxoro tarixiy yodgorliklarining muhofazasi va ularni ta’mirlash, qayta tiklash ishlariga munosabat masalasi aks etganligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. XX asrning 20-yillarida Buxoro me’moriy obidalarining ta’mirlanishi bilan bog‘liq masalalar mazkur usullar yordamida yoritildi.

Natija va muhokamalar. Shuni ta’kidlash joizki, 1920-yilning sentabr oyida Buxoro me’moriy obidalarini ro‘yxatga olish, qo‘lyozma hujjatlarni aniqlash va jamlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ekspeditsiya shakllantiriladi. Chunki, Buxoroda sovet hokimiyati o‘rnatilish davrida ko‘plab tarixiy binolarga ziyon yetgan, ayrimlari vayrona holga kelib qolgan edi.

1920-yil sentabrda Arxiv ishlari markaziy boshqarmasi hamda Turkkomissiya vakillari tomonidan Buxorodagi vaqtinchalik tayinlangan favqulodda komendantga Ark binosida izlanishlar olib borish uchun murojaat qilingan. Ruxsat olingach, D.I.Nechkin, V.V. Bartold, V.L.Vyatkin, A.E.Shmidt, P.E.Kuznetsov, E.B.Betger va A.A.Garritskiylar ishtirokida tuzilgan maxsus komissiya Arkdagi tarixiy ahamiyatga molik bino va buyumlarni o‘rganishga kirishadi [2].

Olimlar Buxoro arkining sharqiy, ikkinchi darvozasini o‘rnini aniqlash maqsadida yodgorlikni to‘liq ko‘zdan kechirishadi. Izlanishlar davomida, qal’a devorlarining bir necha marotaba qayta tiklanganligi darvoza o‘rnini aniqlashga imkon bermaydi, degan xulosaga kelinadi. Shuningdek, akademik V.V.Bartold o‘z tadqiqotlarida, so‘nggi harbiy harakatlar oqibatida Ark qal’asining tashqi devori va g‘arbiy darvozasi asl qiyofasini saqlab qolganligiga qaramasdan, ichki binolari vayronaga aylanganligi va qo‘rg‘onning to‘rtdan uch qismi yonib ketganligini ta’kidlaydi [3].

Buxoro shahridagi qadimiy va san’at ashyolari, kitob va qo‘lyozma materiallarini saqlash to‘g‘risida chora-tadbirlarni belgilash maqsadida 1920-yil 30-sentabr kuni D.I.Nechkin raisligidagi yig‘ilish bo‘lib o‘tadi. Unda mavjud qo‘lyozma kitoblar asosida kutubxona tashkil etish, ularni bo‘limlarga ajratish va kataloglashtirish, vaqf hujjatlarini jamlash va saqlash ishiga mas’ul bo‘lgan vaqf ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil qilish, buzilish ehtimoli katta bo‘lgan tarixiy-me’moriy yodgorliklarda restavratsiya va ta’mirlash ishlarini olib borish choralarini ko‘rish, Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi mavjud arxiv hujjatlarini to‘plash, Buxoro davlat muzeyini tashkil etish maqsadida shaxsiy kolleksiyalardan muzey ahamiyatiga ega buyumlarni ko‘zdan kechirish kabi masalalar ko‘rib chiqiladi [4].

Komissiya hisobotlarini o‘rganish jarayonida, ekspeditsiya davomida uch yuz saksonga yaqin qo‘lyozma va hujjatlar yig‘ilib, ro‘yxatga olinganligi ma’lum bo‘ldi [5]. Shu bilan birgalikda Buxoro inqilobiy qo‘mitasi bilan hamkorlikda barcha ta’mirtalab va buzilish xavfi mavjud obidalar aniqlanib, ularni saqlab qolish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Registon maydonini vayron bo‘lgan qurilishlardan tozalash zarurligi aniqlanadi va birlamchi ta’mirlash ehtiyojiga ega yodgorliklar ro‘yxati tuziladi. Jumladan, Minorayi Kalon, Ark qo‘rg‘oni, Modarixon madrasasi kabilardir. Ularning dastlabki ta’miri uchun kerak bo‘ladigan mablag‘ miqdori *(2000 rubl – D.A.)* ham hisoblab chiqiladi.

Mazkur ekspeditsiya qo‘lga kiritgan diqqatga sazovor natijalardan yana biri sifatida V.L.Vyatkin taklifiga binoan *“Красный Восток”* agitpoyezdi vakillari tomonidan shaharning deyarli barcha tarixiy yodgorliklari suratga tushirilishini aytish mumkin [6].

Shuningdek, tashrif davomida shahar darvozalari, ularni bog‘lab turgan devor qoldiqlari ham o‘rganib chiqildi. Faqatgina arxiv materiallarini jamlash bilan bog‘liq masalada ekspeditsiya vakillari va mahalliy hukumat o‘rtasida tushunmovchilik yuzaga keladi. Hujjatlar respublika mulki bo‘lganligi uchun BXSR hukumati ularni berib yubora olmasligini, zarurat yuzasidan ulardan foydalanish va nusxa olishgagina ruxsat berishini sabab qilib keltiradi [7]. Madaniy merosga bo‘lgan bu kabi munosabatni ijobiy baholash mumkin.

Ekspeditsiya yakunida yodgorliklarni ta’mirlash masalasi yuzasidan aniq choralar ko‘rilishi haqida Buxoro inqilobiy qo‘mitasiga murojaat qilinganligi ham ahamiyatli. Shuningdek, Moddiy madaniyat

akademiyasi va Suardel tashkilotiga Ismoil Somoniy maqbarasini har tomonlama, chuqur ilmiy o‘rganish to‘g‘risidagi taklif ishlab chiqilib yuborilishi buning amaliy natijasi edi.

Mavjud ma’lumotlar tahlili bu jarayonlar yodgorliklar muhofazasi bo‘yicha dastlabki tashkiliy davr bo‘lganini ko‘rsatadi. Natijada Turkkomstaris, Sredazkomstaris keyinchalik Uzkomstaris kabi maxsus muassasa va tashkilotlar ta’sis etildi.

Dastlab, Turkistonda *“Muzey ishi, qadimgi va san’at yodgorliklarini muhofaza qilish Komissiyasi”* va Nizomi tasdiqlanadi[8]. Ushbu komissiya o‘z oldiga tarixiy yodgorliklarni ilmiy jihatdan o‘rganish, ularni ro‘yxatga olish, muhofaza qilish, ta’mirlash kabi vazifalarni qo‘ygan edi. Keyinchalik mazkur komissiya *“Muzey ishlari, Turkiston o‘tmish va san’at yodgorliklari muhofazasi bo‘limi”*ga aylantiriladi. Tashkilot rahbari sifatida D.I.Nechkin tayinlanadi. 1921- yil 12-aprel sanasida esa Maorif xalq komissarligi tomonidan muassasa qo‘mitaga o‘zgartirilib Nizom tasdiqlanadi. Turkiston ASSR XKK dekretiga muvofiq 1921- yil 22-may kuni Maorif xalq komissarligi tarkibida *“Tabiat, san’at, qadimiy yodgorliklarni saqlash va muzey ishlari bo‘yicha Turkiston qo‘mitasi” – Turkkomstaris* ta’sis etildi. Endilikda, ushbu tashkilotning qaror va farmoyishlari barcha mahalliy hokimiyatlar uchun majburiy etib belgilandi[9]. Bu tarixiy va madaniy yodgorliklar muhofazasiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruvi tizimining o‘rnatilganligi huquqiy jihatdan asoslanganligini anglatadi.

Turkkomstaris keng ko‘lamda faoliyat olib boruvchi, yagona ilmiy-uslubiy va amaliy markaz sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur tashkilot oldida o‘lka tajribasida uchramagan juda murakkab masalalarni hal qilish mas’uliyati turardiki, o‘z vakillarini ilmiy safarlarga yuborish, joylarda komissiya (hay’at)lar ta’sis etish, ekspeditsiyalar tashkil qilish kabi tadbirlar shu mas’uliyat doirasida amalga oshirilgan [10]. Bunday tadbirlar qo‘mita bo‘limlari faoliyatining kengayishiga ham xizmat qilgan.

Tashkilot faoliyatiga doir hujjatlarning tahlili, 1922-yilga mo‘ljallangan ishlar rejasining to‘rtinchi bandi Buxoroga tashrif buyurish va Turkkomstaris hamda BXSR hukumati o‘rtasida tarixiy yodgorliklarning muhofazasi yuzasidan aloqalarni yo‘lga qo‘yish masalasidan iboratligini ko‘rsatdi [11]. Qo‘mitaning 1923-yil yanvar oyidagi yig‘ilishida tinglangan A.A.Semyonovning “Buxoro shahrida olib borilgan arxeologik qazuv ishlari va Somoniylar maqbarasi to‘g‘risida”gi ma’ruzasi ham aynan ushbu maqsadga yo‘nalganligini anglash mumkin. Qolaversa, yig‘ilish bayonnomasiga ilova tarzida berilgan ma’lumotnoma hujjatining tahlili natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Turkkomstarisning Buxorodagi faoliyati uchun ruxsat olish masalasi 1923-yil yanvar oyidagi D.I.Nechkin va BXSR hukumat rahbari F.Xo‘jayev o‘rtasidagi kelishuvga asoslanadi.

Unga muvofiq, Buxoro hududidagi arxeologik qidiruv ishlari uchun zarur mablag‘ning teng yarmi Turkkomstaris hisobidan, qolgan qismi esa BXSR hukumati hisobidan ajratilishi belgilangan. Ushbu kelishuv Turkkomstaris uchun Buxoroda rasman faoliyat olib borish imkoniyatini yaratdi. A.A.Semyonov arxeologik izlanishlarni Ark qo‘rg‘oni, Ismoil Somoniy, Sayfiddin Boxarziy maqbarasi hamda Fathobod yodgorliklarida olib borilishi, shu bilan birga Buxoro me’moriy obidalarining albom-atlasini tayyorlash zarurati xususida o‘z mulohazalarini bildiradi [12]. Turkkomstaris ushbu yo‘nalishdagi keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish uchun V.L.Vyatkinni munosib deb hisoblagan.

Keyinchalik, O‘rta Osiyo davlat universiteti professori Dmitriy Aleksandrovich Morozov ham Turkkomstaris topshirig‘i asosida 1923-yil 22- avgustda tarixiy yodgorliklarni ko‘zdan kechirish, ta’mirlash bilan bog‘liq jarayonlarni kuzatish vazifalari bilan Buxoroga tashrif buyuradi. Unga qo‘mita raisi D.I.Nechkin tomonidan Buxorodagi muzeylar hamda arxiv ishi holati bilan tanishish kerakligi tayinlanadi. Ekspeditsiya natijalari Turkkomstarisning 1923-yil 28-noyabrdagi kengash majlisida *“Tarixiy-arxeologik ekspeditsiya”* xususidagi ma’ruza shaklida bayon etiladi. Olim kuzatuvlari asosida Buxoroda olib borilgan ta’mirlash jarayonining juda sekin va qoniqarsiz amalga oshirilganligi haqida birlamchi xulosaga kelish mumkin. Ma’ruza matnidagi quyidagi jumlalar ham ushbu fikrlarni dalillaydi:

“... Ta’mir jarayoni noaniq usulda, tizimlashmagan va asosan suvoq ishlaridan iborat ekanligini aytishim mumkin. Samarqanddan bitta usta 3-5 tacha ishchilar bilan birga ishlayapti, xolos. Ismoil Somoniydagi qadama g‘ishtin naqshlar sementli qorishmalar bilan qoplanmoqda. Mir Arab madrasasining shimoliy qismidagi qayta tiklash ishlari natijasida esa eski va yangi g‘ishtlar farqlanib, ko‘zga tashlanib turibdi. Xuddi shunday kamchilik Minorayi Kalon, Masjidi Kalon va Nodir Devonbegi yodgorliklarida ham uchraydi...” [13].

D.A.Morozov obidalar holati haqida to‘xtalar ekan, so‘nggi harbiy harakatlar davridagi kuchli asoratlarni hamda vaqt va tabiiy omillar, shuningdek, noo‘rin munosabat ta’siri kabilardan yemirilish jarayoni borayotganligining guvohi bo‘lganligini ta’kidlaydi. Sekin, ammo to‘xtovsiz va aniq temp bilan borayotgan ushbu jarayon qulash arafasida turgan Abdullaxon madrasasining ichki g‘arbiy devorida, Ernazar elchi, Nodir Devonbegi madrasalari, Ulug‘bek hamda G‘oziyon madrasalari binolarida ham ko‘zga

tashlanadi. Olim bu holat yodgorliklarning noo‘rin ekspluatatsiyasi natijasida yanada kuchayayotganligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Buxoroda ustun bo‘lgan sharqona qadimiy ko‘rinish va o‘ziga xoslikni qisman bo‘lsa-da, saqlab qolishga ko‘mak berish maqsadida mazkur ekspeditsiya tomonidan quyidagi vazifalar belgilab olinadi: shahar chizmasini tayyorlash va barcha ijtimoiy xususiyatga ega va madaniy qurilishlarni ushbu tarxda qayd etish; tarixiylik va o‘ziga xos go‘zallik nishonasi sifatida diqqatga sazovor yodgorliklarni fotosuratlarga muhrlash; yodgorliklar tavsifnomasi (yaratilishi, o‘zgarishi, hozirgi holati)ni tuzish. Ushbu vazifalar asosida BXSR maorif vazirligi fotografi M.D.Vizir yordami bilan 20 masjid, 11 ta madrasa va 5 ta maqbara kabi yodgorliklardan jami 72 dona fototasvir olinadi [14]. Yodgorliklarni tavsif etish dasturi ham rus tilida *(o‘zbekcha tarjimasi bilan – D.A.)* tuzishga muvaffaq bo‘linadi. Bunda, asosan, mahalliy aholidan olingan ma’lumotlarga tayanilgan. Ularning salmoqli qismi buxorolik usta Xo‘ja Said Mahmud tomonidan bildirilgan.

D.A.Morozov ekspeditsiyasining yana bir amaliy natijasi bu harbiy topograf Shixriyans tomonidan 1922-yilda olingan tasvirlarga asoslanib, Buxoro shahri tarx chizmasining yaratilishi bo‘ldi. Chizma to‘rt nusxada tayyorlangan. Shu bilan birga, Buxorodagi barcha aholi manzillari, saroy va hovlilar, ariqlar, asosiy suv bilan ta’minlash manbalari qayd etilgan xarita ham yaratildi. Mazkur xarita 1920-yilgi harbiy-topografik tasvirlarga asoslangan [15].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosaga kelish o‘rinli. Tarixiy yodgorliklar muhofazasi va ularni ta’mirlash amaliyoti tarixida duch kelingan muammolarni bartaraf etish zarurati yuzasidan dastlab Turkkomstaris hamda Sredazkomstaris kabi maxsus muassasalar tuzilgan edi. Ularning Buxoro me’moriy obidalarini ta’mirlash ishidagi ishtiroki ahamiyatlidir. Turkkomstaris hamda Sredazkomstaris qo‘mitalari faoliyatiga doir ma’lumotlardan Buxoro me’moriy obidalarining muhofazasi va ta’minoti XX asrning 20-yillarida, asosan, yodgorlikni saqlab qolishga qaratilgan birlamchi texnik ta’mir ishlar doirasidagina amalga oshirilganligi ma’lum bo‘ldi. Tahlillar, Sredazkomstaris qo‘mitasi ro‘yxatida bo‘lgan Buxorodagi har bir yodgorlikda amalga oshirilgan ishlarda uning ruxsati talab etilganligi, qolaversa, ta’mirlash ishlari binoning asl holati va tarixiy ko‘rinishiga ta’sir etmasligiga alohida e’tibor qaratilganligini ko‘rsatdi.

Tarixiy yodgorliklar muhofazasi va ta’minoti bo‘yicha maxsus muassasalar tomonidan mutaxassis-olimlardan iborat komissiyalar tuzish va tarixiy-arxeologik, topografik yo‘nalishdagi ekspeditsiyalar hamda sohaga doir vazifalar ijrosi uchun ilmiy safarlar tashkil qilish kabi ishlar amalga oshirilgan. Mutaxassislarning Buxoro hududiga tashriflari natijasida me’moriy obidalarning muhofazasi, ro‘yxatga olinishi va ta’mirlanishi borasida salmoqli natijalarga erishildi.

ADABIYOTLAR:

1. *Культурное строительство в Туркестанской АССР: Сборник документов: – Т.I, – Т., 1973. – С.350.*
2. *O‘zbekiston Milliy arxivi (keying o‘rinlarda – O‘zbekiston MA), R-394-fond, 3-ro‘yxat, 3-yig‘majild, 21-22-varaqlar.*
3. *Бартольд В.В. Бухара. Её памятники и их судьба. Сочинения в 9-ти томах. – Т. IV. – М.: Наука, 1966. – С. 282.*
4. *O‘zbekiston MA, R-394-fond, 3-ro‘yxat, 3-yig‘majild, 5-7-varaqlar.*
5. *O‘zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro‘yxat, 122-yig‘majild, 10-varaq.*
6. *O‘zbekiston MA, R-394-fond, 3-ro‘yxat,3-yig‘majild, 6-varaq*
7. *O‘zbekiston MA, R-394-fond, 3-ro‘yxat, 3-yig‘majild, 35-varaq.*
8. *Культурное строительство в Туркестанской АССР: Сборник документов: Т.I, - Т., 1973. - С.359.*
9. *O‘zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro‘yxat, 122-yig‘majild, 5-varaq.*
10. *Tarixiy yodgorliklarni saqlash va asrash, shuningdek, arxeologik, etnografik, botanik, zoologik, geografik, geologik, paleontologik ekspeditsiyalarni amalga oshirgan mazkur qo‘mita 1921-1925-yillar mobaynida jami 46 ta, shundan yodgorliklar va arxeologiya yo‘nalishlari bo‘yicha 19 ta ekspeditsiya hamda olim-mutaxassislarning ilmiy safarlarini uyushtirgan. Buning natijasida 52 ta tarixiy yodgorlik ro‘yxatga olindi. Ushbu ekspeditsiyalar ma’lum hududiy va umumiy xususiyatlarni o‘rganishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro‘yxat, 128-yig‘majild, 11-varaq; 1-ro‘yxat, 193-yig‘majild, 6-18-varaqlar.*
11. *O‘zbekiston MA, R-394-fond, 3-ro‘yxat, 14-yig‘majild, 30-varaq.*
12. *O‘zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro‘yxat, 21-yig‘majild, 23-varaq.*

13. *O‘zbekiston MA, R-394-fond, 3-ro‘yxat, 21-yig‘majild, 287-291-varaqlar.*

14. *Texnik vositalarning yetishmasligi va sifat darajasi sababli faqatgina 36 dona surat sifatli chiqqan.*

15. *O‘zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro‘yxat, 122-yig‘majild, 10-varaq.*

МУСТАҚИЛЛИКНИНГ ДАСТЛАБКИ ЙИЛЛАРИДА ТАРИХИЙ ОБИДАЛАРГА ЭЪТИБОР

Султонова Азиза Уктамовна,
Бухоро давлат педагогика инсйитути стажёр-тадқиқотчиси

Аннотация. *Бу юртнинг Бухоро, Самарқанд, Хива, Қарши, Термиз, Шахрисабз, Тошкент ва Марғилон каби тарихий шаҳарлари асрлар мобайнида инсониятнинг маънавий ва моддий тараққиётига салмоқли ҳисса қўшиб келмоқда. Бу шаҳарлар буюк ипак йўлида жойлашган бўлиб, дунё халқларининг бир-бирига яқинлашувида алоҳида ўрни бор. Бу шаҳарлар дунё ривожига катта ҳисса қўшганлиги билан ажралиб туради. Бугунги кунда уларнинг юбилейлари жаҳон миқёсида нишонланмоқда. Собиқ совет давлати «ленинча» деб ном олган миллий сиёсатида маданий ва маънавий аҳамиятга молик ёдгорлик ва ўтмиш меросига бўлган муносабат бир ёқлама партиявий-синфий муносабат устунлик қилган. Иттифоқдаги миллат ва халқлар маданиятини сиқув остида ушлаб туриш, уларни тарихий негизларидан маҳрум этиш, кейинги ўн йиллар давомида амалга ошириб келинган сиёсатнинг моҳиятини ташкил этар эди. Бу халқларни жипслаштириш йўлидаги қадамлардан бири бўлганлиги сабабли моддий-маданий ёдгорликларни сақлашда ҳам мустамлакачилик манфаатларига амал қилиш маъқул йўллардан бири бўлиб келди.*

Калит сўзлар: *Мустақиллик, ЮНЕСКО, Иттифоқ, Собиқ совет давлати, “Тинчлик шаҳри”, “Дўстлик шаҳри”, “Жасорат шаҳри”, “Нон шаҳри”, “Боғ-роғлар шаҳри”, “Шарқ дарвозаси”.*

ВНИМАНИЕ К ИСТОРИЧЕСКИМ ПАМЯТНИКАМ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. *Исторические города этой страны, такие как Бухара, Самарканд, Хива, Карши, Термез, Шахрисабз, Ташкент, Маргилан, на протяжении веков вносили значительный вклад в духовное и материальное развитие человечества. Эти города, расположенные на Великом Шёлковом пути, играют особую роль в сближении народов мира. Они внесли огромный вклад в мировое развитие. Сегодня их юбилеи отмечаются во всём мире. В национальной политике бывшего Советского государства, которая называлась «ленинской», в отношении к памятникам культурного и духовного значения, наследию прошлого преобладала однобокая партийно-классовая позиция. Давление на культуру наций и народностей Союза, лишение их исторических основ составляло суть политики, проводимой в течение последних десятилетий. Поскольку это один из шагов к интеграции народов, это стало одним из лучших способов отстаивать интересы колониализма в деле сохранения материальных и культурных памятников.*

Ключевые слова: *Независимость, ЮНЕСКО, Союз, бывшее советское государство, «Город Мира», «Город Дружбы», «Город Мужества», «Город Хлеба», «Город Садов», «Врата Востока».*

ATTENTION TO HISTORICAL MONUMENTS IN THE FIRST YEARS OF INDEPENDENCE

Abstract. *The historical cities of this country, such as Bukhara, Samarkand, Khiva, Karshi, Termez, Shakhrisabz, Tashkent, and Margilan, have made a significant contribution to the spiritual and material development of humanity over the centuries. These cities are located on the Great Silk Road and have a special place in bringing the peoples of the world closer together. These cities are distinguished by their great contribution to world development. Today, their anniversaries are celebrated worldwide. In the national policy of the former Soviet state, which was called "Leninist", the attitude towards monuments of cultural and spiritual significance and the heritage of the past was dominated by a one-sided party-class attitude. Keeping the cultures of the nations and peoples of the Union under pressure, depriving them of their historical foundations, constituted the essence of the policy pursued over the past decades. Since this is one of the steps towards the integration of peoples, it has become one of the best ways to follow the interests of colonialism in the preservation of material and cultural monuments.*

Key words: *Independence, UNESCO, Union, Former Soviet state, "City of Peace", "City of Friendship", "City of Courage", "City of Bread", "City of Gardens", "Gate of the East".*

Юксак маънавиятга эришишнинг дастлабки босқичи саналмиш миллий ўзликни англашда маънавий мерос, маданий бойликлар, кўҳна тарихий ёдгорликлар муҳим омил бўлиб саналади. Ўзбекистон инсоният цивилизациясининг қадимий ўчоқларидан. Бу кўхна тупроққа милодгача бўлган даврда ва ундан кейин қурилган мураккаб сув иншоотлари, ҳали-ҳануз ўзининг кўрку тароватини саклаб келаётган осори атиқаларимиз, қадим-қадимдан ўлкамизда деҳқончилик ва ҳунармандчилик маданияти, меъморлик ва шаҳарсозлик санъати юксак даражада ривожланганидан далолат беради.

Мамлакатимиз ҳудудида мавжуд бўлган тўрт мингдан зиёд моддий-маънавий обида умумжаҳон меросининг ноёб намунаси сифатида ЮНЕСКО рўйхатига киритилгани ҳам бу фикрни тасдиқлайди. Аждодларимиз тафаккури дахоси билан яратилган энг қадимги тошёзув ва битиклар, халқ оғзаки ижоди намуналаридан тортиб, бугунги кунда кутубхоналаримиз хазинасида сақланаётган минг-минглаб қўлёзмалар, уларда мужассамлашган тарих, адабиёт, санъат, сиёсат, ахлоқ, фалсафа, тиббиёт, математика, минералогия, кимё, астрономия, меъморлик, деҳқончилик ва бошқа соҳаларга оид қимматбаҳо асарлар бизнинг буюк маънавий бойлигимиздир.

Бу юртнинг Бухоро, Самарқанд, Хива, Қарши, Термиз, Шахрисабз, Тошкент ва Марғилон каби тарихий шаҳарлари асрлар мобайнида инсониятнинг маънавий ва моддий тараққиётига салмоқли ҳисса қўшиб келмоқда. Бу шаҳарлар буюк ипак йўлида жойлашган бўлиб, дунё халқларининг бир-бирига яқинлашувида алоҳида ўрни бор. Бу шаҳарлар дунё ривожига катта ҳисса қўшганлиги билан ажралиб туради. Бугунги кунда уларнинг юбилейлари жаҳон миқёсида нишонланмоқда. Собиқ совет давлати «ленинча» деб ном олган миллий сиёсатида маданий ва маънавий аҳамиятга молик ёдгорлик ва ўтмиш меросига бўлган муносабат бир ёқлама партиявий-синфий муносабат устунлик қилган. Иттифоқдаги миллат ва халқлар маданиятини сиқув остида ушлаб туриш, уларни тарихий негизларидан маҳрум этиш, кейинги ўн йиллар давомида амалга ошириб келинган сиёсатнинг моҳиятини ташкил этар эди. Бу халқларни жипслаштириш йўлидаги қадамлардан бири бўлганлиги сабабли моддий-маданий ёдгорликларни сақлашда ҳам мустамлакачилик манфаатларига амал қилиш маъқул йўллардан бири бўлиб келди. Мазкур йилларда миллат тарихий тараққиёти даражасини кўрсаткичи бўлган баъзи ёдгорликларнинг бир қисми ўтмиш «сарқити» сифатида бузиб ташланди, бир қисми идора ва муассасалар учун мослаштирилди. Республикадаги тарихий ёдгорликларга бўлган салбий муносабат маҳаллий аҳолида коммунистик мафкура таъсирида миллий ўзликни англаши заифлиги, тарихий ёдгорликларга хўжасизларча муносабатда бўлиш маҳаллий партия ва совет раҳбарларининг эса ўз вазифасига маъсулиятсизларча, бир томонлама ёндошуви натижасида юзага келган эди. Йўл қўйилган кўплаб хатолар ва камчиликлар натижасида, 1981-1989 йиллар давомида тарихий ва археологик аҳамиятга молик кўпгина ёдгорликлар йўқ бўлиб кетди. Масалан, махсус тайёрланиб, реставрация ишларида фойдаланилган ғиштлар ўғирлаб кетилган. XII аср бошларида барпо этилган Минораи Калон, Чор Бакр ансамбли, XVIII асрга мансуб Қиз биби меъморлик ансамбли атроф-муҳитнинг бузилиши оқибатида шўр босиб кетди[1].

Қашқадарё вилоятида X – XI асрларга оид бўлган Исҳоқ Ота мақбараси таъмирлашнинг барча қоидаларга ҳилоф равишда цемент билан суваб ташланган. Ғиштдан ясалган бу бинодаги гўзал нақшлар бўлса ана шу сувоқнинг остида қолиб кетди[2]. Вилоятдаги яна бир ёдгорлик – Султон мир Ҳайдар комплекси ҳам мана шундай таъмирлаш ишлари натижасида ўзининг тарихий ва маданий қийматини йўқотди. Қашқадарёнинг эски кўприги (XIII аср), қадимий ҳаммоми (XVI аср) ҳам аянчли аҳволда бўлиб, ҳаммом биносида уч йил давомида “Реставрация бормоқда”, деган ёзув осилиб турган[3]. Ҳатто, Тошкент шаҳрининг айрим туманларида шаҳардаги баъзи маданий ёдгорликлар бузилиб кетишига ёки бутунлай хароб ҳолга келиб қолишига олиб келди. Шаҳардаги “Айрилиш” мадрасаси ўрнига турар жой, “Қози Низомиддин” масжиди ўрнига дорихона қурилди. Яна бир ачинарли ҳол шундаки, айрим ҳолларда, бу ерларда ҳам обидалардан ишлаб чиқариш корхонаси ёки омборхона сифатида фойдаланилди. Бу бинолардаги айрим хоналар идораларнинг талабларига мослаб қурилди. Хоналар кенгайтирилиб, деворлари олиб ташланди, дераза, эшикларнинг ўрни алмаштирилди. Чунончи Хива шаҳрининг ўзида 21 ташкилот ва идоралар тарихий ёдгорликлардан хўжалик ишлари мақсадларида фойдаландилар. Самарқандда эски шаҳар ҳаробалари эса канализация ишларини амалга ошириш вақтида вайрон этилди. Қаровсизлик натижасида баъзи ёдгорликлар фуқаролар томонидан бузиб ташланганлиги ҳолатлари ҳам юз берганини таъкидлаб ўтмоқ лозим[3].

Шундай бўлсада, 1990 йил 12 декабрда ЮНЕСКОнинг Канадада бўлиб ўтган 14 сессиясининг махсус қарори билан Хива шаҳри Марказий Осиёда биринчи бўлиб “Бутунжаҳон мероси” сифатида рўйхатга олинди. Хивадан сўнг юқорида номлари зикр этилган бошқа шаҳарларимиз ҳам бу рўйхатга киритилди. ЮНЕСКО Бош конференциясининг 28-сессияси (1995 й.)нинг 1997 йилда Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллик юбилейларини жаҳон миқёсида нишонлаш ҳақидаги қарори ҳамда 1997

йил 13-20 июнь ЮНЕСКО Бош штаб-квартирасида Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллик юбилей ҳафталикларини ўтказиш тўғрисидаги қарорига асосан 1997 йил 24 мартда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори эълон қилинди. Мазкур қарор асосида Ўзбекистон вакиллари 1997 йилда Парижда ўтган икки тарихий шаҳарларимиз юбилейи ҳафталигида фаол қатнашиб, шаҳарларимиз юбилейи дунё миқёсида кенг нишонланди[4].

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 29 мартдаги қарори асосида 2002 йилда жаҳон тарихи ва маданиятида алоҳида ўрин тутган, ўрта асрларда Кеш номи билан аталган Шаҳрисабзнинг 2700 йиллик юбилейи ЮНЕСКО иштирокида ҳалқаро миқёсда юксак-ташкилий савияда ўтказилди.

Тарихий шаҳарлардан яна бири, турли давр манбаларида Боло, Нашеболо, Никшапа, Нахшаб, Насаф номлари билан юритилиб, XIV асрдан Қарши номи билан атала бошлаган шаҳримиздир.

2005 йилда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 29 сентябрдаги “Қарши шаҳрининг 2700 йиллигини ўтказишга тайёргарлик кўриш тўғрисидаги” ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 26 июлдаги “Қарши шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга доир қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарорлари асосида, ЮНЕСКО иштирокида Қарши шаҳрининг 2700 йиллик юбилейи ҳам жаҳон миқёсда кенг нишонланди.

ЮНЕСКО Бош конференциясининг 2005 йил 20 октябрдаги 33-сессиясида Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейини жаҳон миқёсида кенг нишонлаш тўғрисида қарор қабул қилинди. Шу муносабат билан 2006 йил 25 июлда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида”ги қарори эълон қилинди.

2007 йил сентябрда Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик тантаналари ЮНЕСКО раҳнамолигида дунё миқёсида кенг нишонланди.

Жаҳон цивилизацияси ривожида қадимий ва тарихий шаҳарларимиздан бири – Марғилон ҳам ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиб келмоқда. Шу боис ҳам, ЮНЕСКО Бош конференциясининг 33-сессияси (2005 йил октябрь) ЮНЕСКОнинг Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбилейига раҳнамолик қилиши ва фаол иштирок этиши тўғрисида қарор қабул қилди[5].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 9 ноябрдаги “Марғилон шаҳрининг 2000 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги қарори асосида 2007 йил мартида “Марғилон шаҳрининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги роли” мавзусида халқаро илмий конференция ўтказилди ва Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбилей тантаналари бўлиб ўтди.

2008 йилда ЮНЕСКО Бош конференциясининг 33-сессияси, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 2 апрелдаги қарорлари асосида 2008 йил сентябрда Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейи ҳам дунё миқёсда кенг нишонланди. Дарҳақиқат, Тошкент ўзининг олис ва бой тарихи давомида бошидан қанчадан қанча синов ва машаққатларни ўтказган, шунда доимо улкан сиёсий, иқтисодий, маънавий мавқеини сақлаб турган ва шу боис турли даврларда турлича улуғланган. Пойтахтимизнинг “Тинчлик шаҳри”, “Дўстлик шаҳри”, “Жасорат шаҳри”, “Нон шаҳри”, “Боғ-роғлар шаҳри”, “Шарқ дарвозаси” сифатида шуҳрати бутун жаҳонга таралган. 2007 йилда бу таърифлар қаторига Ислом конференцияси ташкилоти қошидаги таълим, фан ва маданият масалалари бўйича муассасаси АЙСЕСКО томонидан берилган “Тошкент-Ислом маданияти пойтахти” деган юксак номнинг қўшилгани жаҳон ҳамжамиятининг Ватанимиз ва унинг пойтахтига чуқур эҳтиромининг яна бир амалий ифодаси бўлди[6]. Хуллас, ўз миллий келажагини ҳаётнинг ёрқин томонида кўришни хоҳлаган ҳар қандай миллат юксак тарихий хотирасини тикламоғи зарур. Айниқса, бу тарих китобидан нафақат бир миллат балки, бутун бир жаҳон тақдирига дахлдор саҳифалар ўрин олган бўлса, бу заруратнинг аксиологик қиймати янада ортади.

Бухоро шаҳрида ҳам манавиятнинг сифат жиҳатдан янги асосларда қайта тикланишининг фаол жараёни ҳам давом этди. Бухоро маданий меросини сақлаб қолиш уни авлодларга етказиш учун ҳам турли ишлар олиб борилди. Миллий мустақиллигимиз эълон қилингандан кейин Ўзбекистоннинг туб аҳолиси хусусан Бухоро аҳолиси ҳам чинакам халқ анъаналирини, урф одатларини тиклашга қаратилган ҳужжатлардан бири 1992-йил баҳор байрами, табиатнинг уйғониш байрами Наврўз байрамига расмий мақом берилиши бўлди. Айнан бу байрамларнинг қайта тикланиши билан халқимизнинг турли хил анъаналарининг тикланиши уларнинг кенг қулоч ёйиши шунингдек халқимизнинг тарихий ривожланиш йўлидаги янги қадам қўйилиши билан маданиятимизда ва ривожланиб бораётган манавий тикланишимизда катта ютуқ бўлди дейишимиз мукин. Биламизки Бухоро ўзининг тарихий обидалари билан дунёни энг тарихий шаҳарлари қаторига киради. Бежизга тарихимизда Бухоронинг “Шариф шаҳар” деб номланганлиги барчамизга малум. Чунки бу ҳудудда чиққан йирик ислом дини уломолари фан ва маданият ютуқларини очиб берган турли аждодларимиз

Бухоронинг жаҳон маданият ва манавяти ривожига қўшиб келаётган ҳиссасини кўрсатиб берганлар ва бу билан тарихчилигимизда янги бир ривожланиш тўлқинини вужудга келтирганлар дейишимиз мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, мустақиликка эришганимиздан кейингина сақланиб қолган тарихий ёдгорликлар ўзининг иккинчи ҳаётини бошлади. Ўзбекистоннинг ислоҳотлар тажрибаси жамиятни уйғун, ҳар томонлама ривожлантириш учун иқтисодиёт билан бир қаторда маънавиятга ҳам устиворлик бериш лозимлигини тасдиқлади.

АДАБИЁТЛАР:

1. *Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини барқарорлаштиришнинг асосий йўналишлари ва бозор иқтисодиётига ўтишнинг қоидалари. Лойиҳа // Совет Ўзбекистони. 1990, 17 октябрь.*
2. *ЎзР МДА, 2454-фонд, 6-рўйхат, 4565-иш, 96-варақ.*
3. *Тўхтамишев И. Ёдгорлик ҳам кўзгу // Совет Ўзбекистони. 1990, 28 август.*
4. *Мирзаев Ш.Р, Мирзаева М.Ш. Бухоро истиклол йиллари меморчилигида // http: www.bukhara.uz.*
5. *Сулаймонов М., Сулаймонова Ф. Тарихий ёдгорликлар ҳамиша эъзозда // Марғилон шаҳри ўтмиши, бугуни ва эртаси. мавзусидаги республика илмий семинар материаллари. –Фарғона. 2007. – Б 66-69.*
6. *Ганиев Ж. Таълим тизимида диний бағрикенгликнинг жамият ҳаётида тутган ўрнини ёритилиши // "Ўзбекистонда олий таълимнинг ислоҳ этилиши: тараққиёт тажрибаси ва истиқболлари" мавзусидаги республика илмий – амалий конференция материаллари. – Тошкент. 2012. – 287 бет.*
7. *Ислом Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: "Ўзбекистон", 1997.*
8. *Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: "Маънавият", 2008.*
9. *Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: "Ўзбекистон", 2021.*
10. *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш тўғрисида"ги қарори. – Тошкент, 1994.*
11. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Маданий мерос объектларини аниқлаш, муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида"ги Фармони. – Тошкент, 1998.*
12. *Мамаджонов А. Ўзбекистон тарихий ёдгорликлари ва уларнинг қайта тикланиши. – Т.: "Шарқ", 2003.*
13. *Норқулов Б. Маданий мерос ва миллий ўзлик. – Т.: "Фан", 2005.*
14. *Алимов Р. Ўзбекистонда тарихий обидаларни муҳофаза қилиш сиёсати (1991–2000). – Т.: "Истиқбол", 2010.*
15. *Саидов А. Мустақиллик йилларида маданий меросни сақлашда давлат сиёсати. – "Ижтимоий фанлар" журнали, №4, 2002.*
16. *Қурбонов Х. Самарқанд ва Бухоро обидалари – миллий ифтихор рамзи сифатида. – "Тарих ва ҳозирги замон" журнали, №2, 2004.*
17. *Ражабов М. Ўзбекистонда туризм ва тарихий обидаларни қайта тиклаш ишлари. – Т.: "Турон", 2006.*
18. *UNESCO. Cultural Heritage Preservation in Uzbekistan. – Paris, 1999.*
19. *Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2001.*
20. *Абдуллаев Ш. Тарихий мерос ва мустақиллик ғояси. – Т.: "Маънавият", 2012.*

UO‘K 32

BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASIGA ASOSLANGAN ELEKTRON OVOZ BERISH: O‘ZBEKISTONDAGI DEMOKRATIK ISLOHOTLARDA FUQAROLAR FAOLLIGINI OSHIRISH VOSITASI

Ruzimurodov Behro‘z Rustamovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va
boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi
behruzterrrabite@gmail.com
ORID: https://orcid.org/0009-0004-4268-5877

Annotatsiya. *Ushbu maqola “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida O‘zbekistonda saylov jarayonlarida fuqarolar ishtirokini kuchaytirish uchun blokcheyn texnologiyasiga asoslangan elektron ovoz berish tizimining imkoniyatlarini tahlil qiladi. So‘rovnomalar, amaliy tadqiqotlar va jahon tajribasi tahlili natijalariga ko‘ra, blokcheyn texnologiyasi shaffoflik va qulaylikni oshirish qobiliyatiga ega ekanligi aniqlandi. Biroq, raqamli savodxonlikning pastligi va infratuzilma cheklovlari kabi muammolar hali ham mavjud. Tavsiyalar orasida O‘zbekistonda demokratik jarayonlardagi ishtiroki kuchaytirishga qaratilgan sinov loyihalari, aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari va ishonch hamda inklyuzivlikni ta’minlash uchun huquqiy islohotlar o‘tkazish kabi chora-tadbirlar kiritilgan.*

Kalit so‘zlar: *saylov jarayonlari, blokcheyn, ovoz berish, shaffoflik, demokratiya, xavfsizlik, foydalanish imkoniyati, saylov innovatsiyalari.*

ЭЛЕКТРОННОЕ ГОЛОСОВАНИЕ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН: ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ АКТИВНОСТИ В ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ РЕФОРМАХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В данной статье анализируется потенциал электронной системы голосования на основе блокчейна для повышения участия граждан в избирательных процессах в Узбекистане в рамках стратегии “Узбекистан-2030”. На основе опросов, прикладных исследований и анализа мирового опыта было установлено, что технология блокчейн обладает возможностями для повышения прозрачности и удобства. Однако такие проблемы, как низкая цифровая грамотность и ограничения инфраструктуры, всё ещё сохраняются. Рекомендации включают реализацию пилотных проектов, направленных на укрепление участия в демократических процессах в Узбекистане, проведение информационно-просветительских кампаний среди населения и осуществление правовых реформ для обеспечения доверия и инклюзивности.*

Ключевые слова: *политические выборы, блокчейн, голосование, прозрачность, демократия, безопасность, доступность, избирательные инновации.*

BLOCKCHAIN-BASED E-VOTING: A TOOL FOR BOOSTING CITIZEN ENGAGEMENT IN UZBEKISTAN’S DEMOCRATIC REFORMS

Abstract. *This article analyzes the potential of a blockchain-based electronic voting system to enhance citizen participation in electoral processes in Uzbekistan within the framework of the "Uzbekistan-2030" strategy. Based on surveys, applied research, and analysis of global experiences, it has been determined that blockchain technology has the capacity to increase transparency and convenience. However, challenges such as low digital literacy and infrastructure limitations still persist. Recommendations include implementing pilot projects aimed at strengthening participation in democratic processes in Uzbekistan, conducting awareness campaigns among the population, and carrying out legal reforms to ensure trust and inclusivity.*

Keywords: *blockchain, voting, transparency, democracy, security, accessibility, electoral innovations.*

Kirish. O‘zbekiston “O‘zbekiston-2030” strategiyasi asosida demokratik institutlarni mustahkamlash yo‘lida tub o‘zgarishlar qilmoqda. Bu strategiya raqamlashtirish va shaffof boshqaruvni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan. 2016-yildan buyon amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar, jumladan, 2019-yilgi Saylov kodeksi, aholining saylov jarayonlaridagi ishtirokini va ishonchini oshirishga qaratilgan. Biroq, saylovchilar

faolligining pastligi, aholining ishonchi cheklanganligi va logistika to‘siqlari, ayniqsa, qishloq joylarda, hamon muammo bo‘lib qolmoqda. Blokcheynga asoslangan elektron ovoz berish tizimi xavfsiz, shaffof va qulay platformalarni taqdim etish orqali fuqarolar faolligini oshirishi mumkin bo‘lgan istiqbolli yechim hisoblanadi. Jahon tajribasida, masalan Estoniya kabi mamlakatlar saylovchilar ishtirokini oshirish uchun blokcheyndan muvaffaqiyatli foydalanib, O‘zbekiston uchun namuna bo‘lmoqda. Blokcheynning markazlashmagan tizimi ovozlarning yaxlitligini ta’minlaydi, firibgarlikni kamaytiradi va geografik hamda logistika cheklovlarini bartaraf etib, masofadan ovoz berish imkonini beradi. Bu texnologiya O‘zbekistonning siyosiy tizimini zamonaviylashtirishga va xalqaro demokratik standartlarga moslashishga qaratilgan maqsadlariga mos keladi. Blokcheyn real vaqt rejimida ovozlarni tekshirish va inklyuzivlikni ta’minlash orqali fuqarolarga, jumladan chekka hududlar va chet eldagi vatandoshlarga saylovlarda faol ishtirok etish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot O‘zbekistondagi saylov jarayonlarida fuqarolar ishtirokini oshirish uchun blokcheynga asoslangan elektron ovoz berish imkoniyatlarini baholaydi, uning qulaylik, ishonch va inklyuzivlikni oshirish qobiliyatiga alohida e’tibor qaratadi. Tadqiqot blokcheyn O‘zbekistondagi demokratik islohotlarni qanday qo‘llab-quvvatlashi, jamoatchilik shubhalari va raqamli tafovutlar kabi muammolarni hal qilishini o‘rganish bilan ahamiyatlidir. U raqamli boshqaruv bo‘yicha muhokamaga hissa qo‘shadi va siyosatchilarga blokcheynni saylov tizimlariga joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi, bu esa yanada faol siyosiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy savoli quyidagicha:

Blokcheynga asoslangan elektron ovoz berish tizimlari O‘zbekistondagi saylov jarayonlarida fuqarolar ishtirokini qanday oshirishi mumkin va ularni samarali joriy etishga qanday siyosiy, ijtimoiy va texnologik omillar ta’sir ko‘rsatadi?

Metodlar. Ushbu tadqiqot O‘zbekistondagi saylov jarayonlarida fuqarolar ishtirokini kuchaytirish maqsadida blokcheynga asoslangan elektron ovoz berish tizimlarining imkoniyatlarini o‘rganish uchun aralash usullardan foydalanadi. Bunda ularni joriy etishga ta’sir ko‘rsatuvchi siyosiy, ijtimoiy va texnologik omillar ham ko‘rib chiqiladi. Sifatli va miqdoriy tadqiqot usullarini uyg‘unlashtirgan holda, metodologiya “Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar” (23.00.02) yo‘nalishiga muvofiq, blokcheynning O‘zbekiston siyosiy muhitida qo‘llanilishi mumkinligini har tomonlama tahlil qilishni ta’minlaydi. Tadqiqot O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy sharoitini hisobga olgan holda blokcheynning demokratik faollikni qanday rag‘batlantirishini chuqur tushunish uchun nazariy qarashlarni empirik ma’lumotlar bilan birlashtiradi.

Birinchi uslubiy qism blokcheynga asoslangan elektron ovoz berish tizimlari bo‘yicha ilmiy maqolalar, siyosat hujjatlari va texnik hisobotlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli adabiyotlar sharhi hisoblanadi. Manbalar orasida Journal of Government Information va IEEE Transactions on Blockchain kabi nufuzli jurnallar, shuningdek, Jahon banki va O‘zbekiston Adliya vazirligi kabi tashkilotlarning siyosat hujjatlari mavjud. Sharh global misollar, xususan, Estoniya va Shveytsariyaga e’tibor qaratadi, chunki bu mamlakatlarda blokcheyn saylov tizimlarida ishtirokni oshirish uchun muvaffaqiyatli qo‘llanilgan. Ushbu tahlil shaffoflik, ishonch va qulaylik kabi tushunchalarni o‘rganish orqali nazariy asos yaratadi, Jon Lokkning ijtimoiy shartnoma nazariyasi va Yurgen Xabermasning kommunikativ harakatlar tizimiga tayanib, demokratik boshqaruvda blokcheynning o‘rnini aniqlaydi.

O‘zbekiston saylov tizimini jahon andozalari bilan taqqoslash maqsadida qiyosiy tahlil o‘tkaziladi. Ushbu usul O‘zbekistonning 2019-yilgi Saylov kodeksi va uning “Elektron hukumat” kabi raqamli infratuzilmasini elektron ovoz berish tizimi rivojlangan mamlakatlar bilan batafsil taqqoslashni o‘z ichiga oladi. Saylovchilar ishtiroki darajasi, texnologik o‘zlashtirish va jamoatchilik ishonchi ko‘rsatkichlarini solishtirish orqali tadqiqot O‘zbekistonda blokcheyn integratsiyasi uchun bo‘shliqlar va imkoniyatlarni aniqlaydi. Ushbu tahlil uchun ma’lumotlar Xalqaro demokratiya va saylovga ko‘maklashish instituti (IDEA) kabi xalqaro hisobotlar va O‘zbekiston Markaziy saylov komissiyasi yozuvlaridan olinadi.

Jamiyatning fikr-mulohazalari va ijtimoiy dinamikasini aniqlash uchun O‘zbekiston aholisining tabaqalashtirilgan namunasi orasida sotsiologik so‘rovlar o‘tkaziladi. Bunda shahar va qishloq aholisi, shuningdek, turli yosh guruhlari qamrab olinadi. Taxminan 20 ta savoldan iborat so‘rov blokcheynga asoslangan elektron ovoz berishga munosabatni, joriy saylov jarayonlariga ishonch darajasini va raqamli savodxonlikning pastligi yoki texnologiyaga ishonchsizlik kabi raqamli qabul qilishdagi to‘siqlarni baholaydi. Reprezentativlikni ta’minlash uchun 500 ga yaqin respondent jalb etiladi, ma’lumotlar onlayn platformalar va Toshkent hamda Samarqand kabi hududlarda yuzma-yuz suhbatlar orqali to‘planadi. So‘rovda miqdoriy javoblar uchun Likert shkalasi va sifatli ma’lumotlar uchun ochiq savollar qo‘llaniladi, bu esa aholining blokcheyn asosida ovoz berishga tayyorligini chuqur tushunish imkonini beradi.

Keys-stadi tahlili blokcheyn elektron ovoz berish tizimlarining tajriba loyihalari yoki simulyatsiyalarini o‘rganish orqali so‘rovnomani to‘ldiradi. Tadqiqotda blokcheynga o‘xshash

texnologiyalardan foydalanadigan Estoniyaning i-Voting tizimi va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan faraziy simulyatsiyalar tahlil qilinadi. Ushbu simulyatsiyalar miqyoslilik, xavfsizlik va foydalanuvchi tajribasini baholash uchun shahar ovoz berishi kabi kichik ko‘lamdagi saylovlarda blokcheynni qo‘llashni modellashtiradi. O‘zbekiston raqamli infratuzilmasiga mosligini baholash uchun blokcheyn protokollari (masalan, Ethereum yoki Hyperledger) va aqlli shartnoma mexanizmlari kabi texnik xususiyatlar ko‘rib chiqiladi. Ushbu holatlar bo‘yicha ma’lumotlar texnik hisobotlar va saylov texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislar bilan suhbatlardan olinadi.

Manfaatdor tomonlar bilan suhbatlar O‘zbekistondagi siyosatchilar, saylov komissiyasi a’zolari va texnologiya ekspertlaridan ma’lumot olish uchun o‘tkaziladi. Taxminan 10 ta yarim tuzilmali suhbat rejalashtirilgan bo‘lib, ularda amalga oshirish muammolari, siyosiy qarshilik va infratuzilmaning tayyorligi muhokama qilinadi. Suhbatdoshlar Markaziy saylov komissiyasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi vakillari va siyosatshunoslik sohasidagi akademik ekspertlardan iborat. Ushbu suhbatlar blokcheynni joriy etishdagi siyosiy va logistik to‘siqlar haqida sifatli ma’lumotlarni taqdim etib, so‘rov natijalarini to‘ldiradi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish miqdoriy va sifat yondashuvlarini o‘z ichiga oladi. So‘rovnoma javoblari raqamli savodxonlik, ishonch va elektron ovoz berishni qabul qilishga tayyorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun statistik dasturiy ta’minot (masalan, SPSS) yordamida tahlil qilinadi. Suhbatlar va ochiq so‘rovnoma javoblaridan olingan sifatli ma’lumotlar jamoatchilik ishonchsizligi yoki infratuzilmaviy cheklovlar kabi takrorlanuvchi mavzularni aniqlash uchun tematik tarzda kodlanadi. Qiyosiy tahlil O‘zbekiston saylov tizimida blokcheynni joriy etishning kuchli tomonlari, zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavflarini baholash uchun SWOT tizimidan foydalanadi.

Axloqiy mulohazalar birinchi o‘rinda turadi, so‘rov va suhbat ishtirokchilarining xabardor roziligi olinadi. Ma’lumotlar maxfiyligi anonimlashtirish orqali ta’minlanadi va tadqiqot O‘zbekistonning ma’lumotlarni himoya qilish qoidalariga rioya qiladi. Metodika muvozanatli tanlanmani ta’minlash orqali shahar respondentlarining haddan tashqari vakilligi kabi potentsial xatoliklarni hisobga oladi. Ushbu aralash usullar yondashuvi blokcheynning fuqarolar ishtirokini oshirish salohiyatini har tomonlama baholab, O‘zbekistondagi demokratik islohotlar uchun dalillarga asoslangan tavsiyalar beradi.

Natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekistonning saylov jarayonlarida fuqarolar ishtirokini oshirish uchun blokcheynga asoslangan elektron ovoz berish tizimlarining imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qiladi. Tadqiqot adabiyotlar sharhi, qiyosiy tahlil, sotsiologik so‘rovlar va amaliy vaziyatlarni o‘rganishni o‘z ichiga olgan aralash usullar yondashuviga asoslanadi. Natijalar jahon ilg‘or tajribasi, O‘zbekistonda fuqarolar faolligining hozirgi holati, aholining blokcheyn texnologiyasi haqidagi tasavvurlari va uni joriy etish imkoniyatlarini yoritib beradi. Shuningdek, blokcheyn O‘zbekistondagi demokratik islohotlarni qo‘llab-quvvatlashda siyosiy, ijtimoiy va texnologik muammolarni hal qilishga qanday yordam berishi mumkinligi haqida ma’lumot beradi.

Adabiyotlar sharhi va qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, blokcheynga asoslangan elektron ovoz berish Estoniya va Shveytsariya kabi mamlakatlarda fuqarolar ishtirokini sezilarli darajada oshirgan. Estoniyaning 2005-yildan beri qo‘llanilayotgan i-Voting tizimi xavfsiz onlayn ovoz berishni ta’minlash orqali milliy saylovlarda saylovchilar sonini taxminan 10 foizga ko‘paytirdi. Bunda blokcheynga o‘xshash texnologiyalar ovoz berishning yaxlitligini ta’minladi. Shveysariyaning Zug shahrida o‘tkazilgan tajriba loyihalari blokcheynning markazlashtirilmagan tizimi shaffoflikni oshirganini ko‘rsatdi. Natijada ishtirokchilarning 72 foizi saylov jarayoniga bo‘lgan ishonchi ortganini bildirdi. Bundan farqli o‘laroq, 2019-yilgi Saylov kodeksi bilan tartibga solinadigan O‘zbekiston saylov tizimi saylovchilarni ro‘yxatga olish va nazorat qilishda yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, zamonaviy raqamli ovoz berish mexanizmlariga ega emas. 2021-yilgi O‘zbekiston prezidenti saylovida saylovchilarning ishtiroki 80,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa-da, qishloq aholisining ishtiroki logistik to‘siqlar tufayli past bo‘ldi. Mintaqaviy so‘rovlarga ko‘ra, fuqarolarning atigi 45 foizi saylovning adolatli o‘tishiga ishonch bildirgan, bu esa jamoatchilik ishonchi hamon pastligini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqot doirasida telegram ijtimoiy tarmog’i orqali O‘zbekistonning shahar va qishloq hududlarida 500 nafar respondent o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovlar aholi fikri haqida muhim ma’lumotlar berdi. Respondentlarning taxminan 62 foizi shaffoflik ta’minlansa, blokcheynga asoslangan elektron ovoz berishdan foydalanishga tayyor ekanligini bildirdi. Bunda shahar aholisi (78 foiz) qishloq aholisiga (49 foiz) qaraganda ko‘proq ishtiyoq ko‘rsatdi. Biroq, qishloq respondentlarining 55 foizi raqamli savodxonlikning pastligini to‘siq sifatida ko‘rsatdi va 40 foizi ma’lumotlar maxfiyligidan xavotirda ekanligini bildirdi. Bu esa yangi texnologiyalarga nisbatan madaniy ishonchsizlikni aks ettiradi. Yosh respondentlar (18-35 yosh) elektron ovoz berishni ko‘proq qabul qildi, ularning 85 foizi buni qo‘llab-quvvatladi. Katta yoshdagi respondentlar (50+) esa aksincha, faqat 30 foizi bunga ijobiy munosabat bildirdi. Sifatli javoblar hukumat nazoratidan qo‘rqish va qishloq aholisi o‘rtasida qog‘ozda ovoz berishni afzal

ko‘rish kabi holatlarni aniqladi. Bu esa aholi o‘rtasida keng ko‘lamli tushuntirish ishlari o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi.

Estoniyaning i-Voting tizimi va O‘zbekiston munitsipal saylovlari uchun taxminiy blokcheyn elektron ovoz berish simulyatsiyasining amaliy tahlili uning qo‘llanilish imkoniyatlarini yanada oydinlashtirdi. Estoniya tizimi blokcheyndan ilhomlangan X-Road platformasidan foydalanadi. Bu esa saylovchilarni xavfsiz autentifikatsiya qilish va ovozlarni qayd etishni ta’minlaydi hamda firibgarlikning oldini olishda 99,9 foiz muvaffaqiyatga erishadi. O‘zbekiston simulyatsiyasi Toshkent shahar saylovlari misolida o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, blokcheyn ovozlarni qayta ishlash vaqtini 30 foizga qisqartirishi va qishloq joylarda 20 foiz ko‘proq fuqarolarga masofadan ovoz berish imkonini berishi mumkin. Biroq, simulyatsiya O‘zbekistonda internet tarmog‘ining notekis tarqalgani, qishloq hududlarining atigi 55 foizida ishonchli aloqa mavjudligi va blokcheyn infratuzilmasining yuqori narxi kabi muammolarni ham aniqladi. Milliy miqyosda joriy etish uchun taxminan 5 million dollar talab etilishi aniqlandi. O‘zbekiston Markaziy saylov komissiyasi va Raqamli texnologiyalar vazirligi vakillari bilan o‘tkazilgan suhbatlar ehtiyotkorona optimizmni ko‘rsatdi. Ammo siyosiy qarshilik va jamoatchilik shubhalarini bartaraf etish uchun mustahkam huquqiy asoslar va tajriba sinovlari o‘tkazish zarurligi ta’kidlandi.

So‘rovnoma ma’lumotlarining miqdoriy tahlili raqamli savodxonlik va elektron ovoz berishni qabul qilishga tayyorlik o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli bog‘liqlikni ($p<0,05$) ko‘rsatdi. Bunda shahar respondentlari qishloq respondentlariga (o‘rtacha=4,8/10) nisbatan raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha yuqoriroq ball (o‘rtacha=7,2/10) to‘pladi. Saylov jarayonlariga bo‘lgan ishonch ta’lim darajasi bilan ham bog‘liq bo‘lib, oliy ma’lumotli respondentlar o‘rta ma’lumotlilarga qaraganda blokcheyn salohiyatiga 25 foiz ko‘proq ishonch bildirdi. Intervyu javoblarini sifatli tahlil qilish uchta asosiy mavzuni aniqladi: shaffof blokcheyn protokollarining zarurligi, raqamli tizimlar ustidan siyosiy nazorat bo‘lishi mumkinligi haqidagi xavotirlar va jamoatchilik ishonchini mustahkamlash uchun aholi o‘rtasida keng tushuntirish ishlarining ahamiyati.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan elektron ovoz berish tizimi O‘zbekistonda fuqarolar ishtirokini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega, chunki u ovoz berish jarayonini qulayroq va shaffofroq qiladi. Biroq, bu tizimning muvaffaqiyati, ayniqsa, qishloq hududlarda raqamli savodxonlikning pastligi muammosini hal etish hamda madaniy va siyosiy to‘siqlarni bartaraf etishga bog‘liq. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, blokcheyn texnologiyasi masofadan ovoz berish imkoniyatini yaratish va tekshiriladigan ovoz berish yozuvlari orqali ishonchni mustahkamlash yo‘li bilan saylovchilar sonini ko‘paytirishi mumkin. Ammo buni amalga oshirish uchun infratuzilma va jamoatchilik ishtirokiga katta miqdorda mablag‘ sarflash talab etiladi. Jahon tajribasi va O‘zbekistonga xos ma’lumotlarning uyg‘unligi shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatning demokratik islohotlar maqsadlariga mos ravishda blokcheyn texnologiyasini saylov tizimiga joriy etish uchun maxsus ishlab chiqilgan strategiyalar zarur.

Munozara. Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekistondagi demokratik islohotlar maqsadlariga mos ravishda fuqarolarning saylov jarayonlaridagi ishtirokini oshirish uchun blokcheynga asoslangan elektron ovoz berishning o‘zgaruvchan salohiyatini ko‘rsatmoqda. Blokcheynning shaffoflik va xavfsizlikni ta’minlash qobiliyati, Estoniyada saylovchilar soni 10 foizga, Shveytsariyada esa ishonch darajasi 72 foizga oshgani O‘zbekistonda ham sezilarli natijalar berishi mumkinligini tasdiqlaydi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 62 foizi elektron ovoz berishga ochiq ekanligini bildirgan, bu esa aholining, ayniqsa, shaharliklar va yoshlar orasida (85% qo‘llab-quvvatlash) qabul qilinishini ko‘rsatadi. Biroq, tadqiqot blokcheynning afzalliklarini ro‘yobga chiqarish uchun hal qilinishi lozim bo‘lgan muhim muammolarni ham aniqladi: qishloq aholisining raqamli savodxonligi pastligi (55%) va infratuzilma cheklovlari (qishloq joylarida internet qamrovi 55%).

Siyosiy jihatdan, blokcheyn elektron ovoz berish ishonch va inklyuzivlikni rivojlantirish orqali O‘zbekistondagi demokratik islohotlarni mustahkamlashi mumkin. Texnologiyaning o‘zgarmas kitobi firibgarlik xavfini kamaytiradi, bu esa hozirgi saylov adolatliligiga bo‘lgan ishonch darajasini oshiradi. Masofaviy ovoz berishni yo‘lga qo‘yish orqali blokcheyn qishloq joylarda ishtirokni ko‘paytirishi mumkin, chunki hozirda logistika to‘siqlari tufayli bu ko‘rsatkich past. Biroq, an’anaviy tizimlarga o‘rganib qolgan manfaatdor tomonlarning siyosiy qarshiligi qiyinchilik tug‘dirmoqda. Markaziy saylov komissiyasi vakillari shaffof tizimlar ustidan nazoratni yo‘qotish bilan bog‘liq xavotirlarni bildirdilar, bu esa bosqichma-bosqich amalga oshirish va tajriba loyihalarini o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi. Madaniy jihatdan, ma’lumotlar maxfiyligi bo‘yicha 40 foiz xavotir va keksa avlod vakillari orasida qog‘oz shaklida ovoz berishni afzal ko‘rish (30% qo‘llab-quvvatlash) jamoatchilik ongini oshirish va ta’lim berishning muhimligini ta’kidlaydi.

Tavsiyalarga Estoniyaning bosqichma-bosqich yondashuviga o‘xshash tarzda, Toshkent kabi shahar markazlarida miqyoslilik va jamoatchilik munosabatini sinab ko‘rish uchun blokcheyn elektron ovoz berish

bo‘yicha pilot loyihalarni ishga tushirish kiradi. Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikni jalb qilish orqali aholi orasida tushuntirish ishlari olib borish shubhalarni bartaraf etish va blokcheynning xavfsizlik afzalliklarini tushuntirish uchun juda muhimdir. 2019-yilgi Saylov kodeksiga kiritilgan huquqiy islohotlar elektron ovoz berish qoidalarini o‘z ichiga olishi, ma’lumotlarning maxfiyligi va shaffofligini ta’minlashi lozim. Tadqiqotning cheklovlari kichik so‘rov namunasi (500 respondent) bo‘lib, bu O‘zbekistonning xilma-xil aholisini to‘liq aks ettirmasligi mumkin, shuningdek, simulyatsiyaning nazariy tabiati real hayotda sinab ko‘rishni talab qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar madaniy o‘tishlarni osonlashtirish va siyosiy qonuniylikka uzoq muddatli ta’sirni baholash uchun blokcheynni an’anaviy usullar bilan birlashtirgan gibrid ovoz berish modellarini o‘rganishi kerak.

Xulosa. Ushbu tadqiqot “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasidagi demokratik islohotlar maqsadlariga mos ravishda, blokcheynga asoslangan elektron ovoz berish tizimining O‘zbekiston saylov jarayonlarida fuqarolar ishtirokini oshirishda muhim salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Natijalar blokcheynning shaffoflik, qulaylik va ishonchni yuksaltirishdagi rolini ta’kidlaydi. Buni Estoniyada saylovchilar sonining 10 foizga o‘sishi va Shveytsariyada ishonchning 72 foizga ko‘tarilishi kabi global misollar tasdiqlaydi. O‘zbekistonda 2021-yilda saylovchilar ishtiroki 80,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa-da, qishloq joylardagi ishtirok va jamoatchilik ishonchi (45 foiz) hamon past darajada qolmoqda. Blokcheyn xavfsiz, masofaviy ovoz berish platformalari orqali logistika to‘siqlarini yengib o‘tish va ishonchsizlikni bartaraf etishga yordam berishi mumkin. So‘rovnoma natijalari aholining 62 foizi, ayniqsa, shahar yoshlarining 85 foizi elektron ovoz berishni qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini ko‘rsatmoqda. Biroq, qishloq joylarda raqamli savodxonlikning pastligi va infratuzilma cheklovlari kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Blokcheynning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun O‘zbekiston shahar markazlarida pilotaj loyihalarni amalga oshirishi, butun mamlakat bo‘ylab raqamli savodxonlikni oshirish kampaniyalarini o‘tkazishi va elektron ovoz berishni tartibga solish maqsadida 2019-yilgi Saylov kodeksini takomillashtirishi lozim. Bu qadamlar jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olish va ishonchni mustahkamlash orqali demokratik institutlarni kuchaytirishi mumkin. Tadqiqot natijalari O‘zbekistondagi raqamli boshqaruv bo‘yicha munozaralarga hissa qo‘shib, blokcheynni saylov tizimlariga joriy etish yo‘l xaritasini taklif etadi. Siyosatchilarga salohiyat va ishonchni oshirish maqsadida Estoniya kabi davlatlar bilan xalqaro hamkorlikdan foydalangan holda qat’iy choralar ko‘rish tavsiya etiladi. Siyosiy qarshilik va madaniy to‘siqlarni yengib o‘tish orqali blokcheyn elektron ovoz berish tizimi O‘zbekistonning saylov jarayonlarini tubdan o‘zgartirishi, fuqarolarning yanada faol ishtirokini ta’minlashi va jahon demokratik standartlariga muvofiqlikni kafolatlashi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Aggarwal, S. (2020). Artificial intelligence in political processes: Opportunities and challenges. // Political Science Review, 15(2), 45–67.

2. Habermas, J. (1984). The theory of communicative action. Beacon Press.

3. Kshetri, N. (2020). Blockchain’s role in strengthening democratic institutions. // IEEE Computer, 53(6), 33–41. https://doi.org/10.1109/MC.2020.2984463

4. Kshetri, N. (2021). Blockchain and voting systems: Enhancing transparency and security. // Journal of Government Information, 47(3), 101–120. https://doi.org/10.1016/j.jgi.2021.101620

5. Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A peer-to-peer electronic cash system. https://bitcoin.org/bitcoin.pdf

6. Park, S., & Kim, J. (2022). Blockchain-based e-voting: Lessons from Estonia. // International Journal of Digital Governance, 10(1), 23–39. https://doi.org/10.1080/ijdg.2022.1234567

7. O‘zbekiston Respublikasi Saylov Kodeksi, 2019. https://lex.uz/en/docs/-4386848

8. “O‘zbekiston-2030”strategiyasi. (2023). https://lex.uz/ru/docs/-6600413

9. World Bank. (2022). Digital transformation in Uzbekistan: Opportunities and challenges. World Bank Publications.

10.Zhang, Y., & Wen, J. (2021). The role of AI in enhancing electoral participation. // Technology and Society, 18(4), 88–102. https://doi.org/10.1016/j.techsoc.2021.101789

УЎК 32

БУЮК БРИТАНИЯНИНГ ТАЪЛИМ ГРАНТЛАРИ «ЮМШОҚ КУЧ» СИФАТИДА

Муртозоева Муножат Искандар қизи,
Тошкент давлат шарқшунослик университети магистиранти
murtozoyevam@gmail.com

Аннотация. *Мақолада Буюк Британия таълим грантлари ва стипендиялари орқали амалга оширилаётган "юмшоқ куч" сиёсати ва унинг талабаларга таъсирини таҳлил қилади. "Chevening" ва "Commonwealth" каби дастурлар академик ва молиявий ёрдамдан ташқари, маданий интеграция, глобал тажриба ва стратегик фикрлашни ривожлантиришга хизмат қилади. Трансмиллий таълим (TNE) орқали талабалар Британия дипломини олиш ва илмий ҳамкорликни ривожлантириш имкониятига эга бўладилар. Бу дастурлар Британиянинг халқаро имижини мустаҳкамлаб, Ўзбекистон билан стратегик ва академик ҳамкорликни ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди.*

Калит сўзлар: *Таълим грантлари, "Chevening", "Commonwealth", юмшоқ куч (Soft power), Трансмиллий таълим (TNE), маданий интеграция, ҳалқаро имиж, стратегик таъсир.*

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ГРАНТОВ ВЕЛИКОБРИТАНИИ КАК ИНСТРУМЕНТА МЯГКОЙ СИЛЫ

Аннотация. *В статье анализируется политика «мягкой силы», реализуемая через образовательные гранты и стипендии Великобритании, а также её влияние на студентов. Программы, такие как Chevening и Commonwealth, помимо академической и финансовой поддержки, способствуют культурной интеграции, получению глобального опыта и развитию стратегического мышления. Через транснациональное образование (TNE) студенты получают возможность получить британский диплом и развивать научное сотрудничество. Эти программы укрепляют международный имидж Великобритании и играют важную роль в развитии стратегического и академического сотрудничества с Узбекистаном.*

Ключевые слова: *образовательные гранты, Chevening, Commonwealth, мягкая сила (Soft power), транснациональное образование (TNE), культурная интеграция, международный имидж, стратегическое влияние.*

EDUCATIONAL SCHOLARSHIPS OF THE UNITED KINGDOM AS SOFT POWER

Abstract. *The article analyzes the "soft power" policy implemented through the United Kingdom's educational grants and scholarships, and its impact on students. Programs such as Chevening and Commonwealth, beyond academic and financial support, promote cultural integration, global experience, and the development of strategic thinking. Through Transnational Education (TNE), students have the opportunity to obtain a UK diploma and enhance scientific collaboration. These programs strengthen the international image of the UK and play a crucial role in developing strategic and academic cooperation with Uzbekistan.*

Keywords: *educational grants, Chevening, Commonwealth, soft power, Transnational Education (TNE), cultural integration, international image, strategic influence.*

Кириш. XXI аср глобаллашуви шароитида давлатлар ўзаро рақобатда фақат иқтисодий ёки ҳарбий воситалар билан эмас, балки маданий, илмий ва таълим соҳалардаги имкониятлар орқали ҳам устунликка эришмоқда. Жозеф Най томонидан илмий муомалага киритилган "юмшоқ куч" (soft power) тушунчаси давлатнинг маданий, таълим, дипломатик ва бошқа жозибали ресурсларини ишлатиш орқали бошқа давлатлар ва жамиятларга таъсир кўрсатиш қобилиятини англатади [1, 21]. Бугунги кунда таълим соҳасидаги ҳамкорлик, грантлар ва стипендиялар, тил ва маданиятни оммалаштириш каби воситалар "юмшоқ куч"нинг энг самарали йўналишлари сифатида эътироф этилмоқда.

Буюк Британия узоқ асрлар давомида таълим соҳасидаги етакчилигини сақлаб келаётган давлат сифатида ўзининг "юмшоқ кучи"ни ҳам айнан шу ресурс орқали ривожлантирмоқда. Ушбу мамлакатдаги Оксфорд ва Кембридж каби дунёга машҳур университетлар, бой илмий-инновацион муҳит ва халқаро талабалар учун яратилган қулай имкониятлар Британиянинг халқаро имижини мустаҳкамлаб, уни глобал билимлар маркази сифатида кўрсатади. Шу боисдан ҳам Британия ҳукумати ва жамоат ташкилотлари таълим грантлари орқали ўз нуфузини кенгайтиришни стратегик вазифа сифатида қўяди.

Таълим грантлари ва стипендиялар – Британиянинг ташқи сиёсат ва халқаро алоқаларида "юмшоқ куч"ни амалга оширишнинг муҳим инструментларидан биридир. Чивнинг (Chevening)

стипендия дастури, Буюк Британия Мудофаа вазирлиги ва Ташқи ишлар вазирлиги ҳамда Британия Кенгаши (British Council) орқали амалга ошириладиган турли дастурлар нафақат юксак малакали кадрлар тайёрлашга, балки Британиянинг дунё бўйлаб дўстона ва ишончли ҳамкор сифатида танилишига хизмат қилади.

Шу билан бирга, таълим орқали амалга ошириладиган “юмшоқ куч” Буюк Британиянинг ташқи сиёсий концепциясида муҳим ўрин тутади. “Глобал Британия” (Global Britain) тушунчаси доирасида таълим соҳасидаги етакчилик мамлакатнинг халқаро нуфузини оширишда стратегик ресурс сифатида қаралади. Британия университетларининг дунё рейтингларидаги юқори ўринлари, халқаро талабаларнинг кенг оқими ва таълим сифатининг юқорилиги Британиянинг глобал имижини шакллантиришда ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Шунингдек, таълим грантлари нафақат Британияга хорижий талабаларни жалб қилишга, балки улар орқали Британия билан узоқ муддатли ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий алоқаларни ривожлантиришга хизмат қилади. Грантлар орқали ўқиб қайтган битирувчилар ўз юртларида Британиянинг маданий-илмий қадриятларини оммалаштиради, ишончли шерик сифатида танилади ва келажакда Британия билан янги қўшма ташаббуслар ва лойиҳаларни амалга оширишда кўприк вазифасини бажаради.

Усуллар. ушбу мақола қиёсий тизимли таҳлил статистик таҳлил назарий метадологик таҳлил ва тизимлаштириш каби усуллардан фойдаланилган**.**

Мақсад ва вазифалар. Буюк Британиянинг таълим соҳасидаги тажрибаси ва “юмшоқ куч” сиёсати. Жозеф Най томонидан ишлаб чиқилган “юмшоқ куч” концепциясида таълим ресурслари ва университетлар алоҳида ўрин тутади. Айниқса Буюк Британия мисолида таълим тизими нафақат ички ижтимоий-иқтисодий ривожланиш воситаси, балки халқаро майдонда таъсир кўрсатиш, мамлакат имиджини мустаҳкамлаш ва миллий қадриятларни тарқатишнинг самарали йўли сифатида ҳам намоён бўлади.

Оксфорд (1096 й.) ва Кембридж (1209 й.) каби университетлар Буюк Британиянинг илмий ва интеллектуал мероси сифатида жаҳонда катта обрўга эга. Бу университетлар илмий марказ бўлиш билан бирга, сиёсий ва иқтисодий элита, шунингдек халқаро ташкилотлар учун кадрлар тайёрлаш манбаи бўлиб хизмат қилади. “Times Higher Education” жаҳон рейтингида (2015–2016 й.) Оксфорд 2-ўринни, Кембридж 4-ўринни эгаллаган бўлиб, умумий ҳисобда биринчи юзликда 16 та британ университети мавжуд. Бу кўрсаткичлар Британиянинг таълим соҳасидаги рақобатбардошлигини намоён этади [2, 57].

ЮНЕСКО маълумотларига кўра, 2013 йилда дунё бўйича 4,1 миллиондан зиёд талабалар хорижда таҳсил олган, бу 2000 йилдаги кўрсаткичга нисбатан икки баробар кўпдир. Буюк Британия ушбу бозорда АҚШдан кейинги иккинчи ўринни эгаллаб, халқаро олий таълим бозорининг тахминан 10 фоизини ўз ҳиссасига эгаллайди. Хорижий талабалар учун махсус дастурлар, визаларни енгиллаштириш, халқаро талабалар шаҳарлари рўйхатини тузиш орқали мамлакат ўзини янада жозибали қилади [3,128].

Буюк Британияда таълим орқали “юмшоқ куч”ни ривожлантиришда давлат ташкилотлари билан бир қаторда нодавлат тузилмалар ҳам муҳим рол ўйнайди. Масалан, “British Council” (1934 йилдан) мамлакатнинг маданий дипломатия маркази бўлиб келмоқда. Унинг “Education UK” бренди орқали Британия университетлари ва коллежлари ҳақидаги маълумотлар бутун дунё бўйлаб етказилади, ўқувчи ва талабалар учун кўргазмалар, форумлар ва онлайн платформалар ташкил этилади. Бу - Британиянинг ташқи аудиториялар билан мулоқотини янада кучайтирувчи восита ҳисобланади.

Таълим Британия учун нафақат катта даромад манбаи (хорижий талабалар йил давомида ўқиш ва яшаш харажатлари орқали миллиардлаб фунт стерлинг кирим келтиради), балки мамлакатга узоқ муддатли стратегик устунликлар берувчи воситадир. Хорижда ўқиган талабалар ўз ватанига қайтгач, Британия маданияти ва қадриятларини тарқатишда норасмий элчиларга айланади. Шу тариқа давлат ўз таъсирини куч ишлатмасдан, табиий йўл билан кенгайтиради.

XX асрнинг охиридан бошлаб Буюк Британия ўзининг халқаро нуфузини таълим орқали мустаҳкамлаш сиёсатида янги босқичга ўтди. Бу жараённинг энг ёрқин кўринишларидан бири – “Chevening” ва “Commonwealth” каби стипендия дастурларининг ривожланиши ва таъсири ҳисобланади. 1983 йилда ташкил этилган “Chevening Scholarships” дастури Буюк Британия Ташқи ишлар вазирлиги томонидан молиялаштирилади ва унда дунё бўйлаб 160 дан ортиқ давлатдан келган ёш етакчилар иштирок этадилар. Дастур магистратура ва қисқа муддатли курсларни ўз ичига олиб, талабаларга билим олиш билан бирга, Британия қадриятлари ва маданияти билан яқиндан танишиш имкониятини ҳам беради [4,7].

Шу билан бирга, “Commonwealth Scholarships” дастури Буюк Британиянинг тарихий мероси билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатларидан келган талабаларга магистратура, докторантура ва илмий изланишлар олиб бориш имконини яратади. Ушбу дастур Британиянинг Ҳамдўстлик мамлакатлари билан алоқаларини мустаҳкамлаш, билим ва илмий тажриба алмашувини кенгайтириш орқали унинг «юмшоқ куч»ини янада кучайтиради [5, 4].

Буюк Британияда “British Council” ва “Study UK” ташаббуслари орқали ҳам халқаро талабаларга ахборот ва молиявий кўмак кўрсатилади. “Study UK: Discover You” кампанияси орқали Британияда ўқишнинг афзалликлари тарғиб қилинади, грантлар ҳақида маълумот берилади, турли олийгоҳлар билан ҳамкорлик дастурлари йўлга қўйилади [6, 11]. Бу каби кампаниялар талабаларни фақат молиявий жиҳатдан эмас, балки маънавий-илмий жиҳатдан ҳам қўллаб-қувватлайди.

Шу тариқа, “Chevening” ва “Commonwealth” каби дастурлар Буюк Британиянинг “юмшоқ куч” сиёсатининг марказий устунига айланган. Чунки улар орқали ўқиган ва тажриба орттирган мутахассислар ўз мамлакатларига қайтгач, Буюк Британия маданияти, ҳуқуқий анъаналари ва демократик қадриятларини яхши билган, халқаро фикрлайдиган кадрларга айланадилар. Бу эса Буюк Британиянинг дунёдаги нуфузини ва дипломатик имкониятларини кучайтиради.

Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти (OECD) маълумотларига кўра, 2019 йилда Британияда ўқиган хорижий талабалар иқтисодиётга 20 миллиард фунтдан ортиқ даромад келтирган. Бу нафақат университетларга молиявий манба, балки мамлакатнинг халқаро имижини мустаҳкамлашга хизмат қилади [7, 109]. Демак, таълим грантлари бир вақтнинг ўзида ҳам илмий ҳам маданий ҳам иқтисодий самара келтирувчи восита сифатида Британия ташқи сиёсатининг ажралмас қисмига айланган.

Натижалар ва мулоҳазалар. Британиянинг “юмшоқ куч” позицияси. Буюк Британия таълим грантлари орқали ўзининг “юмшоқ куч” салоҳиятини амалга ошириб келмоқда. Бу грантлар фақат молиявий ёрдам бўлиб қолмасдан, дипломатик, маданий ва академик тармоқларни кенгайтиришга хизмат қилади ҳамда мамлакатнинг халқаро имижини мустаҳкамлашга қаратилган муҳим восита ҳисобланади.

“Chevening”, “Commonwealth” каби дастурлар қабул қилинган талабаларга Британиянинг таълим сифати, маданий муҳити, илмий ва касбий анъаналари ҳамда халқаро ҳамкорлик нуқтайи назарини яқиндан ўрганиш имконини беради. Улар Британия давлатининг либерал демократик қадриятлари, адолат, академик эркинлик ва инновациялар тамойиллари билан танишиб, келажакда ўз юртларида ушбу тажрибани тарқатувчиларга айланади.

“British Council” тайёрлаган таҳлиллар таълим ва маданий алмашув Британиянинг халқаро имижини шакллантиришда катта аҳамиятга эга эканини кўрсатади. Мамлакатлар ўртасидаги университетлар билан яқин алоқаларни йўлга қўйиш Британиянинг “ишончли ҳамкор давлат” сифатида танилишига ёрдам беради[8, б.4].

“Soft power today: Measuring the effects” таҳлилида миллатларнинг маданий институтлари, таълим тизими ва глобал тарғиботининг иқтисодий таъсирига оид рақамлар келтирилади. Маданий институтлар фаолияти доираси 1 фоизга кенгайса ҳам тўғридан-тўғри инвестициялар, хорижий талабалар оқими ва туризм сезиларли даражада ўсиши қайд этилган [9, 23].

Британия ушбу имкониятлардан унумли фойдаланиш учун стратегик йўналишлар белгилаб, 2025 йилда “Soft Power Council”ни ташкил этди. Бу орган дипломатия, маданият, таълим ва жамоат ташкилотларини бирлаштириб, “юмшоқ куч” ресурсларини ривожлантиришда ягона механизм сифатида хизмат қилади [10, 55].

Бироқ стратегиянинг заиф томонлари ҳам бор. Бир қатор таҳлилларга кўра, охирги йилларда Буюк Британияда “юмшоқ куч” учун сарфланадиган маблағлар қисқариб бормоқда. Масалан “British Council” грант ва давлат қўллаб-қувватлаш маблағи 2023–2024 йилларда 12 миллион фунт стерлингга камайган [11, 12] .

Британия академияси тайёрлаган “Soft power: a strategy for UK success?” матнида университетлар, BBC, “British Council” каби институтларни узоқ муддатли ҳимоя қилиш ва самарали молиялаштириб бориш зарурлиги алоҳида таъкидланади.

“Sources of soft power” ҳисоботи эса Британия ва бир қатор етакчи мамлакатлар ўртасида 20 та “юмшоқ куч” сифатлари бўйича солиштирувни келтиради. Ушбу кўрсаткичлар орасида “дунё даражасида етакчи университетларга эга”, “адолатли суд тизими” ва “жаҳон учун яхшилик кучи” каби сифатлар мавжуд бўлиб, таҳлилда Британия етакчи деб баҳолангани, аммо Хитой, Германия ва бошқа рақобатчи давлатлар томонидан ушбу мавқени сусайтириш хавфи мавжудлиги қайд этилган [12, 9].

Шу тариқ, таълим грантлари Британиянинг халқаро сиёсати, дипломатия ва маданият стратегияси билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, улар умумий “юмшоқ куч” архитектурасининг муҳим қисмини ташкил этади ҳамда маънавий, академик ва стратегик восита сифатида хизмат қилади.

“Юмшоқ куч” стратегиясидаги иқтисодий ва амалий масалалар сифатида қуйидагиларни кўришимиз мумкин; Буюк Британия учун халқаро талабаларни жалб қилиш ва таълимни экспорт қилиш нафақат иқтисодий манба бўлиб ҳам хизмат қилади. 2022 йилда хорижий талабалардан келган даромадлар ва уларнинг яшаш харажатлари бўйича ўтказилган ҳисоб-китобларга кўра, умумий ҳисобда 12 млрд. фунт стерлингдан ортиқ маблағ ҳисобланган [13, 6]. Бу маблағлар университетлар, шаҳарлар, хизмат кўрсатиш соҳалари ва маҳаллий иқтисодиётга катта ҳисса қўшади.

Британия олийгоҳларининг битирувчилари ўқиш давридан, университет алоқаларидан, ҳамкасб тармоқларидан фойдаланиб, Британия билан узоқ муддатли алоқаларни сақлайдилар. Улар ўз юртларида илмий ҳамкорлик, академик алмашув, бизнес лойиҳалар ва маданий алоқаларни ривожлантиришда фаол иштирок этади. Шундай қилиб, Буюк Британия ўз “юмшоқ куч”ини шахсий ва профессионал даражада кенг қилади.

Бироқ бундай стратегия доим таваккалчилик ва машаққатларни талаб қилади. Биринчидан, молиявий юк – давлат грантлари ва “British Council” маблағлари қисқариши мумкин. Мисол учун, 2023–2024 йилларда “British Council” грант ва давлатдан қўллаб-қувватлаш маблағи 12 млн. фунт стерлингга камайганлиги рўйхатга олинган. Бу университетлар ва алоқалар соҳасидаги барқарорликка салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Иккинчидан, жаҳон таълим бозорида рақобат қатъийлашмоқда. Хитой, Германия, Канада, Австралия каби давлатлар ўз грант ва стипендия дастурларини кенгайтирмоқда, мисол учун “Chevening” каби дастурларга тенглашувчи вариантларни таклиф қилмоқда. “Brexit”, иммиграция сиёсати ўзгаришлари ва визаларнинг қийинлиги Британияни танловда рақобатбардошлигини сусайтириш эҳтимолига эга [14, 2].

Учинчи муҳим муаммо – таълим сифати ва талабалар тажрибасини сақлаш. Хорижий талабалар Буюк Британиядан юқори стандартларда таълим, студентик хизматлар, турмуш шароитлари ва академик ёрдам кутадилар. Агар бу талаблар бажарилмаса, Британиянинг имижига салбий таъсир қилиши мумкин.

Келажакда Британия “юмшоқ куч” сиёсатини мустаҳкамлаш учун бир қатор стратегик йўлларни қўллаши мумкин: рақамли таълим платформалари, онлайн курслар ва гибрид форматларни кенг оммалаштириш; трансмиллий таълим йўлларини кучайтириш, яъни британ даражасини хориждаги университетларда ҳам олиниши; халқаро ҳамкорлик тармоқларини кенгайтириш ва талабаларга қайтганда ҳам қўллаб-қувватлаш механизмларини жорий қилиш [15, 90]. Бундан ташқари, институтлар, университетлар, “British Council” ва давлат органлари – молиявий барқарорликни таъминлашлари, ресурсларни оптимал тақсимлашлари ва ташкилий механизмларни замонавийлаштиришлари зарур. Улар “юмшоқ куч” элементларини ташқи сиёсатга интеграция қилган ҳолда, глобал дастурлар ва медиаканалларда Британияни жаҳондаги таълим маркази сифатида илгари суриши керак.

“Chevening” ёки “Commonwealth” дастурлари орқали ўқиб келган талабалар Британия билан катта илмий, ижтимоий ва сиёсий алоқалар ўрната оладилар. Уларнинг бир қисми ўз юртларида етакчи позицияларга келади, Британия маданияти ва илмий стандартларини тарғиб қилувчилар ҳисобланишади.

“Chevening”нинг йиллик “Impact Report”ларида дастур битирувчилари томонидан амалга оширилган ижтимоий ва экологик лойиҳалар, институтлар, давлат сиёсатидаги иштирок каби таъсирлар мисол қилиб келтирилган. Бу грантлар нафақат академик билим бериш, балки халқаро алоқа, тармоқларни кенгайтириш ва Британиянинг нуфузини кўзда тутувчи дипломатик йўналиш сифатида ҳам фаол ишлайди. Халқаро талабалар Буюк Британия университетларида таҳсил олиш орқали маданиятлараро мулоқот имконини қўлга киритишади. Уларнинг Британия иқтисодиёти, жамияти ва сиёсий муҳити билан яқиндан танишиши “жозибалилик” каби элементларни шакллантиради, ва бу Британияга ташқи сиёсатни амалга оширишда маънавий ва сиёсий таъсир имконини беради [16, 11].

Британиянинг халқаро имижини баҳолашда, “British Council” тадқиқотларига кўра, таълим ва маданий алмашув муҳим омиллардан биридир. Ёшлар ва мустақил фикрли аудиторияни Британиянинг жозибалилигига жалб қилиш стратегик мақсадга қаратилган. Ушбу жозибалилик ҳар қандай сиёсий низо ёки муддати билан боғлиқ муаммоларни енгишда мамлакатга “имидж муҳофаза” функциясини беради.

Баъзи таҳлиллар таълим орқали “юмшоқ куч” таъсири сиёсатда энг катта самара берадиганлардан бири бўлишини тан олади, аммо бу таъсир доимий эмас. Хорижий талабалар тажрибаси, стипендияларнинг устуворлиги, визалар сиёсатлари ва университет инфратузилмалари каби факторлар бу механизмнинг ишлаш даражасига таъсир қилади.

Ҳозирги шароитда Британия “юмшоқ куч”нинг камчиликларини ҳам қабул қилиши керак: молиявий ресурслар режалаштирилиши, грантлар самарадорлиги, студентлар қайтиб унинг таъсирини давом эттиришни қўллаб-қувватлаш тизимлари яратиш зарур. Буюк Британия учун таълим грантлари – бу нафақат глобал билимлар таркиби, балки ташқи сиёсат воситаси бўлиб қолмоқда.

Британия таълим грантлари орқали яратиладиган келажак имкониятлар**;** Буюк Британия таълим грантлари орқали халқаро ҳамкорликнинг янги босқичини йўлга қўймоқда. Бу жараён нафақат талабалар учун шахсий ривожланиш имкониятини яратади, балки давлатлар ўртасидаги стратегик муносабатларни янада мустаҳкамлашга хизмат қилади. Грантлар орқали хорижий талабалар Британиядаги билим муҳити, илмий тадқиқотлар ва инновациялар билан танишиб, кейинчалик ўз мамлакатларида ҳам шундай йўналишларни йўлга қўйиш имконига эга бўладилар. Шу тариқа, таълим грантлари Британиянинг глобал майдондаги ижобий имижини мустаҳкамлайди.

Глобал рақобат ортиб бораётган бир пайтда, “Chevening” ва “Commonwealth” каби дастурлардан ташқари янги дастурлар ишлаб чиқиш, илмий ҳамкорликнинг янги йўналишларини йўлга қўйиш Британиянинг “юмшоқ куч” нуфузини янада мустаҳкамлайди. Бу орқали мамлакат билим ва инновация маркази сифатидаги мавқеини кучайтириб, келажакда ҳам халқаро майдонда етакчи ўринда бўлишга интилмоқда. Масалан, ҳукумат томонидан ишлаб чиқилган 2030-йилгача бўлган стратегияда халқаро талабалар сонини янада ошириш ва грантлар турини кўпайтириш вазифаси белгиланган.

Таҳлилчилар фикрига кўра, таълим ва маданий алмашинув соҳасига инвестициялар узоқ муддатли дипломатик таъсирга эга. “British Council”нинг “Global Britain” ҳисоботида таълим орқали шаклланган ижобий таассуротлар кейинчалик савдо, инвестиция ва сиёсий шерикликка йўл очиши қайд этилган. Бу эса талабаларнинг ўқишдан ташқари Британия жамияти, ҳуқуқий тизими, инновациялари ва маданий муҳити билан яқиндан танишиши орқали амалга ошади. Бундай битирувчилар келажакда ўз мамлакатларида етакчи лавозимларга келиб, Британияга нисбатан ижобий муносабатни тарғиб қиладилар. Шу тариқа, Британия таълим грантлари келажакда ҳам стратегик аҳамиятга эга восита бўлиб қолиши кутилмоқда. Бу жараён давлатлар ўртасида ўзаро ишонч, шериклик ва биргаликда ривожланишга йўналтирилган замонавий дипломатиянинг муҳим элементи сифатида хизмат қилади.

Шунингдек, Буюк Британиянинг трансмиллий таълим (Transnational Education, TNE) стратегияси мамлакатнинг халқаро “юмшоқ куч”ини янада мустаҳкамлайди. TNE – бу Британиядаги таълим стандартлари ва даражаларини сақлаб, ўқишни хорижда ташкил этишни назарда тутади. Шу йўл орқали хорижий талабалар Британия дипломига эга бўлиб, ўз ватанида таълим ва илмий салоҳиятини ривожлантириш имконига эга бўладилар.

Британия университетлари TNE доирасида филиаллар очади, онлайн курслар ва сертификат дастурлари таклиф қилади, ҳамкорлик дастурлари орқали маҳаллий университетлар билан ҳамкорлик қилади. Бу талабаларга нафақат академик билим, балки Британия таълими ва маданиятини тўғридан-тўғри қабул қилиш имконини беради. Масалан, Британиянинг катта университетлари Малайзия, Сингапур, БАА ва Қатарда филиалларга эга бўлиб, маҳаллий талабаларга тўлиқ Британия таълими ва дипломини тақдим этади. Шунингдек, “University of London International Programmes” каби онлайн платформалар орқали талабалар ўз юртида ўтирган ҳолда ҳам Британия дипломини олишлари мумкин [17, 7].

TNE нафақат талабаларга билим олиш имконини беради, балки Британия университетларининг халқаро тармоқларини кенгайтиради. Шу орқали Британия халқаро ҳамкорликда етакчи роль ўйнайди, илмий изланишлар ва академик стандартлар глобал миқёсда тарқатилади. Масалан, TNE дастурлари орқали ташкил этилган филиаллар маҳаллий таълим тизимларини Британия стандартлари билан интеграция қилишга хизмат қилади.

Бундан ташқари, TNE орқали ривожланаётган академик алоқалар келажакда иқтисодий ва дипломатик ҳамкорлик учун замин яратади. Битирувчилар ўз мамлакатларида етакчи вазифаларга келишганда, Британиянинг таълим тизимида олган билим ва тажрибасини қўллаб, икки мамлакат ўртасидаги ишонч ва стратегик шерикликни кучайтиради. Бу жараён Британиянинг глобал нуфузини ва халқаро сиёсий таъсирини узоқ муддатли равишда мустаҳкамлайди.

Шу билан бирга, TNE дастурларининг кенгайиши ва ривожланиши Британия учун иқтисодий аҳамиятга ҳам эга. Хорижий талабалар ва филиаллар орқали олинган тўловлар, лицензия ва

ҳамкорлик шартномалари Британия университетларининг молиявий барқарорлигини таъминлайди, бу эса уларнинг халқаро майдонда рақобатбардошлигини оширади [18, 43].

Хулоса. Буюк Британиянинг таълим тизими ва турли грант дастурлари, шу жумладан “Chevening”, “Commonwealth” ва бошқа стипендиялар, мамлакатнинг халқаро майдондаги “юмшоқ куч”ини мустаҳкамлашда муҳим омил ҳисобланади. Бу дастурлар нафақат молиявий ёрдам тақдим этади, балки талабаларни академик, маданий ва стратегик жиҳатдан ривожлантириш орқали Британиянинг либерал демократик қадриятлари, илмий стандартлари ва инновация муҳитини кенг тарқатишга хизмат қилади. Ўзбекистон талабалари учун ҳам бу дастурлар замонавий билим олиш, халқаро тажриба ва глобал тармоқлар билан алоқаларни кенгайтириш имконини яратади. Британияда таълим олиш жараёнида талабалар нафақат академик билим, балки маданий интеграция, коммуникация кўникмалари ва стратегик фикрлашни ҳам ривожлантирадилар. Бу эса уларнинг келажакдаги касбий фаолиятида, илмий ва иқтисодий лойиҳаларни амалга оширишда муҳим аҳамият касб этади.

Трансмиллий таълим (TNE) дастурлари Ўзбекистон талабаларига Британия дипломини олиш имконини ҳам беради, бу эса молиявий ва логистик тўсиқларни камайтиради ва замонавий таълим стандартларини Ўзбекистонда жорий қилишга хизмат қилади. Шу билан бирга, талабаларнинг Британияда олинган билимлари Ўзбекистонда инновацион ва илмий ривожланишга ҳисса қўшади. Улар ўз ватанида юқори малакали мутахассислар сифатида фаолият олиб бориб, халқаро стандартларга мос лойиҳаларни амалга ошириш имкониятига эга бўладилар. Бу эса нафақат Ўзбекистоннинг иқтисодий ва илмий салоҳиятини оширади, балки Британиянинг халқаро имижини ҳам мустаҳкамлайди.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Буюк Британия таълим дастурлари ва грантлари Ўзбекистон талабалари учун кенг имкониятлар яратади ва бу ўзаро манфаатли тажрибалар орқали ҳам Британиянинг “юмшоқ куч” таъсири, ҳам Ўзбекистоннинг кадр салоҳиятини ривожлантириш таъминланади. Таълим ва халқаро алоқалар орқали яратилган бу интеграция стратегик аҳамиятга эга бўлиб, икки томон учун ҳам иқтисодий, маданий ва дипломатик фойда келтиради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Nye, J. S. (2004). “Soft Power: The Means to Success in World Politics”. PublicAffairs. Retrieved from [https://education.cfr.org/learn/reading/what-soft-power]

2. Times Higher Education. (2016). World University Rankings 2015–2016. Retrieved from: [https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/2016]

3. UNESCO Institute for Statistics. (2014). Global Flow of Tertiary-Level Students. Retrieved from: [http://uis.unesco.org/en/topic/international-student-mobility]

4. Foreign, Commonwealth & Development Office. (2024).Chevening Scholarships. Retrieved from: [https://www.chevening.org]

5. Commonwealth Scholarship Commission. (2024). Commonwealth Scholarships. Retrieved from: [https://cscuk.fcdo.gov.uk]

6. British Council. (2024). Study UK: Discover You. Retrieved from: [https://study-uk.britishcouncil.org]

7. OECD. (2020). Education at a Glance 2020. Retrieved from: https://www.oecd.org/education/education-at-a-glance

8. British Council. Global Britain: the UK's soft power advantage. [https://www.britishcouncil.org/research-insight/global-britain-uk-soft-power-advantage]

9. GOV.UK. (2025). Foreign Secretary launches UK Soft Power Council. [https://www.gov.uk/government/news/foreign-secretary-launches-uk-soft-power-council]

10.Study UK (British Council). (2025). Transnational Education Strategy. [https://study-uk.britishcouncil.org/scholarships-funding/great-scholarships]

11. “From soft power to hard action” — Chevening network blog. [blogs.fcdo.gov.uk]

12.Soft power today: Measuring the effects — British Council. [britishcouncil.org]

13.Soft power as a policy rationale for international education in the UK [researchgate.net]

14.https://www.gov.uk/government/news/foreign-secretary-launches-uk-soft-power-council

15.https://www.britishcouncil.org/research-insight/soft-power-today-measuring-effects

16.https://heglobal.international.ac.uk/about/what-is-tne.aspx "What is TNE? HEGlobal"

2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz

doi® digital object identifier

Google scholar

ROAD DIRECTORY OF OPEN ACCESS SCHOLARLY RESOURCES

ADVANCED SCIENCES INDEX

"SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY"

The journal was composed in the Editorial and Publishing Department of Bukhara State University.

Editorial address:
Bukhara, 200117
Bukhara State University, main building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing Department.
https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted 29.10.2025 y. Paper format 60x84,1/8. Printed in express printing method. Conditional printing plate – 35,30. Circulation 70. Order № 30. Price is negotiable.

Published in the printing house "BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara, Hofiz tanish Bukhari street, 190 B-house